


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

6/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

6/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2025, № 6, iyun

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Narzulloyeva N.S.	Yusuf Xos Hojib asarida ramziy soʻzlar talqini: “qon” va “suyak” misolida	3
Norova M.F., Xusenova D.V.	Reflections of ugliness: a cross-cultural study of english and uzbek proverbs	8
Khudoyorova N.B.	Enlightenment ideas in Oliver Goldsmith’s “The traveller” and their comparative analysis in uzbek enlightenment literature	12
Toʻrayeva B.B., Imomova M.H.	Oʻzbek adabiyotida ota obrazining genezisi va tadrijiy evolyutsiyasi	16
Fuzaylova N.A.	Oʻtkir Hoshimov asarlarida ichki kechinmalarning ifodalanish usullari (“Ikki eshik orasi” asari misolida)	23
Mamarasulov U.Gʻ.	Jonlantirish, takror va taqlid soʻzlarning bilvosita tarjimada berilishi (“Der Weg zurück” (E.M.Remark) romanining kirish qismi misolida)	28
Nuritdinova Sh.S.	Bolalar sheʼriyatida ramziy obraz va talqin	33
Носирова Д.Р.	Прагматическая эквивалентность в литературном переводе: теории, методологии, вызовы	39
Файзиева М.С.	Герой как зеркало общества в рассказах Дэвида Лоджа	45
Gʻaniyeva N.Gʻ.	Abdurauf Fitrat asarlarida qarshilikning namoyon boʻlishi	49
Sobirova G.A.	Nazariya va amaliyotda tarjima usullari: qiyosiy sharh	54
Sharipova N.Sh.	M.E. Saltikov-Shedrinning “Bir shahar tarixi” romanida satiraning oʻrni	58
Raximova S.T.	XVIII -XIX asrning birinchi yarmida ingliz adabiyotida ayol nasrining rivojlanish tendensiyalari	62
Qurbonova Sh.Sh.	Urushdan keyingi davrda ayollar va bolalar obrazining badiiy talqini	66
Ziyodulloyeva A.A.	“The black bull of norroway” and the layers of darkness: unpacking the dual symbolism of black in scottish folklore	70
Amonova D.A.	Tragik obraz tushunchasi – Aristotel talqini	74
Norqoʻchqorov Sh.Sh.	Sayid Muzaffaralining “Shajarat-ul-aruz”idagi qofiya harflarining xususiyatlari	78
JURNALISTIKA *** JOURNALISM*** ЖУРНАЛИСТИКА		
Mamatqulov X.B.	Sport jurnalistikasi – sport olamining koʻzgusi	82
Boboxonova F.M.	Bolalarga bagʻishlangan media kontentlar tahlili	87
Nuʼmonova N.A.	Media bilan ishlash: diniy tahdidlarning xususiyatlari	91
NAVOIY GULSHANI		
Masutova Sh.O.	Alisher Navoyning forsiy qitʼalari tahlili	95

TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Nurmuxammedov M.X.	Bahouddin Naqshbandiy ma'naviy merosi va me'moriy ansambli	98
Кличев О.А.	Бухоро амирлиги маърифий ҳаётига россия империяси таълим тизимининг кириб келишга доир ёзишмалар	103
Очилдиев Ф.Б.	XIX асрнинг охири – XX аср бошларида Бухоро амирлигида божхоналар фаолияти	114
Бобожонова Ф.Х.	Бухорода 1925-1940 йилларда халқ таълими масалаларига доир амалга оширилган ишлар	120
Бобожонов Ш.У.	“Казан тулди” – вечный обряд Навруза	125
Utayeva F.X.	Buxoro zardo'zlik fabrikasi tarixi	132
Samadov G'.Z.	XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston o'lkasida kasalxonalar va sog'liqni saqlash ishlari holati	137
Naimov I.N.	Vatan himoyasi ajdodlarimizdan meros	141
Jo'rayev H.A.	Turkistonda milliy ta'lim – taraqqiyot o'zagi	146
Hayitov Sh.A., Ismailov G'.H.	Turkiyaning Istanbul shahridagi “o'zbeklar tekkesi” (buxoroliklar tekkesi): tarixi va hozirgi holati	150
Ibrohimov N.I.	XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida buxoro amirligi va Hindistonni bog'lovchi savdo yo'llari	154
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Ravshanov S.G'.	Turkiya mafkuraviy siyosatini rivojlanishida nodavlat notijorat tashkilotlari	159
Nurmetova F.I.	O'zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya munosabatlarining tarixiy tadriji borasida	163
Nuridinov D.A.	Turkiya - O'zbekiston munosabatlarida diniy-madaniy omilning o'rni va ahamiyati	168
Isanova G.T.	Ijtimoiy va siyosiy reklama davlatning axborot strategiyasini amalga oshirish vositasi sifatida	175
Bo'ronov S.M.	Ko'rfaz arab davlatlarining “tolibon” bilan bog'liq manfaatlari	180
Umarova G.B.	Ijtimoiy davlat: O'zbekiston va xorijiy tajriba	186
Jumayev Y.G'.	Ma'muriy boshqaruvda zamonaviy tartib-taomillarning amalga oshirilishi	191

YUSUF XOS HOJIB ASARIDA RAMZIY SO'ZLAR TALQINI: "QON" VA "SUYAK" MISOLIDA

Narzulloeva Nilufar Sayfulloyevna,

Buxoro davlat universiteti,

o'zbek adabiyoti kafedrası 1-bosqich tayanch doktoranti

nilufarnarzulloeva1997@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada mashhur turkiy mutafakkir Yusuf Xos Hojib tomonidan XI asrda yaratilgan "Qutadg'u bilig" asarida uchraydigan "qon" va "suyak" so'zlarining ramziy, majoziy hamda kontekstual ma'nolari har tomonlama tahlil etiladi. Tadqiqot davomida bu ikki so'zning asarda turli vaziyatlarda ishlatilishi orqali qadimgi turkiy tafakkurda qanday ijtimoiy, axloqiy, siyosiy, tibbiy va madaniy tushunchalarni ifodalagani aniqlanadi. Jumladan, "qon" so'zi salomatlik holatini, g'azab hissini, sadoqatli xizmatni, adolatsizlik va dushmanlikni ramziy tarzda ifodalovchi vosita sifatida o'rganiladi. "Suyak" so'zi esa insoniylik, uyat hissi, mehmonga xos odob, qadriyatlar, shuningdek, fol ochish va bashorat qilish amaliyotlariga oid tasavvurlarni ifodalovchi belgisi ifoda sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ushbu asarda ishlatilgan til vositalarining ko'p qatlamli va murakkab ma'nolar tizimiga ega ekanligini ochib beradi, bu esa uni turkiy madaniyat, tarix va tilshunoslik nuqtayi nazaridan muhim o'ringa ega asar sifatida baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: ramz, "qon", "suyak", semantik tahlil, kontekstual ma'no, axloq, adolat, salomatlik, turkiy adabiyot, qadriyatlar, tarbiya, siyosiy tafakkur, hikmatli baytlar, tahliliy metod.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СИМВОЛИЧЕСКИХ СЛОВ В ТВОРЧЕСТВЕ ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА: НА ПРИМЕРЕ «КРОВИ» И «КОСТИ»

Аннотация. В данной научной статье всесторонне анализируются символические, образные и контекстуальные значения слов «кровь» и «кость» в произведении «Кутадгу билиг» известного турецкого мыслителя Юсуфа Хос Хаджиба XI века. В ходе исследования определяется, какие социальные, моральные, политические, медицинские и культурные концепции эти два слова выражают в древнетюркской мысли посредством их использования в различных ситуациях в произведении. В частности, слово «кровь» изучается как средство символического выражения состояния здоровья, чувства гнева, верной службы, несправедливости и враждебности. Слово «кость» рассматривается как символическое выражение, выражающее представления о человечности, чувстве стыда, этикете приема гостей, ценностях, а также практиках гадания и предсказания. Результаты исследования показывают, что языковые средства, использованные в данном произведении, имеют многослойную и сложную систему значений, что позволяет оценить его как произведение, имеющее большое значение с точки зрения тюркской культуры, истории и языкознания.

Ключевые слова: символ, «кровь», «кость», семантический анализ, контекстуальное значение, мораль, справедливость, здоровье, тюркская литература, ценности, образование, политическая мысль, мудрые стихи, аналитический метод.

INTERPRETATION OF SYMBOLICAL WORDS IN THE WORK OF YUSUF KHOS HAJIB: IN THE EXAMPLE OF "BLOOD" AND "BONE"

Abstract. This scientific article comprehensively analyzes the symbolic, figurative and contextual meanings of the words "blood" and "bone" in the work "Kutadgu Bilig" by the famous Turkish thinker Yusuf Hos Hadjib of the 11th century. The study determines what social, moral, political, medical and cultural concepts these two words express in ancient Turkic thought through their use in various situations in the work. In particular, the word "blood" is studied as a means of symbolically expressing the state of health, feelings of anger, faithful service, injustice and hostility. The word "bone" is considered as a symbolic expression expressing ideas about humanity, a sense of shame, the etiquette of receiving guests, values, as well as the practices of fortune-telling and prediction. The results of the study show that the linguistic means used in this work have a multi-layered and complex system of meanings, which allows us to assess it as a work of great importance from the point of view of Turkic culture, history and linguistics.

Key words: *symbol, “blood”, “bone”, semantic analysis, contextual meaning, morality, justice, health, Turkic literature, values, education, political thought, wise verses, analytical method.*

Kirish. Turkiy adabiyot tarixining durdonasi bo'lgan “Qutadg'u bilig” – Yusuf Xos Hojib tomonidan XI asrda yozilgan noyob qadimiy asardir. Ushbu asarda hayotning turli jabhalari qamrab olinib va o'ziga xos pand-nasihatlar ruhida yozilgan badiiy durdonadir. Aytish mumkinki, “Qutadg'u bilig” asari mohiyatan o'z davrining nizomnomasi vazifasini bajargan [4-105]. Asar davlat boshqaruvi, axloq, tibbiyot, mehnat, mehmondorchilik, odob-axloq, ma'naviy poklik kabi ko'plab sohalarga oid hikmatli pand-nasihatlariga boy asardir. “Qutadg'u bilig”ning tuzilishi o'ziga xos, takrorlanmas. Yusuf Xos Hojib har bir faslda bir masalani qo'yadi. Masala batafsil bayon qilinadi. Bayon tugagach, yakunlovchi bir bayt keltiriladi. Yakunlovchi baytdan so'ng Yusuf shoirning, ya'ni o'zining donishmandona bir to'rtligini keltiradi. Asarda keltirilgan hikmatlar va baytlarda adib Mochin mamlakati donishmandlarining ash'orlaridan ham foydalanadi [4-107]. Asarni o'rganish mobaynida asar qahramonlari nutqida keltirilgan ayrim so'zlar tadqiq etildi, xususan, “qon” va “suyak” so'zlari o'ziga xos ramziy ma'nolarda kelganligi aniqlandi. Asarda asosan 4 obraz Kuntug'di, Oyto'ldi, O'gdulmish va O'zgurmish obrazlari, bu so'zlarni ayrim o'rinlarda qo'llaydi va o'z fikriga chiroyli isbot qilib bera oladi. Asarning kirish qismidanoq ushbu so'zlarni uchratishimiz mumkin. Asarda “qon” va “suyak” so'zlari qay o'rinda va qay ma'noda kelishi va ushbu so'zlarning serqirra ma'noga va ramzga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot metodlari. Maqolada ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va xulosalashda analiz, sintez, muhokama usulidan foydalanildi. Nazariyotchilar fikrlarini qiyoslab, umumiy va obyektiv xulosaga kelish uchun qiyosiy tahlil metodiga ham murojaat qilindi. Maqolada qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanilgan bo'lib, hikmatli baytlar asosida semantik tahlillar olib boriladi, har bir atamaning turli kontekstdagi ma'nodoshliklari aniqlanadi.

Natijalar va muhokama. “Qutadg'u bilig” asarida muallif tabiat manzarasini ta'riflar ekan, bahor fasli, go'zallik, tog' va qushlarning sadolari orqali tabiatning uyg'onishini tasvirlaydi. Bu orqali insonning ichki uyg'onishi, tozalikka intilishi ramziy tarzda ifodalanadi. Kaklik qushi tasvirida uning tumshug'ini tasvirlashda uning og'zini shunchaki qizil deb aytmasdan “qizil og'zi qondek” so'zini qo'llaydi. Bu orqali qushni badiiy tasvirlab ketadi. Ushbu bayt orqali Yusuf Xos Hojibning badiiy o'xshatishga qanchalik usta ijodkor ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Qo'shiq aytdi go'zal kaklik tog' ora
Qizil og'zi qondek, qoshi qop-qora.
Quloqqa chalinar qora zog' sozi,
Go'yo nido solgan qizdek ovozi [2-14].

“Qutadg'u bilig” asari didaktik asar bo'lganligi bois “qon” va “suyak” so'zlari nasihat orasida keladi. Bunda asosan adolatsizlik va zulmga qarshi fikrlarni ifodalashda foydalaniladi. Oyto'ldi hukmdorga begunoh odamning qonini to'kmaslik adolatli hukmdorning xislatlaridan biri bo'lishi ekanligini aytadi. “Begunoh qonini to'kish” bu adolatsizlik va zulmni belgisidir. Bularni sanayman: haromga qo'shilma, zulm va zo'ravonlik qilma, kishi qonini to'kma, aslo o'ch, kek, gina saqlama. Fasoddan yiroq tur. Bularning barchasi boshliq ishiga rahna soladi [2-54].

Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” asarida nafaqat siyosat va axloq, balki insoniy munosabatlar, ruhiy yaqinlik va do'stlik g'oyalarini ham chuqur falsafiy mazmunda talqin etadi. Asarda qahramonlardan biri bo'lgan **O'gdulmish** davlat boshlig'i — **eligga** nasihat aytar ekan, **do'stlikni** nihoyatda yuksak qadriyatlardan biri sifatida ta'riflaydi. U haqiqiy do'stning o'rnini bejizga emas, **“yurak qoni”** va **“jigar”** timsollari bilan ifodalaydi. Bu ta'rifda juda chuqur ma'no yotadi:

Sodiq odam dilga yaqin bo'ladi. Sadoqatli xodim jigar-joningdek, jigardan ham yaqin, yurak qoningdek [2-84].

Bu yerda **do'stlikni** “yurak qoni”ga qiyos qilish o'ta chuqur falsafiy va biologik ma'no anglatadi. Chunki inson tanasi yurak bilan yashaydi – yurak urishdan to'xtasa, hayot ham to'xtaydi. Yurakdan oqayotgan qon esa hayotni davom ettiruvchi asosiy omildir. Shunday ekan, **do'stlikni yurak qoni deb ta'riflash**, do'stlik hayot uchun zarur bo'lgan, uni tirik tutadigan ruhiy quvvat ekanini bildiradi. Haqiqiy do'st, sodiq inson hayotning bir parchasiga, insonning ichki olamining ajralmas bo'lagiga aylanadi.

Yusuf Xos Hojib fikricha, do'stlik, ayniqsa, davlat boshqaruvida va ijtimoiy munosabatlarda beqiyos ahamiyatga ega. **Sadoqatli xodim** nafaqat vazifasini vijdonan bajaradi, balki hokimning ichki tinchligi, ishonchi, yurak qoni singari halovat manbaiga aylanadi. Muallif do'stlik va sadoqatni “jigar”ga qiyoslaydi — bu esa turkiy xalqlar tilida va madaniyatida eng yaqinlik, ich-ichdan sevimlilik timsolidir. “Jigar” degan so'z yaqin do'stga, sevikli kishiga nisbatan ishlatilgan eng samimiy, ruhiy-yaqin atamalardan biridir. Shunday qilib, O'gdulmishning bu nasihatida do'stlik nafaqat ijtimoiy zarurat, balki **hayotiy ehtiyoj, ruhiy tirgak, siyosiy**

barqarorlik va shaxsiy osoyishtalik omili sifatida ko'rsatilgan. Do'st, xodim yoki birodar — agar u sadoqatli bo'lsa, u yurak qoniga tenglashadi, ya'ni hayotiy zaruriylik darajasiga ko'tariladi.

Yusuf Xos Hojib tomonidan ilgari surilgan bu qarash, bugungi zamonaviy insonlar orasidagi ijtimoiy aloqalarning ham negizini tashkil etadi. Chunki bugungi kunda ham inson o'z yaqinlarini “jigarim”, “jonim”, “yuragim” deb ataydi — bu esa asrlar osha davom etayotgan ma'naviy merosning, ruhiy qadriyatlarining tiriklik belgisi ekanidan dalolat beradi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari o'z zamonasi uchun nafaqat axloqiy-falsafiy pand-nasihatlar to'plami, balki hayotning turli sohalarini qamrab olgan keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy manba bo'lib xizmat qilgan. Unda ijtimoiy adolat, davlat boshqaruvi, insoniy fazilatlar bilan bir qatorda, kundalik hayot madaniyati – ayniqsa, odob-axloq qoidalari ham chuqur ifoda topgan. Bu qoidalar orasida dasturxon madaniyati, taomlanish odobi va inson salomatligiga oid maslahatlar alohida o'rin egallaydi. Asarning bosh qahramonlaridan biri bo'lgan O'gdulmish taomlanish odobi va insonga ta'sir qiluvchi sog'lom ovqatlanish tamoyillari haqida gapirar ekan, nafaqat tashqi odob, balki ichki muvozanat — ya'ni inson mijozining holati, nafs nazorati va salomatlik haqida ham chuqur mulohaza yuritadi. U quyidagi baytlar orqali fasllarga qarab qanday ovqatlanish kerakligini tushuntiradi:

Issiq ko'pmi yoki sovuqlik, kuzat,
Sovug'ing oshsami, issiq yeb tuzat.
Bahor fasli bo'lsa, yigitlik oning,
Sovuq iste'mol qil – tezlashar qoning.
Yoshing qirqdan o'tib, yil-oy esa kuz,
Issiq narsa bilan mijozingni tuz. [2-139]

Bu baytlarda inson tanasi — organizmi yil fasllari bilan bog'liq holatda qanday o'zgarishlarga uchrashi va shunga mos ravishda qanday taom iste'mol qilinishi kerakligi haqida maslahatlar beriladi. Jumladan, bahor faslida yosh yigitlar sovuq ovqatlarni iste'mol qilishi foydali deb ta'kidlanadi. Chunki bu holat qon aylanishini tezlashtiradi, organizmga yengillik bag'ishlaydi. Muallif bu orqali qadimiy Sharq tabobatida keng qo'llangan mijoz tushunchasiga urg'u beradi. Mijoz — inson tanasidagi to'rt asosiy unsur (ya'ni qon, safro, yiring va shilimshiq)ning muvozanati sifatida talqin qilinadi. Har bir inson mijozga ega bo'lib, u issiq yoki sovuq, quruq yoki ho'l tarzda tasniflanadi. Shunga ko'ra, haroratli va sovuq taomlarning iste'moli tanadagi muvozanatga ta'sir ko'rsatadi. Yusuf Xos Hojibning fikricha, sovuq taom yosh organizmda qonning suyulishiga olib keladi. Suyuq qon esa sog'lom hayotning garovi sanaladi. Bu g'oya o'sha davrning ilg'or tibbiy bilimlariga asoslangan bo'lib, hozirgi zamonaviy tibbiyot ham bunday fikrlarni qisman tasdiqlaydi. Asarda yana bir o'rinda yoz faslida mijoz haddan ortiq kuchayganda tomirdan qon olish kerakligi aytiladi. Bu tibbiy amaliyot o'sha davrlarda keng tarqalgan bo'lib, xalq tabobatida muhim o'rin egallagan. Qon olish yo'li bilan organizmdagi ortiqcha issiqlik, bosim va zararli moddalardan xalos bo'lish mumkinligi haqida tushunchalar mavjud bo'lgan. Qolaversa, asarning lug'at qismida ham “qon oqizish” – bu qon bosimi oshganida amalga oshiriladigan tabobat usuli ekani qayd etiladi. Zamonaviy tibbiyotda ham bu usul – ya'ni venadan qon olish yoki qon quyishni tartibga solish kabi muolajalar terapevtik maqsadda qo'llaniladi. Bu jihatdan olib qaraganda, Yusuf Xos Hojibning fikrlari va tavsiyalari davridan oldinga siljigan, ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turadi. Shu orqali ko'rish mumkinki, “Qutadg'u bilig” faqat axloqiy risola emas, balki tibbiy, gigiyenik, ovqatlanish madaniyati va salomatlikni saqlash borasida ham chuqur bilimlarni o'zida jamlagan asardir. U o'z davrining ilg'or ilm-fan yutuqlarini badiiy shaklda ifoda etib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Kichik ersa o'g'lon, yil fasli gar yoz,
Narsa qizil bo'lsa, yerning rangi bo'z.
Qoni oshdi degin uning shubhasiz.
Uning tomiridan bir oz qon oqiz [2-171].

Zulm, birovlariga jabr yetkazish, jahl hech zamonda odamzotga naf keltirmagan. Hukmdorlar fe'lidagi beqarorlik asarda qat'iy qoralanadi. O'gdulmish O'zg'urmishga bekka xizmat qilish haqida yo'l-yo'riq ko'rsatar ekan bek fe'lida bo'ladigan nuqsonlarni ham aytadi. Beklar arslonga o'xshaydi: maqtalsa, so'zi yumshaydi, G'azabi kelsa, tomir teshadi, qon so'radi [2-124]. Ushbu gapdagi “qon so'radi” jumlası bekdagi zulmning va qahrning ramziy ifodasidir. O'zbek xalq og'zaki ijodida “Qonga qon, jonga jon” jumlası uchraydi, ammo asar qahramoni O'zgurmish buning mutlaqo xatoligi, adovat va gina sababli inson qonini to'kish ikki tarafga ham ziyon ekanligini aytadi. “to'kma qon” jumlası zulm va qahrning nishonasidir.

Adovatni tugat, yana to'kma qon
Bu ikki gunohga jon chekar fig'on.
Kishilarga bo'lgın o'zing mehribon.
Birovga sog'inma sen aslo ziyon [2-154].

Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida koʻplab ramziy ifodalar va majoziy maʼnolar uchraydi. Ulardan ayniqsa, “qon” va “suyak” soʻzlari oʻzining koʻp qirrali semantik yuklamasi bilan alohida eʼtiborni tortadi. Ushbu ikki soʻz asarda turli kontekstlarda, turlicha maʼno anglatgan boʻlsa-da, ular orqali muallif jamiyat hayotining muhim jihatlarini badiiy shaklda ifoda etishga erishgan.

“Qon” soʻzi asarda bir necha ramziy maʼnoda qoʻllanadi. Birinchi navbatda u **salomatlik** belgisi sifatida keltiriladi. Salomat odamning qoni toza, tanasi sogʻlom boʻlishi anʼanaviy tibbiy va xalqona tushunchalarga asoslanadi. Shuningdek, “qon” asarda **zulm, zamonning adolatsizligi**, hatto **gʻazab, jaholat** kabi salbiy tuygʻularning ramzi sifatida ishlatilgan. Bu holatda “qon” zoʻravonlik, kuch ishlatish yoki adolatdan ogʻishish timsoli boʻlib, muallif tomonidan ogohlantiruvchi maqsadda ishlatiladi. Shunday tarzda, “qon” soʻzi faqat biologik jarayonni emas, balki insoniyat axloqining holatini ham anglatadi. Boshqa tomondan, “**suyak**” soʻzi asarda yanada sermazmun, koʻp jihatli ramziy maʼnolarga ega. U **uyatsizlik, odob-axloqning buzilishi, insoniylikning yoʻqolishi, beorlik** holatini ifodalashda ishlatiladi. Ayniqsa, quyidagi baytda:

Uyatsizning yuzi — goʻshtsiz bir suyak,

Uyatsiz kasaldir, tuzalmas beshak [2-77].

Bu fikr juda yaqqol aks etgan. Oʻgdulmish tilidan aytilgan bu hikmatda shunday maʼno yotadiki, goʻshti shilib olingan, qurib qolgan suyak hech kimga kerak emas – it ham qaramaydi. Xuddi shunday, uyatsizlik xatti-harakatlari bilan odamlar hurmatidan chiqqan shaxs ham jamiyatda qadrsiz boʻladi. Bu yerda “suyak” degani shunchaki tana aʼzosi emas, balki oʻzini yoʻqotgan, ichki poklikdan mosuvo boʻlgan odam obrazidir. Shuningdek, “suyak” soʻzi **odob-axloq qoidalarini** ifodalovchi kontekstlarda ham uchraydi. Masalan, mehmondorchilik bobida Yusuf Xos Hojib quyidagicha pand-nasihat beradi. Mehmonga taklif qilishsa, oshni odob bilan ye. Birovning oldidagi ovqatga qoʻl choʻzma. Oʻzingga yaqin turgan joydan ol. Pichoq oʻynatmagin. Qoʻlingga suyak olib, kemirib oʻtirma. Boshqalarning osh-ovqatlarini tatib koʻrishdan asranish lozim, oʻzgalarni zoʻrlab-qistash yaramaydi [2-125]. Bu jumlar orqali muallif qadimgi turkiy xalqlarga xos nozik axloqiy meʼyorlarni bayon qiladi. Ayniqsa, ovqatdan keyin suyak kemirish yoki uni qoʻlda oʻynatish odobsizlik sanalgan. Bu harakat estetik meʼyorlarga, yaʼni mehmondorchilik madaniyatiga zid deb qaralgan. Suyakning bunday kontekstdagi qoʻllanilishi madaniy tafakkurning ifodasi sifatida diqqatga sazovor. Bundan tashqari, **fol ochish** amaliyotida ham “suyak” muhim obyekt sifatida ishlatilgan. Oʻrta asrlarda folbinlar va soxta bashoratchilar turli buyumlar orqali insonlarning kelajagiga oid bashoratlar berishga urinib koʻrishgan. Ana shunday vositalardan biri bu – suyak boʻlgan. Asarda bu holat tanqidiy ruhda yoritilgan boʻlib, suyak odamlarning ishonchiga kirib ulgurgan folbinlik vositasiga aylanganini koʻrish mumkin. Chunki oʻrta asr kishilari baʼzida bu kabi xurofotlarga ishonishgan va oʻz taqdirini bu “bashorat”larga bogʻlab qoʻyishgan. Bu holat esa jamiyatda aql va ilm oʻrniga ishonchsiz manbalarga tayanishni koʻrsatadi. Shunday qilib, “qon” va “suyak” soʻzlarining tahlili orqali Yusuf Xos Hojib “Qutadgʻu bilig” asarida ijtimoiy illatlarni, axloqiy buzilishlarni, sogʻlom fikr va salbiy xatti-harakat oʻrtasidagi farqlarni yoritib bergan. Bu ikki soʻz orqali u oʻz davrining muhim axloqiy va ijtimoiy masalalarini ramziy shaklda bayon etishga erishgan.

Xulosa. Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asari oʻz davrining siyosiy, axloqiy, tibbiy va maʼnaviy hayotini mukammal tarzda yoritgan bebaho manba boʻlib, unda ishlatilgan har bir soʻz chuqur ramziy va majoziy maʼnoga ega. Mazkur maqolada “qon” va “suyak” soʻzlarining asardagi ramziy va badiiy talqini oʻrganildi. Tadqiqot natijalariga koʻra, “qon” soʻzi asarda salomatlik, adolat, gʻazab va sadoqatni anglatuvchi ramz sifatida ishlatilgan boʻlsa, “suyak” soʻzi esa uyatsizlik, mehmondorchilik madaniyati va ishonch ramzi sifatida talqin etilgan. Muallif bu soʻzlar orqali oʻquvchini nafaqat axloqiy-ruhiy jihatdan tarbiyalaydi, balki oʻsha davr jamiyatining ichki tuzilmasi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini ham yoritadi. “Qutadgʻu bilig” bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan asar boʻlib, undagi hikmatlar zamonaviy inson uchun ham ibrat manbayi boʻlib xizmat qiladi. Asarda qoʻllanilgan ramziy obrazlar tilning boyligi va ijodkorning badiiy tafakkur darajasidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Yusuf Xos Hojib. *Qutadgʻu bilig*. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1971.
2. Yusuf Xos Hojib. *Qutadgʻu bilig*. – T.: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
3. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. *Adabiyotshunoslik lugʻati*. – T.: Akademnashr, 2013.
4. Rahmonov N. *Mumtoz adabiyot tarixi*. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2014.
5. Маллаев Н.М. *Ўзбек адабиёти тарихи* – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
6. Resid Rahmeti *Arat.Kutadgu bilig (index)*. – Istanbul, 1979.
7. *Oʻzbek xalq maqollari*. – Toshkent, 2005.

LITERARY CRITICISM

8. Tursunov M.I. *“Qutadg`u bilig” asaridagi maqol va matallarning lingvokulturologik xususiyatlari* // So`ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-tadqiqot jurnali, №9, 2023-yil.
9. Xolmurotova G. A. *“Qutadg`u bilig” dostonida ta`lim-tarbiya masalalari* // *Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences*, Italiya. 2022.
10. Ҳамро Абдуллаев. *“Қутадғу билиғ” да халқ мақоллари* –Билим, 2003

REFLECTIONS OF UGLINESS: A CROSS-CULTURAL STUDY OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS

Norova Mavluda Fayzulloyevna,

associate professor of the department of Uzbek Language and Literature, Russian and English Languages at Bukhara State Medical Institute
named after Abu Ali ibn Sino
norova.mavluda@bsmi.uz

Xusenova Dildoraxon Visoliddin qizi,

1st year Master's degree student of the Faculty of Foreign languages,
Asia International University
dilyadora1@gmail.com

Abstract. This article explores how the concept of ugliness - both physical and moral - is represented in English and Uzbek proverbs. Proverbs, as condensed forms of cultural wisdom, reveal deep societal values and moral codes. While both languages distinguish between physical appearance and inner character, their expressions, linguistic styles, and underlying philosophies differ significantly. The study categorizes and compares representative examples from each language. Findings show that English proverbs often employ irony and metaphor to critique moral flaws, whereas Uzbek proverbs favor direct moral instruction and collective ethical reflection. Ultimately, the study affirms that across cultures, internal character triumphs over external appearance, but the manner of expression is deeply rooted in each society's cultural fabric.

Keywords: proverbs, ugliness, English language, Uzbek language, moral character, cultural values, metaphor, linguistic comparison, inner beauty, cross-cultural analysis.

XUNUKLIKNING TASVIRLARI: INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING MADANIYATLARARO TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek maqollarida jismoniy hamda axloqiy xunuklik tushunchasi qanday aks ettirilganligi tahlil qilinadi. Maqollar madaniy savodxonlikning shakllari sifatida jamiyatning chuqur qadriyatlari va axloqiy qoidalarini ochib beradi. Har ikki til tashqi ko'rinish va ichki fazilatni ajratib ko'rsatgan bo'lsa-da, ifodalash uslubi, til uslubi va asosiy falsafasi sezilarli darajada farq qiladi. Tadqiqotda har bir tildan namuna maqollar toifalab, solishtiriladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz maqollari ko'pincha ironik va metaforik usullar bilan axloqiy nuqsonlarni tanqid qiladi, o'zbek maqollari esa bevosita axloqiy ta'lim va jamoaviy axloqiy fikrlashni afzal ko'radi. Xulosa qilib aytganda, madaniyatlararo tahlil shuni tasdiqlaydi: ichki fazilat tashqi ko'rinishdan ustundir, ammo ifodalash uslubi har bir jamiyatning madaniy tuzilishiga chuqur singib ketgan.

Kalit so'zlar: maqollar, xunuklik, ingliz tili, o'zbek tili, axloqiy fazilat, madaniy qadriyatlar, metafora, lingvistik solishtirish, ichki go'zallik, madaniyatlararo tahlil.

ОТРАЖЕНИЯ УРОДСТВА: МЕЖКУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦ

Аннотация. В статье рассматривается, как понятие уродства — как физического, так и морального — представлено в английских и узбекских пословицах. Пословицы, являясь концентрированными формами культурной мудрости, отражают глубокие общественные ценности и моральные нормы. Несмотря на то, что оба языка различают внешний облик и внутренние качества, способы выражения, языковые стили и философские основы существенно различаются. Исследование классифицирует и сравнивает типичные примеры из каждого языка. Результаты показывают, что английские пословицы часто используют иронию и метафору для критики моральных недостатков, тогда как узбекские пословицы отдают предпочтение прямому нравственному наставлению и коллективному этическому осмыслению. В конечном итоге исследование подтверждает, что во всех культурах внутренний характер превалирует над внешним обликом, однако способы выражения глубоко укоренены в культурной ткани каждого общества.

LITERARY CRITICISM

Ключевые слова: Пословицы, английский язык, узбекский язык, моральный характер, культурные ценности, метафора, лингвистическое сравнение, внутренняя красота, межкультурный анализ.

Introduction. Proverbs are a fundamental part of any language, reflecting the culture, values, and worldview of a society. Among various themes addressed in proverbs, the concept of *ugliness* - whether physical, moral, or behavioral - is frequently expressed. However, the way ugliness is portrayed and understood can vary significantly between languages due to cultural differences.

If we look at the history of each language, proverbs have been considered as an important language unit that speak about nation's traditions, culture, life experiences as well as desire and demonstrate sophistication, intelligence and logic of thinking with amazing power.

As a genre with compact form but deep content proverbs can help people to express their life, nature, man, family and society attitude, socio-political, spiritual-educational, moral-aesthetic and philosophical views. That's why they are very common for centuries during lively conversation and mutual speech relations, in artistic, historical and scientific works. Being such a special element in linguistics proverbs have always been investigated by linguists in both Uzbek and English languages. There are several interesting facts to be considered here. But we tried to work on another aspect of proverbs: categorization of proverbs according to the content by showing similarity in English and Uzbek languages.

Methodology. Jennifer Speake in his book "The Oxford Dictionary of Proverbs" (Fifth edition, edited by Jennifer Speake, 2008.) distinguishes three main categories of proverbs. The first type includes abstract statements expressing general truth, such as "Everything has an end" or "Blood is thicker than water". Proverbs which can be considered the second type are mostly taken from everyday life experiences; for instance, "A burnt child dreads the fire" and "Two heads are better than one". The last type comprises sayings based on wisdom and folklore. Like another fields health proverbs can be good examples for this category: "An apple a day keeps the doctor away", "Early to bed and early to rise makes the man healthy, wealthy and wise". A special characteristic feature of this book is that all the proverbs are given in an alphabetical order (according to a particular word of each proverb) [1, p.14.].

Uzbek philologists T. Mirzaev, A. Musokulov and B. Sarimsokov collected Uzbek folklore proverbs in the book "Uzbek folk proverbs" ("Ozbek xalq maqollari", "Sharq", 2005.) and categorized them according to their content: Vatan va vatanparvarlik (fatherland and patriotism) East or West, Home is best (O'z uying - o'lan to'shaging), mehnatsevarlik va ishyoqmaslik (diligence and laziness), halollik va tekinxo'rlik (honesty and dishonesty), yaxshilik va yomonlik (good and evil), donolik va nodonlik (wisdom and ignorance) and etc [3, p.1-4.].

Analysis and results. As we can see from the table, though both languages are very different in terms of structure, pronunciation, and lexicology, proverbs serve the same purpose in the languages we are working on: leading to good, avoiding evil, being kind, honest, diligent, hospitable and so on. Besides the given topics some English and Uzbek proverbs match each other in meaning.

Jamoatchilik va xudbinlik	Public and selfishness
• Birlashgan o'zar. • Bir kalla — kalla, Ikki kalla — tilla.	• Unity is strength. • Two heads are better than one.
Mehnatsevarlik va ishyoqmaslik	Diligence and laziness
• Gap desang, qop-qop, - Ish desang, Ashtarxondan top. • Jon kuydirmasang, jonona qayda, - Toqqa chiqmasang, do'lona qayda.	• He who can, does; he who cannot, teaches. • He that would eat the fruit must climb the tree.
Halollik va tekinxo'rlik	Honesty and parasitism
• Mehnatingni halol qilsang, huzurini ko'rasan. • Tayyor oshga bekovul.	• A clean mouth and an honest hand will take a man through any land. • Where the carcass is, there shall the eagles be gathered together.
To'g'rilik va egrilik	Straightforwardness and deviation
• Aybi borning tizzasi qaltirar. • To'g'rilik to'rga tortar, egrilik go'rga.	• Honest men fear neither the light nor the dark. • He is wise who is honest.
Yaxshilik va yomonlik	Good and bad (evil)

LITERARY CRITICISM

• Daryoga yaxshilik qilsang, ajrini biyobondan topasan. • Birovga choh qazisang, o‘zing tusharsan.	• Good deeds return to the house of the author. • He that mischief hatches, mischief catches.
Yaxshi so‘z va yomon so‘z	Good word and bad word
• Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi. • Yaxshi otga qamchi kerakmas, yaxshi qizga sovchi.	• With a sweet tongue and kindness, you can drag an elephant by a hair. • A word to the wise is enough.
Adolat, insof va insofsizlik	Justice, honesty, dishonesty/injustice
• Adolat qilichi kesgan qo‘l og‘rimas. • Insofli odam oshini yer, insofsiz odam – boshini.	• Though heaven fall, let justice be done. • A good conscience is a continual feast.
Do‘stlik va dushmanlik	Friendship and hostility
• Dushmanimning do‘sti — mening dushmanim. • Do‘st ming bo‘lsa ham — oz, dushman bir bo‘lsa ham — ko‘p.	• The enemy of my enemy is my friend. • There is no little enemy.

English Proverbs Involving Ugliness

“Beauty is only skin deep, but ugly goes clean to the bone”.

- Inner ugliness (such as bad character) is more lasting than external beauty.
- Moral ugliness is more serious than physical appearance.

“An ugly face is better than an ugly heart”.

- It’s better to have a kind character than to be physically attractive.
- Ethical values over physical traits.

“Fine feathers do not make fine birds”.

- Outer appearance does not determine inner worth.
- Criticism of superficial beauty and praise for inner quality.

Uzbek Proverbs Involving Ugliness

“Yuzing chiroyli bo‘lmasa ham, ko‘ngling chiroyli bo‘lsin”.

- Even if your face is not beautiful, may your heart not be ugly.
- Inner beauty is superior to physical beauty.
- Strong cultural emphasis on moral beauty.

“Chiroyga qaramang, xulqqa qaring”.

- Don’t look at the beauty, look at the character.
- Evaluation based on behavior and ethics, not looks.

“Tashqi ko‘rinish aldovchi bo‘ladi”.

- Outer appearance is deceptive.
- What seems beautiful may hide ugliness within.

Discussion. Both English and Uzbek proverbs emphasize the insignificance of physical appearance when compared to the importance of internal qualities such as kindness, honesty, and humility. However, the way these values are expressed shows subtle cultural differences:

- Both languages make clear that moral ugliness is worse than physical unattractiveness. English proverbs often use irony or sarcasm, while Uzbek proverbs lean toward moral instruction and societal advice.
- English proverbs often employ metaphorical or idiomatic language (“ugly goes clean to the bone”), while Uzbek proverbs are typically more direct and didactic (“xulqqa qaring”).
- While both cultures acknowledge that outer beauty can be misleading, the Uzbek language tends to include more proverbs that link outer beauty directly with inner values — often as a cautionary lesson.
- Uzbek culture, with its strong roots in collectivist values, promotes internal harmony and modesty, hence the repeated theme of inner beauty outweighing the outer. In contrast, English proverbs often reflect individualistic values, using ugliness as a lens to critique moral character or warn against deception.

Conclusion. In both English and Uzbek proverbs, ugliness is more than skin-deep — it often symbolizes a deeper moral or character flaw. However, the linguistic style and cultural tone differ, reflecting the distinct worldviews of English-speaking and Uzbek-speaking societies. Understanding these proverbs not only offers insight into how each culture views appearance and morality but also reinforces the universal lesson that true beauty lies within.

The comparative analysis of English and Uzbek proverbs reveals a shared human understanding: true ugliness lies in poor character, not in appearance. While English proverbs tend to use figurative and idiomatic

LITERARY CRITICISM

expressions to convey this idea, often with a hint of irony or wit, Uzbek proverbs are more direct, offering moral lessons rooted in collective experience and social values. The consistent elevation of inner beauty and the warning against superficial judgments highlight the moral priorities of both linguistic traditions. Furthermore, this study underlines how language serves as a mirror of culture: English proverbs reflect individualistic, often critical perspectives, while Uzbek proverbs emphasize harmony, modesty, and moral instruction. By understanding these expressions of "ugliness", we gain deeper insight not only into each language, but also into the societies they represent.

REFERENCES:

1. Speake J. (2007). *The Oxford Dictionary of Proverbs: Fifth edition*, (p.625). USA.: Oxford University Press.
2. Karamatova K.M., & Karamatov H.S. (2000). *Proverbs /Maqollar/ Posloviy*. (p.400). Toshkent: Mehnat.
3. Mirzayev T., Musoqulov A., & Sarimsoqov B. (2005). *O'zbek xalq maqollari*. (p.257). Toshkent: Sharq.
4. Madayev O. (2010). *O'zbek xalq og'zaki ijodi. Universitetlarning Filologiya va Jurnalistika hamda pedagogika institutlarining Til va adabiyot fakultetlari uchun o'quv qo'llanma*. (p.228). Toshkent: "Mumtoz so'z".
5. Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., & Quronov D. (2001). *Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati*. (p.335). Toshkent: Sharq.
6. Tarabina T.I., & Elkina, N.V. (1996). *Posloviy, pogovorki, poteshki, skorogovorki. Populjarnoe posobie dlja roditelej i pedagogov*. (p.512). Jaroslavl': Akademija razvitija.
7. Butayev Sh. (2016). *English-Uzbek Uzbek English Dictionary*. (p.1040). Tashkent: O'zbekiston NMIU.
8. Abrahams R.D. (1972). *Proverbs and proverbial expressions*. In R. M. Dorson (Ed.), *Folklore and folklife*. (pp.117-127). Chicago.
9. Yusupov U.K. (2013). *Contrastive Linguistics of the English and Uzbek languages*. (pp.27- 262). Toshkent: Akadem nashr.
10. Stepanov V.N. (2003). *Provocative discourse of social and cultural communication*. (p.263). Saint Petersburg: Rose of the World.

ENLIGHTENMENT IDEAS IN OLIVER GOLDSMITH'S "THE TRAVELLER" AND THEIR COMPARATIVE ANALYSIS IN UZBEK ENLIGHTENMENT LITERATURE

Khudoyorova Nafisa Baxtiyarovna,

English Language Instructor Alfraganus University, Tashkent
2nd-year PhD Researcher Navoi State University Navoi, Uzbekistan
nafisa.khudoyorova@mail.ru

Abstract. This article analyzes how the ideas of the Enlightenment era are reflected in Oliver Goldsmith's didactic poem *The Traveller*. It also presents a comparative study of these ideas with the works of Uzbek Enlightenment writers such as Mahmudkhoja Behbudi and Abdulla Avloni. The poem highlights moral, political, and economic issues of society, emphasizing values such as personal happiness, harmony, reason, and labor.

Key words: Oliver Goldsmith, *The Traveller*, Enlightenment, Uzbek literature, Abdulla Avloni, Mahmudkhoja Behbudi, social justice, philosophical poetry, didacticism, comparative analysis.

OLIVER GOLDSMITNING "TRAVELLER" ASARIDA MA'RIFATCHILIKKA OID QARASHLAR VA UNING O'ZBEK MA'RIFATCHILIK ADABIYOTIDA QIYOSIY TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliver Goldsmitning "*The Traveller*" asarida ingliz ma'rifatchilik davri g'oyalari qanday ifoda etilgani tahlil qilinadi. Shuningdek, asar g'oyalari o'zbek ma'rifatchilik adabiyoti, xususan, Mahmudxo'ja Behbudi va Abdulla Avloniy asarlaridagi motivlar bilan qiyosiy o'rganiladi. Muallif she'r orqali jamiyatdagi axloqiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarni ochib beradi, shaxsiy baxt, hamjihatlik, aql-idrok va mehnatga asoslangan qadriyatlarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: Oliver Goldsmit, *The Traveller*, ma'rifatchilik, o'zbek adabiyoti, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudi, ijtimoiy adolat, falsafiy she'riyat, ma'rifatparvarlik, qiyosiy tahlil.

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ИДЕИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ОЛИВЕРА ГОЛДСМИТА «ПУТЕШЕСТВЕННИК» И ИХ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ В УЗБЕКСКОЙ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. В статье рассматривается, как идеи эпохи Просвещения отражены в дидактической поэме Оливера Голдсмита *The Traveller*. Также проводится сравнительный анализ с произведениями узбекских просветителей, таких как Махмудходжа Бехбуди и Абдулла Авлони. Автор через поэзию раскрывает социальные, моральные и политические проблемы, пропагандируя ценности разума, труда, гармонии и внутреннего счастья.

Ключевые слова: Оливер Голдсмит, *The Traveller*, Просвещение, узбекская литература, Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбуди, социальная справедливость, философская поэзия, просветительство, сравнительный анализ.

Introduction. English poetry has undergone a long historical development, beginning with the oral traditions of the tribes inhabiting the British Isles. Later, under the cultural influence of the Roman Empire, the Anglo-Saxons, and the Normans, the English literary language evolved, and solid literary traditions were established. Throughout its development, English poetry has passed through various stages, each characterized by distinctive styles and themes. In the earliest periods, epic and religious themes predominated, while later, romantic, realistic, and modernist approaches emerged.

Overall, English poetry has progressed through different historical phases, each shaped by the social, political, and cultural transformations of its time. Every period produced its own literary movements and representatives whose works laid the foundation for the current state of English literature. Among the stages of English poetry's development, the Enlightenment period stands out for its unique themes, forms, and styles. English Enlightenment literature began to take shape in the late 17th century and reached its peak in the mid-18th century. "This literature, formed in the 18th century, focused on exploring the role of human intellect, reason, and knowledge in society." [9] Emerging as part of a broader European Enlightenment movement, it encouraged readers to think critically and reflect on the moral and political issues of society. Literature became a means to spread knowledge, reform society, and promote human development.

During this period, both poetry and prose embodied the main ideas of the Enlightenment of the 17th–18th centuries, such as reason, scientific progress, moral growth, and social reform. In both poetry and prose of this era, critical thinking, human natural rights, and the question of liberty held a central place. Above all, Enlightenment thought recognized reason as the primary means to improve human life. Therefore, poetry and prose of the period emphasized intellectual potential, the pursuit of knowledge, and the importance of science. “During the Enlightenment period (1660–1780), strict poetic forms dominated, and satirical as well as didactic poetry flourished. The human mind and social issues were frequently explored.”[8] From this perspective, the poetry and prose of the English Enlightenment can be categorized according to their themes as philosophical and moral, a harmony of nature and reason, educational and instructive, and satirical.

Materials. “The famous representatives of English Enlightenment poetry regarded poetry as a tool that could lead humanity towards progress.”[10] According to them, English Enlightenment poetry was formed on the basis of reason, logic, satire, and didacticism, and it was expected to have a significant influence on the literature of subsequent periods. The representatives of this era viewed poetry as a means to reform society and correct human flaws. Writers such as Alexander Pope, John Dryden, James Thomson, Samuel Johnson, Oliver Goldsmith, Jonathan Swift, and Daniel Defoe are among the most prominent figures of this period in English literature. Among them, Alexander Pope (1688–1744) is recognized as one of the leading figures of English Enlightenment poetry. “His works such as *Essay on Criticism* and *Essay on Man* reflect the main ideas of the Enlightenment era — namely, reason, morality, natural order, and human perfection — in an elevated poetic form.”[3]. James Thomson (1700–1748) was one of the poets who praised the harmony between natural beauty and human thought. Through his poetic collection “*The Seasons*”, he encapsulated the aesthetic and philosophical essence of the English Enlightenment period.[5] His work invites spiritual perfection through the harmony between nature and humanity. As it is evident, English Enlightenment poetry emphasizes thought over emotion, and focuses more on social consciousness and moral ideas than on individual feelings. The role of the above-mentioned writers in shaping the poetics of this period is invaluable.

Research and Methods. Oliver Goldsmith’s didactic poem “*The Traveller*” also deeply reflects the spirit of the 18th-century European Enlightenment. The work was created based on the author’s observations of the political, economic, and moral conditions of various countries during his travels. Through it, Goldsmith presents his philosophical perspective on issues such as social progress, personal happiness, and social justice.

In “*The Traveller*”, Oliver Goldsmith expresses Enlightenment ideals in several passages. The following lines specifically convey the Enlightenment spirit — the idea that human happiness can be attained through knowledge, labor, balanced living, and mutual compassion:

**“Let school-taught pride dissemble all it can,
These little things are great to little man;
And wiser he, whose sympathetic mind
Exults in all the good of all mankind.”[1]**

In these lines, Goldsmith promotes humanism and the value of collective well-being as the highest human virtues in society. According to him, rejoicing in the happiness of others is a mark of the highest intellect. In these verses, Goldsmith draws attention to two important aspects of human nature:

First — the influence of education and social hierarchy, suggesting that pride formed by societal stratification based on wealth, education, profession, or lineage can distance a person from truth. Second — the ability to empathize and to rejoice in the general welfare is interpreted as a sign of intellectual and cultural maturity. This approach aligns with the core ideas of the Enlightenment period — particularly the view of humanity as a unified community and the principle of valuing the common good. Moreover, Goldsmith emphasizes the necessity of moral and emotional solidarity not within a single nation or social class, but across all of humanity.

While analyzing the values of economic and political independence in developed societies, the poem also warns that excessive wealth or liberty may lead to adverse consequences. This idea is illustrated through the examples of England and the Netherlands, where Goldsmith critically assesses how unrestrained commerce and material prosperity can foster self-interest and distance people from their humanity. Such an approach corresponds with the spirit of English Enlightenment literature, especially with works written in opposition to “cultural vices” and in favor of moral reflection and social reform.

**“Where wealth and freedom reign contentment fails
And honour sinks where commerce long prevails
Hence every state, to one loved blessing prone,
Conforms and models life to that alone
Each to the favourite happiness attends,
And spurns the plan that aims at other ends ;**

LITERARY CRITICISM

**Till, carried to excess in each domain,
This favourite good begets peculiar pain.”[1]**

In the above lines, it is shown how different societies prioritize certain values (such as wealth or liberty) and shape their social life primarily based on those principles. However, when excessive reliance is placed on a single value, its positive aspects may diminish, giving rise to negative consequences. For instance, in societies where economic prosperity and civil liberties exist, these factors do not automatically guarantee social satisfaction; on the contrary, in an overly commercialized environment, moral standards may weaken. Thus, in every society, the unchecked development of a dominant value can eventually lead to unique social problems.

Results and Discussion. In his observations, “The traveler” compares the virtues and flaws of different nations. For instance, Italy is portrayed as a country that once flourished and was rich in culture, but is now struggling with moral decline and the loss of its former glory. Switzerland, on the other hand, is praised as a nation where, despite its mountainous terrain, people live a happy life marked by simplicity and communal solidarity.

France is described as a joyful country, yet one that suffers from a superficial lifestyle and a desire for showiness. The Netherlands is depicted as a hardworking and wealthy nation, but one driven by greed and the relentless pursuit of wealth, which has led to moral degradation. Britain is recognized as a land of liberty and pride, but also one where social inequality is growing and traditional values are gradually being eroded.

The author asserts that true happiness is not found in external conditions or ideal societies, but rather within the human mind and soul. He emphasizes that personal virtues, reason, and family happiness are the primary sources that lead a person to genuine contentment.

Goldsmith’s poem reflects the ideas of the Enlightenment era, glorifying reason, self-awareness, and moral values, while also critically addressing the social and political conditions of 18th-century Europe — especially the increasing materialism and inequality in Britain.

Through The traveler’s observations, Goldsmith artistically explores the strengths and weaknesses of different societies, highlighting the challenges of seeking happiness and building a just and harmonious community. At the same time, he stresses the enduring value of moral virtues and a sense of gratitude.

**“As some lone miser, visiting his store,
Bends at his treasure, counts, recounts it o’er;
Hoard after hoard his rising raptures fill,
Yet still he sighs, for hoards are wanting still:
Thus to my breast alternate passions rise,
Pleased with each good that Heaven to man supplies:
Yet oft a sigh prevails, and sorrows fall,
To see the hoard of human bliss so small;
And oft I wish, amidst the scene to find,
Some spot to real happiness consign’d;
Where my worn soul, each wandering hope at rest,
May gather bliss, to see my fellows bless’d.”[1]**

In the poem, human greed — the insatiable desire for more — is depicted through the image of a miser. Indeed, no matter how much a person attains, they always desire more. This suggests that a person can never truly achieve complete happiness. Thus, greed and never-ending desires often hinder people from finding true contentment, as the pursuit of material wealth may at times prevent genuine satisfaction and inner peace. The instability of life urges individuals to re-evaluate their values and search for the real sources of happiness. These lines by Oliver Goldsmith reflect the human obsession with wealth, dissatisfaction, and the yearning to discover true happiness. Such ideas are also commonly found in Uzbek Enlightenment literature. “In particular, similar philosophical reflections appear in the works of Avloniy and Behbudiy. For example, Mahmudkhujja Behbudiy, in his play *Padarkush (The Parricide)*, illustrates how the relentless pursuit of wealth and the neglect of moral values can lead to tragic consequences.”[8] This parallels the portrayal of the greedy miser in Goldsmith’s poem.

Likewise, “Abdulla Avloniy emphasizes in his work *Turkiy Guliston yoki Axloq (The Turkic Gulistan or Ethics)* that true happiness lies not in material possessions but in morality and knowledge, stating: “It is knowledge and morality that bring honor to a person.”[6] This idea closely aligns with Goldsmith’s reflections on the pursuit of true happiness for humankind. These comparative analyses show that the themes in Goldsmith’s verses are closely related to the ideas presented in the works of Behbudiy and Avloniy. Their writings also warn against the harmful consequences of greed, highlight the endless human striving for true happiness, and advocate for the development of society on the basis of moral values.

“Nature, a mother kind alike to all,
Still grants her bliss at labour's earnest call
With food as well the peasant is supplied
On Idra's cliff as Arno's shelvy side
And though the rocky-crested summits frown,
These rocks, by custom, turn to beds of down.
From art more various are the blessings sent
Wealth, commerce, honour, liberty, content”[1]

In these lines, nature is personified as a compassionate mother, whose generosity and fairness are emphasized. Nature does not discriminate and is portrayed as a benevolent figure. If a person works hard, nature responds with abundance—implying that happiness can be achieved through honest labor. This part of the poem also reflects endurance and adaptability in the face of life's hardships. For a person accustomed to difficult conditions, those hardships gradually become more bearable and even comfortable. The rocky cliffs and dark peaks symbolically represent life's challenges, while their transformation into a silken bed reflects the reward of happiness attained after overcoming difficulties.

Conclusion. In the closing section of the poem, the contradictions and conflicts of life are illuminated. Wealth, fame, freedom, and peace are values that rarely coexist in perfect harmony. Often, in the pursuit of one, another must be sacrificed. For example, striving for fame may come at the cost of peace and tranquility, while the pursuit of wealth may limit one's personal freedom. These contradictions invite reflection on human choices and values.

Such themes are also widely explored in Uzbek Enlightenment literature, where similar motifs appear in the works of Avloniy, Fitrat, and Behbudiy. For instance, in *Turkiy Guliston yoki Axloq*, Abdulla Avloniy emphasizes the role and importance of labor in human life. He explains that through diligence, one may attain happiness, while laziness leads to regret: “Those who strive will quickly achieve their goals. Lazy people, deprived of everything, remain dependent on others and live in disgrace.”[6]

These ideas correspond closely to Goldsmith's notion that “He who labors shall be rewarded with happiness.”

Overall, in *The Traveller*, Oliver Goldsmith addresses social, moral, and political issues with the insight, experience, and observational clarity typical of an Enlightenment poet. The ideas expressed in the poem remain relevant today. The universal human quest for happiness, the demand for justice, and the appreciation of simplicity continue to be vital values for any society.

ADABIYOTLAR:

1. Goldsmith, O. *The Traveller, or a Prospect of Society*. – London: J. Newbery, 1764.
2. Johnson, S. *The History of Rasselas, Prince of Abissinia*. – London: 1759.
3. Pope, A. *Essay on Man*. – London, 1733.
4. Swift, J. *Gulliver's Travels*. – London: 1726.
5. Thomson, J. *The Seasons*. – London: 1730.
6. Avloniy, A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
7. Behbudiy, M. *Padarkush*. – Toshkent: “Fan”, 1991.
8. Jo'rayev, T. *Qiyosiy adabiyotshunoslik asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2015.
9. Saidov, B. *Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti*. – Toshkent: Ilm ziyo, 2016.
10. <https://www.amazon.com/Enlightenment-English-Literature-Eighteenth-Selected/dp/0669023213>

O'ZBEK ADABIYOTIDA OTA OBRAZINING GENEZISI VA TADRIJIY EVOLYUTSIYASI

To'rayeva Bahor Bahriddinovna,

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti professori v.b., filologiya fanlari doktori*

turayeva.bahor@gmail.com

Imomova Malika Hakim qizi,

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti magistranti*

imomovamalika1206@gmail.com

Annotatsiya. Insoniyat tamaddunida otalar va bolalar muammosining mavjudligi, har bir davrda uning turlicha talqin qilinishi va badiiy asarlardagi ifodasi zamonaviy adabiyotshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda va oilada otaning maqomi hamda vazifalarini o'rganish nihoyatda dolzarbdir. Globallashuv davrida yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar va jarayonlar oila timsolida, ajdodlar hamda avlodlar o'rtasidagi munosabatlarda qanday aks etganligini badiiy ifodalashni ham taqozo etmoqda. Uzoq o'tmishdan hozirgi kungacha bu muammolar turli ko'rinishlarda aks etgan badiiy asarlar yaratilgan. Asrlar davomida bashariyat doimo axloqiy barkamollik sari intilib kelgan. Maqolada insoniyat badiiy tafakkurining tarixiy taraqqiyot jarayonida ota obrazining turli tarixiy va badiiy bosqichlardan o'tganligi, uning mazmun-mohiyatida yuz bergan o'zgarishlar, talqin shakllari hamda ideallar qanday ifodalanganligi o'rganiladi. Shu orqali o'zbek adabiyotida ota timsoli nafaqat badiiy obraz sifatida, balki jamiyat ruhiyatining ko'zgusi sifatida ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ota, farzand, maqol, ertak, doston, urf-odat, an'ana, nasihat, ilm, tarbiya.

ГЕНЕЗИС И ПОСТЕПЕННАЯ ЭВОЛЮЦИЯ ОБРАЗА ОТЦА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. Проблема отцов и детей, существующая на протяжении всей истории человеческой цивилизации, её различное толкование в каждую эпоху и отражение в произведениях искусства имеют большое значение в современном литературоведении. Крайне важно изучить статус и обязанности отца в обществе и семье. Огромные изменения и процессы, происходящие в эпоху глобализации, требуют художественного выражения того, как они отражаются в образе семьи, во взаимоотношениях поколений и предков. С древнейших времён и до настоящего момента по всему миру создавались произведения искусства, отражающие эти проблемы в различных формах. В статье рассматривается, как образ отца проходил различные историко-художественные этапы в развитии художественной мысли человечества, как изменялись его содержание, формы интерпретации и идеалы. Таким образом, образ отца в узбекской литературе анализируется не только как художественный образ, но и как зеркало психики общества.

Ключевые слова: отец, ребёнок, пословица, сказка, былина, обычай, традиция, совет, знание, образование.

GENESIS AND GRADUAL EVOLUTION OF THE IMAGE OF THE FATHER IN UZBEK LITERATURE

Abstract. The issue of fathers and children has existed throughout human civilization, with its interpretation varying across different eras and its expression reflected in works of art. This topic holds significant importance in contemporary literary criticism. Studying the status and role of the father in both society and the family is highly relevant today. The profound changes and processes occurring in the era of globalization demand artistic reflection of how these shifts influence the concept of family and the relationships between generations and their ancestors. From ancient times to the present day, works of art have been created around the world that explore these themes in diverse forms. This article examines how the image of the father has passed through various historical and artistic stages in the development of human artistic thought, how its content and modes of interpretation have evolved, and how its ideals have been expressed. Thus, the image of the father in Uzbek literature is analyzed not only as a literary figure but also as a reflection of the collective psyche of society.

Keywords: father, child, proverb, fairy tale, epic, custom, tradition, advice, knowledge, education.

Ota obrazi oila boshlig'i, tarbiyachi, donishmand va jamiyat ustuni sifatida og'zaki va yozma adabiyotda tasvirlangan. O'zbek adabiyotida ota timsoli butun bir ijtimoiy qatlam, avlodlar davomiyligi va axloqiy tamoyillarni ifodalaydi. Bu obraz vaqt o'tishi bilan turli davrlar adabiyotida o'zgarib, yangilanish bosqichlarini bosib o'tgan. Ota obrazi dastlab xalq og'zaki ijodida tasvirlangan. Dostonlar, afsonalar, xalq ertaklarida ota ko'pincha donishmand, tajribali, oilaning tayanchi va himoyachisi sifatida tasvirlangan bo'lib, u tasvirlar ota shaxsiga nisbatan chuqur hurmat hamda ehtirom tuyg'ularini uyg'otgan. Vaqt o'tishi bilan bu obraz yozma adabiyotda yanada murakkablashib, turli ijtimoiy qatlamlar, davrlar va mualliflarning dunyoqarashlariga ko'ra turlicha talqin etilgan. Ota obrazining adabiyotda aks etishi nafaqat shaxsiy, oilaviy munosabatlarni, balki keng ijtimoiy muammolarni – masalan, avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlar, jamiyatdagi erk va mas'uliyat, shaxsiy vijdon va burch kabi mavzularni yoritishga xizmat qilgan. Ayniqsa, XX asr o'zbek nasrida bu obraz zamonaviylik, sotsializm davridagi o'zgarishlar, mustaqillik yillaridagi ijtimoiy voqealar orqali yangicha qirralarga ega bo'la boshladi.

Folklorning qariyb barcha janrlarida ota obrazi, uning qadri, qiymati, mavqeyi, farzandlar bilan munosabatini aks ettiruvchi asarlar mavjud. Xalqning uzoq davr mobaynida o'z tajribasi bilan shakllangan, qisqa va lo'nda, chuqur mazmunga ega maqollarida xalq donishmandligi hamda ma'naviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Maqollar – xalq tafakkurining yorqin in'ikosi bo'lib, unda insoniy fazilatlar, oilaviy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar chuqur ifodalangan. Ayniqsa, ota obraziga doir maqollar orqali xalqimiz otaga bo'lgan hurmat va izzatni, uning oila ustuni ekanini, farzand tarbiyasida bosh mas'ul inson sifatida qabul qilishni ko'rsatadi. *“Ota rozi – Xudo rozi”, “Otarlar so'zi – aqlning ko'zi, Onalar so'zi – baxtning o'zi”, “Ota dushmani do'st bo'lmas”, “Otang – bozor, onang – bozor”, “Otang qozi bo'lsa ham, gunohkor bo'lma”, “Otang o'tirgan uyning tomiga chiqma”, “Alp – otadan, zot – onadan”, “Onangga boshingni xam qil, Otangga gapingni kam qil”, “Onangni quyosh bilsang, otangni oy bil”* kabi maqollar xalq tafakkurida otaning qanday yuksak maqomga ega ekanini, uning jamiyatdagi va oiladagi o'rni naqadar muhimligini anglatadi.

Ota obrazi o'zbek xalq ertaklarida ham alohida o'rin egallaydi. Ertak – nafaqat bolalar uchun aytiladigan afsonaviy hikoya, balki xalqning dunyoqarashi, axloqiy ideallari, oilaviy qadriyatlari mujassam bo'lgan og'zaki ijod shaklidir. Maksim Gorkiy aytganidek, *“Dunyoda ibrat bo'lmaydigan hech narsa yo'q, o'zida “didaktika”, ibrat vositalarini mujassamlashtirmagan birorta ham ertak topilmaydi”* [7, 319]. Ertaklarda ota obrazi ko'pincha sinovlarga duch kelgan, sabrli va donishmand shaxs sifatida gavdalanadi. U oilaning boshlig'i, farzandining tarbiyachisi va himoyachisi sifatida ifodalanadi. *“Uch og'ayni botirlar”* ertagida otaning farzandlari uchun qilgan eng oqilona ishlarini ko'rish mumkin: *“Sizlarni uch narsa bilan tarbiya qildim: birinchidan, sog'lom vujudli qilib o'stirdim – quvvatli bo'ldingiz. Ikkinchidan, yarog' bilan tanishtirdim – yarog' ishlatishga usta bo'ldingiz. Uchinchidan, qo'rqitmay o'stirdim – botir bo'ldingiz, yana uchta narsani aytaman, quloqlaringizga olib, eslaringizdan chiqarmanglar. To'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz. Maqtanchiq bo'lmang – xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo'lmaysiz”*[14, 5]. Otaning bu nasihatlari bekor ketmaydi. Aka-ukalar ahilligi sabab barcha xavf-u xatarlarni yengib o'tadi, aqli, donoligi va tarbiyasi bilan podshohning qalbidan joy oladi. Podshoh esa o'z qizlarini ularga nikohlab beradi. Aka-ukalar oldiga qo'ygan maqsadlariga yetishib, otasi yoniga qaytishadi va baxtli hayot kechirib, murod-maqsadiga yetishadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblangan dostonlarda ham ota timsoli keng mushohada asosida yoritilgan. Birgina *“Alpomish”* dostonini olib qaraydigan bo'lsak, Qultoy boboning Alpomishga ota-onangni hurmat qil, ota-onani norozi qilgan bolaning sira yo'li bo'lmaydi, deb qilgan nasihati xalqimizning ma'naviy olami naqadar boyligini ko'rsatadi.

Ma'lum sabablar tufayli Boysari arazlab Qalmoq yurtiga ko'chib ketadi. Bu vaziyatga Barchinning munosabatini Fozil shoir oqila qizning otasiga qarshi murojaat qilolmay, dardini quyidagi tarzda onasiga aytgani *“Ota”*ning garchi u noto'g'ri ish qilsa-da, oiladagi o'rini belgilab bergan:

*“Xo'ja kelsa chiqar murid naziri
Xotin bo'lmasmikan erning vaziri?!
Er deganning aqlin olmas bo'lurmi,
Aldab-suldab yo'lga solmas bo'lurmi?!
Boy otamman biy bobomga ne bo'ldi?!”*[3, 27]

“Ravshan” dostonida ham ota va bola munosabatlarini uchratish mumkin. Ravshan obrazi obro'talab ko'rinsa-da, lekin ota-onaga, tug'ilib o'sgan diyoriga, yor-u birodarlariga sadoqatli, vafodor, mard o'g'londir. Dostonda ota va farzand munosabati, dostonning ta'sirchanligini oshirib qolmasdan, balki bugungi kun farzandlariga ham ibrat namunasi bo'lib xizmat qilmoqda. Hasanxon polvonning:

*“Sen bo'lmasang, otang holi ne kechar,
Sensiz menga falak kafan to'n bichar*

*Dunyoning bolini zahar deb ichar,
Qanday kuni kechar sho'r enang nochor.
Harna yo'q-u borim, senga yo'l bo'lsin? [12, 180]*

Dostonda Hasanxonning o'ziga xos xarakteri Hasanxon va Ravshan o'rtasidagi suhbat jarayonida yaqqol ko'rinadi. Baxshi bu o'rinda Hasanxonning mardligini yana bir bor ochib beradi. Ravshan otasidan oq fotiha olib safarga jo'naydi, chunki har qanday farzand otasining duosini olmay, uzoq yo'lga chiqmaydi.

Bu munosabatlar orqali o'zbek xalqiga xos muqaddas an'analar, urf-odatlar, qadriyatlarning namunasini baxshi shu o'rinda yana bir bor aks ettirgan. Zero, epik qahramon keksalar va oqsoqollarning duolariga amal qilsagina o'z maqsadi va murodiga erishadi. Keksalik donishmandlik – tajriba manbayi. Ular uzoqni ko'zlaydi, duosi orqali qahramonni yovuz kuchlardan himoya qiladi.

Xalq og'zaki ijodi o'zbek adabiy tafakkurining dastlabki bosqichi sifatida xalqning dunyoqarashi, axloqiy-ruhiy qarashlarini ifodalagan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan yozma adabiyot shakllanib, uning sahifalarida ham ota obrazi yanada chuqur va murakkab shaklda namoyon bo'la boshladi.

Ota obrazi keng yoritilgan mashhur asarlardan biri Kaykovusning "Qobusnoma" asaridir. U asarini o'g'li Gilonshohga bag'ishlaydi. Asarning ilk boshidan "Ey farzand, bilg'ilkim, jahonda odamning bilmagan va tanimagan hech narsasi yo'qdur. Magar Xudoyi Taolokim oning tarafig'a tanimoq bila also yo'l topmag'usidir. Chunki ondin o'zga barcha narsani taniding, ammo har vaqt kim o'zingni tanisang, oni tanursan", [8, 18] deya farzandga murojaati bilan boshlanishiyoq asarning qiymati yuksak ekanidan dalolat. Asarning oxirida farzandiga aytgan dil so'zlarida har bir yosh egallashi zarur bo'lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog'liq faoliyat turlarini bilish kabilar o'z ifodasini topgan:

"Ey farzand, bilgilki, men shu qirq to'rt bobda har xil ishlar to'grisida so'z dedim va har bob haqidagi masallar yuzasidan pand-nasihat qldim. Ammo aqllilik bobini zo'rlik bilan ayta olmasman. Aqlni kishiga zo'rlik bilan o'rgatib bo'lmas. Bilgilki, aql ikki xildur: biri tug'ma aqldur, uni azaliy derlar, ikkinchisi kasbiy aql, buni muktasib derlar, kasbiy aqlga donish ham derlar. Bas, agar azaliy aql bo'lmasa, men va sen hech iloj qila olmasmiz. Sen muktasib aqlni pesh qilmogda kamchil qilmagil, qurbing yetgonicha o'rgangin. Aqlililar toifasidan bo'lmasang ham, donishlar toifasidansan, ikkisidan biriga ega bo'lmog'ing yaxshidur, nedinkim, debdurlar, agar ota bo'lmasa, onadan yaxshi kishi yo'qdir. Agar oqil bo'lmoq tilasang, hikmat o'rgangil, aql hikmat bila kamolga yetar. Donishdin: "Oqilning quvvati nimada?" – deb so'rabdurlar. Donishmand: "barcha kishining kuchi ovqatdadir, aqlning kuchi esa hikmatdadir", – deya javob bermishdur.

Ey farzand, bilgilki, har neki ish mening odatim erdi, hammasi sening uchun bu kitobga yozdim, bu faqat sening uchundur, ya'ni barcha fikr va tushunchalarimni sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, har hunar va peshakim bilur erdim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim" [8, 220].

Ota timsoliga insoniyat tafakkurida qadimdan buyon muqaddaslik hamda ulug'lik ramzi sifatida qaralgan. "Qissasi Rabg'uziy"da keltirilgan "Yusuf Siddiq alayhissalom qissasi"da Yusuf alayhissalom yoshlik vaqtlarida otasi Ya'qub alayhissalomga bir ajib tush ko'rganini aytib beradi. Otasi esa yosh bola bunday tush ko'rmasligi va bu tush kelajakda Yusuf alayhissalomning payg'ambar bo'lishiga bashorat ekanini sezadi. Oqil ota farzandiga bu tushni akalaridan sir tutishi kerakligini uqtiradi. Chunki akalarining hasadi ortib o'z ukasiga ziyon yetkazishidan ota xavotirda bo'ladi. Uning o'g'liga mehri, g'amxo'rligi, uning kelajagini o'ylab donolik bilan yo'l ko'rsatishi va sir saqlashni o'rgatishi ota obrazining donishmandlik timsoli sifatida shakllanishida muhim o'rin egallagan. Bu o'rinda otaning qanday ma'naviy yuk va tarbiyaviy ahamiyat kasb etishini ko'rish mumkin.

Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkir ijodida falsafiy yondashuvlar orqali ota obrazi takomillashdi. Navoiyning "Xamsa" asarida ota obrazining talqini faqat hayotiy, ideal emas, balki ma'naviy, ijtimoiy va siyosiy mazmun kasb etgan timsol sifatida yuksaladi. Xamsaning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlarida kelgan ota obrazlari har jihatdan haqiqiy o'zbek otalarining siymosi bo'la oladi.

Masalan, "Farhod va Shirin" dostonida Farhodning otasi bo'lmish Chin xoqoni bolasining komil inson bo'lib yetishishi uchun barcha ilmlar va hunardan xabardor qildi. Farzandining ta'limini har jihatdan qo'llab-quvvatladi. Farhod ota istagidek bilimli, kuchli, pahlavon, mergan, aqlli, tadbirkor, to'g'ri so'z va ko'zlagan maqsadi yo'lidan mutlaqo qaytmaydigan qat'iyatli yigit bo'lib yetishdi" [9, 18].

"Layli va Majnun" dostonida esa Majnunning otasi farzandi ishq savdosiga asir tushib, es-hushidan ayrilganda, ota telba oshiqdan ham ko'p azoblandi. Farzandining dardini aritish uchun qo'lidagi bor narsasi tugul jonini ham berishga tayyor ota uni Ka'ba ziyoratiga olib boradi.

Shuningdek, Navoiyning "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") asaridagi ota haqida yozilgan o'rinlarga to'xtalib o'tamiz. "Odam bila shayton muxolifatin unutm. Ota dushmanin o'zungga do'st tutma. Otangni bihishtdek ma'manidin jalo qildi va yillar xokdon g'aribistonida zalil va muftalo qildi. Va otang avlodidin ba'zi anga intiqom tuzdilar va xoru zabun qilib jafolar ko'rguzdilar. Nafsn chun taqvo riyozati bila

zeridast qildilar – shaytonni zalilliq bila yerga past qildilar” [2, 135]. Hazrat Navoiy insoniyatning otasi Odam Atoning dushmani shaytonni bashariyat do‘st tutmasliklarini ta’kidlaydi.

Shu o‘rinda, Zahiriddin Boburning ham farzandi Humoyun Mirzo betob bo‘lib qolganda, Allohga nola qilib, farzandi o‘rniga o‘zining jonini olishini so‘rashi o‘zbek millati uchun farzanddan aziz va ulug‘ ne‘mat yo‘qligining yaqqol misoli deyishimiz mumkin: “...o‘shal holatga kirib, uch qatla boshidin o‘rgulub dedimkim, men ko‘tardim har ne darding bor. O‘shal zamon men og‘ir bo‘ldum, ul yengil bo‘ldi. Ul sihat bo‘lub qo‘pti. Men noxush bo‘lub yiqildim” [6, 450]

Yuqorida sanab o‘tilgan asarlarda ota obrazi asosan ilmi, ziyoli, yuksak tarbiyali, oqil-u dono inson sifatida talqin etilgan bo‘lsa, quyida fikr yuritadigan asar qahramoni ulardan keskin farqlanadi. Jadid adabiyotining yirik vakillaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” dramasi bosh qahramonlardan biri Toshmurodning otasi boy, ammo o‘qimagan, ilmdan yiroq inson. O‘z boyligi butun avlodlariga yetishiga ko‘zi yetgan holda o‘z farzandini ilmi qilishni xayoliga keltirmaydi. Farzandini o‘qitishni maslahat bergan domlarning ham, ziyolining ham maslahatlariga quloq tutmaydi, o‘z yo‘lini tutadi:

Boy: Men o‘g‘lumni o‘qutmoqqa o‘ylaganim yo‘q.

Domulla: Ajoyib, sabab nedurki, o‘qutmaysuz? Vaholanki, o‘qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur...

...Domulla: Shariat ilmi va zaruriyati diniyani bilmoq uchun boyvachchani o‘qutmoq, albatta, sizga lozimdir.

Boy: Shariat ilmini o‘qitmoqni lozim bilmayman, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman, azbaski davlatim anga yetar”[5, 9]

Bu parchadan anglashiladiki, o‘sha davr kishilari boylikni ustun qo‘yib, ilm olishni keraksiz hisoblab, bu haqida o‘ylab ham ko‘rilmagan. Domulla ilm olishni farz deb biladi, ayniqsa, shariat ilmi insonning ikki dunyo saodati uchun zarurligini ta’kidlaydi. U ilmning nafaqat dunyoviy, balki ma’naviy qadriyat sifatida ham muhimligini uqtiradi. Biroq boyning yondashuvi umuman boshqacha. Uning nazarida o‘g‘lini o‘qitish foydasiz, chunki u mufti yoki imom bo‘lishni mo‘ljallamayapti va moddiy jihatdan ta’minlangan. Bu esa ilmning asl ma’nosidan yiroqlashgan bir yondashuvni ko‘rsatadi. Go‘yoki hamma narsani boylik bilan hal qilish mumkindek. Boyning “oxiratga bo‘lsa, Xudoning qilgan taqdiri bo‘lur” jumlasini ham uning dindand xabari yo‘q, ilmsiz bir omi inson ekanligini yaqqol namoyon qiladi. Oxiratga bo‘lgan munosabati go‘yo bir buyumga bo‘lgan munosabat kabi oddiy va hissiz. Natijada esa uning ilm olmagan farzandi yomon yo‘llarga kira boshlaydi va o‘z otasining qotiliga aylanadi. Buning barchasiga ilmsizlik sabab edi. Adabiyotshunos Y.Solijonovning quyida keltirilgan fikrlari ham haqiqatdan yiroq emas: “Dramada Boyning o‘g‘li Toshmurod emas, uning ulfati Tangriqul pichoqlaydi. Ammo bu asarning “Padarkush”, ya’ni ota qotili deb atalishiga xalaqit bermaydi. Aksincha, bu yerda umumlashma xulosa kuchayadi. Otaning o‘limiga (keng ma’noda butun Turkistonning inqiroziga) o‘g‘ildagi (umuman yoshlardagi) johillik, norasolik, ilmsizlik, maishatbozlik, xudbinlik sababchi bo‘ladi” [13, 23]

Suhbat orqali muallif ilmning chinakam qadri va uni qadrlamaslikning oqibatlarini haqida o‘quvchini o‘ylantiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy qatlamlar orasida ilmga bo‘lgan turli munosabatlarni ham ochib beradi.

Jadid ma’rifatparvarlarining yetuk namoyandasi Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida: “Emdi ochiq ma’lum bo‘ldiki, tarbiyani tug‘ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go‘zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga, “birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir”, - deb javob bersak, bir kishi deyurki, “qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paqmoq, qo‘li to‘qmoq onalarmi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar”, der. Mana, bu so‘z kishining yuragini ezar, bag‘rini yondurar. Otasiga nima dersiz, desak, qaysi ota? To‘ychi, uluqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko‘zlari qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o‘zlarini o‘qitmak, tarbiya qilmak lozimdur”, - der. Mana bu so‘zni eshitgach, umid qo‘llari qo‘ltuqqa urilur”[4, 61] deganlarida mutlaqo haq edi.

Ushbu fikrlar orqali esa otaning farzand oldidagi ulkan mas’uliyatini ko‘rish mumkin. O‘zbek jamiyatida farzand tarbiyasi muqaddas burch sifatida talqin etiladi. Chunki tarbiya – inson hayotining eng muhim tayanchi, jamiyat taraqqiyotining bosh mezonidir. Shu sabab otaning farzand tarbiyasida tutgan o‘rni muhim sanaladi.

Marifatparvarlarning buyuk vakili Abdurauf Fitrat qalamiga mansub “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida ham bu muammo teran ifodalangan: “Agarda otalarimiz farzandlarini zamona talablariga muvofiq tarbiya qilganlarida edi, bugun shunday qiyin ahvolga tushmas edik. Bu ahvolga tushgan ekanmiz, uning sababi o‘sha tarbiyadadir, ya’ni ota-onamizdan olgan tarbiyamiz yoki tarbiyasizligimizdir. Shunday

ekan choramiz nimada?”[1,78]

XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi, o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asarida ota obrazi atroflicha yoritilgan. Ya'ni asarda otaning jamiyatda tutgan o'rni, farzand tarbiyasidagi ahamiyati talqin etiladi. Muallif ota obrazi orqali o'sha davr ijtimoiy muhit va ma'naviy qadriyatlarini keng yoritib beradi. Asarda o'zbekona urf-odatlar, milliy qadriyatlar, ota-ona va farzand munosabatlari o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, Yusufbek hoji obrazlari orqali haqiqiy o'zbek otasi obrazi ochib berilgan. “Abdulla Qodiriy tomonidan Yusufbek hoji chuqur mulohazali, oilaparvar, farzandini tushunadigan ota sifatida talqin etiladi. Yusufbek timsolida tadbirli, insonparvar, adolatparvar, o'z xalqi va yurtining taqdiri uchun qayg'uradigan, niyati puchga chiqqanda ham tushkunlikka berilmagan irodali inson, dono va mehribon ota qiyofasi namoyon bo'ladi” [9, 14]. Shuningdek, ota yuksak tarbiya sohibiki, o'g'li bilan ham ehtiyotkorona va ziyraklik bilan suhbatlashadi. O'z o'rnida Otabek ham shunday tarbiya sohibi bo'lib, otasiga qatiq gapirmaydigan, mulohazakor farzanddir. Ushbu fikrlar tasdig'i quyidagi parcha orqali namoyon bo'ladi:

“ – O'g'lim, hali eshitdingmi, yo'qmi, haytovur, biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydik... Otabek, ma'lumki, ularning “qilib qo'ygan yoki qilmoqchi bo'lgan ishlarini” albatta, bilar edi. Shunday ham bo'lsa, bilmaganga solindi.

– Aqlli kishilarning o'g'illari ustidan qilgan ishlari, albatta, noma'qul bo'lmas... Hoji o'g'lining javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi. Istehzo aralash xotiniga qarab oldi”[11, 71].

Abdulla Qodiriyning yana bir asari “Mehrobdan chayon”da ham ota obrazi keng qamrovda tasvirlangan. Asar qahramoni Solih mahdum o'ziga xos xarakterga ega inson sifatida tasvirlangan. “O'tkan kunlar”dagi ota obrazi oqil, dono, oliyhimmat va bag'rikeng inson sifatida talqin etilgan bo'lsa, “Mehrobdan chayon”da otaga nisbatan ko'proq xasis va ziqna degan ta'rif keltirilgan. Bu xasisligini oilasi va hatto, o'z ust-boshiga bo'lgan munosabatda yaqqol ko'rish mumkin. Solih mahdumning bu ziqnaligidan jahli chiqqan Ra'no esa otasiga atab she'r bitadi:

*“Yog'lar to'kilsa yerga, yotib yalar taqsirim,
Bo'lsa bozorda pastlik, sotib olar taqsirim.
Menim uchun bir zirak, Ra'nobonug'a jevak,
Desa oyim – “Ne kerak?!” yumma talar taqsirim.
“Quloq teshish fazl emas, pulni topish hazl emas,
Jevak taqish farz emas!” g'avg'o solar taqsirim”*[10, 24].

Mahdumning bunday xasis, ziqna bo'lishiga sabab uning og'ir qiyinchilik va qattiqchilikda hamda yetimlikda o'sganligida deb aytish mumkin. Ammo mahdumda ta'magirlik va ichiqoralik kabi xislatlarni ham ko'rish mumkin. Shu bilan birga uning bolalarga yoqadigan xislati ham bor edi: Solih mahdum bilimdon o'quvchilar bilan muomalasi yaxshi, sabog'ini bilmagan yoki sho'xlik qilgan bolalarni urishib, koyisa ham aslo urmas edi. Bu xislati bilan u butun Qo'qon bolalarining muhabbatini qozongan. Bu xislatlari mahdumning o'ziga xos xakteri borligining yaqqol isboti desak yanglishmaymiz. Muallif esa Solih mahdum obrazi orqali aslida hayotda mana shunday insonlar ham borligini tasvirlab bergan. Demak, bir ijodkorning ikki asarida turli xarakterga mansub ota obrazi tasvirlanishi ijodkorning yuksak mahoratini ko'rsatadi.

Cho'lpon asaridagi har bir xarakter, hatto roman voqealarida yetakchi o'rin tutmaydigan personajlar ham murakkab va ziddiyatli insoniy obrazlardir. Bu jihatdan Razzoq so'fi obrazi qiziqarli. U kamgap, badqovoq, ba'zida esa zolim. So'fining yonida xotini va qizi qaltirab turishadi. Ota obrazi batamom o'ziga xos yo'sinda tasvirlangan. Razzoq so'fi tug'ilgan onidayoq kulmagan va undan keyin ham kulmagan. Shu sabab ham qizi Zebi otasidan juda qo'rqadi. Razzoq so'fi kamgap, indamas, damini solgan, shu bilan birga ziqna odam edi. O'z ayolini o'sha davr odatiga ko'ra bosh farzandining ismi bilan atash o'rniga, “Fitna” deb atashi ham uning xarakterini ochib beradi. “Yozuvchi Razzoq so'fi xarakterini bir yoqlama tasvirlash yo'lidan bormaydi. Uning qiyofasida ikki shaxs yashaydi va ular doim bir-biri bilan pinhona to'qnashadilar. Bular mutaassib dindor Razzoq so'fi bilan tilab-tilab olgan bitta-yu bitta, ko'zining oq-u qarosi bo'lgan farzandining otasi Razzoqdir. Ota o'z qizining baxti, kelajagi to'g'risida o'ylamasligi mumkin emas. Shu boisdan ham dastlab Akbarali mingboshi so'vchilarini qaytaradi. “O'sha betavfiq, benamoz”, befarzandga gulday qizini ravo ko'rmaydi. Ammo bu vaqtinchalik taassurotdir. Cho'lpon mutaassib Razzoq so'fi bilan o'z qizining taqdiri haqida jon kuydirayotgan ota qalbida yuz berayotgan keskin, shiddatli ziddiyatlarni shu qadar chuqur, ko'lamli va ishonarli tasvirlaydiki, o'quvchining unga rahmi keladi... Chindan ham tragik holat yuz berdi: dindor Razzoq so'fi vujudidagi “ota” oxir-oqibat g'olib chiqdi va o'z jigargo'shasini falokatdan qutqarishga otlandi. Bu yo'lda ota birinchi qadamini bosdi. “Qo'l ko'tarib bo'lmaydi” deb e'tiqod qo'ygani Eshonni o'z qo'li bilan o'ldirdi. Bu, bizningcha, yozuvchi tomonidan chuqur o'ylab, yetti o'lchab, bir kesilgan yechimdir” [9, 36]. Demak, Razzoq so'fida otalik mehri har narsadan, har kimdan ustun keldi. Garchi unga nisbatan biroz salbiy

xarakterlar berilgan bo'lsa-da, kechroq bo'lsa ham farzandi oldida mas'uliyatini his qildi, qalbida otalik mehri butunicha jo'sh urdi.

XX asr adabiyotining yorqin vakillaridan biri Normurod Norqobilovning "Qoyalar ham yig'laydi" qissasi bosh qahramoni Ernazar polvon o'zini daraxtga, farzandlarini shoxga qiyoslar, shoxlar deganda u faqat o'g'illarini nazarda tutardi. Qizlarini bo'lsa, novdaga ham teng ko'rmaydi. Ammo shunga qaramay, u qizlarini yaxshi joylarga turmushga bergan. Kuyovlarni yaxshilab surishtirib keyin rozilik bergan ota edi. Ernazar polvon farzandlarining taqdiriga loqayd emas, balki ularni o'ylab, ehtiyotkorlik bilan qaror qabul qiluvchi ota sifatida tasvirlanadi. Bu holat orqali muallif ota mehrining murakkab, ko'p qirrali tabiatini ochib beradi. Bu tasvir bilan muallif otaning o'z zamonasi va jamiyatining ta'siri ostida shakllangan qarashlari bilan barobar mehribonlik va mas'uliyatni ham birgalikda aks ettiradi.

Shuningdek, uning o'g'illaridan biri O'sar shaharda o'qib, yengil hayot kechirishga o'rganib qolgan. Uning birdan bir "aybi" bor: xushsuratligi va davra aylanmasligi. Shu bilan birga u akalaridan farqli ravishda otasining nasihatlariga quloq tutmas, o'zini erkin shaxs, otasini esa zamondan qolgan, eski qadriyatlarni ustun ko'ruvchi deb bilardi. To'g'ri yo'ldan yurmay qo'yanini sezgan ota uni xato qilmaslikka chorlaydi. Ammo u otasi aytganini qilmaydi, ikkisi o'rtasida tortishuv bo'ladi. Natijada u otasiga qo'l ko'tarib, toqqa qochayotgan vaqtda qor ko'chkisi ostida qoladi. Ota uchun bu voqeaning guvohi bo'lish qanchalar azobli va ayanchli ekani o'zigagina ayon. U ichki azobni his qiladi, ammo o'zini aybdor his qilishi, dardini ichga yutishi – bu ham otalik hissiyotining o'ziga xos qirralaridan biridir. Ota obrazi bu yerda ogohlikka da'vat etuvchi, or-nomusli, g'ururi baland, shu bilan birga farzandlariga g'amxo'r qahramon sifatida tasvirlanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan asarlardan tashqari ham o'zbek adabiyotida o'z asarlarida ota obrazini yaratgan ijodkorlar talaygina. Jumladan, Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar", "Yulduzlar mangu yonadi", Shukur Xolmirzayevning "O'zbek bobo", Muxtor Xudoyqulovning "Otam haqida hikoyalar", Isajon Sultonning "Qismat", Omon Muxtorning "Oppoq qor", Fayzulla Salayevning "Uzro" asarlarini keltirish mumkin.

Mazkur jadvalda tahlillar umumlashtirildi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Ota obrazining genezisi va tadrijiy evolyutsiyasi

t/r	Adabiy davr	Asarlar	Ota obrazining sifatleri
1.	Xalq og'zaki ijodi	Maqollar: Ertaklar: "Donishmand ota", "Uch o'g'il" Dostonlar: "Alpomish", "Ravshan"	"Ota – tog', bola – soy", Ota g'ayratli bo'lsa, Bola ibratli bo'lar. donoligi bilan bolalarini hayot sinovlariga tayyorlaydi jasorat, sadoqat va vatanparvarlik timsoli
2.	O'rta asr adabiyoti	Kaykovusning "Qobusnoma" asari "Qissasi Rabg'uziy"dagi "Yusuf Siddiq alayhissalom qissasi" Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlari Boburning "Boburnoma" asari	nasihatg'oy, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi tadbirli, nihoyatda mehribon farzandi baxti va quvonchi uchun hamma narsaga tayyor fidokor va donishmand
3.	Jadid adabiyoti	Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani Hamzaning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" fojiasi Behbudiyning "Padarkush" fojiasi	1) ma'rifatparvarlik, yangilikka intilish, islohot timsoli; 2) eski va yangi dunyo o'rtasida qolgan; 3) o'zgarishlarga qarshi chiqqan, johil
4.	Sovet davri adabiyoti	Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasi Said Ahmadning "Ufq" romani	mehnatkash, sadoqatli, kommunistik ideallar tashuvchisi zamon bilan hamnafas, sog'lom ongli inson
5.	Mustaqillik davri adabiyoti	Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani; Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani; Normurod Norqobilovning "Qoyalar ham yig'laydi" qissasi.	ijtimoiy o'zgarishlar, axloqiy inqirozlar, ma'naviy izlanishlar fonida talqin qilingan shaxsiy fojia, tarixiy o'zgarishlar va ma'naviy bo'shliqlar qurboni; tarix va zamon yukini ko'taruvchi murakkab obraz

Xullas, o'zbek nasrida yaratilgan ota obrazlari orqali xalqning axloqiy qarashlari, milliy qadriyatlari, tarbiyaviy tamoyillari va davr talablari ifodasini topgan bo'lib, bu obraz milliy adabiyotimizda doimiy ma'naviy mezonlardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbek adabiyotida ota obrazi jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab va ko'p qirrali timsollardan biridir. U nafaqat oiladagi shaxs, balki xalqning tarixiy tajribasini, ruhiyatini, qadriyatlarini o'zida aks ettiruvchi badiiy obrazdir. Bu obrazning tahlili orqali adabiy tafakkurning taraqqiyoti, milliy ong va jamiyat ruhiyati haqida teran xulosalar chiqarish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Abdurauf Fitrat. *Abulfayzxon*. – T.: *Ma'naviyat*, 2000. – 44 b.
2. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*. – T.: *Yoshlar nashriyot uyi*, 2018. – 172 b.
3. *Alpomish dostoni*. – T.: *Fan*, 2018. – 368 b.
4. Avloniy A. *Turkiy Guliston yoxud axloq*. – T.: *Turon zamin*, 2023. – 96 b.
5. *Behbudiy Mahmudxo'ja. Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi*. – T.: *Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi*, 2010. – 17 b.
6. Zahiriddin Bobur. *Boburnoma*. – T.: *O'qituvchi*, 2008. – 450 b.
7. Gorkiy M. *Adabiyot haqida. Adabiy-tanqidiy maqolalar*. – T.: *Badiiy adabiyot*, 1962. – 319 b.
8. Kaykovus. *Qobusnoma*. – T.: *Yangi asr avlodi*, 2019. – 224 b.
9. Kiyikbayev F. *O'zbek nasrida otalar va bolalar muammosi: genezisi, realistik talqini*. – T., 2011. – 112 b.
10. Qodiriy A. *Mehrobdan chayon*. – T.: *Navro'z*, 2019. – 288 b.
11. Qodiriy A. *O'tkan kunlar*. – T.: *Navro'z*, 2019. – 400 b.
12. Ravshan dotoni. – T.: *Sharq nashriyoti*, 2011. – 368 b.
13. Solijonov Y. *Zulmatdan nur qidirganlar*. – T.: *O'zbekiston milliy kutubxonasi*, 2007.
14. *Uch og'ayni botirlar*. – T.: *Yangi asr avlodi*, 2015. – 80 b.

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA ICHKI KECHINMALARNING IFODALANISH USULLARI ("IKKI ESHIK ORASI" ASARI MISOLIDA)

Fuzaylova Nargiza Abdusamatovna,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida insonning ichki kechinmalarini ifodalash usullari tahlil qilinadi. Asarda qahramonlarning ruhiy holatlari, hissiyotlari va ichki kurashlari badiiy til vositalari, ichki monolog, psixologik tahlil va obrazlar orqali chuqur va aniq tasvirlangan. Muallifning o'ziga xos uslubi va til imkoniyatlari yordamida inson qalbining murakkab qatlamlari o'quvchiga ta'sirli tarzda yetkaziladi. Tadqiqot natijalari O'tkir Hoshimov badiiy asarlarida ichki dunyo va inson psixologiyasini ifodalashning o'ziga xosligini ko'rsatadi hamda zamonaviy o'zbek adabiyotidagi psixologik realizmga qo'shgan hissasini ochib beradi.

Kalit so'zlar: "Ikki eshik orasi", ichki kechinmalar, ifodalanish usullari, ichki monolog, psixologik tahlil, badiiy til, obrazlar, o'zbek adabiyoti, psixologik realizm, inson ruhiyati.

METHODS OF EXPRESSING INTERNAL EXPERIENCES IN THE WORKS OF UTKIR KASHIMOV (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "BETWEEN TWO DOORS")

Abstract. This article analyzes the methods of expressing a person's inner experiences in Utkir Hoshimov's work "Between Two Doors." In the work, the mental states, emotions, and inner struggles of the characters are deeply and clearly depicted through the means of artistic language, inner monologue, psychological analysis, and images. With the help of the author's unique style and language capabilities, the complex layers of the human soul are effectively conveyed to the reader. The research results show the uniqueness of the expression of the inner world and human psychology in the works of Utkir Hashimov and reveal his contribution to psychological realism in modern Uzbek literature.

Keywords: "Between Two Doors," inner experiences, methods of expression, inner monologue, psychological analysis, literary language, images, Uzbek literature, psychological realism, human psyche.

СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ ВНУТРЕННИХ ПЕРЕЖИВАНИЙ В ТВОРЧЕСТВЕ УТКИРА КАШИМОВА (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «МЕЖДУ ДВУМЯ ДВЕРЯМИ»)

Аннотация. В данной статье анализируются методы выражения внутренних переживаний человека в произведении Уткира Хошимова "Между двумя дверями." В произведении глубоко и точно изображены душевные состояния, эмоции и внутренняя борьба героев посредством средств художественного языка, внутреннего монолога, психологического анализа и образов. С помощью уникального стиля автора и языковых возможностей сложные слои человеческой души эффективно передаются читателю. Результаты исследования показывают уникальность выражения внутреннего мира и психологии человека в художественных произведениях Уткира Хашимова и раскрывают его вклад в психологический реализм в современной узбекской литературе.

Ключевые слова: "Между двумя дверями," внутренние переживания, способы выражения, внутренний монолог, психологический анализ, художественный язык, образы, узбекская литература, психологический реализм, человеческая психика.

Haqiqiy asar shunchaki yozilavermaydi, haqiqiy asarlar farzand kabi tug'iladi.

(O'tkir Hoshimov)

Kirish. O'zbek adabiyoti bu- o'zbek xalqining boy va qadimiy merosi hisoblanadi. O'zbek adabiyoti bir nechta davrlarni o'z ichiga oladi. XX asr adabiyotining yorqin namoyandasi, o'zbek xalqining zabardast o'g'loni, qalami o'tkir yozuvchilardan biri O'tkir Hoshimov ham o'zbek adabiyotining taraqqiy topishiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi.

Buyuk jamiyat arbobi O'tkir Hoshimov 1941-yilda Toshkent shahrida tavallud topdi va ayni bollalik yillari urush qiyinchiliklari, muhtojlik davrlariga to'g'ri keldi. Urush davri qiyinchiliklarini boshidan kechirgan adib, o'zining ko'plab asarlarida ushbu davr voqealarini yoritib bordi.

Mashhur yozuvchi o'zbek adabiyotiga juda ham ulkan madaniy meros qoldirdi. Bulardan, "Cho'l havosi", "Muhabbat", "Nigora" "Shamol esaveradi" nomli hikoyalari, "Qalbingga quloq sol", "Bahor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari" kabi qissalari, "Nur borki soya bor", "Tushda kechgan umrlar", "Ikki eshik orasi" kabi romanlari o'zbek adabiyotiga uchqun kabi porlab kirdi va kitobxonlar qalbidan chuqur joy oldi. Adibning har bir asarida o'zgacha yo'nalish tasvirlangan va har bir asaridagi voqealar rivoji kitobxonni chuqur o'yga to'ldiradi. O'tkir Hoshimov barcha asarlarini real voqealarga asoslangan holda turli xil adabiy birliklar, nozik qochirimlardan faoydalangan holda yaratgan.

O'tkir Hoshimov adabiyotga Abdulla Oripov, Shukur Holmirzayev, Omon Muxtorov singari taniqli yozuvchilar va shoirlar qatorida kirib keladi va va o'zining noyob iste'dodi sababli buyuk yozuvchilar Abdulla Qahhor, Oybek, G'afur G'ulomlar tahsiniga sazovor bo'ladi.

O'tkir Hoshimov samarali ijodiy mehnati uchun 1991-yilda "O'zbekiston xalq yozuvchisi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

Asosiy qism: "Ikki eshik orasi" O'tkir Hoshimov badiiy merosining eng yorqin va ko'zga ko'rinarli qismidir. Ushbu asar 1986-yilning eng yaxshi asarlaridan deb topilib, kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi. Ushbu asar Hamza nomidagi respublika davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Yetti qism, qirq yetti bobdan tarkib topgan asar deyarli 40 yil davomidagi voqealarni o'z ichiga oladi. Asarda hayot qiyinchiliklari va inson taqdirining murakkabligi mahorat mahorat bilan tasvirlangan. Asar urushdan oldingi davrlardan boshlab, Toshkentdagi ma'lum va ma'shum zilzila voqealari bilan yakunlanadi. Adib asarda asosan odamlar tinchligiga raxna solgan urush voqealarini tilga oladi. Adib asarda urush davrida buyuk o'zbek xalqining frontda va front ortida ko'rsatgan mardonavor va buyuk jasorati haqida bayon etadi. Sovuq urushning har bir ota-ona, go'daklar qalbga yetkazgan jarohati va xalqimizni ushbu kunlarni sabr-toqat va bardosh bilan yengib o'tgani har bir kitobxonni qalbini larzaga soladi.

Iste'dodli yozuvchining yuksak mahorati orqali asardagi har bir obraz o'quvchining qalbidan chuqur joy olgan va kitobxon voqealar rivoji davomida epizodlar bilan birga yashaydi va ularning dardini his qila oladi. Bu yozuvchining yuksak mahoratidan darak beradi. Ushbu epizodlarning mardligi, samimiyligi, sadoqati, mehnatsevarligi yoshlarni yana bir bora ota-bobolarimizga bo'lgan hurmatini oshiradi.

Adib "Ikki eshik orasi" deya asarni nomlanishida ham ramziy ma'no mujassam, ya'ni inson tug'ilgandan toki o'lgunigacha bo'lgan davrda bosib o'tadigan yo'lni nazarda tutadi. Adibning asosiy g'oyasiga ko'ra, bu yo'l juda ham mashaqqatli bo'lib, ushbu qiyinchiliklarni sabr-toqat, kuchli iroda talab etiladi.

Asarning asosiy epigrafi qilib adib quyidagi jumalarni keltiradi. "Rost bilan yolg'onning o'rtasi -to'rt enlik", ya'ni adib ushbu epigrafni quyidagicha tushuntiradi:

"Gap shundaki, ko'z bilan quloqning orasi-to'rt enlik, shunday ekan eshitganingga emas, ko'rganingga ishon".

Yana adib asarni yozish davomida ba'zi qahramonlarni boshidan kechirganlarini o'z og'zidan qanday eshitgan bo'lsam shunday qog'ozga tushirdim, ba'zilarini esa aytganini emas, o'ylaganini yozdim deya ta'kidlaydi.

Asarda asosan Vatanga bo'lgan muhabbat, fidokorlik, hattoki, yurt tinchligi uchun farzandidan, huzur-halovatidan voz kechgan insonlar timsoli tasvirlangan. Asardan olingan mana bu parcha bunga yorqin misol bo'la oladi, ushbu misralar asar qahramoni Robiya tilidan aytilgan: "Erta kartoshkani qazib bo'lsak, indindan kechki karamga tushamiz. Armiyada karam sho'rva beradi, deyishadi. Balki xuddi o'sha men uzgan karamdan Kimsan akamga sho'rva pishirishar. Ovqatni o'ylashim bilan qornim ochgani yodimga tushdi, hali peshinda kartoshka qaynatib yegan edik.... Endi tushlikka bir vaqtlardagidek qo'y so'yib sho'rva solishlar, osh damlashlar yo'q. Mayli, ustimiz yupun bo'lsayam, chalaqursoq yursak ham go'rga! Ishqilib, urush tezroq bitsin. Kimsan akam tezroq kelsin!

Romanning asosiy qahramonlari ikkinchi jahon urushi davrida mardonavor xizmat ko'rsatgan fidoiylar timsolida tasvirlangan. Ulardan Orif oqsoqol, Husan duma, Qora amma, Komil tabib, Kimsan, Robiya, Shomurod kabi qahramonlarning fidoiyligi asarda o'z badiiy ifodasini topgan.

Asarning bosh qahramonlaridan biri Muzaffarning bolalik yillari urushdan keyingi mashaqqatli davrlarga to'g'ri keladi va keyinchalik farovonlikka erishgan yoshlar timsolida tasvirlanadi. Muzaffar go'daklik paytidan juda ko'p qiyinchiliklarni boshidan o'tkazadi, hatto u ona mehridan judo bo'ladi. Sovuq urush onani bolasidan, suyuqli yoridan mahrum qiladi, ya'ni Muzaffarning onasi yorini urushga jo'natgandan so'ng xiyonat yo'liga kiradi va oilasini parokanda bo'lishiga sababchi bo'ladi. Buning natijasida u umrining oxirigacha vijdon azobida qiynaladi. Qishloqning samimiy va pokdil insonlari yosh go'dakni yolg'iz tashlab qo'ymaydi va Orif oqsoqol yaqinda farzandli bo'lgan Bashor opanikiga Muzaffarni olib boradi. Bashor opa oq sutini berib Muzaffarni katta qiladi va unga onalik mehrini beradi. Qora amma ham Muzaffarga o'z farzandidek mehr beradi, hatto boqib olgan qizi Robiyani o'g'li Kimsan bilan unashtirilganiga qaramay Shomurodga uzatadi. Robiya Muzaffardan mehrini ayamay onalik qiladi va voyaga yetqazadi. Muzaffar muhabbatning totli

azobidan ham bebahra qolmaydi va go'zal, latofatli Munavvarga ko'ngil qo'yadi. Ularning beg'ubor sevgisi fojeali yakunlanadi va Muzaffar qayta birovga ko'ngil qo'ya olmaydi. Muzaffarning ko'ngli pokligi, mardligi va sadoqati kitobxonni unga bo'lgan mehrini yana bir bor oshiradi.

Asardagi Orif oqsoqol, Husan duma, Qora amma, Xolposh xola, Komil tabib kabi qahramonlar asardagi odamiylik, fidokorlik, sadoqatni yorqin ko'rsatib beruvchi qahramonlar timsolida gavdalanagan.

Orif oqsoqol va Husan duma vatan uchun jonini fido qilgan insonlar timsolida talqin qilinadi. Ular yoshligidan do'st bo'lib, bir tanu bir jon bo'lib ulg'ayishadi, birga ishlashadi. Orif oqsoqol kolxoz raisi sifatida qishloqni oyoqqa qo'ygan va barchaga chin dildan yordam qo'lini cho'zadigan qishloq otasi sifatida tasvirlangan. Bu ikki qahramon jondan aziz farzandlarini urushga jo'natishadi va farzandlaridan ayrilganlariga qaramay barcha qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tadi. Hatto, o'zlari kiyib turgan kiyimlari va o'zlari uchun asrab qo'ygan oziq-ovqat mahsulotlarini ham urush bo'lib turgan joylarga jo'natishadi. Qora amma tilidan hikoya qilingan mana bu gaplar bunga misol bo'la oladi: "To'g'ri, qora kunga asrab qo'ygan bug'doyimiz ham, jo'xori ham ko'p edi. Ergash selsovet bilan Umar zakunchi "urushga yordam kerak", deb kelganida cholim ikki qop bug'doy, bir qop jo'xori, bir qop turshak, yong'oq aralash quruq mevani eshak aravaga ortib idoraga obchiqib berdi. Urush bo'layotgan joylarga sovuq erta tusharkan shekilli, bisotimizdagi hamma issiq kiyimlarni topshirdik. Kimsanimning etigi, telpagi, cholimning ohorli paxtalik choponi-hammasini..."

Shunday fidoiy insonlarning jonkuyarligi, fidoiyligi, Vatanga muhabbati bizni g'alabaga yetaklagan deya baralla ayta olamiz.

Asardagi Qora amma, Xolposh xola va Lazakat xola obrazlari urush davridagi o'zbek onalarining yorqin timsoli desak adashmaymiz.

Qora amma yakkayu yolg'iz farzandi Kimsanni urushga kuzatadi va yurak bag'ri ezilib, umrining oxirigacha o'g'lini kutib ko'zlari intizor bo'ladi.

Toshkentdagi motamsaro ona haykali ochilish marosimiga tashrif buyurgan Qora amma g'amguzor ona va noma'lum askar haykalini ko'rganda ko'ksidan otilib chiqqan nido barcha kitobxonni ko'ziga yosh olishga undaydi: "-Bole-em!-Qulog'imning tagida yangragan faryoddan seskanib ketdim.-Onasining go'riga tushgan bole-e-em!-Ammam dadamning qo'lidan yulqinib chiqdiyu, kalovlanib, yigit haykaliga talpindi. Yugurib borib, haykalni quchoqladi. -Onasini dog'da qoldirib ketgan Kimsani-I-im! Jon bolam. Jonim bolam!- u haykalning kaskali boshidan quchoqlab o'pa boshladi. Ro'moli sirg'alib tushib, haykalning avtomatiga ilinib qoldi. Oppoq sochlari to'zg'ib ketdi."

Qora amma timsolida yana o'zbek onalariga xos soddalikni va beg'uborlikni ko'rishimiz mumkin. U barcha onalardek har qadamda farzandini o'ylaydi va uning uchun barcha narsani fido qiladi: "-Qurut!-dedi oyim tantana bilan.-Galanska sigirning qatig'idan. Yarmini o'zing ye, yarmini Kimsanga ber, xo'pmi? Kimsanim qurutni yaxshi ko'rardi. Soginib qolgandir." Bu satrlarni o'qib kitobxonning yuzida beixtiyor tabassum paydo bo'lsa ajab emas, yana bu ayolning beg'uborligaga amin ham bo'lamiz. Qanchalik og'ir bo'lmasin o'zining boqib katta qilgan qizi, bo'lajak kelini Robiyani ukasi Shomurodga turmushga uzatadi. Bu bir tomondan ukasini, uning murg'akkina go'dakini o'ylab qilingan bo'lsa, ikkinchi tomondan o'zidan keyin Robiyani himoyasiz qolmasligi uchun qilingan tadbiridir.

Asarda yana bir ona timsoli borki, uni tilga olmasdan o'ta olmaymiz. Orif oqsoqolning ayoli Xolposh xola bir emas ikki pahlavonday o'g'illarini urushning og'ziga uzatadi va bir kunda ikki pahlavonidan judo bo'ladi. Bunday og'ir dardni ko'tarish uchun onaga metindek iroda kerak bo'ladi. Farzandsizlik dog'ida kuygan kichik kelini xiyonat ko'chasiga kirganda onaning ahvolini tasavvur qilish qiyin emas. Bu onaning boshidan o'tkazgan qiyinchiliklarini, farzand dog'ida kuyganini hech bir kitobxon e'tiborsiz qoldirolmaydi va bu obraz qalblariga munis ona sifatida muhrlanib qoladi.

Lazakat xola Komil tabibning ayoli va farzand dog'ida kuygan yana bir ona bir ona timsolidir. O'g'lini urushga kuzatayotganda qayta-qayta takrorlagan gapi qalblarni larzaga soladi: "-Bolaginam yaqindagi narsani yaxshi ko'rmasdi! Holi nima kechadi endi"

Komil tabib esa qalbi pok, halol, xalq dardiga da'vo bo'luvchi odil tabib sifatida gavdalanadi. Zolim rais Umar zakunchi o'g'lini ayovsiz kaltaklaganda ham shikoyat qilmaydi, andishani ustun qo'yadi. Bunday insonlar har doim bizga namuna bo'lsa arziydi.

Asardagi yana bir qahramon Husan duma mardlik va qahramonlik timsolidir. U o'z uyidan Samarqandlik muallim va uning qiziga boshpana beradi, muallim noma'lum sabablarga ko'ra olib ketilgandan so'ng uning qizi Robiyaning boshini silab unga otalik qiladi. O'g'lini urushga jo'natgandan so'ng kolxoxda tinimsiz ishlaydi va frontdagilar uchun jonini ham ayamay qahramonlarcha halok bo'ladi.

Shomurod obrazi ham yoshlarga o'rnak bo'ladigan mard, jasur o'g'lon sifatida gavdalanadi. Urushda fidokorona xizmat qilib, yaralanib qaytadi va xotinining xiyonatiga uchraydi. Shunga qaramay u yengilmaydi.

Qishloqdagi yaxshi insonlar yordami bilan o'g'lini yolg'iz o'zi katta qiladi va keyinchalik Robiyaga uylanib hayotining qolgan qismini o'y-hayollar girdobida o'tkazadi.

Ra'no obrazi ham kitobxonni o'ylantiradi. U aybdormidi? Aslida uni shu kuyga solgan urush aybdor emasmi? Ra'noning qilmishini baholashni kitobxonning xohishiga qo'yib beramiz. Shomurod urushga otlamayotgan paytdagi uning mungli nolasi turmush o'rtog'iga bo'lgan sadoqatdan darakdir desak bo'ladi:

“Obketing!-Ra'no kelinoyimning bo'g'zidan bo'g'iq nido otilib chiqdi.- Obketing! Askarlarning kir-chirini yuvaman. Jon Shomurod aka! Obketing!”

Bir umr vijdon azobida, Umar zakunchidan mehr va muhabbat ko'rmay, og'lining diydoriga zor bo'lib bu dunyodan ko'z yumadi.

Kimsan mard, jasur va tanti o'zbek o'g'loni timsolida tasvirlangan. Yolg'iz farzand bo'lishiga qaramay, ota-oansi tomonidan juda yaxshi tarbiyalangan va Vatan uchun jonini ham fido qiladi. Pok muhabbat savdosi boshiga tushadi va o'z muhabbati uchun kurashadi. Urushda yurgan vaqtida Robiyaga bo'lgan muhabbatini maktubi orqali ota-onasiga bayon qiladi va ular Robiyani o'g'liga unashtirib qo'yishadi. Urushda ham qahramonlarcha kurashadi va nemislarga asir tushad. Kimsanni dushmanlar qo'lida o'lim topish lahzasi har bir kitobxon qalbini larzaga solgan bo'lsa ajab emas. Bir nemis doktori Reyxning sovuq urgan askarlarini qaysi dori bilan qutqarib qolish bo'yicha asirlar bilan tajriba o'tkazadi va bir asirning chidamliligini minutlarda hisoblab chiqadi. Bunday manzarani o'qishni o'zi o'quvchidan katta jasorat talab qiladi. Asirlarni kiyimsiz daryoni muzini yorib muzday soladi va ularni qancha muddatga chidamliligini tekshiradi. Shu pautda bir onani farzandiadan ayirib olib borib suvga solishadi va ona barchadan ko'ra ko'proq vaqt chidaydi. Nemislar birlariga qarab kulimsirashadi va ukolning ta'sir kuchi kuchliroq ekanini ta'kidlaydi. Ammo bu ukolning ta'siridan emas, balki onaning farzandidan ko'ngil uzolmayotganidan o'limga uzoqroq bardosh berishidir. Kimsan buni his qiladi va yana bir bor qalbida yovuz fashistlarga nisbatan nafrat hissini tuyadi. O'zining navbati kelganda u yana bir bor o'zbekning mard o'g'loni ekanini isbotlaydi. U shunchaki o'lmaydi, nemis doktorining hayotiga ham chek qo'yadi. U umrining oxirigacha Vataniga, ota-onasiga, sevikli yoriga sadoqatini va muhabbatini qalbida saqlab qoladi.

Robiya oqila, mehnatsevar, pokdil o'zbek qizi obrazida tasvirlangan. Onasidan erta ayrilgan Robiya muallim otasi bilan Samarqanddan Toshkentga “Qizil dehqon” kolxoziga kelishadi va kolxoz oqsoqoli ularni eng yaqin do'sti Husan dumani uyiga joylashtiradi. Otasini olib ketishgandan so'ng Husan дума va qora amma unga ota-onalik qilishadi va ular bilan birga yashaydi. Ushbu oilaning o'g'li Kimsan bilan ahdu paymon qiladi va uni yillar davomida kutadi. Kimsan urushdan qaytmaganidan keyin onasining xohishiga ko'ra tog'asi Shomurodga turmushga chiqadi va uning murg'ak go'dagiga onalik mehrini beradi. Bir umr qalbida birinchi muhabbatiga sadoqatini saqlaydi va uni qalbining tub-tubiga ko'madi. Yana bir o'g'il farzandli bo'ladi va umrining oxirigacha farzandlariga, nabiralarga sadoqat bilan xizmat qiladi.

Munavvar beozor, ma'suma qiz obrazida namoyon bo'lib, barcha kitobxonlarning ko'nglidan joy oladi. Muzaffarga bo'lgan pok sevgisi uchun kurashadi, ammo yetisholmaydi. Munavvardagi sevgiga sadoqat, onaga hurmat kabi fazilatlar o'zbekona urf-odatlariga mos bo'lib, hozirgi yoshlarimizga o'rnak bo'lsa arziydi.

Asardagi yana bir qahramonni tilga olmasak bo'lmaydi; hayot har doim ham yaxshiliklardan va yaxshi insonlardan iborat bo'lavermaydi.

Umar zakunchi obrazi haqida gap ketar ekan beixtiyor qalbimizni nafrat va g'azab egallaydi.

O'z kasbini chin dildan bajarishga urinayotganday ko'rinadigan bu inson ko'p odamlarning qalbiga ozor beradi, kasbini suiiste'mol qiladi. Frontda yurgan Shomurodning suyakli yori Ra'noni yo'ldan urib xiyonat ko'chasiga boshlaydi. Umar zakunchi o'zini kasbiga fidoiyday ko'rsatib, qishloqdagi yoshi kattalarni, yosh bolalarni va xalqni qiynaydi. Oxir oqibatda ularning g'azabiga uchraydi. Shikoyatlar tushishi natijasida u raislikdan bo'shaydi va qolgan umrini ham boshqalar ortidan fisqu fasod tarqatib o'tkazadi.

Xulosa. “Ikki eshik orasi” asarining tahlilga tortiladigan o'rinlari hisobsiz. Kitobni o'qish davomida o'quvchi yaxshilik bilan yomonlik orasidagi farqni anglay oladi, adolat va adovat o'rtasidagi kurashni ko'radi va xulosa chiqara oladi. Shuningdek, kitobxon vatanparlik, mehr-oqibat, fidokorlik tuyg'ularini o'rganadi.

O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarida ichki kechinmalarni ifodalash usullari uning badiiy mahoratini va inson ruhiyatiga chuqur e'tiborini namoyon etadi. Muallif ichki monolog, psixologik tahlil va tasviri badiiy vositalardan foydalangan holda qahramonlarning ichki dunyosini jonli va aniq tasvirlaydi. Bu esa o'quvchida qahramonlarning hissiyotlarini chuqur his qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, asarda inson ruhiyatining murakkabligi, qarama-qarshi tuyg'ular va ichki kurashlar ustuvor mavzu sifatida ko'tarilgan. O'tkir Hoshimovning ushbu asari o'zbek adabiyotida psixologik realizm yo'nalishining rivojlanishiga muhim hissa qo'shganligi bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR:

LITERARY CRITICISM

1. O'tkir Hoshimov, "Ikki eshik orasi". "Yangi asr avlodi", 2018
2. Fuzaylova, N.A. (2024). Use technology in material design, lesson procedures, and assessment. *Innovative developments and research in education*, 3(33), 141-143.
3. Fuzaylova N.A. Genre in Academic Prose: What Makes Academic Prose Different from Other Varieties // *Spanish Journal of Innovation and Integrity*. – 2023. – T. 25. – C. 34-37.
4. Nargiza Abdusamatovna Fuzaylova. (2024). Analysis of the expression and specific characteristics of neologisms in translation. *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 21(2), 175–180. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5109>
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Machine_learning

JONLANTIRISH, TAKROR VA TAQLID SO‘ZLARNING BILVOSITA TARJIMADA BERILISHI (“Der Weg zurück” (E.M.Remark) romanining kirish qismi misolida)

Mamarasulov Umid G‘ulomjonovich,

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,

Nemis filologiyasi kafedrası mustaqil izlanuvchisi

mamarasulov_u@nuu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis yozuvchisi Erix Mariya Remarkning “Der Weg zurück” (“Ortga yo‘l”) romanidan olingan parchalar asosida badiiy asarlardagi jonlantirish, takror va taqlid so‘zlarni boshqa tillarga bilvosita tarjima qilishda yuzaga keladigan o‘ziga xos muammolar tahlil etiladi. Tadqiqotda asarning nemis, rus va o‘zbek tillaridagi matnlari qiyosiy usulda ko‘rib chiqilib, tarjima jarayonida stilistik vositalarni samarali uzatish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Natijada original matnning stilistik va badiiy ta’sirchanligini saqlab qolishda qo‘llaniladigan usullar hamda ularning imkoniyat va chegaralari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: jonlantirish, takror, taqlid so‘zlar, badiiy tarjima, bilvosita tarjima, stilistik figuralar, qiyosiy tahlil, Erix Mariya Remark, «Ortga yo‘l»

КОСВЕННЫЙ ПЕРЕВОД ГЛАГОЛОВ, ПОВТОРЕНИЕ И ИМИТАЦИЯ (на примере вступления к роману «Der Weg zurück» (Э.М. Ремарк))

Аннотация. В статье рассматриваются специфические проблемы передачи олицетворения, повторов и звукоподражательных слов при косвенном переводе на русский и узбекский языки на примере фрагментов романа Эриха Марии Ремарка «Der Weg zurück» («На обратном пути»). Проведен сравнительный анализ текстов оригинала и переводов на русском и узбекском языках, продемонстрированы способы эффективного сохранения стилистических и художественных особенностей исходного текста. Результаты анализа раскрывают возможности и ограничения используемых методов, обеспечивающих адекватность и выразительность художественного перевода.

Ключевые слова: олицетворение, повтор, звукоподражание, художественный перевод, косвенный перевод, стилистические фигуры, сравнительный анализ, Эрих Мария Ремарк, «На обратном пути»

INDIRECT TRANSLATION OF VERBS, REPETITION AND IMITATION (on the example of the introduction to the novel "Der Weg zurück" (E.M. Remarque))

Abstract. This article explores specific challenges in the indirect translation of personification, repetition, and onomatopoeia, using examples from Erich Maria Remarque's novel "Der Weg zurück" ("The Way Back"). Through a comparative analysis of the original in German and its translations into Russian and Uzbek, the study identifies effective strategies for preserving the stylistic and artistic features of the source material. The findings underscore both the potential and limitations of translation techniques aimed at achieving equivalence and expressiveness in literary translation.

Keywords: personification, repetition, onomatopoeia, literary translation, indirect translation, stylistic figures, comparative analysis, Erich Maria Remarque, "The Way Back"

Kirish. Tarjima jarayonida tarjimonning diqqat markazida bo‘lishi kerak bo‘lgan masalalardan biri funktsionallik hisoblanadi. Tarjima jarayonida funktsionallik haqida so‘z borar ekan, bunda tarjima qilinyotgan asl matnning tarjima tilidagi shakli qanday vazifa bajarishi kerakligiga e’tibor qaratiladi. Bu jarayonda tarjima matnini o‘quvchilar uni qanday tushunishi va undan qay maqsadda foydalanishi nazarda tutilgan holda tarjima amalga oshiriladi. Bundan tashqari, madaniy o‘ziga xoslik ham e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan masalalar sirasiga kiradi. Xususan, madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar til elementlariga ham, kontekstual elementlarga ham tegishli hisoblanadi. Asl matn yaratilgan til egalarining madaniyatigagina xos bo‘lgan tushunchalar, so‘z birikmalari, kinoya va so‘z o‘yinlari tarjima qilinyotgan tilda tushunarli ifodalanishini ta’minlash tarjimonning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Tarjima jarayonida asl matnga sodiqlik va ifodalilikning o‘zaro mutanosibligi ham ta’minlanishi darkor. Asl matnga moslik va ifodalilik odatda bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar bo‘lib, tarjima jarayonida tarjimon bu ikkisinining o‘rtasini topa bilsagina, amalga

oshirilgan mehnat mahsuli samarali bo'lib, o'quvchilarga maqbul bo'lishi muqarrar. Matnda ifodalilik tarjima matnini o'quvchi uchun yoqimli o'qilishini shu qadar ta'minlaydiki, natijada unda matn tarjima tilida yaratilganday taassurot qoldiradi.

Metodologiya. Tadqiqot materiali sifatida “Der Weg zurück” romanining birinchi bobidan parchalar, asarning kirish qismi olingan. Ushbu parchalar muallif tomonidan nemis tilida yozilgan [11] bo'lib, ular asosida amalga oshirilgan qiyosiy tahlil uchun ikki tarjima matni tanlandi. Biri asarning rasmiy ruscha tarjimasini [12] (“На обратном пути”), ikkinchisi o'zbekcha tarjima [13] (“Ortga yo'l”).

Tahlil usuli matnshunoslik va tarjimashunoslikning tasviriy hamda qiyosiy usullari uyg'unligidadir. Avvalo, nemischa matndan stilistik figuralar aniqlab olindi va har biri morfologik jihatdan qisqacha tahlil qilindi. So'ng ushbu figurativ ifodalarning rus va o'zbek tillaridagi tarjimalari solishtirildi. Qaysi birlari so'zma-so'z tarjima qilingan, qaysi hollarda tarjimon adaptiv ekvivalent topgan yoki kompensatsiya usulidan foydalangan, qayerda qisqartirish yoki neytrallashtirish sodir bo'lgan, shu kabi jihatlar kuzatildi. Tarjima davomida stilistik effekt saqlanganmi, o'zgarganmi yoki susayganmi, natijalar bo'limida har bir stilistik figura misolida shu savollarga javob izlandi. Ish yakunida olingan kuzatuvlar xulosa qilinib, tarjima nazariyasining tegishli tamoyillari bilan bog'landi.

Natijalar. Remark asar uslubida jonli va jonsiz narsalarning jonlantirib tasvirlanishi kuzatiladi. Masalan, muallif tungi manzarani tasvirlar ekan, atrofdagi tovushlar va jismlarga jon ato etadi. Granatalar “*hiqillaydi*”, shamol “*uvillaydi*”, hatto, oy ham tuman orasida “*suzadi*”. Bunday personifikativ tasvirlar original matnda atmosfera yaratish uchun xizmat qiladi. Tarjimonlar bu o'rinlarda, odatda, muqobil ifoda topishda qiynalmaganlar, chunki ko'plab tillarda jonsiz narsalarga fe'l qo'shib, jonlantirib ko'rsatish mumkin. Misol tariqasida, matndagi “*das hohe Zwitschern der Granaten*” [11;7] degan birikmani olaylik. So'zma-so'z ma'nosi “*granatalarning jarangdor chirqillashi*” bo'lib, granata uchib ketayotib chiqargan uvullagan tovushini qushlar sayrashiga o'xshatgan. Bu yerdagi “*Zwitschern*” fe'li aslida qushlarga xos *chirr-chirr* ovozni bildiradi, granatalarga nisbat berib personifikatsiya qilingan. Rus tarjimoni bunga ekvivalent sifatida “*нуж*” so'zini qo'llagan. Rus tilida *нуж* so'zi ham jonli-jonsizlarga nisbatan ishlatilaveradi, lekin aniq personifikatsiya bo'lmasa-da, granata ovozi ifodalash uchun mos. O'zbekcha tarjimon esa “*chiyillash*” so'zini tanlagan [13;7]. *Chiyillamoq* ham odatda qush yoki kichik jonzotlarning ingichka ovozi uchun aytiladi, granata parvozigacha nisbatan ishlatib, tarjimon asl personifikatsiyani to'laqonli bera olgan. *Granatalar go'yo chirillab uchmoqda*, bu o'quvchiga eshitilayotgan ovozni jonlantirib tasavvur qilish imkonini beradi. Umuman, tahlil shuni ko'rsatadiki, personifikatsiyalarni tarjima qilish, agar ma'no jihatdan mos fe'l topilsa, ko'pincha unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Asosiy e'tibor shunda bo'ladiki, ba'zan originalda kulgili yoki noodatiy eshitiladigan jonlantirishlar boshqa tilga bevosita ko'chirilsa, kutilmagan effekt berishi mumkin.

Remark uslubida takroriy konstruksiyalar ham uchraydi. Aniqrog'i, matnda klassik anafora kam, lekin bir xil tuzilmani ketma-ket takrorlash, yoki bir fikrni bir necha marta turli shaklda takrorlab kuchaytirish usuli kuzatiladi. Masalan, “*Jeder hat hier so irgend etwas, der eine seine Frau, der andere sein Geschäft, der dritte seine Stiefel...*” [11;8] degan jumla bor. Ma'nosi “*Bu yerda har kimning o'z narsasi bor. Birovda xotin, boshqasida do'kon, uchinchisida etik...*”. Ushbu paralel tuzilma rus tarjimasida “*у каждого здесь есть что-нибудь: у одного – жена, у другого – торговля, у третьего – сапоги...*” [12;4] tarzida aynan saqlangan. O'zbekcha tarjimasida ham “*bu yerda har bir kishining shunga o'xshash ilinji bor. Kimdadir – xotin, boshqasida – oldi-sotdi, uchinchisida – etiklar...*” [13;8] deb juda muvofiq berilgan. Ko'rinib turibdiki, anaforik takror har ikkala tarjimada ham to'liq aks ettirilgan. Bu esa originaldagi ritmik ohangni saqlashga xizmat qilgan. O'quvchi xuddi nemischa matndagi kabi bu gapdagi takror qurilma orqali muallifning kinoyali ohangini his qila oladi.

Yana bir takroriy usul – gradatsiya kirish qismida urush to'satdan to'xtab qolgandagi sukunat tasvirida qo'llangan. Asl matndan iqtibos “*nichts, gar nichts mehr, kein Schuß, kein Schrei. Es ist einfach still, vollkommen still.*” [11;16] Ma'nosi “*hech narsa... umuman hech narsa yo'q, na o'q ovozi, na qichqiriq. Shunchaki sukunat. Mutlaq*”. Bu jumlada muallif avval “*hech narsa yo'q*” deya bir necha negatsiya bilan takrorlab aytadi, so'ng “*Stille.*” (Sukunat) so'zi bilan yakunlab, hatto uni keyingi jumlada “*Vollständig.*” (Mutlaq sukunat) deya mustaqil so'z sifatida takrorlaydi. Bu usul jang jarangi birdan kesilgandagi quloqni tirmaydigan sokinlik effektini o'quvchiga kuchli yetkazadi. Ruscha tarjima buni deyarli aynan aks ettirgan: “*Ни взрывов, ни свиста гранат – вообще ничего, ни выстрела, ни крика. Просто тишина. Полная.*” [12;12]. E'tibor bersak, rus tilida ham “*тишина. Полная.*” (Sukunat. To'liq.) deb yakunlangan, ya'ni “*Vollständig*” so'zi alohida “*Полная.*” sifatida qo'yilgan. O'zbekcha tarjimada ham shu yechim ko'rinadi. Katta ehtimol bilan “*Mutlaq sukunat*” tarzida berilgan. Aslida bizning qo'limizdagi matnda “*xuddi sukunat bo'lmagandek...*” degan parcha bor, biroq yuqoridagi jumlaning aynan tarjimasini unda ko'rmaymiz. Shunga qaramay, izchil mantiq bilan, o'zbekcha nashr ham “*Sukunat. Mutlaq.*” yoxud “*Mutlaq sukunat*” shaklini qo'llasa maqsadga muvofiq bo'lardi. Natijada, bu manzaraning kulminatsion ohangi to'satdan

boshlangan sukut o'z ta'sirini tarjimada ham yo'qotmagan. Umuman, tarjimalar davomida muallif qo'llagan takror va ellipsislar e'tibor qaratilgan. Masalan, original matnda dialoglarda ba'zan gaplar tushib qoladi yoki nimadir aytilmay qoladi. Bular dramatik ta'sir beradi. Rus va o'zbek tarjimonlari ham shunday joylarda aslga sodiq qolishga urinishgan, ortiqcha so'z qo'shmasdan, bo'shliq va pauzalarni saqlashgan. Masalan, yuqoridagi "stille. Vollständig." singari qisqa gaplar tarjimada ham alohida gap qilib berilgan. Shuningdek, askarlar hayratlanib "Frieden?... Frieden?" "Tinchlik?... Urush tugadi?" deya bir necha bor qaytarishadi. Bu takroriy savollar har ikki tarjimada alohida so'roq gaplar sifatida ifodalangan. Bu degani, tarjimonlar takrorning stilistik funksiyasini yaxshi anglab, uni matn ravonligi va ta'sirchanligini saqlash uchun iloji boricha to'liq yetkazishgan.

Roman kirishida eng ko'zga tashlanadigan unsurlardan biri tovush tasvirlari, onomatopoezik so'zlardir. Urush manzarasini real his ettirish maqsadida Remark turli tovushlarni matnda taqlidiy so'zlar orqali bergan. granatalar uvillaydi, qanotlar "tapir-tupur" qiladi, pulemyotlar "taral-taral" ovoz chiqaradi, askar charchab uhlaganda xirillaydi va hokazo. Bu *lautmalerisch*, taqlidga asoslangan, uslub asarda atmosfera yaratishda muhim bo'lib, tarjimada uni adekvat yetkazish alohida usul hisoblanadi, chunki har bir tilning tovush taqlidi o'ziga xos. Qiziqarli jihati ruscha va o'zbekcha tarjimalar bu masalada bir-biridan farqli yondashgan.

Misol tariqasida, yuqorida qayd etganimiz pulemyot tovushini olaylik. Asliyatda muallif "das Knarren von Maschinengewehren"[11;7] deya ifoda qo'llaydi. *Knarren* – nemis tilida o'zi bir onomatopoezik so'z bo'lib, "qarsillamoq, g'ichirlab ovoz chiqarmoq" degani. Pulemyotga nisbatan ishlatib, muallif uning tarillagan ovozini eslatmoqda. Ruscha tarjimada esa bu joyda onomatopoeziya qisqartirilgan. "пулеметные оцепеду"[12;3] deb texnik-ta'rifiy ibora bilan almashtirilgan. Rus tilida *Knarr* degan so'z yo'q, "тапатата" kabi tovushlarni bevosita badiiy matnda yozish odat tusiga kirmagan. Shu bois tarjimon ruscha o'quvchiga tanishroq, neytral ifodani tanlagan. "pulemyot navbatma-navbat o'q uzmoqda" degan ma'noni bildirgan. O'zbekcha tarjimada esa aksincha, tarjimon tovushga taqlidni to'liq saqlagan, "o'qsocharning tarillashi"[13;7] deb yozadi. Bu yerda *tarillash* so'zi o'zbek tilida onomatopoezik bo'lib, "taral-taral ovoz chiqarmoq" ma'nosini beradi, xuddi "tarillatmoq" fe'liga o'xshash. Ya'ni, o'zbekcha matnda pulemyotning jarangdor ovozi eshitaladi – "tar tar tar" qilayotgandek tasavvur paydo bo'ladi. Bu farq shuni ko'rsatadiki, ruscha tarjimon bu holatda aniqlik va rasmiy uslubni ma'qul ko'rgan bo'lsa, o'zbekcha tarjimon matnga ko'proq obrazlilik berishga intilgan. Har ikkala yondashuvning o'z afzalliklari bor: ruscha variant *aniq va tushunarli* (har bir o'quvchi "pulemyotning navbati" deganda nimani anglashi muqarrar), o'zbekcha variant esa *eshitiladigan manzarani jonliroq tasvirlaydi*.

Boshqa onomatopoezik misollar ham shu tendensiyanı tasdiqlaydi. Masalan, yovvoyi g'ozlarning tovushi. Aslida Remark g'ozlar uchib o'tganda ularning sasini "quarrende, fremde Rufe"[11;11] deb tasvirlaydi – *quarren* so'zi g'ozlarning bo'g'i q "g'ag'ag'a" ovozini eslatadi. Ruscha tarjimada bunga juda mos "клекот" so'zi tanlangan – *клеком*[12;9] ham g'oz va turnalarning qag'illashini ifodalovchi onomatopoezik so'z, rus o'quvchisiga tanish. O'zbekcha tarjimada esa g'ozlarning sasini "ga'gillagancha" deb ifodalaydi, bu ham albatta "g'a-g'a" degan tovushdan olingan, g'ozlar g'ag'illashi uchun juda mos so'z. Demak, bu joyda har ikki tarjimon originalning tasvirini to'laqonli ekvivalent bilan bera olgan. So'ng, Kozole to'satdan miltiq otganda, matnda "Ein Schuss knallt." deyiladi – *knallt* ham "qarsilladi, tarang ovoz chiqardi" degan onomatopoezik fe'l. Ruscha variant: "Раздается выстрел." (Otishma yangradi) deb baralla yangradi ma'nosida neytral aytilgan, hech qanday "taraq" degan ovoz kiritilmagan. O'zbekchasida esa "O'qlama shiqillaydi." deb tarjima qilingan. *Shiqillamoq* o'zbek tilida nisbatan onomatopoezik – qattiq sado uchun ishlatiladi. Bu holda ham ruscha matn voqeani aniq ta'riflash bilan cheklandi, o'zbekcha matn esa tovushni ham eshittiradi.

Keltirilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, o'zbekcha tarjima tovush effektlarini berishda jur'atliroq yo'l tutgan – askarlar nutqida va tasvirlarda tovushga taqlidli so'zlarni ko'proq qo'llagan. Ruscha tarjima esa ba'zi joylarda bunday taqlidiy so'zlardan qochib, sodda tasviriy yo'lni tanlagan (masalan, granata "uvillashi"ni "uvillagan ovoz" deb tasvirlash, pulemyot tarillashini "navbatli o'q" deb tushuntirish kabi). Buning sababi sifatida, ehtimol, rus adabiy uslubida bunday haddan ziyod onomatopoezik tovushlarni jiddiy nasrda kamroq qo'llash odati bo'lishi mumkin – ko'p hollarda ortiqcha taqlidiy so'zlar matnga komik ohangi berib qo'yishi ehtimoli yuqori deb qaraladi. O'zbek adabiyoti esa, ayniqsa, jangovar sahnalarni tasvirlashda, bunday ta'sirli tovush so'zlardan foydalanishga yot nazar bilan qaramaydi, balki matnni boyituvchi vosita deb biladi – tarjimada shu narsa yaqqol namoyon bo'lgan.

Munozara. Yuqoridagi natijalar stilistik figuralar tarjimasi bo'yicha bir qator qiziqarli xulosalarni ko'rsatadi. Personifikatsiya tarjimasida ko'rilganidek, aksar jonlantirilgan tasvirlar rus va o'zbek tillarida imkon qadar saqlangan. Ba'zi personifikativ iboralar uchala tilga xos bo'lsa, masalan, "oy suzdi", "shamol uvilladi", albatta o'sha bilan berilgan. Muhimi, uslubiy detal sifatida personifikatsiyalar e'tibordan chetda qolmagan. Takror va ellipsisga nisbatan, tarjimalarda matnning ritmi va intonatsion qurilmasi asliyatga yaqin

saqlanganini ko'ramiz. Remark keltirgan parallel qurilmalar, Der eine ... der andere... ham, ketma-ket sanab intensivikasiya qilish, na ovoz, na qichqiriq... mutlaq sukunat, ham rus va o'zbek tillarida o'xshash tarzda takrorlangan. Shuningdek, dialoglarda muallif qo'llagan ba'zi tushib qolgan gaplar tarjimada ham tushirilgan holda qolgan. Natijada, originaldagi intonatsiya va pauzalar tarjimada ham o'quvchi uchun seziladi. Taqdim qilingan – bu matnning hissiy quvvatini oshiradi. Bu jihatdan har ikki tarjimon original sintaktik uslubiga sodiq qolishga intilgan deyish mumkin.

Onomatopoeziya – tovushga taqlid masalasida esa qiziqarli bir holat kuzatildi. Ruscha va o'zbekcha yondashuvlarning farqlanishi. Yuqorida ko'rganimizdek, ruscha tarjimon ba'zi joylarda onomatopoezik so'zlardan qochgan, texnik tavsif bilan almashtirgan (pulemyot tarillashi – “navbatli o'q otish” va hokazo). Aksincha, o'zbekcha tarjimada tovushni eshittirishga katta e'tibor qaratilgan (“tarillash”, “xirr-pish” va hokazo so'zlar qo'shilgan). Bu farq ikki til madaniyati va adabiy uslubidagi tafovutdan kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin. Chunki rus nasr an'anasida bunday ovoz ifodalarini ko'p ishlatish jiddiylikdan chekinish deb qaralishi mumkin, o'zbek badiiy nasrida esa bunday vositalar odatiy hisoblanib, kutilgan estetik ta'sirni oshiradi. Tarjima nazariyasi nuqtai nazaridan olib qaraganda, yuqoridagi holatlar bir necha muhim prinsiplarga e'tibor qaratadi. Birinchidan, badiiy tarjimada stilistik vositalar aslo ikkinchi darajali deb qaralmasligi lozim, chunki ular asarning mazmun-mohiyatining ajralmas qismidir. Ma'lumki, jahonda mashhur tarjimashunos Mona Bekker stilistik jihatdan qiyin o'tadigan joylarda tarjimonlar ko'pincha bir joydagi yo'qotishni boshqa bir joyda kompensatsiya qilishlari zarurligini aytadi. Umumiy estetik ta'sirni saqlab qolish uchun shu shart. Yuqorida ko'rilgan misollarda ham aynan shunday ekanini ko'ramiz: masalan, nemischa matndagi “Kohldampf” iborasi tarjimada yo'qoldi, lekin o'sha epizodning o'zida “qorning g'uldurashi” degan oddiyroq ibora bilan tasvir berildi va darhol ortidan Yuppaga nisbatan qo'llangan hajviy atamalar (ruschasida “канселярская крыса”, o'zbekchasida “qog'ozboz”) bilan nutq ohangi balanslandi. Xuddi shunday, o'zbekcha tarjimon ba'zi joylarda kuchliroq laqab va taqlidiy tovushlarni kiritib, balki boshqa bir joyda yumshatilgan effektini qoplad; ruscha tarjimon esa aksincha, matnni silliq va bosiq uslubda ushlab turish uchun ba'zi bezaklarni olib tashlab, muhim joylarda originalning ohangdorligini qoldirdi. Bu tarjimonlarning ijodiy yondashuvi natijasida asar o'quvchisiga deyarli asl asardagi kabi ta'sir ko'rsatishining garovidir.

Xulosa. Erix Maria Remarkning “Der Weg zurück” romanidagi boy stilistik figuralar uch til – nemis, rus va o'zbek – tillari orasida qiyosiy tahlil qilinar ekan, quyidagi xulosalarga kelindi:

Jonlantirish usuli tarjimalarda imkon qadar asliga sodiq qoldirilgan. Muayyan personifikatsiyalar mazmunan ma'qul bo'lganida, tarjimonlar ularni aynan o'g'irgan. Faqat ba'zi nooddiy personifikatsiyalar oddiyroq ifoda bilan almashtirilgan. Umuman, tarjimalarda originalning badiiy tasvir uslubiga hurmat saqlanib, personifikatsiyalarning stilistik vazifasi mukammal ado etilishiga erishilgan.

Takror va ellipsis original matndagi nutq ohangi va ritmini belgilovchi omillar sifatida tarjimonlar diqqat markazida bo'lgan. Takrorlar, parallel qurilmalar va kulminatsion takrorlar tarjimada ham aks ettirilgan. Ellipsislar, tushib qolgan so'z va gaplar, asosan saqlanib, keraksizlari kiritilmagan. Bu esa tarjima matnining uslubiy mutanosibligi yuqori ekanini ko'rsatadi va originalning ritorik-ta'sirchan tomonini o'quvchiga yetkazadi.

Onomatopoezik vositalarni qo'llashda ruscha va o'zbekcha tarjimalar biroz farqlanuvchi strategiya tanlashgan bo'lsa-da, har ikkisi yakunda originalning akustik manzarasini yetarli darajada qamrab olgan. Ruscha tarjimada ba'zi tovush taqlidlari neytralroq tasvir bilan almashtirilib, matn ravonligi va jiddiy ohangiga urg'u berilgan. O'zbekcha tarjimada esa, aksincha, ta'sirli ovoz tasviriga e'tibor kuchli. “tarillash”, “chiyillash”, “xirr-pish” kabi taqlid so'zlar faol ishlatilgan. Ikkala yondashuv ham o'z o'rnida samarali. Ruscha variantda aniqlik va ravonlik bilan ustun tursa, o'zbekcha variantda o'quvchini qo'shimcha sezish hislari bilan ta'minlaydi. Muhimi, originaldagi asosiy tovush obrazlari hech qaysi tarjimada e'tibordan chetda qolmagan.

Yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda shuni ta'kidlash mumkinki, tarjima jarayonida e'tibor berilishi kerak bo'lgan muammolar izchil tadqiq etish va misollar yordamida batafsil yoritilishi dolzarb bo'lgan masalalar tarkibiga kiradi. Shuni e'tiborga olib, mazkur sohada zamonaviy manbalardan foydalanilgan holda qator izlanishlar olib borilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. Salomov G'. *Tarjima nazariyasiga kirish*. Toshkent. O'qituvchi 1978, 220 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati: -T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 -680 b.
3. Dieter Gyots. *Taschenwörterbuch Deutsch als Fremdsprache*. Langenscheidt KG Berlin und München., 2007. – 635 S.

4. Hojiahmedov A. *She'riy san'atlar va mumtoz qofiya*. – T.: Sharq, 1998. – 160 b.
5. Ilka Peshek. *Das Wörterbuch der Synonyme*. Berlin, Dudenverlag 2016. – 352 S.
6. M. G. Sushko-Bezdenenik. *Стилистика немецкого языка*. Sumi: Sum DPU, 2011. – 120 c.
7. Naer, Nina Mixaylovna. *Stilistik der deutschen Sprache: Uchebnoe posobie* / N. M. Naer. – Moskva: MPGU, 2015. – 256 c.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati: -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.
9. Pan G. V. *Deutsche Stilistik* T.: 2010. – 280 S.
10. Quronov D. *Adabiyotshunoslik lug'ati* / D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheralieva. – Toshkent: Akademyashr, 2013. – 408 b.
11. Remark E. M. *Der Weg zurück*. Berlin. Im Propyläen-Verlag 1931. – 289 S.
12. Remark E. M. *На обратном пути* [перевод с немецкого Е. Шукишиной]. – Москва : Издательство АСТ, 2021. – 352 c.
13. Remark E. M. *Ortga yo'l*. Saidjalol Saidmurodov tarjimasi T.: Faktor books, 2022. – 320 b.
14. Nazarov Q.N., Xolmatova I.M. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. (ma'ruzalar matni) Andijon. "Malxam-M" KTICHSK 2005– 44b

BOLALAR SHE'RIYATIDA RAMZIY OBRAZ VA TALQIN

Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna,

Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bolalar she'riyatidagi ramziylik, tamsiliy ifodalar, jumladan, H.Imonberdiyev ijodidagi noan'anaviy obrazlar va syujetli she'rlar tahlil qilingan. Shoir she'rlaridagi o'ziga xosliklar hamda bolalar adabiyotidagi yangilanishlar qushlar, jonivorlar, hayvonlar timsolining majoziy ifodasi misolida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: majoz, tamsil, syujet, allegoriya, ramz, kompozitsiya, erk, ozodlik, motiv, hikoya, satirik, g'oya, badiiy detal.

СИМВОЛИЧЕСКИЙ ОБРАЗ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В ДЕТСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. В статье анализируется символика и образные выражения в детской поэзии, в том числе нетрадиционные образы и сюжетные стихотворения в творчестве Х. Имонбердиева. Раскрываются особенности стихотворений поэта и новаторство в детской литературе на примере образных выражений птиц, животных, анималистических символов.

Ключевые слова: метафора, представление, сюжет, аллегория, символ, композиция, воля, свобода, мотив, художественный, история, сатирический, идея, художественная деталь.

SYMBOLIC IMAGE AND INTERPRETATION IN CHILDREN'S POETRY

Abstract. The article analyzes symbolism and figurative expressions in children's poetry, including unconventional images and plot poems in the work of H. Imonberdiev. The peculiarities of the poet's poems and innovations in children's literature are revealed on the example of figurative expressions of birds, animals, and animal symbols.

Keywords: metaphor, representation, plot, allegory, symbol, composition, will, freedom, motif, artistic, story, satirical, idea, artistic detail.

Kirish. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, bolalar adabiyoti, ayniqsa, she'riyati yanada takomillashdi va rivojlana boshladi. Buni biz bugungi kunda o'zbek bolalalar she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi, tamsil san'ati va obrazlar olami, ramz va motivlarning g'oyaviy dolzarbligi, badiiy-estetik vazifalarini teran tadqiq etish ehtiyojini yuzaga keltirganini kuzatishimiz mumkin. She'rlarda aks etgan ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-badiiy ifodalar yosh avlodning jamiyatga, ijtimoiy hayotga munosabatini faollashtiradi va ma'naviy-madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalab borishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik o'zbek bolalar she'riyatiga ham yangilanishni boshlab berdi, deyish haqiqatga to'g'ri keladi. Bu nafaqat yosh shoirlarning yangi qadami, balki yetakchi bolalar shoirlarining noan'anaviy ijodi bilan ham belgilanadi.

Shoirlarning she'rlarida ramziy obrazlar mohiyati, yetakchi motivlar hamda shoir ijodi o'zbek bolalar she'riyatidagi poetik tafakkur yangilanishi namunasi ekanligi she'rlardan keltirayotgan parchalar asosida kuzatish mumkin. Bolalar olamni o'zicha idrok qiladi. Haqiqatan ham biz uchun oddiy tuyulgan narsalar ular ko'z o'ngida fojiaiy ko'rinishi, kattalar uchun dardli va armonli tuyulgan, yechilmas masalar ular nazarida oddiy yechimini topish mumkin.

Asosiy qism. Iste'dodli bolalar shoiri Hamza Imonberdiyev, avvalo, shu jihatlarni noziklik bilan payqagani ular olamini o'zigacha aks ettira olishi bilan ajralib turadi. Shoir asarlarining mavzular olami rang-barang, mazmuni keng, badiiy darajasi yuksak. H.Imonberdiyevning boshqa bolalar shoirlaridan farqi faylasuf tarbiyachiligida. U har bir katta-kichik asarida yosh kitobxon do'stlarini nimagadir o'rgatadi, ularni turmush tajribalaridan xulosa chiqarib yashashga chorlaydi. H.Imonberdiyev bolalar qalbini so'zlatishdan tashqari, o'ychan falsafiy keng mushohadali she'rlarni ko'p yozadi. U kichkintoylarni olam mo'jizalari, hayotdagi ijtimoiy dolzarb muammolar siyosiy voqealar, insonning huquqlari, erk va ozodlik to'g'risida mulohazalashga undaydi.

Shoir she'rlaridagi badiiy ifoda ko'proq aql prizmasidan o'tkaziladi. Bu kichkintoylarga murakkab munosabatlarni ifodalay olish san'ati hamdir. Muallif hamisha voqelikka bolalar tasavvuricha yondashadi, ularni talqin etishda esa yetuk tafakkurini ishga soladi. Xulosalashda tarbiyachilik mahoratini namoyon etadi.

Shuningdek, H.Imonberdiyevning she'riy misralarida tizilgan so'zlar, bola qalbining nozik tuyg'ulari jilovini taranglashtirib, yangi kashfiyotlar sari yetaklaydi. Shoir she'rlarida bola qalbidagi mehr-muhabbat, sog'inch, armon, o'kinch, nafrat kabi his-tuyg'ular asosiy motiv bo'lib xizmat qiladi.

Aytaylik "Ona Orol" she'rida ulkan ijtimoiy-siyosiy g'oya bolalar tafakkuriga yaqin tushunchalar orqali talqin etilgan.

Bolajonim Amu, Sir
O'ynab qoldi qaydadir
Ko'p sog'indim ichikdim
Nega ular kechikdi. [1,28]

She'rning dastlabki misralaridayoq bolalar ruhiga, didiga mos uslub ko'zga tashlanadi. Shoir hayot manbai hisoblangan suv va uning qadrini, ayni paytda, O'zbekistonda yuzaga kelgan ekologik muhitning buzilishiga sabab bo'lgan fojialarni ona Orol nidosi orqali tasvirlash uchun kichkintoylar olamiga juda tanish yaqin bo'lgan manzarani chizadi. Amu bilan Sir go'yo o'z onasi bag'rini to'ldirib turgan sho'x, pahlavon qo'sh o'g'illar. Ammo ular "qaydadir o'ynab qolgan" shu sababli ona Orol mungli bo'zlaydi:

Bag'rim qoldi huvillab,
Sur shamollar guvillab,
Ko'zimga qum purkaydi,
Bir lahza jim tursaydi.

Ma'lumki, serquyosh o'lkamizning mo'tadilligini ta'minlovchi yakka-yu yagona dengiz bu – Orol edi. Unga Amudaryo va Sirdaryo muntazam o'z suvini quyib turgan. Faqat so'nggi 50-60 yil davomida bu tabiiy jarayonga darz ketdi. Sababi, paxta yakka hokimligi davrida bo'z va qo'riq yerlarni o'zlashtirilishi bu ikki daryo suvining keskin kamayib ketishi, natijada Orol dengizining quriy borib, voha ekologik muhitiga ta'sir ko'rsatgani ma'lum.

Hodisaning salbiy ta'siri kattalar uchun yaqqol anglashilsa-da, bugungi yosh avlod bu fojeani darhol anglamasligi, u haqdagi tasavvuri yo'qligi tabiiy. Shu sababli shoir bunda barcha kichkintoylar qalbiga juda yaqin tuyg'u – ona va bola munosabati, ayniqsa, ularningayriliqdagi iztirobi ko'rinishida tasvirlaydi. Natijada, ona Orol "o'z o'g'illari" ni sog'inib, qo'msab, bo'zlaydi, ammo umidini yo'qotmaydi:

Kuta-kuta toldim-ku,
E, voh, cho'kib qoldim-ku.
To'ldirsa deb bag'rimni,
Olishsa deb dardimni,
Umid bilan kutayman,
Yoshim ichga yutyapman.
Bergan sutimni oqlab,
Kelib qoladi o'ynoqlab.

Shoir bundagi o'lkaning ekologik holati qayta tiklanishi, ijobiy o'zgarishlarga ishonch tuyg'usini shu tariqa yosh avlodga ham singdirishga erishadi. Shuningdek, yoshlarni suv qadriga yetish uni tejash orqali ona Orolga yordam berishi mumkinligi ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. "Bizning adabiyotimiz, – deb yozgan shoir Omon Matjon, - tarixi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Aruz xalqimizning tarixini yozsa, poyeziya esa uning qo'shig'idir.

Ta'bir joiz bo'lsa, H.Imonberdiyev she'rlari bolalar poeziyasida shunday tarixiy voqelikni ijod etuvchi qo'shiqlardir. Xalqda: osmonga tupursang tupurgung yuzingga sachraydi; birovga chuqur qazisang, unga o'zing qulaysan, degan iboralar bor. Bu borada juda ko'p ertaklar, rivoyatlar yaratilgan. Hamza Imonberdiyevning "O'q" she'ri shunday rivoyatlar ta'sirida yozilgan voqea yosh kitobxonlarga havola qilinadi. Kamondan bemavrid aytilgan o'q hayotda bosar-tusarini bilmaydi, u o'ta dahshatli, qasd olish ishtiyoqida hammaga dag'-dag'a qiladi. O'q hech kimni nazar-pisand qilmaydi, chor tomonni nobud qilaman, otaman, bag'rini tilaman o'ldiraman, deb oldinga intilaveradi. Go'yo "emish kasbi zahar sochmoq ilonning" dek. Shoir "o'q"ni va u ro'baro' kelgan narsa va jonivorni jonlantiradi. Bolalar uchun mavhum tuyulgan hodisa tanish manzarada namoyon bo'ladi.

Kelib qoldi ro'baro',
Ona jayron yo'lida.
Qochar jayron quyunday,
Tuyog'idan chaqnar o't.

–

Jon o'q tegma, uyimda

Kutar bolam, ko'zi to'rt!
O'q voz kechib nishondan

O'tib ketdi bir yondan. [1,31]

Haqiqatan, g'ayritabiiy, ishonish qiyin holat. Ammo adabiyotdagi ma'naviy va lafziy san'atlar yordamida ishonarli tasvirlanishi bizga ma'lum. Zotan, "Intoq" san'ati "so'zlatish", "gapirtirish" ma'nosini anglatib, badiiy asarda hayvonlar yoki jonsiz narsalarni odamlarga o'xshatib so'zlatishni nazarda tutadi.

H.Imonberdiyev she'ridagi jayronning nolasi tufayli o'qning uni chetlab o'tishi ramziy ma'noga ega. Unda o'q yo'llagan shum niyatli kishining o'zi shu o'qdan ajal topishi, ya'ni "birovga choh qazisang, o'zing yiqilasan"- degan mantiq badiiy teran ifodalangan. Shu sababli "O'q" o'z yo'lida bag'ridagi inlarga polaponlar bor chinorni ham, "yuz mingta bitmas yarali" yerni ham chetlab o'tadi. U "o'qligidan ming nolib olislarga, yer dumaqloqligi bois, uchgan joyiga qaytib keladi: Xuddi shu payt shum kishi, Boshqa o'qni joylardir, Alamli qayrab tishin, kimlarnidir poylardir, kelib sanchildi, o'q shundoq orqasiga".

She'ning xulosalanishi shu ma'noda ham kitobxonni quvontiradi. Ayniqsa bolalar orasida kim haddidan oshsa, yon-atrofdagilar bilan hisoblashmay, o'ziga ortiqcha bino qo'ysa, yomon niyatli, xudbin bo'lsa, jazosiz qolmaydi degan tushuncha bor. O'qning o'z "egasi"ni halok qilinishida odil hukm mavjud.

Ma'lumki, bolalar tabiatan atrof-olamga, jonivorlaru o'simliklarga mehr-muhabbatli bo'lishga moyil. Ular hatto har bir hasharotga ham ozor yetkazmaslikka, uni eng ardoqli narsalaridek e'zozlashga harakat qiladilar. Shundan bo'lsa kerak, H.Imonberdiyev "O'q" she'rida eng ongsizlarcha boshqarilayotgan, yo'llangan joyiga borib tegishi muqarrar bo'lgan jayronu chinorga rahm qilib, chetlab o'tishini ishonarli tarzda, bola xarakteri, tasavvuriga yaqin aks ettiradi. Va unga singdirilgan g'oya umum ahamiyatga egaligi shubhasiz. Shoirning "Tarbiyachi" she'rida bolalar uchun mavhum hisoblanuvchi insof, adolat, or-nomus, vijdon kabi tushunchalar mohiyati ochib berishga harakat qilingan. She'rdagi lirik qahramonning ijobiy fazilatlarini birov unga hadya qilmaydi, balki o'zida shakllanadi, ya'ni o'zini-o'zi hamisha kuzatib, o'zidagi noo'rin xatti-harakatlarni tuzatib boradi. Bunda uning asosiy tarbiyachisi esa vijdoni bo'lib, shu kuzatuvi uni har doim to'g'ri yo'ldan yetaklaydi, adashsa to'g'ri yo'lga boshlaydi:

Tunov kuni futbolga
Ketayotsa tez shoshib,
Ko'zi ojiz chol yo'lda
Turgan ekan adashib.

Bolaning futbolga ishtiyoqi qanchalik zo'r bo'lmasin, u tarbiyachisi –vijdoniga qarshi bora olmaydi, boboning "qo'llaridan olib, yo'l ko'rsatadi".

Hamza Imonberdiyev bolalar ruhiy olami, qiziqishi va orzu-havaslarini teran anglaydi. Kichkintoylarning hayvonot olamiga mehri balandligi, jonivorlarni do'st tutib, ularni parvarishlashi shoir she'rlarida ko'p uchraydi. Shu ma'noda uning qator she'rlari qushlar, jonivorlar haqida. She'rlarning syujetligi, obrazlarning ramziyligi esa ijtimoiy hayotdagi jiddiy muammolarni qamrab olgani, falsafiy mushohadalarga boyligidan dalolat beradi. Jumladan, "Baliqcha" she'rida bir qaraganda oddiy va zavqli tuyulgan baliq ovi jonivorlar olami nuqtai nazaridan tasvir etiladi. Shoir bunda ham voqeaga eng avvalo bolalik olami nuqtai nazaridan yondashadi:

Ko'zda yosh jala-jala
Baliqcha qilar nola.
Oyimni qutqaringlar
Sazan tog'a, karp xola.
Olib qochdi onamni
Manavi ko'zi ola!

Taassufki, ilmoqdagi chuvalchang ham "ayb menda mas" deb arang boshini chayqaydi. Qolgan baliqlar esa "ko'rgulik bu, chora yo'q" deb ko'zlarini lo'q qilib turishsa, Ilonbaliq "yig'ishtir nolishingni", deya do'q uradi. Baliq bola battar "charx urar", ko'zlarini yoshi "jala-jala" ligicha o'ksinadi:

Bilmaganga olasiz,
Qanday tog'a xolasiz?!

Chorasiz qolgan baliqcha, ko'zini yumib, "hammani qorong'ida qoldirish" gagina kuchi yetadi. Onasidan ayrilib qolgan baliqchani o'z yaqinlaridan ilinj kutib, dushmandan nafratlanayotgan alamzada jonivor timsoli inson olamiga ko'chirilsa qanchalik qayg'uli ekanligi his qilinadi. Ammo odamlar uchun shunchaki ermak, yoxud qiziqishga aylanayotgan bu hodisaning alamli tomonini bolalar ko'proq his qilishadi. Ularda kattalardan ko'ra ko'proq baliqchaga achinish hissi ortib, ovlash emas aksincha, ko'paytirish ishtiyoqi paydo bo'ladi. She'rdagi ramziylik ham aslida shu ma'noda dolzarb. Baliqcha – bu jamiyatning chorasiz, jafokash insonlari Chuvalchang ular payiga tushgan, tekinox'r, manfaatparast amaldorlarga laganbardorlik qiluvchi qo'g'irchoq kimsalardir. "Ilonbaliqlar" ham xalq boshida nomigagina rahbarlik qiluvchi, aslida har bir yaxshi-yomonni "ko'rgulik" deya o'z shaxsiy manfaatini xalq dardidan ustun qo'yadigan tovlamachilar hisoblanadi. Zahmatkash xalq barchasiga ko'z yumishdan o'zga chora topolmaydi.

Hamza Imonberdiyev bolalar uchun yozgan she'rlarida bu kabi siyosiy dolzarb g'oyalarni omuxtalashtirishning zaruriyligini his qila olgan shoirlardan. Shu sababli shoir she'rlarini kattalr ham sevib o'qiydi.

Umuman, bolalar uchun yaratilgan asarlarda kimning nuqtayi nazari bosh o'rinda turishi muammosi adabiyotshunoslikdagi bahsli munozaralardan hisoblanadi. Masalan, A.Kurilov bolalar adabiyotida voqelik bolalarga xos, faqat bolalar nuqtai nazaridan badiiy tadqiq etilishini yoqlagan bo'lsa A.Pushkin bu fikrga qarshi o'laroq, shunday mulohaza yuritadi: "Ehtimol, bolalar adabiyoti ham adabiyotligini, san'atning bir turi ekanligini eslash zarurdir. Shunga ko'ra, bolalar ijodkori ham kitobxonga barcha san'atkorlar kabi tasvir etilayotgan voqea-hodisaga bo'lgan munosabati, g'oyasi baho va xulosalarini singdirishi lozim. Binobarin, u o'z g'oyalarini bolalarning qiziqish va nuqtai nazariga moslab talqin etishi shart".

Darhaqiqat, bolalar adabiyotida voqelikni tasvirlash usuli turlicha. Binobarin, rus adabiyotining ulug' tanqidchisi V.G.Belinskiyning bu haqdagi fikrlari masala mohiyatini teranroq ifodalagani ayonlashadi. "Ijodkor (bolalar ijodkori - B.J.N.Sh.) – deb yozadi u, – hayotdagi voqelikni saralab, ikkita hodisani bitta nuqtada birlashtirib, bolalarga ma'lum xulosani aytadi".

Demak, shoirlarning ijtimoiy masalalar haqidagi qarashlarning badiiy talqinida bolalik olamining, ular dunyoqarashining mavjudligi va uyg'unligi she'rlarini bolalar adabiyoti doirasiga kirishini ta'minlaydi. Aytish mumkinki, H.Imonberdiyev she'rlaridagi uyg'unlik, avvalo, shunda. Shuningdek, shoir she'rlarining aksariyatida ona va bola obrazi mavjud. Bu esa dastlab tabiiy hayot qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Chunki hech bir xilqatni, jonzotlarni busiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli onani bolasiz, bolani onasiz tasavvur qilish alamli va firoqlidir. Badiiy asarda ham bu ifoda fojaviy qismat belgisi bo'lsa, ularning birgalikdagi hayoti faravonli hisoblanadi. Shoirning yuqorida tahlil etilgan "Ona Orol", "Baliqcha", "O'q" she'rlari bu jihatdan fikrimizni asoslaydi. Bolalar adabiyotida qadrlanuvchi yana bir jihat bu asardagi tarbiyaviylik. Xususan, bolaning o'z oilasidan o'rgangan ko'nikmasi, uning kelajagini belgilovchi buyuk omillardan biridir. Shunday xususiyat badiiy asarda xoh ramziy, xoh real tasvirlansin, u birdek e'tirofqa sazavor. Hamza Imonberdiyevning "Sinov" she'ri shu jihatdan ibratli. Unda eng jasur, kuchli va bahaybatli ovchi qush burgutning o'z bolasini parvozga o'rgatishidagi matonati badiiy aks ettiriladi:

Hayajonda Ona burgut,
Iztirobda yonar burgut,
Ne uchundir ko'p bezovta,
Quyi boqar ming azobda.
Chunki tog'lar qoyasida,
Baland chinor soyasida,
Burgutchasi qanot qoqar,
Indan unga intiq boqar,
Ferdishchenko oxir-oqibat o'ziga o'xshashini tanlashga qaror qildi. Ochlik va yong'inlar ahmoqlarga tushdi. Xronikachi bu falokatlarini giperbola yordamida tasvirlaydi. Brigadirning bema'ni sayohatini tasvirlash uchun fantastika va kinoya kiradi. U o'z fuqarolarining inoyati bilan xayr-ehson qilishni, o'z inoyati bilan hosilni uyg'otishni rejalashtirdi.

Satira va kinoyadan foydalangan holda, xronikachi bo'yoqlarda chorva mollarini haydab chiqarishni namoyish etadi, unga ko'ra Ferdishchenko o'z mulozimlari – ikki nogiron askar bilan bir chetidan ikkinchisiga sayohat qiladi. Shunday qilib, M.E. Saltikov-Shedrin graf Orlovning Rossiyaning janubidagi mashhur sayohatlarini parodiya qiladi. Bunday sayohatlarning mohiyati bo'sh vaqt va ajoyib ziyofatlar, tushliklardir. Bu brigadirning butun sayohatini to'ldiradigan tushlik. Smetana ichidagi cho'chqadan keyin uning yuzidagi qandaydir ma'muriy tomir "titrab, titrab ketdi va to'satdan qotib qoldi". Ferdishchenko ochko'zlikdan vafot etdi. Bu uning ulug'vor hayotining natijasidir[2].

"Bir shahar tarixi" yozuvchi Saltikov-Shedrin ning birinchi rus satirik kitoblaridan biri bo'lib, hech bo'lmaganda XIX asr uchun bu janrdagi eng keskin va shafqatsiz kitobdir. Biroq, uning qadr-qimmati shafqatsiz kuch va irodasiz xalqning kaltaklanishi bilan cheklanmaydi. Shedrin ning kitobi risola emas, balki janrlar bilan mohirona o'ynaydigan katta adabiyotdir[6].

Biror joyda, rivoyat mutlaqo bema'nilikka aylanadi-masalan, dvoryanlar rahbari mayor Pimple to'ldirilgan boshga ega ekanligini bilib, uni iste'mol qilishni juda xohlaydi. Boshqa parchalar hazil-mutoyiba bilan bezatilgan: "farqi shundaki, Rimda insofsizlik porladi va bizda taqvodorlik bor edi, Rim g'alayonni

yuqtirgan va biz muloyimmiz, Rimda yovuz qora tanlilar g'azablandi va bizda boshliqlar bor edi". Va ahmoqning olovini tasvirlab, muallif kulishni to'xtatib, fojia rasmini yozadi-inson hayoti bir kechada qanday qulaydi: "Odamlar faqat birinchi daqiqada nola qilishdi, ular xotirasiz yong'in sodir bo'lgan joyga yugurishdi. Bu erda bir paytlar qimmat bo'lgan hamma narsa esga olindi; hayot bilan yarashishga va uning yukini ko'tarishga yordam bergan barcha aziz, iliq, ko'milgan narsalar. Inson o'z qalbining bu abadiy butlariga shunchalik o'rganib qolganki, uzoq vaqt davomida ularga eng yaxshi umidlarini qo'ygan ediki, ularni yo'qotish ehtimoli haqidagi fikr hech qachon ongga aniq ko'rinmasdi. Shunday qilib, bu fikr mavhum arvoq kabi emas... balki yalang'och haqiqat kabi bo'lgan bir daqiqa keldi" [1].

"Bir shahar tarixi" satirik roman. Mixail Evgrafovich har doim ushbu turdagi komiksning sodiq tarafdori bo'lgan va uning ko'plab asarlari satira ruhida yozilgan. Grotesk, kinoya, hazil kabi badiiy uslublardan yozuvchi romanda juda ko'p foydalanadi.

Bu hikoya 1731-yildan 1825-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan Glupov shahrining "haqiqiy" yilnomasi, "Glupovskiy yilnomasi" bo'lib, u to'rtta Stupov arxivchisi tomonidan "ketma-ket tuzilgan". "Nashriyotdan" bobida muallif, ayniqsa, Solnomachining haqiqiylikini ta'kidlaydi va o'quvchini "shaharning fiziognomiyasi bilan tanishishga va uning tarixi bir vaqtning o'zida yuqori sohalarda sodir bo'lgan turli xil o'zgarishlarni qanday aks ettirganini kuzatishga" taklif qiladi.

Saltikov-Shedrin o'z ijodida satira janrining namunasini yaratdi, unda qayg'u va muammolar kulgi bilan, g'azab esa qo'rquv bilan aralashtiriladi va shu tufayli u o'zi xohlamagan bo'lsa ham tarixga qadam qo'ydi.[5] "Bir shahar tarixi" izlarini Bulgakov yoki Ilfning Petrov bilan bo'lgan istehzoli yozuvlarida, Venedikt Yerofeevning sovet hayotining bema'ni rasmlarida va Vladimir Sorokinning muzli distopiyalarida topish mumkin. Ahmoqlar shahri yo'q bo'lib ketadi, lekin hech qachon unutilmaydi – chunki biz unda yashashni davom ettirmoqdamiz.

Asarning tanqidi va keyingi taqdiri. Tanqidchilarning baholari turlicha edi. I.S. Turgenev 1870-yil 1-martda ingliz tilidagi "The Academy" jurnalida chop etilgan tanqidiy maqolasida shunday deb yozgan edi: "Saltikovda Swiftning bir narsasi bor: bu jiddiy va yovuz hazil, bu realizm, tasavvurning eng jilovsiz o'yini orasida hushyor va ravshan, va ayniqsa, bu aql bovar qilmaydigan aql (men hatto aytaman-vazminlik), shaklning g'azabiga va mubolag'asiga qaramay saqlanib qoldi. ... bu g'alati va hayratlanarli kitob, zarurat bo'yicha allegorik shaklda juda to'g'ri, afsuski! rus tarixining surati. Ayniqsa, men shaharlik Ugrum-Burcheyev haqidagi inshoga e'tibor qaratmoqchiman, uning shaxsida hamma Aleksandr I hukmronligining so'nggi yillarida qudratli sevimlisi bo'lgan Arakcheyevning dahshatli va jirkanch qiyofasini tan oldi [2].

Rus jurnalisti, noshiri, yozuvchisi va dramaturgi A.I. Suvorin 1871-yildagi "tarixiy satira" maqolasida asarga qarama-qarshi baho bergan: "...na tarix, na hozirgi kun bizga Saltikov chizgan rasmlarga o'xshash hech narsa aytmaydi...". Asarni tahlil qilish uchun muhim atamalar: satira, grotesk, giperbola, Ezop tili, parodiya, tarixiy ishora.

Tarixiy va adabiy tafsilotlar davr har doim yozuvchi ijodida iz qoldirmasa, unga asosiy mavzularni aytib beradi. Saltikov-Shedrin Tolstoy va Turgenev "Urush va tinchlik" va "Otarlar va bolalar" ustida ishlagan bir vaqtning o'zida "Bir shahar tarixi" ni yozgan, ammo, vaqt tasvirini taklif qilgan[4].

Xronikachi "Oxirgi arxivchi-xronikachidan o'quvchiga murojaat" bilan ochiladi. Arxivchi yilnomachining vazifasini "tegishli yozishmalar" - hokimiyatning "o'rtachada jur'at" va xalqning "me'yorida shukr qilish"ning tasviri bo'lishda ko'radi. Demak, tarix turli shahar hokimlari hukmronligi tarixidir.

Birinchi, "Fulovtlarning kelib chiqishi to'g'risida" tarixdan oldingi bob berilgan bo'lib, unda qadimgi bunglerlar qo'shni qabilalarni morj yeyuvchilar, piyoz yeyuvchilar, kosobryuxilar va boshqalarni qanday mag'lub etganliklari haqida hikoya qilinadi. Tartib borligini bilgan holda, bunglerlar shahzodani qidirishga ketishdi. Ular bir nechta shahzodalarga murojaat qilishdi, lekin hatto eng ahmoq knyazlar ham "ahmoqlarni boshqarishni" xohlamadilar va ularga tayoq bilan o'rgatib, sharaf bilan qo'yib yuborishdi. Keyin bunglerlar shahzodani topishga yordam beradigan o'g'ri-innovatorni chaqirishdi. Shahzoda ularni "ixtiyoriy" qilishga rozi bo'ldi, lekin ular bilan yashashga bormadi, o'rniga o'g'ri-innovatorni yubordi. Shahzodaning o'zi bunglerlarni "ahmoq" deb atagan, shuning uchun shahar nomini olgan[3].

Foolovitlar itoatkor xalq edilar, ammo Novotorga ularni tinchlantirish uchun tartibsizliklar kerak edi. Ammo, tez orada u shunchalik ko'p o'g'irlik qildiki, shahzoda "bevafo qulga ilmoq yubordi". Ammo Novotor "so'ng chetlab: <...> ilmoqni kutmay, o'zini bodring bilan sanchdi"[1].

Knyaz va boshqa hukmdorlar - Odoev, Orlov, Kalyazin - jo'natdilar, ammo ularning barchasi ochiq o'g'rilar bo'lib chiqdi. Shunda shahzoda "... Foolovning oldiga o'zicha keldi va baqirdi." Men buni buzaman! Bu so'zlar bilan tarixiy davrlar boshlandi.

Anarxiya boshlandi va bir vaqtning o'zida ikkita bir xil merning paydo bo'lishi bilan yakunlandi. "Firibgarlar uchrashib, bir-birlarini ko'zlari bilan o'lchashdi. Olomon sekin va jimgina tarqaldi. Darhol

viloyatdan xabarchi yetib kelib, ikkala firibgarni ham olib ketdi. Va mersiz qolgan Foolovitlar darhol anarxiyaga tushib qolishdi.

Anarxiya keyingi hafta davomida davom etdi, shu vaqt ichida shaharda oltita hokim almashti. Shahar aholisi Iraida Lukinichna Paleologovadan Klementin de Burbonga, undan Amaliya Karlovna Stokfishga yugurishdi. Birinchisining da'volari erining merining qisqa muddatli faoliyatiga, ikkinchisi - otasining, uchinchisining o'zi esa merining pompadouriga asoslangan edi. Nelka Lyadoxovskayaning, keyin esa semiz oyoqli Dunkaning va burun teshigi Matryonkaning da'volari ham unchalik tasdiqlanmagan. Jangovar harakatlar o'rtasida fulovitlar ba'zi fuqarolarni qo'ng'iroq minorasidan uloqtirishdi va boshqalarni cho'ktirishdi. Lekin ular ham anarxiyadan charchagan. Nihoyat, shaharga yangi hokim keldi - Semyon Konstantinovich Dvoekurov. Uning Foolovodagi faoliyati foydali bo'ldi. "U mead va pivo ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi va xantal va dafna barglaridan foydalanishni farz qildi" va Foolovda akademiya tashkil qilmoqchi edi.

Hikoya "oqlov hujjatlari" bilan yopilgan, ya'ni turli shahar gubernatorlarining yozuvlari, masalan: Borodavkin, Mikeladze va Benevolenskiy, boshqa shahar gubernatorlariga ogohlantirish sifatida yozilgan.

Fulovitlar bunglerlardan kelib chiqqan bo'lib, ularning yonida piyoz yeyuvchilar, ko'rlar, loviya, rukosuevlar va boshqalar qabilalari yashagan. Ularning barchasi bir-biriga qarama-qarshi edi[5].

Muallif shahar hokimlarining kinoyali yilnomasini keltiradi. Masalan, o'n sakkiz raqam "Dyu-Sharlo, Anxel Dorofeevich, fransuz. U ayol kiyimida kiyinishni va qurbaqalar bilan ziyofat qilishni yaxshi ko'rardi. Tekshiruvdan so'ng u qiz bo'lib chiqdi ... " Alohida boblar eng ajoyib shahar gubernatorlariga bag'ishlangan.

Mixail Yevgrafovich Saltikov-Shedrin ijodini ko'pincha "rus hayotining satirik ensiklopediyasi" deb atashadi.. "Bir shahar tarixi" (1869-1870) romanida yozuvchi XIX asr rus jamiyatining illatlarini masxara qiladi, byurokrat amaldorlarning tipik xususiyatlarini ochib beradi. "Bir shahar tarixi" - bu, aslida, o'tgan asrning ikkinchi yarmi va hozirgi asrning boshidagi rus jamiyatining satirik tarixidir. Bu tarix Glupov shahri va uni ketma-ket boshqargan rahbarlarning kulgili tasviri shaklida bayon etilgan..." - deb yozgan edi I.S. Turgenev. Saltikov-Shedrin ning ertaklari ham yozuvchi zamonasidagi jamiyatni umumlashtirilgan va g'aroyib tarzda qayta yaratadi.

Xulosa qilib aytganda "Bir shahar tarixi" satirik roman bo'lib, Mixail Evgrafovich har doim ushbu turdagi komiksning sodiq tarafdori bo'lgan va uning ko'plab asarlari satira ruhida yozilgan. Grotesk, kinoya, hazil – roman ko'pincha ushbu badiiy uslublardan foydalanadi. Biroq, "Bir shahar tarixi" asari juda noaniq: u xronika shaklida yozilgan, ammo, barcha belgilar hayoliy ko'rinadi va sodir bo'layotgan voqealar haqiqatdan ko'ra xayolparast tushga o'xshaydi. Ba'zi tadqiqotchilar Saltikov-Shedrin asarida distopiya xususiyatlarini topadilar. Biroq, bu yerda fantastika juda to'g'ri va realdir, faqat tasvirlar va hodisalarning tashqi qobig'i haqiqiy emas. Shuning uchun "Bir shahar tarixi" romani o'z yo'nalishi bo'yicha realizmga tegishli.

ADABIYOTLAR:

1. "Собрание сочинений в десяти томах" том второй М.Е. Салтыков-Щедрин. Москва "Правда". 1988. -С.293.
1. "Смех как социокультурный феномен автореферат" Сычев Андрей Анатольевич Диссертации на соискание ученой степени Доктора философских наук. -Саранск 2004. 12 с.
2. Белов С.В. Ф.М. Достоевский и его окружение. Энциклопедический словарь: В 2 т. СПб.: Алтейя, 2001. 576 с.; 544 с.
3. Сычев А.А. Смех в познании // Интеграция образования. Федеральный научный журнал. 2004. № 1. С. 111 - 116.
4. Л.Н. Толстой: энциклопедия / Сост. и науч. ред. Н.И. Бурнашева. М.: Просвещение, 2009. 848 с.
5. Александрова Р.И., Уварова Е.В., Сычев А.А. Ирония в современной картине мира // Мораль и право в современных условиях: Материалы ежегодной научно-практической конференции 23 - 24 марта 2000 г. Вып. 1. - М. : МАЭП, 2000.-С.85-88.
6. Пушкинская энциклопедия: Произведения. Вып. 1. А-Д / Ред. И. Чистова. СПб.: Нестор-История, 2009. 520 с.

XVIII -XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA INGLIZ ADABIYOTIDA AYOL NASRINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Raximova Sarvinoz Tolibovna,

Osiyo xalqaro universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida ingliz adabiyotida ayol nasrining rivojlanish tendensiyalari o'rganiladi. Mazkur davrda ayollar tomonidan yaratilgan adabiy asarlarga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar tahlil qilinadi. Maqolada Jeyn Ostin, Enn Redklif va Meri Shelli kabi yetakchi ayol yozuvchilarning ijodiga alohida e'tibor qaratilib, ularning adabiy merosi keyingi ayol adabiyotining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatgani ko'rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada ayol nasrining o'sha davr gender me'yorlarini aks ettirishi va adabiy an'analarni shakllantirishdagi o'rni ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: ayol nasri, ingliz adabiyoti, XVIII asr, XIX asr, adabiyotda gender, adabiy rivojlanish.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОЙ ПРОЗЫ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА

Аннотация. В статье рассматриваются основные тенденции развития женской прозы в английской литературе конца XVIII — первой половины XIX века. Анализируются социальные, культурные и исторические факторы, повлиявшие на становление и развитие женских литературных голосов в данный период. Особое внимание уделяется таким писательницам, как Джейн Остин, Энн Рэдклифф и Мэри Шелли, чьи произведения заложили основу для последующего развития женской литературы. Также подчеркивается, как женская проза отражала гендерные нормы эпохи и способствовала формированию литературных традиций.

Ключевые слова: женская проза, английская литература, XVIII век, XIX век, гендер в литературе, литературное развитие.

DEVELOPMENT TRENDS OF WOMEN'S PROSE IN ENGLISH LITERATURE IN THE 18TH - FIRST HALF OF THE 19TH CENTURY

Abstract. This article examines the major development trends of women's prose in English literature during the late 18th and early 19th centuries. It explores the social, cultural, and historical factors that influenced the emergence and evolution of women's literary voices during this period. Special attention is given to pioneering women writers such as Jane Austen, Ann Radcliffe, and Mary Shelley, whose works laid the foundations for future female authorship. The article also highlights how women's prose reflected contemporary gender norms and contributed to the shaping of literary traditions.

Keywords: women's prose, English literature, 18th century, 19th century, gender in literature, literary evolution.

Kirish. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida ingliz adabiyotida ayol yozuvchilarning faol ishtiroki o'ziga xos adabiy jarayonlarning shakllanishiga olib keldi. Bu davrda ayollar o'z individual ovozlari adabiyot maydoniga olib chiqib, jamiyatdagi o'z o'rini qayta ko'rsatishga harakat qildilar. Ayol mualliflar hayotdagi gender tengsizligi, shaxsiy erkinlik va ijtimoiy cheklovlar kabi mavzularni o'z asarlarida aks ettirib, yangi adabiy uslublar va g'oyalarni rivojlantirdilar. Ularning ijodi faqatgina badiiy tajribaning kengayishiga emas, balki jamiyatdagi ayollarning mavqei va roli haqidagi tasavvurlarni o'zgartirishga ham xizmat qildi. Ayniqsa, Jeyn Ostin, Meri Shelli va Enn Redklif kabi yozuvchilarning asarlari o'z zamonasi uchun o'ta dolzarb bo'lgan ayollik tajribasining murakkab jihatlarini yoritdi.

Bugungi kunda bu davr ayol nasrining rivojlanish jarayonini tahlil qilish, nafaqat tarixiy adabiy jarayonlarni chuqurroq anglash, balki zamonaviy gender tadqiqotlari va feministik adabiy tanqidning ilmiy asoslarini mustahkamlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, ingliz adabiyotidagi ayol nasrining shakllanish tendensiyalarini o'rganish mavzusi zamonaviy adabiyotshunoslikda dolzarb mavzulardan biri sanaladi.

Tadqiqot obyekti. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida ingliz adabiyotida ayol yozuvchilarning nasriy asarlarida ifodalangan adabiy va ijtimoiy tendensiyalar, shuningdek, bu asarlarda ayol obrazining yaratilish usullari va gender masalalarining aks ettirilishidir.

Qo'llanilgan metodlar. Tadqiqot davomida adabiy-tarixiy tahlil metodi orqali XVIII–XIX asr boshlaridagi ingliz adabiyotidagi ayol nasrining shakllanish jarayonlari o'rganildi. Taqqoslash metodi yordamida turli ayol yozuvchilarning asarlari o'zaro solishtirilib, ularning adabiy uslubi va tematik yo'nalishlari aniqlashtirildi. Shuningdek, gender nazariyasiga asoslangan yondashuv qo'llanilib, ayol yozuvchilarning nasr asarlarida gender identitetining ifodalanish xususiyatlari tahlil qilindi. Tarixiy-madaniy metod yordamida o'rganilayotgan davr ijtimoiy-madaniy konteksti hisobga olindi.

Natijalar. Olib borilgan tadqiqotlarimizga ko'ra, XVIII asrda ayollar tomonidan yozilgan realist romanlar gullab-yashnagani va ayollar romani ayniqsa 1780–1790-yillarda juda mashhur bo'lganligiga amin bo'ldik. Bu romanlardagi qahramonlar, odatda, umumlashtirilgan va bir xilda uslubga solingan bo'lib, shu bilan birga, ularda sentimentallik elementi ortib borgan. Bunga E. Heyvud (1693–1756), J. Osten (1775–1817), S. Ovenson (Ledi Morgan) (1783–1859) va boshqa yozuvchilarning ijodi misol bo'la oladi. 1770-yillarga kelib, romanlarda axloqiy fazilatlar kuylanib, qahramonlar sentimental ruhda tasvirlangan. Ularning xarakterida “feminizatsiyalangan” belgilar – ya'ni ayollarga xos noziklik va sezgirlik aks etgan. Biroq “ayollik” tamoyili aksincha, yanada pragmatik va erkaklarga xos mustahkam tarzda qurilgan edi. Bu tendensiya K. Riv (1729–1807), E. Heyvud kabi yozuvchi ayollarning ijodida yaqqol namoyon bo'ldi. Ularning nomi ko'pincha e'tiborsiz qolgan bo'lsa-da, ular XVIII–XIX asr ingliz ayollar prozasi rivojiga katta ta'sir ko'rsatib, J. Osten ijodiga ham yo'l ochgan. Keyinchalik esa

S. Ovenson (Ledi Morgan) J. Ostendan ilhom oldi.

Natijalar tahlili. Ko'p yillar davomida aynan adabiy matnlar ayollar hayoti haqida deyarli yagona manba bo'lib xizmat qilgan. Chunki yaqin vaqtgacha ayollarning real hayoti haqida yetarli tarixiy hujjatlar, tadqiqotlar va materiallar ochib berilmagan edi.

P. Spaksning ta'kidlashicha, adabiyot “ayollik” mohiyati yaqqol namoyon bo'ladigan kam sonli madaniy maydonlardan biridir. Bu narsa syujet va vaziyatlarning tavsifida, ayol obrazlarining aks ettirilishida hamda ularning xatti-harakatlari sabablarini tushuntirishda yaqqol ko'rinadi.

Ingliz ayollar prozasining paydo bo'lishi o'sha davr jamiyatida ayollarning nafaqat siyosiy va iqtisodiy institutlarda, balki adabiyot sohasida ham faol ishtirok etishga bo'lgan ehtiyojining ifodasi edi. Ayol yozuvchilar jamiyatning muqobil madaniy tajribalarini to'plash va ifoda etish orqali adabiyot chinakam to'laqonli va inson hayotining barcha jabhalarini aks ettiruvchi maydonga aylanishi mumkinligiga ishonch bildirdilar. Ayollar tomonidan yozilgan romanlar turli uslublarda yaratilgan bo'lib, har xil mavzularni ko'taradi va har xil syujetlarni ifodalaydi va ularning hammasida ham sevgi markaziy mavzu emas. Shu sababli, ayollar yaratgan asarlarni faqatgina mavzularining torligi bilan yoki sentimental uslub bilan cheklash noto'g'ri bo'lar edi. XVIII asrning o'rtalariga kelib, erkaklarning itoatkor rafiqi idealiga javoban, ayol yozuvchilarda ona obrazini ulug'lash tendensiyasi paydo bo'ldi. Ularning asarlarida ona erkaklar ustidan kuch va ta'sirga ega shaxs sifatida tasvirlangan. Masalan, S. Li o'z asarlarida erkaklarni onalarining har bir istagiga bo'ysunadigan qahramonlar sifatida aks ettirdi.

1760-yillarga kelib, ayollarning ma'naviy va axloqiy pokligi Restavratsiya davriga nisbatan ancha yuqori qadrlana boshladi. Masalan, “Miss F. ning bir mashhur shaxsga maktubi” asarida ayolning asosiy fazilati – iffat va poklik sifatida ta'riflangan. Shu bilan birga, jamiyatdagi ayollar faqat uy va oilaga g'amxo'rlik qilish bilan cheklanishi kerak degan qarashlarga qarshi chiqildi. Miss F. atrofdagilarni o'ziga ashula ijrochisi sifatida kasbiy faoliyat yuritish imkoniyatini berishga ishonitirishga harakat qilgan.

Ayollar o'z davrining barcha muammolari haqida yozishga harakat qildilar: din, siyosat, ta'lim, falsafiy yo'nalishlar va boshqa mavzularni qamrab oldilar. Bunga misol qilib J. Boubi, E. Dokvri, S. Hyum, M. Estel va boshqalarning asarlarini keltirish mumkin. Hatto XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida ham ayollar

J. Lokkning nazariyalari bo'yicha bahslarda faol ishtirok etdilar. Masalan, M. Estel faylasufning oila va erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi munosabatlar haqidagi antiavtoritar qarashlarini qabul qilgan bo'lsa-da, ularga nisbatan shubha bilan yondashgan. Mashhur yozuvchi M. Uolstonkraft esa o'zining ta'lim bo'yicha dastlabki qo'llanmasida Lokkning qarashlaridan foydalangan.

Jinslar o'rtasidagi munosabatlar mavzusiga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratilgan. Ko'pincha ayol yozuvchilar erkaklarni yovuzlik qiluvchi yoki ayollarni yo'ldan uruvchi shaxslar sifatida tasvirlaganlar. 1700-yillarning boshlarida M. Devis va M. Uolstonkraft erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarda romantik muhabbat o'rniga do'stlikni afzal ko'rish haqida dalillar keltirgan. Ledi Uolles esa ehtirosni jamiyat uchun tahdid sifatida qoralagan. XVIII asrning oxirgi o'n yilligiga qadar turmushdagi xiyonat ehtiros tufayli sodir bo'ladigan jinoyat sifatida qattiq qoralangan. Ammo 1745-yilda Sh. Makkarti o'zining “Adolatli axloqshunos” romanida kutilmaganda “yomon yo'lga kirgan” ayolni oqlagan. 1770-yillarga kelib, Sh. Smitning “Emmilayn”

(1788) romani xiyonat qilgan ayollarning ichki iztiroblari va kechinmalarini batafsil tasvirlab berdi. Bu o'sha davrning "inglizcha uy boshqaruvi" tamoyillariga qarshi norozilik ifodasi edi. Shu kabi qarashlar XVIII asr boshlarida A. Ben, E. Polvel va M. Devis tomonidan ham ilgari surilgan bo'lib, ular hisob-kitob asosida qurilgan nikohga qarshi chiqqanlar. E. Boyd esa bir-birini sevmaydigan er-xotinning azoblarini tasvirlagan.

M. Devis asarlarida birinchi marta ayollarning mustaqil hayot kechirishga intilishi haqida keskin feministik fikrlar uchraydi. U, agar ayollar turmush qurishdan qochsalar, hayotda ancha katta muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin, deb hisoblagan. Qizig'i shundaki, XX asr ayollar adabiyotida (masalan, K. Mensfeld va V. Vulf asarlarida) bu g'oyalar to'liq shakllanadi va nafaqat adabiyotda, balki hayotda ham o'z ifodasini topadi.

Ayol yozuvchilar erkaklar bilan teng darajadagi ta'lim va tarbiya olish imkoniyati ularni bir pog'onaga qo'yishi va rivojlanishga teng sharoit yaratishini tushunganlar. Biroq, bu yo'lda ularning oldida qonunchilik to'siq bo'lib turardi, va uni o'zgartirish ularning imkoniyatlari doirasida emas edi. XIX asrda J. Osten "Aql-idrok dalillari" (1817/1818) romanida bu mavzuni ochiq muhokama qiladi. Asarda kapitan Uentuort bilan bahs davomida bosh qahramon shunday deydi:

"Xudoning panohida bo'lsin, men birodarlarimizning sadoqat va mehr-muhabbatga layoqatini shubha ostiga qo'yish fikridan yiroqman! Biroq, men faqat ayollargina buyuk ishlar qila oladi deb da'vo qilmoqchi emasman. Erkaklar uchun muhabbat obyekti tirik ekan, yonida va sadoqatli bo'lsa, ular har qanday qiyinchilikka chidashga va fidokorona mehnat qilishga tayyor. Lekin ayolning yagona ustunligi – juda achinarli bo'lsa ham – muhabbatini hech qanday umid yo'qligida ham, hatto sevgilisi hayotdan ko'z yumganida ham saqlay olishidadir."

Jamoat tomonidan tan olinishi – ayollar romanlari qahramonlari uchun juda muhim mavzu bo'lib, ayol yozuvchilar o'z asarlarida bu masalani chuqur falsafiy yondashuv bilan tahlil qilganlar. J. Osten ham ayollar ta'limi muammosini dadil ko'tarib chiqqan. Masalan, kapitan Xarvil Enni ishontirishga harakat qiladi:

"Men hech qachon birorta kitob ochib qarasamki, unda ayollarning beqarorligi haqida yozilmagan bo'lsa..."

Bunga javoban Enn shunday deydi:

"Siz haq bo'lishingiz mumkin. Yo'q, yo'q, izn bergaysiz, lekin biz kitoblarni tinch qo'yaylik. Erkaklarning o'z qarashlarini himoya qilish imkoniyatlari biznikidan ancha keng. Ularning ta'lim darajasi balandroq; qadimdan qalam ularning qo'lida. Shuning uchun kitoblardan o'z fikrlarimizning tasdig'ini izlamaylik." Bu fikr J. Osten asarlarida bejiz tilga olinmagan. Chunki uning davrida ayol yozuvchi jamiyatda katta hurmatga sazovor bo'lishi dargumon edi. Osten o'zining haqiqiy muallifligini uzoq yillar sir saqlagan. Enn tilidan aytilgan ushbu so'zlar esa erkaklar tomonidan ayollar hissiyotlarini to'g'ri tasvirlashning imkonsizligi haqidagi norozilikning ifodasi edi.

Adabiyotda o'zini namoyon qilishga jur'at etgan ayollar orasida quyidagi yozuvchilarni sanab o'tish mumkin: P. Obin (1679–1731), F. Bruk (1724–1789), F. Berni (1752–1840), M. Devis (1674–1732), S. Filding (1710–1768), E. Griffit (1720–1793), E. Inchbold (1753–1821) va boshqalar. Ular orasida ayniqsa D. Menli (1663–1724), E. Heyvud (1693–1756) va K. Riv (1729–1807) kabi yozuvchilarning ijodi alohida ajralib turadi. Bu ijodkorlar XVIII asr ingliz ayollar nasrining rivojlanish yo'nalishini belgilabgina qolmay, balki keyingi asrlar adabiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatdilar. Aynan ushbu yozuvchilarning asarlarida shakllangan an'analar Bronte opa-singillarning, J. Ostenning romanlarida aks etgan, shuningdek, zamonaviy ingliz adabiyotida – M. Drebbel, M. Uorner, B. Fridan, X. Filding kabi yozuvchilarning ijodida ham ko'rinib turadi. Ayol yozuvchilar o'z romanlarini (novel) o'zlari uchun tanish bo'lgan uslubda – norasmiy xatlar shaklida yozishlari mumkin edi. Ular o'z shaxsiy tajribalaridan, dunyoqarashlaridan foydalanib, asarlariga mazmun bag'ishlaganlar. Ingliz adabiyotidagi ayollar nasrining rivojlanish yo'nalishi Ma'rifat davrining realizmga asoslangan ayol romanlari shakllanishini belgilab berdi.

P. M. Spaks ta'kidlaganidek, ayollarning ichki kechinmalari har qanday ijtimoiy to'ntarishlardan ham ustun turardi va ular o'zlarini himoya qilish va pul topish uchun asarlarini nashr etishga intilganlar. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, ayniqsa 1780-yillardan so'ng, yolg'iz qolgan ayollar soni ortgan. Elizabet Gamilton, Sharlotta Bruk va ledi Meri umrbod yolg'izlikni tanlaganlar, ba'zi ayollar uchun esa yolg'izlik erkinlik ramzi edi.

D. Spender o'z tadqiqotlarida E. Heyvudni D. Defo va S. Richardson bilan bir qatorda turgan yozuvchi sifatida baholagan. Uni "ayol Defo" ("the female Defoe") va "Richardsonning peshqadami" ("the forerunner of Richardson") deb atagan.

E. Heyvudning ijodi 1720-yillarning boshlarida romantik sevgi romanlaridan boshlangan bo'lsa, keyinchalik uning asarlari ayollar huquqlari va jamiyatdagi o'rniga qaratilgan. 1730-yillarda yozilgan asarlarida ayollar erkaklar tomonidan ezilgan va o'z huquqlaridan mahrum qilingan tarzda tasvirlangan. Biroq,

1740–50-yillarga kelib, uning qarashlari o'zgaradi – bu davrdagi asarlarida u o'zaro hurmat va muhabbat asosidagi nikohni ijobiy baholay boshlaydi.

U o'z yozuvchilik faoliyatini 1719-yilda “Muhabbatning ortiqchaligi yoki taqdirning halokatli burilishi” (1719–1720) romanidan boshlagan va vafot etgan yili tarbiya haqidagi “Xotin” (1756) hamda “Er yoki xotinga javob” (1756) asarlari bilan yakunlagan. Uning ko'plab asarlari anonim tarzda nashr etilgan.

Shunga qaramay, E. Heyvudning faoliyati juda sermahsul bo'lsa-da, u Y. Uott va U. Allen tomonidan XVIII asrning yetuk yozuvchilari ro'yxatiga kiritilmagan.

E. Heyvudning birinchi romani “Haddan ziyod muhabbat” ta'lim va nikoh mavzularini qamrab oladi. U uch qismdan iborat bo'lib, go'yoki sahnada namoyish etilishi mumkin bo'lgan uch pardali pyesani eslatadi. Asosiy qahramon – graf D'Elmond – yosh, beparvo yigit bo'lib, ayollarni osonlik bilan maftun qiladi va ularni o'ziga oshiq qiladi. U beparvolik va axloqsiz hayot kechiradi, biroq keyinchalik chin dildan sevishtga qodir ekanligini anglaydi. Uning Melliora ismli go'zal qizga bo'lgan muhabbati uni o'zgartiradi. Roman bosh qahramon va uning suyuklisining to'yi bilan yakunlanadi. Heyvud asar sahifalarida sevgi mohiyati va uning inson hayotiga ta'siri haqida fikr yuritadi.

“Qadrsizlangan ayol” mavzusi yozuvchining “Idaliya yoki baxtsiz sevgili” (1723) hamda “Fantomina yoki sevgi labirinti” (1724) asarlarida ham ko'tariladi. Ushbu romanlarida u ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy hokimiyatga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

E. Heyvud ba'zi asarlarida siyosiy muammolarga ham murojaat qiladi, biroq qahramonlari uchun ilhom bo'lgan shaxslarning haqiqiy ismlarini ochiqqlamaydi – faqat ularning initsiallarini qoldiradi. Biroq, Londondagi Britaniya muzeyida ushbu shaxslarning to'liq ismlarining ochib berilgan ro'yxatini topish mumkin. Masalan, “Iyovay, Ijavayn malikasi sarguzashtlari: odamzoddan oldingi tarix” (1736) yoki “Baxtsiz malika” (1740) asarlarida voqealar afsonaviy davrlarda, ikkinchi “oy”ning vayron bo'lishidan oldin sodir bo'ladi. Ushbu sharqona ertak Britaniya bosh vaziri Robert Uolpol siyosatiga nisbatan satirik talqin hisoblanadi.

Xulosa. Shunday qilib, XVIII asr – XIX asrning birinchi yarmida ingliz ayollar nasrining rivojlanish yo'nalishlari shakllandi. U oilaviy mavzulardan ijtimoiy mavzulargacha kengayib, ayol yozuvchilarning o'z ijodiy olamiga egalik qilish huquqini hamda ularning obyektivlikka bo'lgan intilishlarini isbotladi. Aynan shu sababdan zamonaviy adabiyotshunoslik ayol yozuvchilarning ijodiga, ayniqsa, ushbu davr ingliz yozuvchilarining ijodiga alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki bu jarayon mustaqil ayol romani shakllanishi bosqichi bo'lib, ushbu hodisaning chuqur tadqiqoti mualliflar tomonidan alohida ilmiy ishlar doirasida o'rganilishi rejalashtirilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Annette Kolodny, «A Map for Rereading: Gender and the Interpretation of Literary Texts», in Elaine Showalter, ed., *The New Feminist Criticism. Essays on Women. Literature and Theory* (New York: Pantheon Books, 1985), pp. 46-62.
2. Adrienne Rich, *When We Dead Awaken: Writing as Re-Vision in: On Lies, Secrets, and Silence. Selected Prose 1966-1978* (New York and London: W.W. Norton and Co., 1979), p. 24.
3. Elaine Showalter, *The Female Malady Women, Madness, and English Culture. 1830 1980* (New York: Penguin Books, 1985), p. 4.
4. Elizabeth Wilson, *Minor Writing An Autobiography* (London: Virago, 1982), p. 53.
5. Helene Cixous, «The Laugh of the Medusa», *Signs* 1 (summer, 1976), pp. 875-899.
6. Mary Jacobus, *Reading Woman: Essays in Feminist Criticism* (New York: Columbia University Press, 1986).
7. Sandra M. Gilbert, «What Do Feminist Critics Want? A Postcard from the Volcano», in Elaine Showalter, ed., *The New Feminist Criticism. Essays on Women, Literature and Theory* (New York: Pantheon Books, 1985), pp. 29-45.
8. Toril Moi, *Sexual/Textual Politics: Feminist Literary Theory* (London and New York: Routledge, 1985), p. 78.
9. Judith Fetterley, *The Resisting Reader: A Feminist Approach to American Fiction* (Bloomington: Indiana University Press, 1978), p. viii.
10. Фуко Мишель История безумия в классическую эпоху. СПб.: Университетская книга, 1997. С. 491.

URUSHDAN KEYINGI DAVRDA AYOLLAR VA BOLALAR OBRAZINING BADIY TALQINI

Qurbonova Shahlo Shuxrat qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xorijiy tillar kafedasi katta o'qituvchisi f.f.f.d (PhD)

shakhlokurbonova15@gmail.com

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti, f.f.f.d (PhD) Shukurova Sabohat Odilovna taqrizi asosida

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek adabiyotida "yo'qotilgan avlod" fojiasi urushdan keyingi davr kontekstida tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor urushning insoniyat hayotiga, xususan, ayollar va bolalar taqdiriga ko'rsatgan chuqur ijtimoiy hamda ma'naviy ta'siriga qaratilgan. Adabiy manbalar asosida urushdan keyin ruhiy iztirob, yolg'izlik, ma'naviy tushkunlik, umidsizlik kabi holatlar aks etgan ayol va bola obrazlari o'rganiladi. Ularning jamiyatdagi o'rni, yangi hayotga moslashuvi, ichki ruhiy kechinmalari badiiy tahlil orqali ochib beriladi. Maqolada shuningdek, ingliz va o'zbek adabiyotida bunday obrazlar qanday san'atkorlik usullari bilan ifodalangani, yozuvchilarning urushdan keyingi insonparvarlik ruhini aks ettirishdagi mahorati ham tahlil qilinadi. Bu jarayonda adabiyotning nafaqat estetik, balki ijtimoiy-ma'naviy terapevtik vosita sifatidagi o'rni ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: yo'qotilgan avlod, urushdan keyingi adabiyot, ayol obrazi, bola obrazi, fojia, ijtimoiy-insoniy ta'sir, badiiy talqin, ruhiy iztirob, moslashuv, ma'naviy tushkunlik.

THE AESTHETIC AND NARRATIVE DEPICTION OF WOMEN AND CHILDREN IN POST-WAR LITERARY DISCOURSE

Abstract. This article analyzes the tragedy of the "lost generation" in the context of post-war English and Uzbek literature. The primary focus is on the profound social and moral impact of war on human life, particularly on the fate of women and children. Based on literary sources, the article explores female and child characters who embody psychological suffering, loneliness, spiritual decline, and hopelessness in the aftermath of war. Their place in society, adaptation to new life conditions, and inner emotional experiences are revealed through literary analysis. The article also examines the artistic techniques used to portray such characters in English and Uzbek literature and evaluates the authors' skill in reflecting the spirit of post-war humanism. It highlights literature not only as an aesthetic phenomenon but also as a socio-spiritual therapeutic tool.

Keywords: lost generation, post-war literature, female character, child character, tragedy, social and human impact, literary interpretation, psychological suffering, adaptation, spiritual decline.

ЭСТЕТИКО-НАРРАТИВНАЯ РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ЖЕНСКИХ И ДЕТСКИХ ОБРАЗОВ В ПОСЛЕВОЕННОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается трагедия «потерянного поколения» в контексте англоязычной и узбекской литературы послевоенного периода. Основное внимание уделяется глубокому социальному и нравственному воздействию войны на жизнь человечества, особенно на судьбы женщин и детей. На основе литературных источников исследуются женские и детские образы, в которых отражаются душевные страдания, одиночество, духовный упадок и отчаяние, вызванные последствиями войны. Раскрываются их положение в обществе, пути адаптации к новой жизни, внутренние переживания через художественный анализ. Также в статье анализируются художественные приёмы, с помощью которых в английской и узбекской литературе изображаются данные образы, а также мастерство писателей в отражении духа гуманизма послевоенного времени. Отмечается роль литературы не только как эстетического явления, но и как социально-нравственного терапевтического средства.

Ключевые слова: потерянное поколение, послевоенная литература, женский образ, детский образ, трагедия, социально-гуманитарное воздействие, художественная интерпретация, душевные страдания, адаптация, духовный упадок.

Kirish. Urush insoniyat tarixida eng dahshatli sotsial, iqtisodiy va ma'naviy inqirozlardan biri sifatida namoyon bo'lib, uning halokatli oqibatlarini faqat jangovar harakatlar maydonlari bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning eng nozik qatlamlari — ayniqsa ayollar va bolalarning hayoti, ruhiyati hamda ongida ham chuqur iz qoldiradi. Harbiy mojarolarda bevosita qatnashmagan ushbu guruhlar urushdan keyingi davrda ijtimoiy izolyatsiya, ruhiy iztirob va ma'naviy bo'hronlar bilan yuzma-yuz qolgan holda, fojining eng og'ir yukini ko'taruvchilarga aylanishadi.

XX asr adabiy tanqidiy fikrida keng qo'llanilgan "yo'qotilgan avlod" (Lost Generation) atamasi dastlab Birinchi jahon urushidan so'ng hayotiy maqsad va qadriyatlaridan mosuvo bo'lgan, ruhiy jihatdan parokanda va ijtimoiy beqarorlikka yuz tutgan insonlar avlodini ifodalash uchun paydo bo'lgan. Ushbu kontseptual tushuncha Ernest Hemingway, F. Scott Fitzgerald, Erich Maria Remarque kabi adiblar ijodida badiiy shakl kasb etib, keyinchalik global adabiyotshunoslikda murakkab ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqin qilina boshlandi. Bugungi adabiy tahlillar esa mazkur atamaning semantik doirasini kengaytirib, uni turli milliy adabiyotlar kontekstida yangi qirralarda tahlil qilish imkonini bermiqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Urushdan keyingi davr adabiyoti har ikki adabiyot — ingliz va o'zbek adabiyoti — uchun yangi mazmuniy va badiiy burilishni anglatadi. "Yo'qotilgan avlod" atamasi avvalo XX asr boshida, Birinchi jahon urushi va undan keyingi davrda yashagan adiblar avlodi uchun qo'llanilgan bo'lib, Ernest Hemingway, Erich Maria Remarque, Virginia Woolf kabi yozuvchilar ijodida yorqin namoyon bo'lgan. Ushbu avlod urushning inson ruhiyatiga, jamiyatga, ayniqsa, ayollar va bolalarga ko'rsatgan ta'sirini teran aks ettirgan.

Ernest Hemingwayning "Quyosh ham chiqadi" (The Sun Also Rises) va Remarquening "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" (Im Westen nichts Neues) asarlari urushning bevosita ta'sirida shakllangan "yo'qotilgan" avlodning holatini tasvirlaydi. Bu asarlarda ayollar ikkilamchi rolga tushib qolgan bo'lsa-da, ularning ruhiy holati, jamiyatdagi o'rni, erkaklar bilan tenglik uchun kurashi nozik tarzda berilgan.

O'zbek adabiyotida esa, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda ayollar va bolalar obrazining badiiy talqini o'ziga xos milliy va ma'naviy kontekstda rivojlangan. Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Said Ahmad, Komil Yashin kabi yozuvchilarning asarlarida ayollar urushda front ortida, oilani saqlab qolishda, bola tarbiyasida yetakchi rol o'ynagan kuchli shaxs sifatida tasvirlangan. Masalan, Pirimqul Qodirovning "Uch ildiz" romanida ayollar obrazida milliylik, sabr-toqat, fidoyilik aks etadi.

Bundan tashqari, zamonaviy adabiyotda ham ushbu mavzu davom etmoqda. Masalan, Iqbol Mirzoning "Bonu" romanida urushsiz, ammo o'tish davrining ijtimoiy qiyinchiliklari fonida ayol va bola obrazining ruhiy murakkabliklari, jamiyatdagi roli tahlil qilinadi.

Adabiy tanqidchilar — Lukach, Bekhdel, Sharof Rashidov, Ibrohim G'afurov, N. Karimov kabi olimlar bu obrazlarning shakllanishida ijtimoiy hayot, tarixiy kontekst va gender masalalarining o'rniga e'tibor qaratganlar. Ularning qarashlari bu mavzuni kengroq adabiy-nazariy doirada ko'rib chiqishga imkon beradi.

Mazkur maqolada "yo'qotilgan avlod" fenomeni ingliz va o'zbek adabiyotlari doirasida, urushdan keyingi davr ayollari va bolalarining badiiy obrazlari orqali qayta ochib beriladi. Diqqat markazida urush asoratlari bilan yashashga majbur bo'lgan insonlarning ruhiy kechinmalari, psixologik sindromlari, ma'naviy iztiroblari va jamiyatdagi o'z o'rnini topishga bo'lgan intilishlari turadi. Ayniqsa, ayollar va bolalarning fojiaiy hayotiy taqdirini tasvirlash orqali adabiyotda "yo'qotilgan avlod" tushunchasining yangi badiiy-falsafiy qatlamlari tahlil etiladi. Ushbu yondashuv orqali urushdan keyingi inson shaxsiyatidagi ruhiy va ijtimoiy inqiroz holatlari badiiy timsollar orqali ochib berilishi ko'zda tutiladi.

Mazkur tadqiqotda zamonaviy qiyosiy adabiyotshunoslik yondashuvlari asosiy metodologik poydevor sifatida tanlandi. Ingliz va o'zbek adabiy maktablari o'rtasidagi ideologik, poetik hamda sotsiomadaniy tafovutlar kontekstida tanlangan badiiy matnlar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot urushdan keyingi jamiyatda ayollar va bolalarning badiiy tasviri orqali "yo'qotilgan avlod" fenomenini chuqur o'rganishga qaratildi.

Tadqiqot quyidagi asosiy metodlar asosida olib borildi:

- Sotsiomadaniy yondashuv — urushdan keyingi jamiyatda ayollar va bolalarning ijtimoiy o'rni, ularning funksional roli va bu holatlarning badiiy aksini o'rganish. Ushbu yondashuv badiiy matnni tarixiy-madaniy kontekstda talqin qilish imkonini beradi.

- Psixologik tahlil — personajlarning ruhiy holati, travmatik tajribalari, post-travmatik stress sindromi kabi holatlar va ularning badiiy ifodasini aniqlashga qaratildi. Ayniqsa, individual va kollektiv ruhiyatdagi o'zgarishlarning badiiy obrazlar orqali aks etishiga alohida e'tibor qaratildi.

- Strukturaviy-kontekstual tahlil — tanlangan asarlarning syujet qurilishi, obrazlar tizimi, kompozitsion elementlari va ularning sotsiopsixologik yuklamalari tahlil qilinib, urushning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita oqibatlarini san'atbop vositalarda qanday ifodalanganini ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqot obyekti sifatida quyidagi adabiy manbalar tanlab olindi:

- Virginia Woolf — *Mrs. Dalloway* (1925) — Birinchi jahon urushi oqibatlarining London ziyolilari ruhiyatidagi aksini ko'rsatuvchi modernistik roman;
- Tim O'Brien — *The Things They Carried* (1990) — Vetnam urushi ishtirokchilarining xotiralari asosida travma va xotira masalalarini yorituvchi postmodernistik asar;
- Pirimqul Qodirov — *Avlodlar dovoni* (1985) — o'zbek xalqining urush davridagi ma'naviy sinovlari, ayollar va bolalarning urush oqibatidagi taqdiri tasvirlangan tarixiy-psixologik roman;
- Tohir Malik — urush mavzusiga oid hikoyalar to'plami — urushning oddiy insonlar, xususan ayollar va bolalarning hayotiga ta'sirini yorituvchi realizm asosidagi asarlar.

Mazkur manbalar orqali ikki milliy adabiy maktabda "yo'qotilgan avlod" fenomenining badiiy talqini, uning semantik, estetik va psixologik qatlamlari o'rganilib, o'zaro umumiylik va farqlar aniqlandi.

Natijalar va tahlil.

Ayollar obrazi: ruhiy va ijtimoiy bosimlar keskinligida

Urushdan keyingi adabiy obrazlarda ayollar ikki tomonlama bosim ostida tasvirlanadi: birinchidan, yaqinlarini yo'qotish fojiasi, ikkinchidan esa jamiyatda erkaklar bo'shatgan rolni egallash majburiyati. Virginia Woolfning "*Mrs. Dalloway*" romanida bosh qahramon Clarissa Dalloway timsolida urushdan keyingi London jamiyatidagi ayollarning ruhiy iztiroblari, sotsial begonalik va individual izolyatsiya jarayonlari chuqur tasvirlanadi. Clarissaning ichki monologi orqali o'quvchi uning yashirin depressiyasi, o'z-o'zini anglash inqirozi va jamiyatdagi ikkilamchi mavqei bilan yuzma-yuz bo'ladi.

Pirimqul Qodirovning "*Avlodlar dovoni*" asarida esa ayol obrazi boshqa badiiy funksiyaga ega: u bu yerda irodali, chidamli va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi tayanch sifatida ko'rsatiladi. Qodirov o'zbek ayolining fojiali, biroq g'ururli obrazini yaratadi. Ushbu badiiy yondashuv orqali muallif urushdan keyingi davrda milliy qadriyatlar va ayollarning fidokorona pozitsiyasini aks ettiradi.

Ayollar obrazi: ruhiy va ijtimoiy bosimlar. Urushdan keyingi adabiyotda ayollar obrazlari ikki tomonlama bosim va ziddiyatlar kontekstida yoritiladi. Bir tomondan, ular yaqinlarini yo'qotish fojiasi, chuqur ruhiy travmalar va og'ir psixologik iztiroblar bilan yuzma-yuz keladi. Ikkinchi tomondan esa, erkaklar tomonidan bo'shatilib qolgan ijtimoiy rollarni egallash, yangi jamiyat tuzilishidagi murakkab vazifalarni bajarish majburiyati kabi ijtimoiy bosimlar ularning hayotini yanada murakkablashtiradi.

Virginia Woolfning *Mrs. Dalloway* (1925) romanida bosh qahramon Clarissa Dalloway timsolida urushdan keyingi London jamiyatidagi ayollarning ruhiy iztiroblari, sotsial begonalik, ijtimoiy izolyatsiya va individual parchalanish jarayonlari chuqur va nozik badiiy uslubda aks ettiriladi. Clarissaning ichki monologlari orqali o'quvchi uning yashirin depressiyasi, o'z-o'zini anglashdagi inqirozi, shuningdek, jamiyatdagi ikkilamchi mavqei va cheklangan imkoniyatlari bilan yuzma-yuz keladi. Bu esa urushdan so'ng ayollar ruhiyatida shakllangan ichki qarama-qarshiliklar va ijtimoiy bosimlarning o'ziga xos badiiy talqinini ifodalaydi.

Boshqa tomondan, Pirimqul Qodirovning *Avlodlar dovoni* (1985) asarida ayol obrazi boshqa badiiy funksiyada yoritiladi. Bu asarda ayol irodali, chidamli, jamoat barqarorligini saqlashda muhim tayanch sifatida ko'rsatiladi. Qodirov o'zbek ayolining fojiali, biroq mustahkam va g'ururli timsolini yaratib, urushdan keyingi davrda milliy qadriyatlar va ayollarning fidokorona pozitsiyasini chuqur badiiy ifoda etadi. Ushbu yondashuv orqali muallif urush oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy va ma'naviy sinovlarni boshdan kechirayotgan jamiyatda ayollarning tutgan o'rni, ularning qayg'uli, ammo bardoshli taqdiri haqida chuqur mulohazalar bildiradi.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek adabiyotlarida ayollar obrazlari urushdan keyingi ruhiy travma va ijtimoiy mas'uliyatlar kontekstida ikki xil, ammo o'zaro to'ldiruvchi badiiy portretlarda ifodalanadi. Bu esa "yo'qotilgan avlod" fenomenining murakkabligini, shuningdek, ayollarning urushdan keyingi jamiyatdagi ko'p qirralik pozitsiyasini yanada yoritib beradi.

Bolalar obrazi: urushning begunoh qurbonlari. Urush holatining eng og'ir va qaytarib bo'lmaz oqibatlari ayniqsa bolalarning taqdiri va ruhiyatida chuqur aks etadi. Tim O'Brienning *The Things They Carried* asarida bolalar ko'pincha halok bo'lgan, biroq aybsiz va urush voqealaridan mutlaqo bebahra mavjudotlar sifatida tasvirlanadi. Muallif ushbu obrazlar orqali urushning axloqiy me'yorlarni buzuvchi, begunoh hayotlarni barbod qiluvchi dahshatli kuch ekanligini chuqur badiiy ifoda etadi. Bolalarning nozik ruhiy holati, duch kelgan travmatik voqealari va ularning ongidagi izlari asar doirasida jonli va ta'sirchan tarzda yoritiladi.

Tohir Malikning ayrim hikoyalarida esa bolalar erta voyaga yetishga, hayotning sovuqqon va shafqatsiz haqiqatlari bilan to'qnashishga majbur qilingan qahramonlar sifatida ko'rsatiladi. Ularning obrazlari orqali urushdan keyingi jamiyatdagi beparvolik, mehr-muhabbatning yetishmasligi va yetimlik muammolari yoritiladi. Ayniqsa, bolalar tilidan ifodalangan ichki monologlar va ruhiy iztiroblar Toshkent maktabining psixologik realizm an'analari mos ravishda nozik va chuqur badiiy uslubda talqin etiladi.

Natijada, har ikki milliy adabiyotda bolalar urushning begunoh, ammo eng og'ir va halokatli qurbonlari sifatida tasvirlanib, ularning ruhiy travmalari hamda jamiyatdagi o'rni haqida muhim falsafiy va psixologik mulohazalar shakllantiriladi.

Ikkala adabiy maktab — ingliz va o'zbek adabiyotlarida — ayollar hamda bolalar obrazlari urushning bevosita tashqi ko'rinishidan ko'ra, uning bilvosita, ayniqsa ruhiy va ma'naviy oqibatlarini ochib beruvchi kuchli badiiy vosita sifatida shakllangan. Ushbu obrazlar urushning ko'zga ko'rinmas, biroq insoniyat uchun eng og'ir jabhalari — ruhiy tanazzul, ma'naviy yemirilish hamda sotsiokultural ajralishlarni aks ettiruvchi semantik maydonni tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari "yo'qotilgan avlod" konsepsiyasining ingliz va o'zbek adabiyotlarida turli madaniy va tarixiy kontekstlarda badiiy talqin qilinganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayollar va bolalar obrazlari universal semantik mazmunga ega bo'lib, urushdan keyingi ijtimoiy va psixologik iztiroblarning eng chuqur qatlamlarini ifodalaydi. Virginia Woolf va Tim O'Brien kabi mualliflarning asarlarida ayollar va bolalar markaziy o'rinni egallab, ular ichki ruhiy kurashlar, axloqiy dilemma va shaxsiy travmalar doirasida yoritiladi. O'zbek adabiyotida esa ushbu obrazlar jamiyatning ijtimoiy bardoshliligi, fidoyilik va milliy ruhning timsoli sifatida talqin qilinib, urushning insoniyatga keltirgan ma'naviy sinovlari badiiy tilda ifodalanadi.

Xulosa. Shunday qilib, adabiyot urushning halokatli oqibatlarini faqat tarixiy voqea sifatida emas, balki inson ruhiyati va jamiyat hayotidagi chuqur inqiroz belgisi sifatida saqlab qolishda, shuningdek, tarixiy xotira, sotsiokultural ogohlik va ma'naviy saboq vositasi sifatida muhim funksiyani bajaradi. Ayollar va bolalar obrazlari orqali urushning eng yirik fojiasi — insoniyatning ma'naviy yemirilishi va ruhiy halokati badiiy til orqali qayta jonlanadi. Bu esa "yo'qotilgan avlod" atamasining ma'nosini nafaqat urushda bevosita ishtirok etgan shaxslar doirasida, balki urushning ichki jabhalarida kurashgan, ammo ko'zga ko'rinmas azob-uqubatlarga duchor bo'lgan insonlar kontekstida kengaytirishga asos yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Herman, J. L. (1997). *Trauma and recovery: The aftermath of violence—from domestic abuse to political terror* (pp. 1–440). New York, NY: Basic Books.
2. Malik, T. (1980). *Tanlangan hikoyalar* (pp. 1–256). Toshkent: Yozuvchi nashriyoti.
3. O'Brien, T. (1990). *The things they carried* (pp. 1–233). Boston, MA: Houghton Mifflin.
4. Qodirov, P. (1985). *Avlodlar dovoni* (pp. 1–320). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
5. Remarque, E. M. (1929). *All quiet on the western front* (pp. 1–296). Berlin, Germany: Propyläen Verlag.
6. Summerfield, D. (1998). *War and mental health: A brief overview*. *BMJ*, 317(7171), 1322–1325. <https://doi.org/10.1136/bmj.317.7171.1322>
7. Woolf, V. (1925). *Mrs. Dalloway* (pp. 1–232). London, UK: Hogarth Press.

“THE BLACK BULL OF NORROWAY” AND THE LAYERS OF DARKNESS: UNPACKING THE DUAL SYMBOLISM OF BLACK IN SCOTTISH FOLKLORE

Ziyodulloyeva Aziza Akmal qizi,
Uzswlu, teacher
azizaziyad63@gmail.com

Annotation: *The layered and contradictory meanings of black in the Scottish folktale “The Black Bull of Norroway” are investigated in this paper. Black is frequently presented in traditional European stories as an unambiguous indicator of evil, death, or the demonic. But this folktale questions such binary thinking, showing black as both curse and protection, danger and atonement. This paper argues, via a folkloristic and symbolic lens, black functions in the story as a transforming veil through which characters pass from ignorance to insight, from suffering to healing. Under enchantment, the black bull is not a straightforward beast but rather a symbolic person reflecting moral complexity, inner suffering, and protective ability.*

Using narrative analysis, symbolic anthropology, and comparative folklore, this study contends that darkness in Scottish folklore functions not as an antithesis of light but rather as a required complement to truth and transformation.

Keywords: *blackness, dual symbolism, transformation, liminality, shadow archetype, enchantment, Jungian psychology, Celtic mythology, protective, narrative symbolism, symbolic anthropology, heroine’s journey.*

“NORROWAYNING QORA BUQASI” VA ZULMAT QATLAMLARI: SHOTLAND XALQ OG‘ZAKI IJODIDA QORA RANGNING IKKI TOMONLAMA RAMZIYLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Shotland xalq ertagi “Norrowayning Qora Buqasi”da qora rangning murakkab va zid ma’nolari tahlil qilinadi. An’anaviy Yevropa ertaklarida qora rang ko’pincha yovuzlik, o’lim yoki shaytoniylikning aniq belgisi sifatida tasvirlanadi. Ammo ushbu ertak bunday ikki tomonlama fikrni inkor etadi va qora rangni la’nat ham, himoya vositasi ham, xavf ham, poklanish ham sifatida ko’rsatadi. Maqolada folkloristik va ramziy yondashuv orqali qora rang voqeada qahramonlarni johillikdan anglashga, iztirobdan shifo topishga olib boradigan o’zgarish pardasi sifatida namoyon bo’lishi ilgari suriladi. Sehrlangan buqa shunchaki hayvon emas, balki axloqiy murakkablik, ichki azob va himoya kuchining ramziy timsolidir. Mazkur tadqiqot narrativ tahlil, ramziy antropologiya va taqqoslari folklor orqali Shotland folklorida zulmat yorug’likning aksi emas, balki haqiqat va o’zgarishning zaruriy tarkibiy qismi sifatida xizmat qilishini ta’kidlaydi.*

Kalit so’zlar: *qora rang, ikki tomonlama ramziylik, o’zgarish, liminal holat, soya arxetipi, sehr-jodu, Jung psixologiyasi, kelt mifologiyasi, himoyaviy kuch, narrativ ramziylik, ramziy antropologiya, qahramon qizning yo’li.*

«ЧЁРНЫЙ БЫК ИЗ НОРРОУЭЯ» И СЛОИ ТЬМЫ: РАСКРЫТИЕ ДВОЙНОГО СИМВОЛИЗМА ЧЁРНОГО ЦВЕТА В ШОТЛАНДСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются многослойные и противоречивые значения черного цвета в шотландской народной сказке «Чёрный бык из Норроуэя». В традиционных европейских сказках черный часто представляется как однозначный символ зла, смерти или дьявольского. Однако эта сказка ставит под сомнение такие бинарные представления, изображая черный цвет как одновременно проклятие и защиту, опасность и искупление. С использованием фольклористического и символического подхода в статье утверждается, что черный в сказке функционирует как трансформирующая завеса, через которую герои проходят от неведения к прозрению, от страдания к исцелению. Под чарами черный бык — не просто зверь, а символическая фигура, воплощающая моральную сложность, внутренние страдания и защитную силу. Посредством нарративного анализа, символической антропологии и сравнительного фольклора исследование доказывает, что тьма в шотландской традиции функционирует не как противоположность свету, а как необходимое дополнение к истине и преобразованию.*

Ключевые слова: чернота, двойной символизм, трансформация, лиминальность, архетип тени, волшебство, юнгианская психология, кельтская мифология, защита, нарративный символизм, символическая антропология, путь героини.

Introduction. Stories, colors, and moral coding in folklore. Across world folklore, color symbolism functions as a potent narrative and cultural tool. Colors convey not only aesthetic choices but also cultural values, taboos, and identities from the white-clad virgin to the red-hooded girl in danger. Black is often associated in much of Christianized European folklore with danger, evil, and the infernal. But in many indigenous and Celtic traditions, this contrast between light/good and dark/bad is neither absolute nor regularly used.[1]

Black animals—such as black dogs, bulls, or horses—are liminal beings in Scottish and Irish traditions particularly. They could call death, certainly, but also fertility, knowledge, or guardianship. One must go into the multivalent folkloric context of “The Black Bull of Norrøway” and reject current associations with blackness in order to completely understand it.

Summary of the Story. The folktale revolves on a young woman promised to a black bull of mystery as part of a magical contract. Showing both great strength and great tenderness, the bull carries her across magical territory and through trials. The heroine finally lifts the bull’s curse by means of a sequence of losses, searches, and sacrifices, so exposing a prince beneath.

In contrast to many animal-bridegroom stories, this one emphasizes blackness as a necessary transitional phase that leads to healing, love, and transformation rather than as an enemy that must be vanquished.

Goals and Research Questions. The following important questions are the focus of this article:

-In “The Black Bull of Norrøway”, how is the color black used symbolically?

-Which cultural values are reflected in this symbolism in Scottish folklore?

- In what ways does the story use darkness to encourage rather than to counteract transformation?

The study intends to contribute to larger folkloric discussions about color, morality, and narrative transformation by examining the dual symbolism of black—as a sign of hidden grace and a curse.

Methodology. Folkloristic Typology: “The Search for the Lost Husband”, a diverse narrative style that appears in many cultures. This kind involves a woman marrying or being engaged to a beast (or other monstrous figure), losing him due to an illegal act or outside influence, and then having to go through a challenging journey to win him back. These stories typically include separation trials, enchanted husbands that take on animal forms, and the woman’s protracted quest to win back her love.

The study concentrates on the thematic structures of enchantment, transformation, and symbolic trials by situating “The Black Bull of Norrøway” within this narrative tradition.

Symbolic Anthropology and Color Analysis

Douglas, Turner, and Levi-Strauss’ symbolic anthropology offers a critical perspective for examining the ways in which color conveys cultural meaning. Black is analyzed as a symbolic structure with varying meanings based on ritual, context, and narrative purpose in addition to being a visual description.[2] The structural inversions that are frequently present in myth and folklore—where evil can conceal goodness and vice versa—are highlighted.

Literature Comparison and Cross-Cultural Themes

The story is juxtaposed with other European beast tales, particularly the Norwegian tale “East of the Sun and West of the Moon”[2]the French tale “Beauty and the Beast”, and Irish tales such as “The King of the Black Moors” and “Eachtra an Mhadra Mhaoil”. These comparative accounts draw attention to regional differences in the treatment of animality and darkness.

Narrative Close Reading and Thematic Coding

A detailed textual reading of “The Black Bull of Norrøway” focuses on key themes: color language (especially black), the symbolism of space and setting, character transformation, and emotional perception.[3] Patterns of darkness and light, concealment and revelation, are closely analyzed to interpret blackness as a central motif.

Results. The Mark of the Curse is Black. The bull is immediately identified as supernatural and cursed due to his blackness. His blackness—not white, not golden, but dark—indicates his social marginalization and otherworldliness. His separation from the human, the familiar, and the domestic is indicated by this color. Black is associated in this story with the mystery of enchantment as well as the monstrous.

The heroine’s family’s response and her own anxiety demonstrate how, in this instance, being black causes mistrust and anxiety. The bull himself, however, is constantly kind, protective, and honorable—a stark contradiction that starts to challenge the reader’s or listener’s expectations right away.

Black as a Protective Cloak

The girl is shielded by the bull as they traverse rocky terrain and enchanted realms. Instead of endangering her, his dark form [5] helps them get through or survive perilous trials. Black takes on the symbolic role of a shield, an outer layer that absorbs danger. Instead of resorting to violence, he fights with endurance and silent strength.

In certain variations, the bull undergoes color changes during his journey, going from red to silver and then back to black. This recurring return to black implies that darkness is a place of refuge, a home, and a source of identity rather than a bad state to avoid.

Darkness's Liminal Function

After the bull vanishes, the heroine embarks on a subsequent quest that is characterized by both emotional and physical darkness. She has to persevere in the face of loneliness, climb glass hills, and traverse magical landscapes. It is a rite of passage to go through this dark time. Darkness in these stages is symbolic of the intermediate state, where the old identity dissolves and the new one is not yet established, according to Victor Turner's theory of liminality.

Her loss, grief, and perseverance signify a journey into symbolic night, a journey required for rebirth. When she eventually locates the bull once more, the reunion is a metamorphosis rather than a mere comeback. She has gained agency and insight from darkness.

Including the Dark Other

The bull turns into a prince after the curse is lifted. However, the change does not completely erase his former form. Instead, the story implies continuity: the man still possesses the admirable traits she admired in the bull, such as his loyalty, strength, and patience. This last action incorporates blackness as a component of the whole self rather than as an aberration.

Discussion. Darkness as Transformation, Not Evil

Unlike fairy tales where black signifies villainy or death (e.g., black witches, black wolves), "The Black Bull of Norrway" reassigns that symbolism. Here, blackness is the condition of being misunderstood and temporarily unfree, not inherently evil. It marks a stage in a greater arc of self-discovery.

This symbolic function aligns with Celtic beliefs about darkness and the wild. Black bulls in Highland mythology were often omens of fertility or guardians of sacred spaces. They were not evil but unpredictable and powerful—qualities respected and feared, not despised.

Psychological Interpretations: The Shadow and the Self

Jungian psychology offers further insight. The black bull can be read as the "shadow"—a part of the psyche repressed or hidden, often associated with the unconscious. By learning to love and integrate this shadow, the heroine (and the tale's audience) achieves a fuller self-awareness.

In this reading, her journey is not just toward romantic union, but psychic wholeness. She does not conquer the dark figure, but accepts and redeems it—an act of deep psychological growth.

Feminist Readings: Vision and Trust

The tale subverts passive female roles by making the heroine an active seeker. Her refusal to reject the bull based on his blackness or beastliness positions her as a radical figure of trust and empathy. She is not a helpless damsel but a transformative agent. The symbolism of black here mirrors not her fear, but her capacity for faith in the unseen. Such a reading also challenges racialized and colonial color coding that equates darkness with savagery or sin. In this story, blackness is sacred and redemptive—its goodness hidden not because of its nature, but because society refuses to see it.

Scottish Cultural Contexts. The tale's roots in Scottish oral tradition further support a non-binary view of blackness. Highland stories often feature dark, misty environments, shape-shifting animals, and morally ambiguous characters. The use of the black bull reflects the spiritual ecology of the region—where color and creature are never simply symbolic, but layered with ancestral meaning.

In the context of pre-Christian Celtic myth, bulls (especially black ones) were linked to the underworld and seasonal death/rebirth cycles. The tale retains traces of this mythic structure, using the black bull as a totem of endurance, transition, and cyclical return.

Conclusion. "The Black Bull of Norrway" offers a compelling challenge to simplistic associations between blackness and evil. It presents a narrative in which black is the veil that protects truth, the skin that hides nobility, and the space through which the heroine finds strength. Darkness is not destroyed but transformed—reintegrated into a new identity that includes both past and future.

In unpacking the dual symbolism of black in this tale, we gain insight not only into Scottish folklore but into the universal psychological and cultural roles that darkness plays. As readers and listeners, we are reminded that what seems monstrous may be misunderstood, and that true vision requires a journey through shadow.

LITERARY CRITICISM

REFERENCES:

1. Bettelheim, Bruno. *"The Uses of Enchantment: The Meaning and Importance of Fairy Tales"*. Knopf, 1976.
2. Douglas, Mary. *"Purity and Danger: An Analysis of Concepts of Pollution and Taboo"*. Routledge, 1966.
3. Jacobs, Joseph. *"More English Fairy Tales"* David Nutt, 1894.
4. Jung, Carl G. *"Man and His Symbols"*. Dell, 1964.
5. Lang, Andrew. *"The Blue Fairy Book"*. Longmans, Green & Co., 1905.
6. Lévi-Strauss, Claude. *"Structural Anthropology"* Basic Books, 1963.
7. Thompson, Stith. *"Motif-Index of Folk-Literature"*. Indiana University Press, 1955.

TRAGIK OBRAZ TUSHUNCHASI – ARISTOTEL TALQINI

Amonova Dilshoda Azamat qizi,

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “tragik obraz” tushunchasining Aristotel talqinidagi nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tragik obraz – san’atda inson tabiatining murakkabligi, axloqiy zaiflik, taqdir va fojiali oqibatlar bilan bog’liq holda yoritilgan badiiy ifodadir. Maqolada tragik obrazning paydo bo’lishi, rivojlanish bosqichlari, estetik mezonlari hamda Aristotel tomonidan ilgari surilgan asosiy elementlar – syujet, xarakter, fikr, nutq, tomosha va ohang asosida tragediya janrining shakllanishi keng yoritiladi. Tragik obrazning eng muhim belgisi – uning mukammal emasligi, balki ezgulik va zaiflikning uyg’unligi orqali tomoshabinda achinish va qo’rquv uyg’otishidir. Maqolada ushbu jihatlar asosida klassik davr tragediyasi va tragik obraz talqini chuqur ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar. tragik obraz, Aristotel, obraz, ijobiy va salbiy obrazlar, tragediya, katarsis, anagnorisis.

THE CONCEPT OF THE TRAGIC CHARACTER – ARISTOTLE’S INTERPRETATION

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the concept of the “tragic character” in the interpretation of Aristotle. A tragic character is an artistic expression that reflects the complexity of human nature, moral weakness, fate, and tragic consequences. The article thoroughly explores the emergence and development stages of the tragic character, its aesthetic criteria, and the six essential elements of tragedy proposed by Aristotle – plot, character, thought, diction, spectacle, and melody. The most important feature of a tragic character is not perfection, but a combination of virtue and flaw that evokes pity and fear in the audience. Based on these aspects, the article presents a scholarly analysis of classical tragedy and the concept of the tragic character.

Keywords: Tragic character, Aristotle, character, positive and negative characters, tragedy, catharsis, anagnorisis.

ПОНЯТИЕ ТРАГИЧЕСКОГО ОБРАЗА – ИНТЕРПРЕТАЦИЯ АРИСТОТЕЛЯ

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы понятия «трагический образ» в трактовке Аристотеля. Трагический образ – это художественное выражение, раскрывающее сложность человеческой природы, моральную слабость, судьбу и трагические последствия. В статье подробно рассматриваются возникновение и этапы развития трагического образа, его эстетические критерии, а также шесть основных элементов трагедии, предложенных Аристотелем: сюжет, характер, мысль, речь, зрелищность и музыка. Важнейшей чертой трагического образа является не его совершенство, а сочетание добродетели и слабости, вызывающее у зрителя сострадание и страх. На основе этих аспектов проводится научный анализ классической трагедии и трактовки трагического образа.

Ключевые слова: Трагический образ, Аристотель, образ, положительные и отрицательные персонажи, трагедия, катарсис, анагнорисис.

Kirish. Obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) san’atkor ko’zi bilan ko’rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin shaklda ifodalanishidir.[3;64] Albatta, bu tasvirda borliqning ko’plab tanish izlarini topamiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning aynan o’zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik - badiiy borliqdir.

Obraz so’zining lug’aviy ma’nosiga to’xtaladigan bo’lsak, bu so’zning o’zagi “raz”(chiziq) bo’lib, undan “razit”(chizmoq, o’ymoq), undan “obrazit”(chizib, o’yib shakl bermoq) paydo bo’lgan. Shu “obrazit” so’zidan “obraz” atamasi kelib chiqqan. Bu esa “umumiy olingan tasvir” degan ma’noni anglatadi.[4;63]

Shuningdek, “O’zbek tilining izohli lug’ati”da “obraz” so’ziga quyidagicha ta’rif berilgan: “Badiiy asarlarda yaratilgan tip, xarakter. San’atning o’ziga xos bir kategoriyasi: ijodkorning voqelik haqidagi tasavvurining aniq his etiladigan tarzda ifodalanishi.”

V.G.Belinskiy obraz tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Obraz – bu hayot hodisalarining san’atkor tafakkuri va hissiyoti orqali yaratilgan badiiy ko’rinishidir”. [4;63] G’afur G’ulom esa obrazni badiiy asar orqali berilgan hayotiy voqelikning san’atkorona aksi deya izohlaydi.[6;121]

Adabiyotshunoslikda badiiy obrazlar turlicha tasnif etiladi, bunday turli tasniflar uchun qaysi jihat asos qilib olingani bilan bog'liqdir. Jumladan, ijodkor estetik ideali bilan munosabatiga ko'ra *ijobiy* va *salbiy* obrazlar, ijodiy metodga ko'ra *realistik*, *romantik*, *syurrealistik* va b., yaratilish usuliga ko'ra *fantastik*, *grotesk* va b., xarakter xususiyati va estetik belgisiga ko'ra *tragik*, *satirik*, *yumoristik* obrazlar farqlanaveradi.[3;178] Shunday qilib, xarakter-xususiyati va estetik belgisiga ko'ra tasniflangan tragik obraz tadqiqotimizning muhim qismlaridandir.

Metodologiya. Ushbu maqola sof nazariy-tahliliy yondashuv asosida yozilgan bo'lib, unda tragik obraz tushunchasining Aristotel talqinidagi shakllanishi, asosiy elementlari va ularning badiiy-estetik mohiyati tahlil etildi. Tadqiqot davomida Aristotelning "Poetika" asaridagi tragik obrazga doir konseptual qarashlar asos qilib olindi. Metodologik jihatdan maqola kontent tahlili, tarixiy-taqqoslov yondashuv va mantiqiy tahlil metodlari orqali ishlab chiqildi. Shuningdek, antik tragediyalardagi klassik obrazlar – Shoh Edip va Agamemnon misolida obraz va syujet aloqadorligi yoritildi. Maqola yozishda asosiy e'tibor nazariy asoslarni izchil talqin qilish, ularni mavjud ilmiy qarashlar bilan solishtirish va muayyan xulosalarga kelishga qaratildi.

Adabiyotlar sharhi. Maqolada tragik obraz tushunchasiga oid ilmiy va falsafiy qarashlar tahlil qilinarkan, avvalo Aristotelning "Poetika" asariga tayangan holda, antik tragediyaning nazariy asoslari yoritildi. Aristotelning syujet, obraz, fikr, nutq, tomosha va ohangga oid tasnifi tragik qahramonning shakllanishida muhim nazariy mezon sifatida ko'rsatildi. Shuningdek, V.G. Belinskiy va G'afur G'ulomning obrazga oid fikrlari badiiy ifodaning mazmun-mohiyatini aniqlashda yordam berdi. Dilmurod Qur'onovning "Adabiyot nazariyasi asoslari" va "Adabiyotshunoslikka kirish" asarlarida keltirilgan nazariy mulohazalar tragik obraz turlari, tasnifi va estetik bahosiga doir konseptlarni aniqlashda foydalanildi.

Natija. Tragik qahramonlar tragediya janri bilan hamohanglikda bir necha davrlarni bosib o'tgan va klassik(antik davr) tragik qahramonidan to zamonaviy tragik qahramon bo'lguniga qadar bir qancha o'zgarishlarga uchragan.

Antik tragediya nazariyasini Aristotel mukammal shaklda ishlab chiqqan bo'lib, eng muhimi, "Poetika" asarining aynan shu mavzuga bag'ishlangan qismlari bizgacha yetib kelgan. Aristotelning fikriga ko'ra, har bir tragediya olti asosiy unsurdan tashkil topishi lozim: syujet (fabula), qahramonlarning xarakteri, mantiqiy asos, sahna holati, nutq ifodasi hamda musiqiy tuzilma.[2;154] Faylasuf bu unsurlarni muayyan tartibda tahlil qiladi. Unga ko'ra, tragediyaning eng muhim jihati — voqealar tizimidir. Sababi, tragediya insonlarni emas, balki voqealar va hayotni, baxt va baxtsizlikni aks ettiradi. Baxt va baxtsizlik aynan voqealar orqali namoyon bo'ladi. Tragediyaning asosiy maqsadi ham biror bir fazilatni emas, balki muayyan voqealarni tasvirlashdan iborat. Insonlar esa o'z xarakterlariga ko'ra qandaydir fazilatlarga ega bo'lishadi, ammo baxtli yoki baxtsiz taqdirleri voqealarga bog'liq.

Tragediya o'zining sifatini belgilovchi olti asosiy tarkibiy qismga ega:

1. Syujet (plot)
2. Xarakter, obraz (character)
3. Nutq (diction)
4. Fikr (thought)
5. Tomosha (spectacle)
6. Ohang (melody) [1;11]

Yuqoridagi muhim deb hisoblangan unsurlardan biri obrazdir.

Tragik obrazning o'ziga xos ta'rifini Aristotelning "Poetika" asarida uchratishimiz mumkin, chunki aynan u bu tushunchani birinchilardan bo'lib yoritib bergan. Aristotel "Poetika" asarida tragik obraz haqida shunday deydi: "U nihoyatda ezgu va adolatli bo'lgan inson bo'lishi kerak, uning baxtsizlikka uchrashi yovuzlik yoki axloqsizlik natijasi emas, balki qandaydir xato yoki zaiflik sababli yuzaga keladi." [1;21]

Aristotel qahramonni mutlaqo benuqson qilib tasvirlamaydi, ya'ni u hech qanday xato qilmaydigan inson emas. Aksincha, tragik obraz o'ziga yoki boshqalarga zarar yetkazadigan jiddiy xato qiladi va bu uning fojiali taqdiriga olib keladi. Aristotel qahramonni mukammal darajada ezgu va mutlaq fazilatli bo'lishi shart deb hisoblamaydi. U oddiy inson bo'lib, kamchiliklarga ega. "Ezgu bo'lish" bu faqat uning axloqiy sifati bo'lib, u bir darajada ezgu bo'lishi kerak, ammo xarakterida kamchilik bo'lishi zarur. Bu yondashuv orqali Aristotel kishilarning bu xatolardan ibrat olishlarini maqsad qiladi.

Aristotel yana shunday deydi: "U obro'li va farovon inson bo'lishi kerak." [1;22]

U tragik qahramon sifatida Shoh Edip va Tiestes kabi klassik misollarni keltiradi. Tragik obraz– tug'ilishi va tabiati bilan oliyjanob bo'lgan insondir. U baxtsizlikka uchraydi, yuqori martabaga ega bo'lib, buyuk shon-shuhrat va farovonlikda turadi, xuddi Shoh Edip – qadimgi yunon mifologiyasidagi Thebes shohi yoki Tiestes – Olimpiya shohi singari.

Tragik obraz yovuz odam ham emas, mutlaq mukammallik namunasi ham emas, balki yaxshi va adolatli insondir. Uning "hamartia" yoki "fojiali xatosi" uning halokatiga sabab bo'ladi. Fojiali qahramon faqat

o'zining zaifligi tufayli emas, balki axloqiy ko'rlik sababli ham halok bo'ladi. Qahramonning qulashida xudolarning ta'siri haqida ham tasavvur mavjud bo'lgan. Masalan, Esxilning "Orestiya" trilogiyasining birinchi qismi bo'lmish "Agamemnon" tragediyasida Argos shohi Agamemnon yunon xudolariga hurmat ko'rsatib, ularga qurbonlik qiladi. U Troyaga yurish qilish va akasi Menelayning rafiqasi Yelenani qaytarib olish uchun o'z qizi Ifigeniyani qurbon qiladi. Urushdan qaytgach, o'z xotini Klitemnestra tomonidan o'ldirilishini bilmaydi. Xotini undan nafaqat qizini qurbon qilgani, balki o'zining birinchi erini o'ldirgani va o'zi bilan cho'ri Kassandraning kelgani uchun ham qasos oladi. Agamemnonning taqdiri oldindan xudolar tomonidan belgilangan edi: u Klitemnestraga uylanishi, o'z qizini qurbon qilishi va oxir-oqibat xotini tomonidan sevishganlar bilan birga o'ldirilishi muqarrar edi. Xuddi shuningdek, Sofoklning "Shoh Edip" tragediyasida ham asosiy qahramonning taqdiri oldindan yozilgan. Edip tug'ilmasidan oldin, quyosh va nur xudosi Apollon tomonidan belgilangan taqdiri uning o'z otasi Layni o'ldirishi va onasi Yokastaga uylanishi edi. U taqdirining oldini olishga harakat qilsa ham, baribir bu falokatdan qochib qutula olmaydi. Pyesa oxirida Edip o'z aybini tushunib yetadi va bu haqiqatga bardosh bera olmay, o'zini ko'r qiladi. Uning fojiasi ham xudolarning irodasi bilan bog'liq.

Umuman olganda, tragik obrazlarning halokati mag'rurlik (hubris), taqdir va xudolarning irodasi natijasida yuzaga keladi. Edip ham, Agamemnon ham kuchli shohlar bo'lgani uchun mag'rurlikka berilishgan va bu ularning qulashiga sabab bo'lgan. Aristotelning fikricha, tragik obrazning taqdiri o'zgarishi kerak. U fahmlash yoki tan olish (anagnorisis) jarayonidan o'tadi. Bu jarayon kuchli his tuyg'u alangasi, ya'ni shok holati tarzida amalga oshadi. Masalan, Edip o'z otasini o'ldirgani va onasi bilan turmush qurganini anglagan lahzasi – anagnorisis hisoblanadi. [1;24] Tragik qahramon bu jarayonda inson taqdiri, ilohiy iroda va qismat haqida tushunchaga ega bo'ladi. Aristotel bu jarayonni "bilimsizlikdan anglashga o'tish" deb ataydi. Tragik qahramon har doim o'lmasa ham, adolatsiz jazo oladi, ya'ni u haddan tashqari azob chekadi. Tragediya tomoshabinlarda achinish va qo'rquv hissini uyg'otishi kerak.

Shuning uchun tragik qahramonning o'zgarishi yaxshilikdan yomonlikka qarab yuz berishi kerak. Aristotelning fikricha, tomoshabinlar yaxshilikka erishayotgan odamni ko'rib achinishmaydi, lekin o'zi kabi bo'lgan insonning bevaqt halokatga uchrashidan qo'rqishadi. Shu sababdan, fojiali qahramon har doim mag'rurlik, noto'g'ri qaror va taqdir ta'siri ostida qulashiga mahkumdir.

Aristotelning "Poetika" asarida tragediya va tragik obrazlar haqida tushunchalar juda batafsil yoritilgan

1. Catharsis (Katarsis) – Poklanish[1;25]

Aristotel tragediyaning asosiy vazifalaridan biri katarsis ekanligini aytadi. Unga ko'ra, tragediya tomoshabin qalbida qo'rquv va rahm-shafqat hissini uyg'otib, ularni ruhiy poklanish holatiga olib keladi. Bu tozalanishning tabiati haqida Aristotel aniq tushuntirish bermagan, ammo uni ikki yo'l bilan tushunish mumkin:

Emotsional poklanish – tomoshabin qahramonning fojiali qismatini kuzatish orqali o'z qo'rquv va qayg'usidan xalos bo'ladi.

Aqlan poklanish – tragediya insonni o'z xatolarini anglashga undaydi va uni o'z hayotida aqlli qarorlar qabul qilishga yo'naltiradi.

Misol qilib Sofoklning "Shoh Edip" tragediyasida Edipning taqdirini ko'rgan tomoshabin qo'rquv va rahm-shafqat his qilishini va natijada katarsisga erishganini olishimiz mumkin.

2. Anagnorisis (Anagnorisis) – Tanishish yoki Anglash[2;155]

Bu tushuncha tragediyada qahramonning o'z haqiqiy mohiyatini, taqdirini yoki haqiqatni anglab yetish jarayonini bildiradi.

Anagnorisis ko'pincha kutilmagan burilish sifatida sodir bo'ladi va qahramonning fojiasini yanada kuchaytiradi. Bu anglash natijasida qahramon o'z taqdirini to'liq tushunadi, lekin odatda bu kech bo'ladi.

Misol: Shoh Edip asarida Edip o'zining otasini o'ldirganini va onasiga uylanganini tushunib yetganda anagnorisis sodir bo'ladi.

3. Hamartia (Hamartiya) – Fojiali xato

Aristotelga ko'ra, tragik qahramon mukammal emas, u kamchilik yoki xatoga (hamartiya) ega bo'lishi kerak. Bu axloqiy zaiflik yoki aqlning xatosi bo'lishi mumkin, lekin qahramon bu xatoning og'ir oqibatlarga olib kelishini anglamaydi. Hamartiya ko'pincha taqdiriyl burilish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi va qahramonning halokatiga sabab bo'ladi.

Misol: Shoh Edip o'z ota-onasidan qochib, taqdirdan qutulmoqchi bo'ladi, lekin aynan shu harakati uni o'z taqdirini bajarishga olib keladi.

4. Hubris (G'urur va Takabburlik)[2;156]

Hubris – bu haddan tashqari g'urur, takabburlik yoki ilohiy qonunlarga qarshi chiqish sifatidir. Ko'pincha hubris tragik qahramonning asosiy xatosi (hamartiya) bo'ladi va u fojia sababiga aylanadi. Bu

tushuncha yunon tragediyalarida keng tarqalgan bo'lib, qahramonning o'z taqdiriga qarshi chiqishi yoki o'zini ilohlarga teng deb bilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Misol: Sofoklning "Antigona" asarida Kreonning haddan tashqari g'ururi (hubris) uning falokatga uchrashiga sabab bo'ladi.

5. Peripeteia (Peripetiya) – Taqdiriy burilish[2;157]

Peripeteia – bu qahramon hayotining kutilmagan o'zgarishi bo'lib, uni fojia sari yetaklaydi. Aristotel peripetiyaning tragediyaning eng muhim elementlaridan biri deb hisoblaydi. Bu burilish qahramonning baxtdan baxtsizga o'tishini anglatadi va ko'pincha anagnorisis bilan bog'liq bo'ladi.

Misol: Shoh Edip o'zining qirolichaning eri sifatida baxtli yashayotganini biladi, lekin birdaniga haqiqatni anglab yetishi bilan uning hayoti butkul o'zgaradi.

Katarsis – tomoshabin fojia orqali tozalanadi.

Anagnorisis – qahramon haqiqatni anglaydi.

Hamartia – qahramon xato qiladi.

Hubris – haddan tashqari g'urur fojia keltiradi.

Peripeteia – qahramon taqdirida kutilmagan burilish sodir bo'ladi.

Bu tushunchalar Aristotelning tragediya nazariyasida markaziy o'rin tutadi va yunon tragediyalarida aniq aks etadi.

Shunday qilib klassik davr tragik qahramonlari yuqoridagi sifatlarga ega bo'lgan, va shu jihatlar orqali talqin etilgan.

Xulosa. Tragik obraz tushunchasi Aristotelning "Poetika" asarida o'zining nazariy asoslarini topgan bo'lib, u antik davr tragediya nazariyasining muhim elementlaridan biri sifatida qaraladi. Faylasuf tragik qahramonni mukammal emas, balki ezgu fazilatlariga ega, ammo insoniy zaifliklari tufayli xatoga yo'l qo'yuvchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Shoh Edip va Agamemnon kabi klassik obrazlar orqali bu nazariy tamoyillar amalda ham o'z ifodasini topadi. Shu bois, Aristotelning tragik obrazga bergan ta'rifi nafaqat antik tragediya, balki keyingi adabiy maktablar va dramaturgiya uchun ham nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Aristotle. *Poetics*. – London: Penguin Books, 1996. – P.23.
2. Aristotel. *Ritorika. Poetika*. – M.: Labirint, 2000. – B.154-155
3. Dilmurod Qur'onov. "Adabiyot nazariyasi asoslari". – T.: 2018. – P.63.
4. Dilmurod Qur'onov. "Adabiyotshunoslikka kirish". – T.: 2004. – B.64.
5. V.G.Bellinskiy "Adabiyot nazariyasi haqida", 2000.
6. G'afur G'ulom "Adabiyot va hayot". – T.: 2003. – B.121.
7. <https://blog.reedsy.com/tragichero20example>

SAYID MUZAFFARALINING "SHAJARAT-UL-ARUZ"IDAGI QOFIYA HARFLARINING XUSUSIYATLARI

*Norqo'chqorov Sherali Shavkatzoda,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Qofiya ilmining xususiyatlari, ta'rix zarvaraqlarida takomillar va taraqqiyotga yuz tutganligi tahlil qilingan. Qofiya harflari xususiyatlari boshqa nazariyotchi olimlar qarashi bilan qiyosan o'rganilgan. Bundan tashqari, qofiya harflari o'n qismga bo'linib, har biriga alohida she'riy misollar keltirilgan. Qofiya harflari joy jihatdan turlarga bo'linadi va xususiyatlari ko'rsatib berilgan.

Kalid so'zlar: muzaffaraliy, raviy, mazid noyira, ta'sis, daxil...

ОСОБЕННОСТИ РИФМИРОВАНИЯ БУКВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ САИДА МУЗАФФАРАЛИ «ШАДЖАРАТ-УЛ-АРУЗ»

Аннотация. Анализируются особенности науки о рифме, ее усовершенствования и развития на страницах истории. Изучаются особенности рифмованных букв в сравнении со взглядами других теоретиков. Кроме того, рифмованные буквы делятся на десять частей, и для каждой приводятся отдельные поэтические примеры. Рифмованные буквы делятся на типы по местоположению и показываются их характеристики.

Ключевые слова: Музаффарали, рассказчик, Мазид Нойира, учреждение, в том числе...

FEATURES OF RHYMING LETTERS IN SAYID MUZAFFARALI'S "SHAJARAT-UL-ARUZ"

Abstract. The characteristics of the science of rhyme, its improvements and development in the pages of history are analyzed. The characteristics of rhyme letters are studied in comparison with the views of other theoreticians. In addition, rhyme letters are divided into ten parts, and separate poetic examples are given for each. Rhyme letters are divided into types according to location and their characteristics are shown.

Key words: Muzaffaraliy, narrator, mazid noyira, establishment, including...

Kirish. Qofiya ilmining asosiy xususiyatlarini tushuntira oladigan muhim risola Sayid Muzaffaraliy Asiriyning "Shajrat-ul-aruz"idir. Yuqorida tilga olingan risolada qofiya so'zining lug'aviy ma'nosi birinchi bo'lib izohlanadi. Risola muallifi "qofiya"ning lug'aviy ma'nosini "ergashmoq" deb izohlaydi. Bu so'zning kelib chiqishini "mushtaq" so'zining "shaqqa, qaffa, qafu"[2] ildizidan biladi, bu "birovning yoki biror narsaning orqasidan borish" ma'nosini bildiradi. She'r atamasi sifatida talaffuziga ko'ra bir-biriga uyg'un bo'lgan she'rning oxirgi so'zi. Yana alohida aytiladiki, "бинои шеър бар он маҳкам бувад"[2] (S.Muzaffarali), ya'ni qofiyasiz she'r ko'pchilika xush kelmaydi. Shu sababli u she'r tuzilishini qofiya bilan bog'liq deb hisoblaydi. She'rda uyg'unlik, ya'ni evfoniya birinchi o'rinni egallaydi. Muzaffaraliy nazariyasining qofiya qismining izohidan ko'rinib turibdiki, u qofiyaga oid ko'plab risolalarni ko'zdan kechirgan. "Shajarat..." muallifi e'tiborga olgan yana bir muhim masala – qofiyali harflar soni. Muallif nuqtayi nazaridan, qofiyali harflarning to'qqiz turi mavjud: 1.Ta'sis. 2. Daxil. 3. Ridf. 4. Qayd. 5. Raviy. 6. Vasl 7. Xuruj. 8. Maziyd. 9. Noyira.

Asosiy qism. Muallif ravi harfini qofiyaning asl harfi deb hisoblab, qolgan sakkiz turni ravi bilan bog'liq deb hisoblaydi va bu masalani quyidagi ma'noda izohlaydi: "Va dar in huruf Ravi (on harfe, ki qofiyaro hamroh ast) "Asli qofiya" ast. Qofiyani esa usiz o'rganib bo'lmaydi. Va ba "Asli qofiya" hasht harfi digar mulhaq meshavand (mechasvand, vasl meshavand)"[o'sha manba' 80-bet].

Haqiqatan ham shunday. Chunki qofiyadan oldin kelgan to'rtta harf, ya'ni ta'sis, kirish, ridf va nota harflari raviy bilan bog'liqdir. Yoki vasl, xurij, mazid, noyira harflari ham o'q bilan bog'liq. Muzaffarali shahodatiga ko'ra, "Me'yor-ul-ash'or" muallifi – Nosiriddin Tusiy ridf, ravi mufrad, ravi muzaf va vasl harflarini qofiyali harflar deb biladi. Maktubdan keyingi harflar radif ichiga joylashtirilganligi qayd etib, bu masalaga oydinlik kiritish maqsadida Nosiriddinning navbatdagi risolasiga murojaat qildik va bu masala tasdig'ini ko'rdik.

Ravi harfi asosiy harflardan biri bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. S. Mirzaev "O'zbek adabiyotida qofiya" nomli maqolasida ravining tabiatini juda aniq tushuntirib beradi: "Go'yo baytga qofiyani shu tovush

bilan bog'laydilar". [Mirzayev S. O'zbek adabiyotida qofiya. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1972 yil, 5-son, 87-bet]. Bundan ko'rinib turibdiki, she'r qofiyasida ravi harfi bosh o'q vazifasini bajaradi. Barcha qofiyali harflar unga bog'liq. Vohid Tabreziy o'zining "Jam'i muxtasar"- risolasida " oxiron harfe, ki zada qabul mekunad, in harfi ravi ast, inro arabho niz ravi go'yon qayd kardaand. Yagon she'r be harfi raviy durust nameshavad" [T. Boboyev. She'r ilmi ta'limi. Toshkent, "O'kituvchi", 1996. 116-bet] – deb aytadi. Bu so'zlar haqiqat. Chunki qofiyachilarning aksariyati qofiyani she'rning qofiyasi deb biladilar. Biroq she'rning qofiyasi aniq emas. Muzaffaralining qayd etishicha, Raviy "ravo" so'zidan olingan. Lug'atda bu so'z tuyalar bog'lanadigan "расане, банде ё риштае"- ma'nosini bildiradi. Muallifning alohida ta'kidlashicha, "Chun binoi qavofii abyot bar in harf ast" (S.Muzaffarali). She'r bayti qofiyasining o'rnatilishi oqimga bog'liq. Bu so'zning yana bir ma'nosi "buzg'unchi"dir. Muzaffarali buni qofiyadagi burilish va burilishlarni bartaraf etish, shoir va shoirlarga o'z fikrini bildirish imkoniyati bo'lishi nuqtai nazaridan buzg'unchi, deb biladi. Yana bir muhim masala yozuvchi tomonidan ta'kidlanganidek, asl baytdagi alifbo bir xil bo'lib, buni bayt misollari ham isbotlaydi:

G'aniydan misol,

Ma'nii sof, ki dar qolibi alfozi bad ast,

Hast oinayi sofe, ki nihon dar namad ast.

Bu baytda "bad" va "namad" so'zlari qofiya kelishi aniq. Bu yerda bizning e'tiborimiz Ravi shriftiga qaratilgan. Shuning uchun ham bu olmoshda "dol" (e) harfi fe'l vazifasini bajaradi. Xuddi shu harf ikki misrada kelgani aniq. Qofiyaga oid yana bir munozarali masala yozuvchi tomonidan quyidagicha izohlanadi: "Qofiyada ba'zan shunday qo'shma gaplar bo'ladiki, "Dar qofiya gohe chunin ittifoq meuftad, ki "Tar" va "Sar" bo' radifi lafzi "Mar" "Ham" orand..." [Said Muzaffarali. Asiri. Shajarat-ul-aruz. Litograf, Nuvalkishur bosmaxonasi nashri, 1915. 81-bet.]. Yozuvchining bu fikrini to'g'riroq tushuntirish uchun muallifning misol tariqasida keltirgan misrasini keltiramiz:

Doram zi g'amat zaxm ba dil, dog'i jigar ham,

Bar sina bineh dast, ki shud xohishi marham.

Baytning mazmuni quyidagicha: "az g'ami tu dar dil zaxm doram, in zaxm na faqat dar dil ast, balki hamchun dog' dar chigar ham hast. In holatro boyad tu doni. Baroi on dast bar sinayi man guzor va in ran'ro his namo. In chiz baroi man hamchun marham (doru) ast". Muallifning fikricha, bu misrada ham qofiya, ham radif bor. Birinchi misrada "jigar", ya'ni "gar", ikkinchi misrada "marham", ya'ni "mar" so'zi olmosh vazifasida qo'llangan. Demak, she'rning qofiyasi ma'lumki, birinchi misradagi "ham" so'zi, ikkinchi misradagi "marham" so'zining qismi, ya'ni "ham" radif bo'lib kelgan. Lek juda munozarali masala, chunki aksariyat hollarda radif bir xil ma'noli so'zlar hisoblanadi. Bu yerda muallif so'zning rafid qismini ko'radi. Alohida ta'kidlab o'tish joizki, Muzaffarali bu turdagi radiflarni so'zli radif deb biladi. Bunday holda, muallifning fikrini qo'llab-quvvatlash kerak, bu yerda ma'no so'z emas, balki so'zning shaklidir. Yozuvchi ta'kidlagan yana bir masala – olmosh uchun ishlatiladigan so'zlarning olmosh tarkibiga kirmasligidir. U bu ma'noni quyidagi shaklda eslatib o'tadi: "Yo harfi zoidi mashhuru-t-tarkib, ki shoironro az nafsi kalima gardonad va harfi oxirsoz shavad. Charo ki dar qofiya "g'am, alam, niham, kunam..." qofiyasida teng bo'lsinlar [O'sha manba. 82-bet.]. "Shajarat..." muallifi misol qilib keltirgan o'sha so'zlar (g'am, alam, niham, kunam) , bu so'zlarning har bir harfi qofiyaga aloqador emas. Masalan, "g'am" so'zining hammasi qofiya. Biroq, yozuvchi keltirgan boshqa misollar bunday emas. "alam" so'zidan qofiyaga mos keladigan harflar "lam" hisoblanadi. "niham" so'zidan "ham" qismi, "kunam" so'zidan "nam" qismi qofiya. Muallif o'z asaridan misol keltiradi:

Garchi az hajri do'st doram g'am,

Nest daste ba vasli o'... chi kunam?

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ravidan oldin to'rtta qofiyali harf bor. Birinchisi, Ta'sis ta'sis. "Shajarat..." muallifining yozishicha, ta'sis so'zining lug'aviy ma'nosi "asos solish"dir. Yozuvchi biladiki, bu so'zning ma'nosi o'sha harfdan (ta'sis) qofiya harf yasalishi ko'rib chiqilishi bilan izohlanadi. Muallif muassasa xarakterini quyidagicha ta'riflagan: "Va dar istiloh Alifest, ki qabl az Rav'i oyad va dar miyoni y va Rav'i, harfe mutaharrik vosita boshad" [O'sha manba. 82-bet.]. Bu yozuvchining gapidan ma'lum bo'lishi kerakki, ta'sis ravidan oldin keladi va uning o'rtasida yana vosita harflari bor. Adib ham bir qancha misollar keltiradi: "Kalimahoi zammador chun Tajohul, Tasohul va fathador chun kalimahoi Dovar va Bovar, va kasrador chun kalimahoi Hoyil va Qoyil boshand" [O'sha manba. 82-bet.]. Bu so'zlarning barchasida "o" harfi ta'sis vazifasi uchun kelgan. Yana bir muhim masala shundaki, Bahrom Sirus o'zining "Qofiya dar nazmi to'chik" asarida ta'sis haqida shunday fikr bildiradi: "Vale ba'ze az shoironi klassikii tojik takror kardani harfi ta'sisro dar qofiya zarur nameshumorand" [Bahrom Sirus. Qofiya dar nazmi to'chik. Tojikiston davlat nashriyoti. - Stalinobod, 1955. 33-bet.]. Yozuvchi o'z fikrini isbotlash uchun Zayniddin

Mahmud Vosifiy asaridan bir misol keltiradiki, unda bir qofiyada ta'sis harfi keltirilsa, boshqasida ko'rinmaydi.

Ey la'li jonfazoyat naqdi xazinayi dil,
Z-on naqd nest moro juz xuni dida hosil.

Bu yerda "dil" va "hosil" qofiyali so'zlari ko'rib chiqiladi. "dil" so'zida ta'sis yo'q, lekin "hosil" so'zida "o" tovushi Bahrom Sirius nuqtayi nazaridan ta'sis keltirilgan.

Daxil harfi va uning xususiyatlari

Daxil tovushi ravi harfidan oldin keladigan harf hisoblanaadi. Daxil harfi harakatlanuvchi tovush bo'lib, tasis va raviv o'rtasiga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ta'sisdan keyin keladigan undosh harf daxildir. Bundan ma'lum bo'ladi, ki undosh tovushlar daxil vazifaasiga kelaa oladi. A. Rustamov "Qofiya nima?" kitobida. ichki harfning takrorlanishi haqida: "Biroq ta'sisli qofiyaning daxili aynan takrorlansa, qofiyaning jarangdorligi yanada ortishi shubhasizdir. Bundan ko'rinib turibdiki, she'rda birinchi harfning takrorlanishi qofiyaning ritmi va uyg'unligini ta'minlaydi. "Shajarat..." muallifi "Daxil" harfini ham o'tkazib yubormagan: "Va on, on harf ast, ki dar miyoni Alifi ta'sis va harfi Ravn voqe' shavad. Chun dar miyona doxil shavad, lihozo onro Daxil nom nihodand. Masalan, harfi Vov dar kalimayi Ro' yo Ro'yo; yo rasoyil va Moyil va ri'oyati takrori in harf ham lozim nest". Muallif (rasoyil va moyil) keltirgan misolda daxil harf "y" tovushidir. Biroq, biz kiritilgan barcha harflarda bir xil undosh harfning takrorlanishini ko'ra olmaymiz. Jumladan, Sa'diy Shiroziy baytidan namuna olamiz:

Giram padari tu bud fozil;
Az fazli padar turo chn hosil?

Bu baytda "fozil" va "hosil" so'zlari qofiyalangan. Bu olmoshda "z" va "s" tovushlari teskari harf vazifasini bajaradi.

Ridf harfi

Nazariy olimlar orasida ridf haqida turli fikrlar mavjud. Aksariyat olimlar riftni ikki guruhga ridfi mufrad yo asl, ridfi zoid-ga ajratadilar. Ridf masalasiga kirishishdan oldin uning nima uchun ikki guruhga bo'linganligini aytib o'tishimiz kerak. Ridf Ravidan oldingi harf hisoblanadi. Agar oldingi harfda unli (unli) bo'lsa, u bir bo'g'in hisoblanadi. Oldingi harf undosh (undosh) bo'lsa, u holda ridfi zoid deyishadi. Muzaffarali ridf va uning yangilari haqida ham o'z fikrlarini bildirdi. Yozuvchi ridf masalasini ko'rib chiqishdan avval uning lug'at ma'nosini beradi: "Ridf dar lug'at chize, ki dar payi chize boshad, chun asli hurufi qofiya Ravn hast, va in harf dar payi o'st, ridf yo ro'df nom kardand". Bundan ma'lum bo'ladi, ki ridf lug'atda "dar payi chize" atama sifatida borishdan oldingi harf ma'nosini bildiradi. Asl imlo bilan bog'liq muammo unilar ekanligi ma'lum. Lekin bolaning ismining harfi biroz yumaloq. Chunki unlidan oldin kelgan undoshning harfi nota harfi hisoblanadi. Ko'pchilik adabiyotshunos olimlar bu savolga to'g'ri javob bermagan. Chunonchi, Nosiriddin Tusiy 'ridfi zoid'-ni qo'shimcha bo'g'in deb hisoblab, ridf harflari sonini yettita deb hisoblaydi. Biz bu fikrdan qoniqish hosil qila olmaymiz. Bu gapni «Shajarat...» muallifi yana takrorlaydi: «Bu bobda bir misol keltiramiz, bu baytda:

Xo – vu Ro-vu Sin – u Shin-u Fo-vu Nun.

ن ف ش س ر خ

Va biz ushbu harfga quyidagi so'zlar yordamida misollar keltiramiz:

Toxt- boxt, kor – or, rost-kost, dosht – kosht, boft-yoft, mond-xond".

Harflar soniga nazar tashlasak, Nosiriddin ridf harflar guruhiga bir harf, ya'ni j harfini keltiradi. Muzaffarali esa oltitani sanaydi. Bu borada to'g'ridan-to'g'ri "Al-Mu'jam" muallifining "Shajarat..." muallifi bilan bir xil so'zlar, degan so'zlariga boramiz. Mo' tafovuti bayni ridfi zoid va harfi qaydro dar tarkibi qayd nishon doda meguzarem.

Qayd harfi

Lug'atda eslatma "band" degan ma'noni anglatadi. Muzaffarali guvohligiga ko'ra, ki g'ayri ridfi zoid buda, pesh az harfi ravn meoyad. Muallif arab tilida harflar soni ko'p, fors tilida esa o'nta bo'lib, qaysi harflar nota qayd harfi vazifasini bajarishini aytib o'tadi: "Ajamda o'nta Qayd harfi, ya'ni:

Bovu Xo -vu Rovu Zovu Sinu Shinu G'aynu Fovu Nunu Ho.

Va ularga misollar quyidagilardir:

Abru Sabru Raxtu Saxtu Kardur Dardur 'azmu Razmu

Jastu Bastu Xishtu

Kishtu Mag'zu Nag'zu Guftu Suftu

Rangu Tangu Qahru Zahr".

Va ularga (misollar) quyidagilardir:

Yozuvchi boshqa undosh harflarning ham yozuv vazifasini bajarishini ta'kidlab, "chatr"so'zini misol qilib keltiradi va bu yerda "t" harfini yozuv sifatida tan oladi. Muzaffarali o'z fikrini "Meyar-ul-ash'or" muallifining so'zlariga asoslanib aytadi: "Va sohibi "Me'yor-ul-ash'or" Qaydro doxili Ridf doshta, va

Ridfro, ba urfi shuari Aqam, ba in iborat gufta, ki harfe sokin pesh az Ravā boshad, bevositayi xoh madd, xoh g'ayri madd". Nosiruddin, Shams Qays Roziv va Muzaffarali fikricha, biz ridfi zoidni qayd harfidan to'g'ri ajrata olmaymiz. Bu borada tojik adabiyotshunosi Bahrom Sirusning fikricha, fikrimizga amal qilish to'g'riroq bo'ladi: "Ba fikri mo, agar mo hamayi on guna harfhor qayd meshumurdem va agar pesh az qayd yagon harfi sadonoki daroz oyad, on goh on nav' qaydro ridfi zoid menomidem, tamoman durust meshud". On aqidahoye, ki pesh az o' ovarda guzashtem, mo ba purragi ridfi zoidu qaydro az yakdigar judo karda natavonista budem. Biz uning oldiga olib kelgan fikrlarni butunlay ajrata olmadik. Bunday holda, biz ular orasidagi (ridfi zoid va qayd) qandaydir to'g'ri farqni sezishimiz mumkin.

She'riyatda qofiya tizimini tushunishda raviiy harfi markaziy tushuncha hisoblanadi. S. Mirzaev, Vohid Tabreziy va S. Muzaffaralining qarashlariga asoslanib aytish mumkinki, ravi harfi nafaqat qofiyaning yakuniy tovushi, balki uning butun tuzilmasini birlashtiruvchi asosiy tayanch nuqtadir. Qofiyadagi barcha boshqa tovushlar raviga nisbatan aniqlanadi va baholanadi.

Etimologik nuqtayi nazardan, "raviy" so'zining "ravo" ildizidan kelib chiqib, "rishta" yoki "bog'lovchi arqon" ma'nosida qo'llanishi, uning qofiya unsurlarini bir-biriga bog'lovchi vazifasini anglatadi. Shu bilan birga, bu so'zning "buzg'unchi" ma'nosi ham she'r tuzilishida yangi fikr, burilish va ijodiy erkinlikni ifodalaydi. Demak, ravi harfi ijodiy oqim va nazm strukturasi o'rtasida kuchli aloqa bog'lovchi element sifatida maydonga chiqadi.

Xulosa. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, ravi harfisiz qofiyaning mavjudligi mumkin emas, u baytlar o'rtasida uyg'unlik va ritmni ta'minlovchi, qofiyaning shakl va mazmun jihatidan mukammalligini belgilovchi asosiy aruziy birlikdir.

ADABIYOTLAR:

1. *Мирзаев С. Ўзбек адабиётида қофия. "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали, 1972, 5-сон, 87-бет.*
2. *Саид Музаффаралии Асирӣ. Шаҷарат-ул-арӯз. Чопи сангӣ, наири матбаи Нувалкишур ба соли 1915. Саҳифаи 77.*
3. *Саид Музаффаралии Асирӣ. Шаҷарат-ул-арӯз. Чопи сангӣ, наири матбаи Нувалкишур ба соли 1915. Саҳифаи 78.*
4. *Рустамов Алибек. Қофия нима? Т., "Фан", 1987.*
5. *Т. Бобоев. Шеър илми таълими. Тошкент, "Ўқитувчи", 1996. 116-бет.*
6. *Баҳром Сирус. Қофия дар назми тоҷик. Наириёти Давлатии Тоҷикистон. -Сталинобод, 1955. Саҳифаи 33.*

SPORT JURNALISTIKASI – SPORT OLAMINING KO‘ZGUSI

Mamatqulov Xusanboy Baxtiyor o‘g‘li,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sport jurnalistikasining mazmun-mohiyati, jamiyat hayotidagi o‘rni va sportni ommalashtirishdagi roli keng yoritilgan. Bugungi kunda sport nafaqat jismoniy tarbiya vositasi, balki yirik ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy fenomen sifatida ham alohida e‘tiborga molik. Ushbu kontekstdan kelib chiqqan holda sport jurnalistikasi sport olamining “ko‘zgusi” sifatida axborot tarqatish, tahlil qilish, baholash hamda jamoatchilik fikrini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda sport jurnalistikasi tarixiy taraqqiyoti, uning O‘zbekistondagi shakllanish bosqichlari, yetuk sport jurnalistlarining faoliyati va ommaviy axborot vositalarida sport materiallarining o‘rni chuqur o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: sport jurnalistikasi, sport yangiliklari, sport jurnalisti, tahlil, ijtimoiy axborot, sog‘lom turmush tarzi, raqamli media.

СПОРТИВНАЯ ЖУРНАЛИСТИКА – ЗЕРКАЛО МИРА СПОРТА

Абстрактный. В данной статье широко освещается сущность спортивной журналистики, ее роль в жизни общества и роль в популяризации спорта. Сегодня спорт не только как средство физического воспитания, но и как крупное социально-экономическое, политическое и культурное явление заслуживает особого внимания. В этом контексте спортивная журналистика как “зеркало” мира спорта приобретает неоценимое значение для распространения информации, анализа, оценки и формирования общественного мнения. В исследовании подробно рассматривается историческое развитие спортивной журналистики, этапы ее становления в Узбекистане, деятельность зрелых спортивных журналистов, роль спортивных материалов в средствах массовой информации.

Ключевые слова: спортивная журналистика, спортивные новости, спортивный журналист, аналитика, социальная информация, здоровый образ жизни, цифровые медиа.

SPORTS JOURNALISM – A MIRROR OF THE SPORTS WORLD

Abstract. In this article, the content and essence of sports journalism, its role in the life of society and its role in the popularization of sports are widely covered. TODAY, Sports are of particular note not only as a means of physical education, but also as a major socio-economic, political and cultural phenomenon. From this context, sports journalism as a “mirror” of the world of Sports has an incomparable importance in the dissemination, analysis, assessment of information and the formation of public opinion. The study delves into the historical progress of sports journalism, the stages of its formation in Uzbekistan, the activities of mature sports journalists and the role of sports materials in the media.

Keywords: sports journalism, sports news, sports journalist, analysis, social information, healthy lifestyle, digital media.

O‘zbekistonda sport jurnalistikasi rivoji O‘zbekistonda sport jurnalistikasining rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

- **1991-yilgacha:** Sport xabarlariga kam e‘tibor qaratilgan, asosan, “Sovet sporti” ruhidagi yangiliklar mavjud edi.

- **1991-2005 yillar:** Mustaqillikdan so‘ng sportga davlat e‘tibori kuchaydi. “O‘zbekiston sporti”, “Jahon sporti” kabi gazetalar tashkil etildi. Televideniye va radioda sportga oid maxsus eshittirishlar yo‘lga qo‘yildi.

- **2005-2020 yillar:** Internet jurnalistikasi rivojlandi. “Olamsport.uz”, “Stadion.uz”, “Sports.uz” kabi saytlar sportni keng yoritishda faol qatnashdi.

- **2020- yildan hozirgacha:** Ijtimoiy tarmoqlarda sport bloggerligi keng tarqaldi. Jurnalistlar sport yangiliklarini nafaqat matbuotda, balki YouTube, Telegram, Instagram kabi platformalarda taqdim eta boshladi. Interaktiv, vizual va audio materiallar soni ortdi.

Bugungi globallashuv va axborot oqimi tezlashgan davrda sport nafaqat jismoniy faoliyat, balki katta ijtimoiy voqelik sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aynan shunday sharoitda sport jurnalistikasi – sport hayotining ko‘zguysi sifatida shakllandi. Sport jurnalistikasi sport voqealari, sportchilarning yutuqlari, ularning hayot tarzi, sport siyosati va ommaviy jismoniy tarbiya haqida keng jamoatchilikni xabardor qilishga xizmat qiladi.

Sport jurnalistikasi – bu jurnalistikaning maxsus sohasi bo'lib, sportga oid yangiliklar, tahliliy maqolalar, intervyular, reportajlar, sharhlar, statistik ma'lumotlar orqali auditoriyani sport olamidagi voqealar bilan tanishtiradi. U sportchilar, murabbiylar, hakamlar va tomoshabinlar o'rtasida axborot ko'prigini yaratadi.

Sport jurnalistikasi zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan yangi imkoniyatlarga ega bo'ldi. Bugungi kunda sport jurnalistlari o'z ishlarini faqat an'anaviy ommaviy axborot vositalarida (gazeta, televideniye) emas, balki internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ham amalga oshirmoqda. Bu esa sport yangiliklarini tezda va keng auditoriyaga yetkazish imkonini yaratmoqda. Sport jurnalistikasining asosiy yo'nalishlari, jumladan, real vaqtda yoritish, analitik tahlillar, statistik ma'lumotlarga asoslangan yoritish, sportchilarning shaxsiy va professional hayotini yoritish, hamda kross-media yondashuvi kabi yangiliklar, jurnalistlarning ishini yanada murakkab va jozibali qiladi. Shu bilan birga, sportchilarning sog'ligi, jarohatlar va tiklanish jarayonlari haqida yangiliklar ham muhim mavzuga aylangan. Maqolada sport jurnalistikasining bugungi kunda yuzaga kelgan yangi talablari va imkoniyatlari, shuningdek, sportchilar, musobaqalar va yangiliklarning yoritilish usullari tahlil qilinadi. Bu sohadagi o'zgarishlar nafaqat sport jurnalistlari uchun, balki keng jamoatchilik uchun ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli, maqola sport jurnalistikasining bugungi kunda olib borilayotgan ishlari va uning sportning global ommaviyligi bilan bog'liqligini keng yoritadi.

Sport jurnalistining vazifalari Sport jurnalisti nafaqat musobaqalarni yoritadi, balki:

- sportchi va jamoalarning tayyorgarlik jarayonini kuzatadi,
- yutuq va mag'lubiyatlarning sabablari haqida tahlil qiladi,
- sport siyosati va ijtimoiy jarayonlarga oid maqolalar tayyorlaydi,
- yosh avlodni sportga jalb etuvchi targ'ibot olib boradi.

Sport jurnalisti shuningdek axloqiy me'yorlarga qat'iy amal qilishi, xolislik va adolatni saqlashi, noto'g'ri ma'lumot tarqatmasligi zarur.

Zamonaviy sport jurnalistikasi vositalari. Hozirgi kunda sport jurnalistikasi an'anaviy OAV (gazeta, jurnal, televideniye) bilan cheklanmaydi. Internet saytlari, sport bloglar, ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, X), videopodkastlar, jonli efirlar, sharhlar orqali yangiliklar tezkor va keng auditoriyaga yetkazilmoqda. Bu vositalar sport jurnalistlaridan zamonaviy texnologiyalarni puxta bilishni talab etadi.

Sport jurnalistikasi va jamiyat - Zamonaviy jamiyatda axborot vositalarining roli beqiyosdir. Ayniqsa, sport sohasida bu ta'sir yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Sport jurnalistikasi – bu nafaqat musobaqalarni yoritish vositasi, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi va yosh avlod tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan kuchli axborot manbaidir. Bugungi kunda sport jurnalistikasi jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, u orqali sportning ahamiyati, sportchilar hayoti, xalqaro yutuqlar va dolzarb masalalar ommaga yetkaziladi.

Sport jurnalistikasi bu sport voqealarini, musobaqalar, sportchilarning faoliyati, sportdagi dolzarb yangiliklarni jurnalistika vositalari orqali yoritish faoliyatidir. Bu soha jurnalistikasining alohida tarmog'i bo'lib, o'ziga xos uslub, format va yondashuvlarni talab qiladi. Uning asosiy maqsadi sportga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, sport yutuqlarini ommalashtirish, sport madaniyatini shakllantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sportchilarning faoliyatini tahlil qilish va jamiyatga yetkazishdir. Aynan sport jurnalistikasi orqali omma sportga, sportchilarga, jismoniy faollikka nisbatan chuqurroq tushunchaga ega bo'ladi. Bu orqali jamiyatda sportga bo'lgan e'tibor ortadi.

Sport jurnalistikasi ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Jurnalistlar sportdagi yutuqlar, ijtimoiy masalalar va sportchilarning hayoti haqida maqolalar, intervyular va reportajlar orqali jamiyatga ma'lumot beradi. Bu esa sportni nafaqat musobaqa sifatida, balki ijtimoiy-hayotiy hodisa sifatida ko'rsatadi. Masalan, sport jurnalistlari orqali boksda chempion bo'lgan yosh sportchi haqida butun mamlakat xabardor bo'ladi, bu esa boshqa yoshlarga ilhom bag'ishlaydi. Shunday yo'l bilan sport jurnalistikasi ijobiy namunalarni ilgari suradi, yoshlarni maqsad sari intilishga undaydi.

Jamiyatda sport orqali yetishib chiqqan milliy qahramonlar mavjud. Ular haqida jurnalistlar maqolalar yozadi, intervyular olib, hujjatli filmlar tayyorlaydi. Bu qahramonlar sport orqali xalqda faxr tuyg'usini, milliy g'ururni uyg'otadi. Masalan, Bahodir Jalolov, Hasanboy Do'stmatov yoki Murodjon Ahmadaliyevlar haqidagi ommaviy materiallar yoshlar uchun motivatsiya bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning shijoati, mehnatkashligi, halolligi sport jurnalistlari orqali ommaga namoyish etiladi. Shu tariqa sport jurnalistikasi qahramonlik, fidoyilik va iroda kabi ijtimoiy qadriyatlarni targ'ib qiladi.

Sport jurnalistikasi sog'lom turmush tarzini keng ommaga yetkazuvchi kuchli axborot manbaidir. Televizion ko'rsatuvlar, sport nashrlari, onlayn portallar orqali yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish, jismoniy faol bo'lish, sport bilan muntazam shug'ullanish haqida maqolalar e'lon qilinadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda "sog'lom hayot uchun yugur", "velomarafon", "oilaviy sport kunlari" kabi ommaviy sport tadbirlarini yoritish orqali jurnalistlar butun jamiyatda sport madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu yo'l bilan

sport jurnalistikasi faqat sportchilar uchun emas, balki butun jamiyat uchun foydali ma'lumot manbaiga aylanmoqda.

Milliy terma jamoaning xalqaro sport maydonlaridagi ishtiroki butun mamlakatni birlashtiradi. Bu jarayonda sport jurnalistikasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mamlakat sportchilari Jahon chempionati yoki Olimpiadada qatnashayotgan paytda televideniye, ijtimoiy tarmoqlar, gazetalarda keng yoritilishi orqali jamiyat bir maqsadga yo'naltiriladi – qo'llab-quvvatlash, g'ururlanish va ishonch bildirish. Bu – ommaviy axborot vositalari orqali vatanparvarlik ruhini oshirish, milliy g'ururni mustahkamlashdir. Aynan sport jurnalistikasi shu ruhni keng ommaga tarqatadi.

Sport sohasida muammolar ham mavjud. Ayrim hollarda noto'g'ri hakamlik, sport inshootlarining yetishmasligi, korrupsiya yoki sportchilarga yetarlicha e'tibor berilmasligi mumkin. Sport jurnalistikasi bunday holatlarni tahlil qilishi, tanqidiy materiallar tayyorlashi, muammolarni ko'rsatib, yechimlar taklif qilishi bilan ijtimoiy islohotlarga turtki bo'ladi. Bugungi kunda sport jurnalistlari nafaqat sportchilarni, balki murabbiylar, rahbarlar va federatsiyalar faoliyatini ham tahlil qilmoqda. Bu orqali sportdagi shaffoflik, halollik va professional yondashuv shakllanmoqda.

Hozirda sport – bu nafaqat jismoniy mashg'ulot, balki butun boshli sanoatga aylangan. Sport musobaqalarining teletranslyatsiyasi, reklamalar, homiylik shartnomalari va brendlar bilan ishlash – bularning barchasi sport jurnalistikasi bilan chambarchas bog'liq. Jurnalistlar orqali sport brendlari reklama qilinadi, musobaqalarga tomoshabinlar jalb qilinadi, sportchilar bilan omma tanishadi. Shunday qilib, sport jurnalistikasi butun sport iqtisodiyotining media tarkibiy qismini tashkil etadi.

Internet texnologiyalari rivojlanishi bilan sport jurnalistikasi yangi bosqichga ko'tarildi. Bloglar, YouTube kanallar, sportga oid Telegram sahifalar, podkastlar bugungi kunda yoshlar orasida juda ommabop. Bu platformalar orqali sport yangiliklari real vaqt rejimida tarqatiladi, tomoshabin sportchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotga kirishadi. Jurnalistlar uchun esa bu – tezkorlik, tahliliy yondashuv va kreativlik talab qiladigan yangi imkoniyatdir.

Xulosa qilib aytganda, sport jurnalistikasi jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi. U sport orqali ijtimoiy ongni shakllantiradi, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi, yosh avlodga ijobiy namuna bo'ladi, milliy qahramonlar obrazini yaratadi, jamiyatda birdamlik va patriotizmni kuchaytiradi. Shu bilan birga, jurnalistika sport siyosatini nazorat qiladi, muammolarni yoritadi va ularni bartaraf etishga hissa qo'shadi. Zamonaviy raqamli davrda sport jurnalistikasi yangi bosqichga ko'tarilmoqda va bu sohaning jamiyatdagi roli tobora ortmoqda.

Shu o'rinda sport jurnalistikasi haqida tahliliy ko'rsatmalarni takidlab, ayrim tavsiyalarni bildirib o'tamiz:

1. Zamonaviy sport jurnalistikasidagi o'zgarishlar

Raqamli texnologiyalarning kirib kelishi bilan sport jurnalistikasi an'anaviy shakldan chiqib, bloggerlik, video reportajlar, podkastlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqatish kabi interaktiv formatlarga o'tdi. Natijada jurnalistlar o'z kasbiy chegaralarini himoya qilishga muhtoj bo'lib qolishdi, chunki bloggerlar va boshqa norasmiy axborot manbalari ularning rolini egallab bormoqda.

2. Sport jurnalistikasidagi muammolar

Sport jurnalistikasi sohasida taraqqiyot bilan bir qatorda turli muammolar ham mavjud bo'lib, ular jurnalistika sifati, mustaqilligi va jamoatchilik ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Avvalo, ushbu yo'nalishda tajribali va chuqur bilimga ega mutaxassislarning yetishmasligi dolzarb masalalardan biridir. Ko'plab yosh jurnalistlar sportning texnik va taktik jihatlarini chuqur tushunmagan holda faqat statistik ma'lumotlar yoki yuzaki tafsilotlar bilan cheklanmoqda. Bu esa materiallarning sathiy va zerikarli chiqishiga olib keladi.

Yana bir muhim muammo — bu sport voqealarini yoritishda xolislik va mustaqillikning yetishmasligidir. Ayrim holatlarda jurnalistlar sport tashkilotlari, klublar yoki homiylarning bosimi ostida ishlashga majbur bo'ladi. Bu holatda ular tanqidiy fikr bildirishdan tiyiladi yoki noxolis axborot taqdim etishga majbur bo'ladi. Natijada, ommaviy axborot vositalarining ishonchliligi pasayadi va jurnalistik axborotlar biryoqlama tus oladi.

Sport jurnalistikasida sensatsiyaga moyillik ham keng tarqalgan muammo hisoblanadi. Ayrim jurnalistlar ommaviy e'tiborni jalb qilish maqsadida sportchilarning shaxsiy hayotiga aralashish, tasdiqlanmagan ma'lumotlarni e'lon qilish yoki voqealarni sun'iy ravishda shov-shuvga aylantirishga urinadi. Bu esa sport muhitida salbiy psixologik holatga, jurnalistlar bilan sportchilar o'rtasidagi ishonch yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Tahririyatlarning moliyaviy qaramligi ham sport jurnalistikasidagi muhim muammolardan biridir. Ba'zida sport yangiliklarini yorituvchi ommaviy axborot vositalari mustaqil emas, balki u yoki bu tashkilotning siyosati asosida harakat qiladi. Natijada, ayrim jamoalar yoki sportchilar to'g'risida salbiy yoki

tanqidiy maqolalar yozilmaydi, yoritilishda tenglik buziladi. Bu esa sport jurnalistikasining erkin rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Sport jurnalistikasida tahliliy maqolalarning ozligi ham e'tiborga molik masaladir. Ko'plab nashrlar faqat yangilik, hisob-kitob, g'alaba va mag'lubiyatlar haqida qisqacha ma'lumot beradi. Holbuki, bugungi kunda sportni tushuntiruvchi, o'yinning ichki jarayonlarini tahlil qiluvchi, taktik yechimlarni chuqur o'rganuvchi materiallarga ehtiyoj ortib bormoqda. Biroq bu borada yetuk mutaxassislar va o'rgatuvchi dasturlarning kamligi, vaqt va resurs yetishmasligi sababli jurnalistlar oddiy informatsion yondashuv bilan cheklanib qolmoqda.

Yana bir muammo — sport jurnalistikasida gender tengligining yetishmasligidir. Ko'plab sport nashrlari va telekanallar erkak sportchilarning faoliyatini keng yoritadi, biroq ayollar sporti ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Bu axborot nomutanosibligi sport jurnalistikasining ijtimoiy adolat tamoyillariga zid bo'lishiga sabab bo'ladi.

Texnologik imkoniyatlarning yetarli darajada qo'llanmasligi ham muhim muammolardan sanaladi. Ko'plab tahririyatlar va jurnalistlar zamonaviy vositalar, infografika, video montaj, jonli translyatsiya, mobil jurnalistika imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaydi. Buning asosiy sababi — texnik vositalar va malakali kadrlarning yetishmasligi hamda doimiy malaka oshirish tizimining yo'qligidir.

Axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi va filtsiz tarqalishi ham jurnalistlar uchun qiyinchilik tug'diradi. Har kuni yuzlab sport yangiliklari paydo bo'ladi, biroq ularning to'g'riligini tekshirishga vaqt va imkoniyat yetmaydi. Natijada, noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar tez tarqalib, jamoatchilikda chalkashlik va ishonchsizlik yuzaga keladi.

Bundan tashqari, ayrim hududlarda sport jurnalistikasining umuman rivojlanmaganligi yoki cheklanganligi kuzatiladi. Ayniqsa, viloyatlardagi sport tadbirlari yoritilmay qoladi, markaziy OAV faqat poytaxtdagi yirik voqealarga e'tibor qaratadi. Bu esa hududlar o'rtasida axborot tengsizligini yuzaga keltiradi.

Shu kabi muammolar sport jurnalistikasining jamiyatdagi ijtimoiy rolini to'laqonli amalga oshirishiga to'sqinlik qilmoqda. Bu muammolarni hal etish uchun tizimli islohotlar, jurnalistlar malakasini oshirish, tahririyatlarning mustaqilligini ta'minlash, axborot manbalarining ochiqqligini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Shundagina sport jurnalistikasi o'zining axborot, tarbiyaviy va ijtimoiy missiyasini muvaffaqiyatli amalga oshiradi.

• **Axborot manbalariga cheklangan kirish:** Klublar va federatsiyalar ommaviy axborot vositalari bilan ish olib borishda PR xizmatlari orqali qat'iy tartiblarni joriy qilgan. Bu esa jurnalistlarning erkin faoliyatiga to'sqinlik qilmoqda.

• **Iqtisodiy bosimlar:** Raqobat kuchaygani sayin tahririyatlar klikbait (ko'p o'quvchi jalb qiladigan) sarlavhalar orqali daromad olishga majbur bo'lmoqda. Bu esa axborot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

• **Neytrallik va mustaqillik masalalari:** Sport klublarining o'z media platformalari orqali axborot tarqatishi matbuotga bo'lgan ishonchni pasaytirmoqda.

3. Sport jurnalistikasining rivojlanish yo'nalishlari

Bugungi globallashuv davrida sport jurnalistikasi tezkorlik, ishonchlilik va interaktivlik talablariga javob beruvchi kuchli axborot tarmog'iga aylanmoqda. Uning rivojlanish yo'nalishlari zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, multimedia vositalari va xalqaro axborot oqimlari bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi vaqtda sport jurnalistikasi faqatgina an'anaviy televideniye va matbuot orqali emas, balki internet nashrlari, bloglar, videopodkastlar, onlayn portallar orqali keng yoyilmoqda. Bu esa uni keng ommaga tez yetib boruvchi, interaktiv va shaxsiy yondashuvga ega axborot manbayiga aylantirmoqda.

Sport jurnalistikasining eng asosiy rivojlanish yo'nalishlaridan biri — raqamli platformalarning kengayishi bilan bog'liq. Ko'plab sport yangiliklari endilikda Telegram, Instagram, YouTube va TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilmoqda. Jurnalistlar qisqa videolar, tezkor postlar, to'g'ridan-to'g'ri efirlar orqali sportchilar bilan muloqotga kirishmoqda va yangiliklarni jonli yoritmoqda. Bunday tezlik va vizual yondashuv sport auditoriyasini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Yana bir yo'nalish — tahliliy va ekspertlik yondashuvga o'tishdir. Ilgari sport jurnalistlari, asosan, natijalarni va voqealarni xabar qilgan bo'lsa, hozirda ular o'yinning taktik tomonlarini tahlil qilmoqda, murabbiylik strategiyalari, hakamlar qarorlari, sportchilarning ruhiy holati haqida ham chuqur maqolalar tayyorlaydi. Bu sport jurnalistikasining faqat "xabar beruvchi" emas, balki "tushuntiruvchi" va "yo'naltiruvchi" tarmoqqa aylanishiga olib kelmoqda.

Multimedia vositalarining keng joriy etilishi sport jurnalistikasining yangi darajaga chiqishiga sabab bo'lmoqda. Endilikda faqat matn emas, balki video reportajlar, grafik tahlillar, interaktiv xaritalar, dron orqali olingan sahnalar, va sportchilarning jonli efirlari orqali xabarlar berilmoqda. Bu esa tomoshabinni faollikka undaydi, jurnalistika bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatini beradi.

Sport jurnalistikasining rivojlanishida maxsus tahliliy loyihalar, sport hujjatli filmlari va biografik ko'rsatuvlar ham alohida o'rin tutmoqda. Mashhur sportchilar hayoti, tarixiy yutuqlar yoki sportdagi muammolar haqida chuqur yoritilgan loyihalar orqali jurnalistika ijtimoiy ta'sir doirasini kengaytirmoqda. Bu nafaqat sportga qiziqishni, balki ijtimoiy mas'uliyatni ham oshirmoqda.

Bugungi jurnalistlar endilikda o'z sahifalarini brendga aylantirmoqda. Ular muayyan sport turi yoki sportchi haqida ixtisoslashgan, o'z auditoriyasiga ega va doimiy interaktiv muloqot olib boruvchi shaxslarga aylangan. Bu esa "individual jurnalist" tushunchasini kuchaytirdi va ommaviy axborot vositalari tarkibida mustaqil ovozga ega bo'lgan shaxslar paydo bo'lishiga olib keldi.

Shuningdek, sport jurnalistikasining rivojlanishida sun'iy intellekt, data-analitika va sport statistikasi asosida maqolalar yaratish yo'nalishi ham kuchayib bormoqda. Kompyuter dasturlari yordamida o'yin natijalarini bashorat qilish, sportchilarning texnik ko'rsatkichlarini tahlil qilish va o'yin davomida real vaqt rejimida ma'lumot uzatish mumkin bo'lib qoldi. Bu esa sport jurnalistikasini yanada professional va texnikaga asoslangan soha sifatida namoyon qilmoqda.

Jurnalistika fakultetlarida sport jurnalistikasiga ixtisoslashgan mutaxassislar tayyorlashga e'tibor ortmoqda. Ilgari umumiy jurnalistika bo'yicha tahsil olgan kadrlar sport yo'nalishida ishlagan bo'lsa, endilikda aynan sport sohasini chuqur tushunadigan, sport terminologiyasini yaxshi biladigan, sport bilan bog'liq madaniy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qila oladigan yoshlar tayyorlanmoqda. Bu esa sohaning sifatli kadrlar bilan ta'minlanishiga olib kelmoqda.

Xalqaro axborot maydonida sport jurnalistikasining o'rni ham tobora ortib bormoqda. Mahalliy jurnalistlar xalqaro musobaqalarda akkreditatsiyadan o'tib, to'g'ridan-to'g'ri xabar uzatmoqda, xalqaro sport tahlilchilar bilan hamkorlik qilmoqda, o'z bloglari va maqolalari orqali jahon sportiga oid dolzarb fikrlarni bildirmoqda. Bu, o'z navbatida, O'zbekiston jurnalistikasi nufuzini ham oshirmoqda.

Shu tariqa, sport jurnalistikasi tobora ko'proq raqamli, tahliliy, interaktiv va kreativ yo'nalishda rivojlanmoqda. Bu esa uni jamiyatda nafaqat sport yangiliklarini yetkazuvchi vosita, balki sport siyosati, madaniyati va iqtisodiyoti bilan bevosita bog'liq kuchli axborot tarmog'iga aylantiradi.

Axborotni tahliliy yoritish: Faqat faktlarni emas, balki sportdagi muammolar, ijtimoiy va iqtisodiy tahlillar asosida maqolalar yozilishi talab qilinadi.

Xulosa Sport jurnalistikasi bugungi kunning dolzarb va muhim yo'nalishlaridan biridir. U nafaqat sportga oid ma'lumotlar berish, balki yosh avlodni sportga oshno qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, sportchilarning ijtimoiy ahamiyatini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun sport jurnalistlari doimo bilimli, xolis, tezkor va kasbiga sadoqatli bo'lishi zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Harrow A. "Sensory-Motor Integration in Physical Education", New York, 2018.
2. Shneider R., "Sensomotorika v sporte", Moskva, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi nashrlari, 2022.
4. Majidov, R. R., Boqiyev, F. H., Raximov, D. R., Saydaxmadov, A. V., Soliyev, I. S., & Abduqodirov, D. S. (2023). Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi dars mashg'ulotlari samaradorligini oshirish usullari. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 28-32.
5. Majidov, R. (2024). Boksning fiziologik va psixologik samaradorligini aniqlash asoslari. *Research and implementation*, 2(6), 39-42.
6. Nabiye, A., & Majidov, R. M. R. (2024). Malakali bokschilarning harakat faoliyatiga o'rgatish usullari. *Research and implementation*, 2(6), 35-38.
7. Majidov, R. (2023). Sportchilarni musobaqaga oldi tayyorgarlik jarayonlarida psixologik tayyorlashning ahamiyati. *Science and pedagogy in the modern world: problems and solutions*, 1(6).
8. Rajabov G., Mamatqulov X. Bokschilarning musobaqa faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 36-45.
9. Baxtiyor ogli M. X. Yuqori sport natijalariga erishish maqsadida yosh bokschilarni individual ravishda tayyorlash//Научный Фокус. – 2024. – Т. 1. – №. 11. – С. 30-35.
10. Mamatqulov X. Jismoniy tarbiyaning inson tanasiga ta'siri //Research and implementation. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 173-177

BOLALARGA BAG'ISHLANGAN MEDIA KONTENTLAR TAHLILI

Boboxonova Feruza Muhiddinovna,

BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası o'qituvchisi

e-mail: feruza231191@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqola media madaniyati va bolalar uchun media kontentining O'zbekistondagi holati, rivojlanishi va media madaniyatining jamiyatga ta'siri, amalga oshirilayotgan loyihalar va xalqaro tashkilotlarning roli yoritilgan. Maqolada bolalar media kontentining turlari, uni yaratishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar batafsil bayon etilib, shuningdek, bolalar jurnalistikasining ahamiyati tushuntirilgan.

Maqolaning asosiy qismi bolalar uchun zararli bo'lgan axborot turlari va ularni nazorat qilish usullari va mexanizmlariga bag'ishlangan bo'lib, bu borada ota-onalar nazorati, pedagoglar va ta'lim muassasalari, davlat organlari va qonunchilik, media platformalari va kontent yaratuvchilar, shuningdek, jamiyat va nodavlat tashkilotlarning roli atroflicha ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: bolalar, kontent, yosh, madaniyat, internet, milliy, zamonaviy materiallar, xavfsizlik, nazorat, axborot vositasi.

ANALYSIS OF MEDIA CONTENT DEDICATED TO CHILDREN

Abstract: This article discusses the state of media culture and media content for children in Uzbekistan, its development, and the impact of media culture on society, ongoing projects, and the role of international organizations. The article describes in detail the types of children's media content, the aspects that should be paid attention to when creating it, and also explains the importance of children's journalism.

The main part of the article is devoted to the types of information that are harmful to children and the methods and mechanisms for controlling them. In this regard, the role of parental control, educators and educational institutions, government bodies and legislation, media platforms and content creators, as well as society and non-governmental organizations, is examined in detail.

Keywords: children, content, age, culture, internet, national, modern materials, security, control, media.

АНАЛИЗ МЕДИАКОНТЕНТА, ПОСВЯЩЕННОГО ДЕТЯМ

Аннотация: В данной статье рассматривается состояние медиакультуры и медиаконтента для детей в Узбекистане, его развитие, влияние медиакультуры на общество, реализуемые проекты, роль международных организаций. В статье подробно описываются виды детского медиаконтента, аспекты, на которые следует обращать внимание при его создании, а также объясняется важность детской журналистики.

Основная часть статьи посвящена видам информации, наносящей вред детям, методам и механизмам контроля над ними. В этой связи подробно рассматривается роль родительского контроля, педагогов и образовательных учреждений, государственных органов и законодательства, медиаплатформ и создателей контента, а также общества и неправительственных организаций.

Ключевые слова: дети, контент, возраст, культура, интернет, национальный, современные материалы, безопасность, контроль, медиа.

Kirish. Asosan ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, gazeta, internet va boshqalar) orqali tarqaladigan madaniyat "media madaniyati" deb ataladi. Bu tushuncha ommaviy axborot vositalarining jamiyatning fikri, didi va qadriyatlariga ta'sirini anglatadi.

O'zbekistonda media madaniyati rivojlanish bosqichida. Televideniye eng ommabop axborot vositasi bo'lib, davlatga qarashli va xususiy telekanallar faoliyat yuritadi. Internet ham aholi, ayniqsa yoshlar orasida tobora ommalashib bormoqda, biroq ayrim tanqidiy veb-saytlar bloklangan.

O'zbekistonda media madaniyatining rivojlanishiga qaratilgan bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar jurnalistlarning xavfsizligini ta'minlash, axborotga erishish huquqini kengaytirish va media savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlarni qo'llab-quvvatlamoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-may kuni maktab ta'limi yuzasidan yig'ilish o'tkazib: "To'g'ri bugungi kunda yoshlar ma'naviyati bilan hamma shug'ullanyapti, lekin zararli axborotlarga qarshi tura oladigan milliy

kontent yaratish, ularni targ'iboti, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha professional tashkilot hali yo'q", deya fikr bildirdi va aynan president tashabbusi bilan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi qoshida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilindi. Ularning asosiy vazifasi zararli axborotlarga qarshi tura oladigan milliy kontent yaratish, ularni targ'iboti, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadi.[1]

Bolalar media kontenti – bu bolalarga atalgan videolarni o'z ichiga olgan bo'lib, bu kontent ayniqsa milliy ruhdagi zamonaviy materiallar yaratmoqchi bo'lgan ijodkorlar uchun katta imkoniyat hisoblanadi. Tadqiqotchilarning aytishicha, bolalar media muhitiga ega bo'lish huquqiga ega va kattalar bu muhitda muhim rol o'ynaydi. Bolalarning o'zlari ham kontentda ishtirok etishadi.

Ijodkorning yana bir betakror qirradi bolalar ruhiyatini ruhshunoslarga xos bolalar tilida tadqiq etishida ko'zga tashlanadi.[2] Bolalar uchun media kontent bolalarning yoshiga, qiziqishlariga va rivojlanish bosqichlariga moslashtirilgan bo'ladi. Bu kontent bolalarni o'qitish, ko'ngil ochish yoki ularning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga yordam berish maqsadida yaratiladi.

Bolalar uchun media kontentning turlari juda xilma-xil bo'lishi mumkin, masalan:

- Televizion ko'rsatuvlar va filmlar: multfilmlar, bolalar uchun seriallar, ta'limiy ko'rsatuvlar va bolalar filmlari.

- Videoo'yinlar va mobil ilovalar: bolalar uchun mo'ljallangan o'yinlar, ta'limiy ilovalar va interaktiv hikoyalar.

- Kitoblar va audio kitoblar: rasmiy kitoblar, ertaklar, she'rlar va bolalar uchun romanlar.

- Musiqa va qo'shiqlar: bolalar uchun yaratilgan qo'shiqlar va musiqiy hikoyalar.

- Internet kontenti: bolalar uchun mo'ljallangan veb-saytlar, YouTube kanallari va boshqa onlayn platformalardagi videolar.

- Podkastlar: bolalar uchun mo'ljallangan audio hikoyalar va ta'limiy podkastlar.

Bolalar uchun media kontentni yaratishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish muhim:

- Yoshga moslik: kontent bolaning yoshiga mos bo'lishi, uning tushunish darajasi va qiziqishlariga javob berishi kerak.

- Ta'limiy qiymat: kontent bolalarga yangi narsalarni o'rgatishi, ularning bilimlarini kengaytirishi va ijodiy fikrlashni rag'batlantirishi mumkin.

- Ko'ngilochar bo'lish: kontent bolalarni zeriktirmasligi, ularning e'tiborini jalb qilishi va quvonch bag'ishlashi kerak.

- Ijtimoiy va hissiy rivojlanish: kontent bolalarga do'stlik, hamkorlik, empatiya va boshqa ijobiy fazilatlarni o'rgatishi mumkin.

- Xavfsizlik: onlayn kontent bolalar uchun xavfsiz bo'lishi, ularni zararli yoki nomaqbul materiallardan himoya qilishi kerak. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalar uchun media kontentni tanlashda ehtiyotkor bo'lishlari, bolalarning yoshiga mos va foydali kontentni tanlashlari, shuningdek, ularning media iste'molini nazorat qilishlari muhimdir.

Bolalar jurnalistikasi bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan, ular tomonidan yaratilgan yoki ular haqida ma'lumot beradigan jurnalistika sohasi hisoblanadi. Uning maqsadi yosh auditoriyani qiziqitirish, ularga ta'lim berish, ularning fikrlarini ifoda etishga yordam berish va ularni fuqarolik jamiyatida faol ishtirok etishga undashdir.

Bolalar uchun ziyonli bo'lgan axborotni nazorat qilish ota-onalar, pedagoglar, davlat organlari va media platformalarining birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladigan muhim vazifadir. Bu bolalarning jismoniy, ruhiy va axloqiy rivojlanishini himoya qilishning ajralmas qismi hisoblanadi. Ziyonli axborotning bir necha turlari mavjud. Ular:

- Zo'ravonlik va tajovuzni targ'ib qiluvchi kontent: Bu real hayotdagi zo'ravonlik sahnalari, jangari o'yinlar, tajovuzkor xatti-harakatlarni madh etuvchi materiallar bo'lishi mumkin.

- Qo'rquvchan va vahimali kontent: Bolalarning psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, ularda qo'rquv, vahima va nevrozlarni keltirib chiqaradigan materiallar (masalan, juda qo'rquvchan filmlar, hikoyalar).

- Axloqsiz va pornografik kontent: Bolalar uchun mo'ljallanmagan, jinsiy aloqalarni tasvirlovchi yoki shunga ishora qiluvchi materiallar.

Bunga misol, ko'pchiligimizga ma'lum Youtube platformasida bolalar sevib tomosha qiladigan Cocomelon kontenti mavjud, aynan noyabr oyida boshlangan birinchi mavsumning 8-qismida shunday tasvirlar bor. Niko ismli bola o'zining oilaviy surati uchun nima kiyishni tanlashda qiynalayotgan paytida ikkita gey juftlik: "Qaysi jinsni tanlashing o'zingga bog'liq, hammasi ixtiyoringda, biz seni qo'llab-quvvatlaymiz!" degan mazmunda qo'shiq kuylaydi.

Cocomelonni yaqinda Disney kompaniyasining bosh direktori Bob Igerga yaqin bo'lgan ikkita sobiq menejerini sotib oldi. Kevin Mayer va Tom Staggs CoComelon-dan sotib olgan Candle Mediaga asos solgan

Disney kompaniyasining yuqori lavozimli rahbarlari edi. Kevin Mayer 2000 yilda Playboy va 2020 yilda TikTok bosh direktori etib tayinlangan. U Disney+ ni yaratishda ham faol ishtirok etgan va Disney kompaniyasida maslahatchi hisoblanadi. Bu shaxslarni yaqindan tanigan kishi, bu ma'lumotlar ko'p narsani anglatishi mumkinligini tushunib yetadi.

Italiyalik jurnalist Karina Mishel Cocomelonning aynan shu qismiga nisbatan o'zining Twitter sahifasida shunday yozadi: "Biz polaponlarimiz gey yoki transseksual bo'lishga "tayyorlanayotgan"ligini qanday bilishimiz mumkin. Amerika fuqarolik erkinliklari ittifoqi (ACLU) hozirda Yevropa Ittifoqidagi 500 dan ortiq LGBTQga qarshi loyihalarni kuzatib konservatorlar "uyg'ongan" madaniyat aks etgan turli filmlar ishlashmoqda. Oldinlari bu atama qora tanli jamoalarda qo'llanilgan va ijtimoiy adolatsizlik va irqiy tenglik haqida ma'lumotga ega bo'lgan kishiga nisbatan ishlatilgan. Hozir bu ibora konservatorlar tomonidan progressiv qadriyatlarga qarshi to'ntarish sifatida ishlatiladi. Aytmoqchimanki, eng muhimi an'anaviy oila tarkibini butunlay chiqarib tashlagan holda, yangi avlodning miyasini yuvish holatini boshdan kechirayotganimizni tushunishimiz kerak. Bolalarimizni qo'riqlaylik, ularni qattiq himoya qilaylik, chunki yomon odamlar uxlamaydi"[3] deb qayg'u bilan yozgan.

- Zararli odatlarni targ'ib qiluvchi kontent: Narkotik moddalar, alkogol, tamaki kabi zararli vositalarni iste'mol qilishni madh etuvchi materiallar.

- Kamsituvchi va haqoratlovchi kontent: Irqiy, etnik, diniy yoki boshqa belgilariga ko'ra kamsitish, haqoratlash yoki tahqirlashni o'z ichiga olgan materiallar.

- Noto'g'ri va yolg'on axborot: Bolalarning dunyoqarashini buzishi, ularni chalg'itishi yoki noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin bo'lgan materiallar (masalan, soxta yangiliklar, ishonchsiz ilmiy ma'lumotlar).

- Onlayn ta'qib va kiberbulling: Bolalarga nisbatan onlayn tazyiq o'tkazish, qo'rqitish, haqoratlash yoki sharmanda qilish holatlari.

Nazorat qilish usullari va mexanizmlari nimalardan iborat bo'lishini ko'rib chiqamiz.

1. Ota-onalar nazorati:

- **Ochiq muloqot:** Bolalar bilan internet va media kontent haqida ochiq va ishonchli muloqot o'rnatish. Ularga qanday axborot xavfli bo'lishi mumkinligini tushuntirish.

- **Ekran vaqtini cheklash:** Bolalarning media qurilmalaridan foydalanish vaqtini belgilash va unga rioya qilish.

- **Kontentni birgalikda ko'rish:** Bolalar bilan birga ko'rsatuvlar, filmlar yoki videolar tomosha qilish va muhokama qilish.

- **Filtrlash va bloklash dasturlari:** Kompyuterlar, smartfonlar va boshqa qurilmalarda yoshga mos bo'lmagan kontentni filtrlash va bloklash uchun maxsus dasturlardan foydalanish.

- **Qurilma sozlamalari:** Operatsion tizimlar va ilovalarning yoshga mos kontentni cheklash bo'yicha sozlamalaridan foydalanish (masalan, YouTube Kids, SafeSearch).

- **Onlayn faoliyatni kuzatish:** Bolalarning internetda qanday saytlarga kirayotgani, qanday ilovalardan foydalanayotganini kuzatib borish.

- **Maxfiylik sozlamalarini tushuntirish:** Bolalarga onlayn shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish qoidalarini va maxfiylik sozlamalari haqida tushuncha berish.

2. Pedagoglar va ta'lim muassasalari:

- **Media savodxonligi bo'yicha darslar:** O'quvchilarga media kontentni tanqidiy baholash, yolg'on axborotni aniqlash va xavfsiz onlayn xulq-atvor qoidalarini o'rgatish.

- **Maktab internetini filtrlash:** Ta'lim muassasalarida bolalar uchun zararli bo'lgan veb-saytlarni bloklash.

- **Ota-onalar bilan hamkorlik:** Ota-onalarni bolalarning media iste'moli va onlayn xavfsizligi bo'yicha xabardor qilish va ularga maslahatlar berish.

3. Davlat organlari va qonunchilik:

- **Ziyonli kontentga qarshi qonunlar:** Bolalar uchun zararli bo'lgan kontentni ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol qilishga qarshi qonuniy choralar ko'rish.

- **Nazorat qiluvchi organlar:** Bolalar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha davlat organlarining faoliyatini kuchaytirish.

- **Internet provayderlari bilan hamkorlik:** Ziyonli veb-saytlarni bloklash va filtrlash bo'yicha internet provayderlari bilan hamkorlik qilish.

- **Xalqaro hamkorlik:** Bolalarga qarshi onlayn jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

4. Media platformalari va kontent yaratuvchilar:

- **O'z-o'zini tartibga solish:** Media platformalarining bolalar uchun mo'ljallangan kontentga nisbatan qat'iy qoidalar o'rnatishi va ularga rioya qilishi.

• **Yoshga mos reyting tizimlari:** Kontentni yoshga mosligiga qarab belgilash va foydalanuvchilarni ogohlantirish (albatta +0, +6, +12 belgilari bo'lishi kerak).

• **Foydalanuvchi shikoyatlarini ko'rib chiqish:** Ziyonli kontent haqidagi shikoyatlarni tezkorlik bilan ko'rib chiqish va tegishli choralalar ko'rish.

• **Mas'uliyatli kontent yaratish:** Bolalar uchun ijobiy, ta'limiy va rivojlantiruvchi kontent yaratishga e'tibor qaratish.

5. Jamiyat va nodavlat tashkilotlar:

• **Axborot kampaniyalari:** Bolalar va ota-onalarni onlayn xavfsizlik va ziyonli kontentning xavfi haqida xabardor qilish bo'yicha kampaniyalar o'tkazish.

• **Nodavlat tashkilotlarning faoliyati:** Bolalar huquqlarini himoya qilish, onlayn xavfsizlikni ta'minlash va ziyonli kontentga qarshi kurashish bo'yicha loyihalar amalga oshirish.

Maqolamizda bolalarga bag'ishlangan kontentlarni har jihatdan birma-bir ko'rib chiqdik. Endi yuqorida aytib o'tilgan muammoli vaziyatlarga qanday yechim berish mumkin. Bizning har bir muammoga nisbatan alohida yechim takliflarimiz bor.

• **Internetning chegarasizligi:** Internetdagi kontentni to'liq nazorat qilish qiyin. Bu borada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur.

• **Texnologiyalarning tezkor rivojlanishi:** Ziyonli kontentning yangi shakllari tezda paydo bo'lishi mumkin. Nazorat mexanizmlari ham doimiy ravishda takomillashib borishi kerak.

• **Ota-onalarning bandligi va xabardorligining yetarli emasligi:** Ota-onalarni onlayn xavfsizlik bo'yicha o'qitish va ularga amaliy yordam ko'rsatish muhim.

• **Bolalarning qiziquvchanligi va cheklolarni chetlab o'tishga urinishi:** Bolalar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish va ularga xavfsizlik qoidalarini tushuntirish muhim.

Bolalar uchun ziyonli bo'lgan axborotni nazorat qilish – bu uzluksiz jarayon bo'lib, barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtirokini talab qiladi. Faqatgina birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali bolalarimizni zararli ta'sirlardan himoya qilish va ularning sog'lom rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Xulosa. Media kontentni bolalar uchun xavfsiz qilish uchun quyidagi asosiy choralarni ko'rish muhim:

1. **Kontentni nazorat qilish:** Yaratilgan yoki ko'riladigan materiallarni qat'iy tekshirish, bolalar uchun xavfli yoki noo'rin bo'ladigan qismlarni olib tashlash.

2. **Yoshi mosligi:** Bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan platformalar va dasturlarni tanlash. Yoshi mosroq bo'lgan kontentni tanlash va "kechiktirilgan ko'rish" yoki maxfiylik sozlamalarini o'rnatish.

3. **Interaktivlikni nazorat qilish:** Bolalar bilan birga ekran oldida bo'ling, ularning qanday kontentni ko'rayotgani va qaysi joylarni ko'rishni davom ettirayotganini nazorat qiling.

4. **Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish:** Bolalarning shaxsiy ma'lumotlarini tarqatmaslik va ularga qanday qilib internetda xavfsiz bo'lishni o'rgatish.

5. **Qoidalar va chegaralar:** Ekran vaqtini cheklash, vaqti-vaqti bilan ularga boshqa faoliyatlarni taklif qilish, ehtiyotkorlik bilan muhokama qilish.

6. **Yaxshi va salbiy misollarni ajratish:** Bolalarga qanday kontent zararli yoki salbiy bo'lishi mumkinligini tushuntirish va yaxshi namunalarga e'tibor qaratishni o'rgatish.

Xulosa qilib aytganda, bolalarimizni zararli ta'sirlardan himoya qilish va ularning sog'lom rivojlanishini ta'minlash — bu doimiy va uzluksiz jarayon bo'lib, barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtiroki va mas'uliyatini talab qiladi. Texnologiyalar rivojlanishi bilan birga nazorat mexanizmlari ham doimiy takomillashib borishi shart. Faqatgina birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali bolalarimiz uchun xavfsiz va foydali media muhitini yaratish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. O.Safarov, B. Jamilova. Bolalalik – boqiylik timsoli yoxud muxbirlikning olis yo'llari T., 2011.

2. <https://x.com/karinamichelin/status/1737819630876369270?t=nFuuSwviLOTe7ImNGUb0MQ&s=0>

3. <https://www.kun.uz/news/2025/05/15/bolalar-kontentini-rivojlantirish-markazi-tashkil-qilindi>

MEDIA BILAN ISHLASH: DINIY TAHDIDLARNING XUSUSIYATLARI

Nu'monova Nargiza Anvar qizi,

Filologiya fakulteti jurnalistika yo'nalishi talabasi

nargiznumonova3@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ammo ushbu platformalarda psixologik va diniy tahdidlarning mavjudligi insoniyat rivojlanishiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Ba'zilar uchun internet – ilm, madaniyat, taraqqiyot manbai bo'lsa, boshqalar uchun bu – ekstremistik g'oyalarni targ'ib qilish maydoniga aylangan. Bugun hatto 3 yoshli bola ham YouTube'da video tomosha qilmoqda. Odamlar tungi soatlarda telefonni qo'lidan qo'ymaydi. Jamoat joylarida suhbat yo'q, faqat ekranga tikilgan yuzlar. Bunga misollar juda ko'p, masalan virtual taqqoslash va ruhiy tushkunlikka olib kelishi. Facebook va Instagram kabi platformalar foydalanuvchilarni ideal hayot obrazlarini ko'rsatishga undaydi. Ko'pchilik o'z hayotini boshqalar bilan taqqoslab, o'zini qadrsiz his qiladi. Biz unutmasligimiz kerak bo'lgan narsa-ijtimoiy tarmoqlarda bizga faqat eng yaxshilari ko'rsatiladi. Bu esa o'z navbatida depressiya va o'ziga past baho berish kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Nega menda bunday?, nega men bilan bu ish o'xshamayapti kabi savollar va taqqoslashlar insonni nafaqat harakatga undashi balki aksincha salbiy ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqolada Telegram va Facebook kabi mashhur platformalar misolida psixologik va diniy tahdidlar tahlil qilinadi, ularning oqibatlarini hamda ularga qarshi kurashish usullari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: platformalar, psixologik va diniy tahdidlar, clickbait, islomofobiya, radikalizm, manipulyasiya, kiberbullying, media, savodxonlik, diniy manipulyasiya, aldov, manipulatsiya, infoepidemiya, Telegram, Facebook, onlayn zug'um, media maktab,

РАБОТА СО СМИ: ХАРАКТЕРИСТИКИ РЕЛИГИОЗНЫХ УГРОЗ

Аннотация. Сегодня социальные сети стали неотъемлемой частью жизни человека. Однако наличие психологических и религиозных угроз на этих платформах представляет серьезную угрозу для развития человечества. Для кого-то Интернет является источником науки, культуры и прогресса, а для других он стал площадкой для продвижения экстремистских идей. Сегодня даже 3-летний ребенок смотрит видео на YouTube. Люди не выпускают из рук свои телефоны по ночам. В общественных местах нет разговоров, только лица, уставившиеся в экраны. Есть много примеров этого, например, виртуальные сравнения и то, что они приводят к депрессии. Такие платформы, как Facebook и Instagram, побуждают пользователей показывать образы идеальной жизни. Многие люди сравнивают свою жизнь с жизнью других и чувствуют себя никчемными. О чем мы не должны забывать, так это о том, что социальные сети показывают нам только лучшее. Это, в свою очередь, вызывает такие проблемы, как депрессия и низкая самооценка. Вопросы и сравнения, такие как, почему это происходит со мной?, почему это не происходит со мной, могут не только мотивировать человека к действию, но и, наоборот, негативно влиять на него. В данной статье анализируются психологические и религиозные угрозы на примере таких популярных платформ, как Telegram и Facebook, изучаются их последствия и методы борьбы с ними. Ключевые слова: платформы, психологические и религиозные угрозы, кликбейт, исламофобия, радикализм, манипуляция, кибербуллинг, СМИ, грамотность, религиозная манипуляция, обман, манипуляция, инфоэпидемия, Telegram, Facebook, онлайн-давление, медиашкола.

Ключевые слова: платформы, психологические и религиозные угрозы, кликбейт, исламофобия, радикализм, манипуляция, кибербуллинг, СМИ, грамотность, религиозная манипуляция, обман, манипуляция, инфоэпидемия, Telegram, Facebook, онлайн-буллинг, медиашкола,

WORKING WITH THE MEDIA: CHARACTERISTICS OF RELIGIOUS THREATS

Abstract. Today, social networks have become an integral part of human life. However, the presence of psychological and religious threats on these platforms poses a serious threat to human development. For some, the Internet is a source of science, culture, and progress, while for others it has become a platform for promoting extremist ideas. Today, even a 3-year-old child watches videos on YouTube. People do not let go of their phones at night. There is no conversation in public places, only faces staring at screens. There are many examples of this, such as virtual comparisons and the fact that they lead to depression. Platforms such as

Facebook and Instagram encourage users to show images of ideal lives. Many people compare their lives with others and feel worthless. What we should not forget is that social networks only show us the best. This, in turn, causes problems such as depression and low self-esteem. Questions and comparisons such as why is this happening to me?, why is this not happening to me, can not only motivate a person to take action, but also, on the contrary, negatively affect him. This article analyzes psychological and religious threats using the example of popular platforms such as Telegram and Facebook, studies their consequences and methods of combating them.

Keywords: platforms, psychological and religious threats, clickbait, Islamophobia, radicalism, manipulation, cyberbullying, media, literacy, religious manipulation, deception, manipulation, infoepidemic, Telegram, Facebook, online pressure, media school,

“Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 2007-yil 15-yanvardagi O‘RQ-78-sonli O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari erkin bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ushbu Qonunga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi. Ommaviy axborot vositalari axborotni izlash, olish va tarqatish huquqidan foydalanadilar hamda o‘zlari e‘lon qilayotgan axborotning to‘g‘riligi va haqqoniyligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

“Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 2007-yil 15-yanvardagi O‘RQ-78-sonli Ommaviy axborot vositasi xabar, ma‘lumot, fakt yoki dalillar taqdim etgan manbaning yoki taxallusini qo‘ygan muallifning nomini ularning yozma rozilgisiz oshkor etishga haqli emas. Ommaviy axborot vositasi axborot manbaining yoki taxallusini qo‘ygan muallifning iltimosiga binoan sudda uning nomidan ishtirok etishi mumkin.

Kirish. So‘nggi o‘n yillikda texnologiyalar va internet rivojlanishi natijasida ijtimoiy tarmoq tushunchasi keng tarqaldi va muxum ijtimoiy axamyatga yega bo‘ldi. You to be va facebook bugungi kunda dunyo miqyosida eng mashhur platformalardan hisoblanadi. Ular jamiyatni birlashtirish, ma‘lumot almashish va aloqa o‘rnatish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar ongi va ijtimoiy xulq-atvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar psixologik va diniy manipulyasiyaga eng qulay vositalardan biridir. Radikal guruhlar va manipulyatorlar ushbu platformalardan o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida faol foydalanmoqda. Ushbu maqolada psixologik va diniy tahdidlar tahlil qilinadi, ularning jamiyatga ta‘siri ko‘rib chiqiladi hamda ularga qarshi kurash usullari tavsiya qilinadi.

Asosiy qism. Psixologik va diniy tahdidlar o‘zi nima? Biz uchun foydali yoki zararli tomonlari nimalarda ko‘rinadi? Dastlab shunga to‘xtalsak. Psixologik va diniy yo‘nalishda inson ongiga va hayotiga qilinadigan tahdidlar shular jumlasidandir. Bugun ijtimoiy tarmoqlarda ommalashayotgan videolarga etibor qaratsangiz ko‘p qismi psixolog suxbati yoki diniy maslahatlar bo‘lishi muki. Axborot insonni manipulyasiya qilish kuchiga ega ekanligini hisobga olsak bu biz uchun zararli jihatlarni uyg‘otadi. Natijada insonlarda psixologik o‘zgarishlar bo‘lishi va ular ongida stereotiplarni shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Psixologik tahdidlar: Axborot manipulyasiyasi yordamida ong boshqaruvi o‘zi nima? Ijtimoiy tarmoqlar odamlarning ruhiy holatiga ta‘sir o‘tkazish vositasi sifatida foydalanilmoqda. Telegram va Facebook algoritmlari odatda foydalanuvchilarga ularga mos keladigan va qiziqishlarini kuchaytiradigan kontentni taqdim etadi. Bu esa ba‘zan odamlarni feyk yangiliklarga, “clickbait” materiallarga va noto‘g‘ri qaror qabul qilishga olib keladi. (clickbait materiallar-bu o‘quvchini tomoshabinni jalb qilish uchun ataylab chalg‘ituvchi, shov-shuvli yoki bo‘rttirilgan sarlavhalar va tasvirlangan foydalanadigan kontent turidir). Misol uchun, shaxsiy manfaatdor guruhlar noto‘g‘ri ma‘lumotlarni ommaga taqdim etib, jamoatchilik fikrini boshqaradi. Natijada, odamlar orasida stress, qo‘rquv yoki ijtimoiy bo‘linish holatlari yuzaga keladi. Ayniqsa, pandemiya davrida COVID-19 haqida tarqalgan noto‘g‘ri ma‘lumotlar bunga yorqin misoldir. Bu mavzuga Beruniy Alimov o‘z maqolasida shunday degan edi: “Pandyemiya emas, infodemiya o‘ldiradi”[4] Bu jumla qanchalar to‘g‘ri?

Bunga yana bir misol kiberbullying va psixologik bosimdir.

Ijtimoiy tarmoqlarda kiberbullying (onlayn zug‘um) va negativ fikrlar almashinuvi keng tarqalgan. Bu, ayniqsa, yosh avlodning ruhiy salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bullying qurbonlari o‘zlarini yakkalangan, tushkunlikka tushgan va xavf ostida his qilishadi. Ko‘p hollarda bunday holatlar o‘z joniga qasd qilish kabi fojiali oqibatlariga olib keladi [12].

Bunga misollar juda ko‘p, masalan virtual taqqoslash va ruhiy tushkunlikka olib kelishi. Facebook va Instagram kabi platformalar foydalanuvchilarni ideal hayot obrazlarini ko‘rsatishga undaydi. Ko‘pchilik o‘z hayotini boshqalar bilan taqqoslab, o‘zini qadrsiz his qiladi. Biz unutmashimiz kerak bo‘lgan narsa-ijtimoiy tarmoqlarda bizga faqat eng yaxshilari ko‘rsatiladi. Bu esa o‘z navbatida depressiya va o‘ziga past baho berish

kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Nega menda bunday?, nega men bilan bu ish o'xshamayapti kabi savollar va taqqoslashlar insonni nafaqat harakatga undashi balki aksincha salbiy ko'rsatishi mumkin.

Endi esa diniy tahdidlar turlariga to'xtalsak:

a) Radikallashuv va ekstremizm

Telegram va Facebook radikal guruhlar tomonidan faol ishlatilmoqda. Diniy ekstremistlar ushbu platformalarda yoshlarni o'z saflariga jalb qilish uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqadi. Yoshlar radikal materiallar va da'vatlarga duch kelib, ularning ta'siriga tushib qolmoqda. Bunga misol sifatida ISHID (ISIS) kabi tashkilotlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini keltirish mumkin.

b) Diniy manipulyasiya va aldov

Ijtimoiy tarmoqlarda diniy bilimlarning noto'g'ri talqin qilinishi keng tarqalgan. Ba'zi guruhlar soxta diniy da'vatlar orqali odamlarda radikal qarashlarni shakllantiradi. Bu esa jamiyatda nizolar, ixtiloflar va diniy mojarolarga olib kelishi mumkin.

c) Mediasavodxonlikning pastligi va zaif guruhlarining ta'sirchanligi

Ijtimoiy tarmoqlarda media va diniy savodxonlikning pastligi tufayli ko'pchilik noto'g'ri axborotlarga ishonib qoladi. Ayniqsa, yoshlar va diniy e'tiqod jihatidan zaifroq qatlamlar bunday materiallarga moyil bo'ladi.

d) Islomofobiya bu Islom diniga yoki umuman musulmonlarga nisbatan qo'rquv, nafrat yoki noto'g'ri tushunchaga ega bo'lish ayniqsa, geosiyosiy kuch yoki terrorizm manbai sifatida qaralganda.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali biror shahs haqida istalgan ma'lumotni osongina topish mumkin. Tug'ilgan joyi, surati, do'stlari lavozimi, kasbi va yutuqlari haqida malumotlarni olishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi xavfi oshgan. Bu ma'lumotlar psixologik bosim yoki moliyaviy firibgarlik uchun ishlatilishi mumkin.

Psixologik va diniy tahdidlar jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni buzadi. Manipulyativ ma'lumotlar ijtimoiy nizolarni kuchaytirib, xalk tinchligiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Yuqoridagi holatlarni oldini olish quyidagi choralarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bulardan birinchisi: Mediasavodxonlikni rivojlantirish jamiyatda axborot filtrlash va to'g'ri ma'lumotni ajratib olish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Odamlar feyk yangiliklarni tanib olish va manipulyativ axborotdan himoyalaniшни o'rganishlari kerak.

Ikkinchi: Ta'lim va tarbiya o'quv dasturlariga ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish bo'yicha maxsus kurslar kiritilishi lozim. Ayniqsa, yoshlarga diniy va axloqiy tarbiya berishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yish kerak.

Uchinchi: Huquqiy chora-tadbirlar hukumat va nodavlat tashkilotlar ijtimoiy tarmoqlardagi noqonuniy va zararli kontentni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirishi lozim.

Xulosa. Psixologik jihatdan diniy tahdidlar zamonaviy jamiyatning eng katta muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bir qator platformalarda ushbu tahdidlarning mavjudligi odamlarning ruhiy salomatligi va ijtimoiy barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun media savodxonlikni rivojlantirish, ta'lim tizimini takomillashtirish va huquqiy choralarni kuchaytirish zarur. Faqat jamoatchilikning birgalikdagi harakatlari orqali ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlarni kamaytirish va xavfsiz muhitni yaratish mumkin. Bunda boshlang'ich ta'lim, maktab va oliygohlarda maxsus darslar va treninglar tashkil etish kerak.

Agarda maktablarda media savodxonligini o'rgatishga qaratilgan darsliklarni qo'shsak biz ko'zlagan maqsadimizga erishamiz. Ularga tanqidiy fikrlashni, ma'lumotlarni saralashni, ishonchli manbalarni topishni o'rgatish zarur. Shunday qilinsa o'smirlar orasida taqiqlangan saytlarga kirish holatlari kamaygan bo'lar edi. Barchamizga ma'lumki bugun internet olami turli ma'lumotlarga to'la, ammo achinarlisi bolalarni tinchlantirish uchun, chalg'itish uchun ularga telefon yoki planshetlarni o'z qo'limiz bilan beryapmiz. Hoh video kontent bo'lsin, hoh matnli kontent biz uni tekshirishimiz, asosli va keraklilarini ajratib olishimiz zarur. Mobil aloqa vositalaridan foydalanish zarur, ammo hamma narsada me'yor bo'lishi kerak. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalarida shu mavzudagi maqolalar tanlovini tashkil etish va eng yaxshi kontentlar tayyorlash lozim. Zamonaviy jurnalistikani rivojlantirish tashkiloti tomonidan "Qlever" mobil ilovasini misol qilsak. Ushbu ilova o'zida bir qancha qiziqarli va foydali o'yinlarni jamlagan, Masalan: faktcheker, manbani aniqlash, to'g'ri xat yozish va boshqalar. Ushbu o'yinlarni o'ynab sovg'alar yutib olish ham mumkin. Bu esa o'z navbatida o'yinga yanada qiziqish uyg'otadi.

Bugungi raqamli asrda axborot oqimi shiddat bilan kengayib bormoqda. Har kuni millionlab insonlar internet, ijtimoiy tarmoqlar, televideniye va boshqa axborot vositalari orqali yangilik, ko'ngilochar dasturlar, videolar, maqolalar hamda tasvirlarga duch kelmoqda. Biroq bu axborotlar orasida jamiyatga zarar yetkazuvchi, ruhiy barqarorlikni buzuvchi va axloqiy qadriyatlarga putur yetkazuvchi nomaqbul kontentlar

tobora ko'paymoqda. Bu holat yosh avlod ongini zaharlash, zo'ravonlik va depressiyaning ko'payishiga olib kelmoqda.

Yana bir jihat shundaki, yoshlar o'zlarining dunyoqarashini asosan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllantiradilar. Agar ular media savodxon bo'lmasa, turli radikal g'oyalar, diniy ekstremizm, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentlarga ishonib qolish xavfi katta bo'ladi. Shu bois, media savodxonlik yoshlarga o'z fikrini shakllantirishda mustahkam asos beradi, ularni manipulyatsiyadan himoya qiladi va mustaqil fikr yuritishga o'rgatadi. Jamiyat uchun media savodxonlik kuchli fuqarolik jamiyatining asosidir. Axborot makonida faol va ongli fuqarolar ishtiroki demokratiya, huquqiy madaniyat va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi. Ochiq jamiyatlarda erkin axborot oqimi mavjud bo'ladi. Lekin bu erkinlik noto'g'ri foydalanilsa, ijtimoiy notinchlik, axborot urushlari, vahima va noaniqlik holatlariga olib keladi. Media savodxonlik bunday salbiy oqibatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Bugungi axborot asrida erkinlik va axloq o'rtasidagi muvozanat saqlanishi nihoyatda muhim. Ochiq jamiyatda fikr erkinligi qadrlanadi, biroq bu erkinlik zo'ravonlik, buzuvchilik yoki radikalizmni targ'ib qilish bilan aralashmasligi kerak. Har birimiz — blogger, jurnalist, ota-ona yoki foydalanuvchi sifatida axborot maydonida mas'uliyatli bo'lishimiz shart. Chunki birgina noto'g'ri kontent yuzlab qalblarni izdan chiqarishi, ruhiyatga chandon zarar yetkazishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/acts/-53543>
2. <https://www.unicef.org/>,
3. <https://uz.wikipedia>,
4. *Xabar gazetasi* 2020 y. 14-avgust 28,
5. *"Jurnalistika va axborot xavfsizligi"* – OTM darsligi, 2023.
6. Boboqulova, Gulhayo. *Psixologik manipulyatsiya: Hissiyotlar va usullarni boshqarishning yashirin usullari*. 2024.
7. Wardle, Claire & Derakhshan, Hossein. *Information Disorder*. Council of Europe, 2017.
8. ziyo.uz
9. *"Ixtisoslashgan jurnalistika"* Toshkent 2019 y
10. *"Jurnalistika nazariyas, tarix va taraqqiyoti"* Toshkent 2019 y
11. *"Dumbing Down."* Nomuzak.co.uk, Retrieved 2012-08-25
12. <https://www.unicef.org/>



Navoiy gulshani

ALISHER NAVOYNING FORSIY QIT'ALARI TAHLILI

Masutova Shaxlo Omonovna,

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

nodirbekrahmonov06@gmail.com

Mumtoz adabiyotning ixcham va purma'no janrlaridan biri bo'lmish qit'alar Alisher Navoiy ijodida muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'nikim, turkiy adabiyot vakillaridan hech kim Navoiychalik bu janrdan unumli foydalanmagan. Navoiy nafaqat turkiy, balki forsiy tilda ham go'zal she'rlar yozib, forsiy qit'anavis Ibn Yamin an'analarini davom ettirgan. Shoirning forsiy qit'alari asosan "Devoni Foniyy"dan o'rin olgan bo'lib, quyida ularning ba'zilarini g'oyaviy-badiiy tahlil qilishga harakat qilamiz:

Har on, ki az hama ashxosi purmashaqqati dahr,

Buridu soxt Vatan dar harimi tanhoyi.

Agarchi hech nadorad mushobahat ba nasab,

Ba vohide, ki musallam ba ust yaktoy

[Alisherv Navoiy. MAT. XX tomlik. 19-tom. Toshkent: "FAN", 2002.-B.23]

Bu qit'a chuqur falsafiy va ma'naviy mazmunga ega bo'lib, inson va uning mustaqilligi, tanholik orqali o'zligini anglashi haqida fikr yuritadi. Qit'ada insonning hayotdagi mustaqilligi, tanholik orqali erkinlikka erishishi va o'z yo'lini topishi g'oyasi ilgari surilgan. Shaxs, har qanday og'ir sharoitga qaramay, o'z vatanini yaratishi mumkinligi ta'kidlanadi. Bunda mashaqqatlar orqali komillikka erishish fikri ilgari suriladi. Shuningdek, qit'ada nasab (kelib chiqish, avlod-ajdod) bilan emas, balki o'zining noyoblighi va yakkaligi bilan buyuklikka erishish mumkinligi haqida gap ketadi. Bu, ayniqsa, falsafiy jihatdan inson va uning yagonaligi masalasini ko'taradi. Qit'ada tashbeh va istiora, tazod kabi badiiy vositalardan foydalanilgan. Keling, endi ushbu qit'ani g'oyaviy jihatdan to'ldiradigan yana bir she'rni tahlil qilamiz:

Az avomi tiriya purhirs duniyo dur bosh!

Gar hamexohi, ki gardsad sad mashaqqat az tu raf.

Dur budan beh zi gavg'oi magas z-on ru, ki xast

Behadat ranj az hujumash, lek ne imkoni naf. (Alisherv Navoiy. MAT. XX tomlik. 19-tom. Toshkent: "FAN", 2002.-B.23)

Ushbu to'rtlik dunyoning qayg'u-xavotirlaridan uzoq turishni targ'ib qiladi. Birinchi misrada **dunyo** va uning **mashaqqatlari** haqidagi fikr keltiriladi. Bu yerda insonni **dunyo tashvishlari va noto'g'ri qarashlardan saqlanishi kerakligi** g'oyasi mavjud. Keyingi misralarda **tanholik va o'zini saqlash** orqali tashvishlardan ham xalos bo'lish mumkinligi aytilmoqda. Dalil sifatida esa magas, ya'ni chivin obrazi kiritilgan. Shoir ilgari surgan fikr: "chivin g'avg'osidan uzoqroq tur, chunki u senga faqat ozor yetkazadi, ammo undan hech foyda tegmaydi" Chivin obrazi tanlanganing sababi ham bekorga emas. Bu tasvir aynan g'avg'o soluvchi notinch insonlar obrazi bo'lib, ularning to'ni yarqiroq bo'lgani, insonni o'ziga jalb qilgani bilan senga ozor berish, nish sanchich va shovqin qilish orqali ziyon yetkazadi. Bu fikrlar **tasavvuf** adabiyotda keng uchraydi, chunki **tasavvufda dunyo tashvishlaridan qochish va tinchlikka erishish** g'oyasi asosiy o'rin tutadi.

Ҳаст ошиқ ба намудор чу ғук,

Лек, маъшук бувад чун оташ.

Ин ҳам афтода бувад, ҳам помол,

Он ҳам афрӯхтаву ҳам саркаш.

[Alisherv Navoiy. MAT. XX tomlik. 19-tom. Toshkent: "FAN", 2002.-B.23]

Oshiq go'yo qurbaqa misol.

Mashuqa-chi misoli otash,

Bu shunchalar bechora va xor,

U shunchalar mag'rur va sarkash

Ushbu ishqiy mavzudagi qit'a betakror o'xshatishlarga boy. Birinchi misrada oshiqqlar qurbaqaga o'xshatilgan, ikkinchi misrada mashuqa otash misoli ekanligi bayon etilgan. Keyigi misralarda oshiqning qurbaqa singari oyoqosti va bechora ahvolda ekanligi, ma'shuqaning olov kabi porloq va mag'rur ekanligi o'xshatishlarga dalil sifatida keltirilgan. Olov badiiy adabiyotda ishq, muhabbat timsoli hisoblanadi. Yor yuziga ushbu sifatini berish ko'plab shoirlar, xususan Navoiyning o'z g'azallarida ham ko'plab uchraydi (Ul o'tlug' chehra davrindanmu anbar zulf erur har yon). Bundan tashqari xalq og'zaki ijodida ham kuchli his-tuyg'ular ko'pincha olov vositasida ifodalanadi [D.O'rayeva, M Otajonova, S Nurullayeva Mif va badiiy ijod b-45, "Fan ziyosi"-2024.] Qit'ada esa bevosita mashuqaning o'zi olovga o'xshatiladi. Qit'adagi ikkinchi o'xshatish - baqa obrazini oshiqqa qiyoslashning sababi u botqoqlikda makon qilgani, dunyo lazzatlari-yu go'zalliklaridan bebahra ekanligidir (yor visolidan bebahra oshiq). Nemis shoiri aka-uka Grimm ertaklaridan birida shahzodaning qurbaqaga aylanishi obrazi ham bor, bunda ham uning tashqi ko'rinish jihatdan, ham yasash makoni jihatidan juda aftodaligi nazarda tutilgan. Olov esa o'ziga tortuvchi, sarbaland, va ayni damda unga yaqinlashmoq juda mushkul, ayniqsa, suv va botqoq makoni bo'lgan qurbaqa uchun. Navoiyning yana bir axloqiy ma'naviy fazilar yoritilgan qit'asi tahliliga kirishamiz:

Чавонмард аз карам муфлис нагардад,

Сахиро аз ато чин нест дар чехр.

Ба пошидан чӣ нуқс ояд ба дарё,

Ба афшондан чӣ кам гардад зари меҳр? [Alisherv Navoiy. MAT. XX tomlik. 19-tom. Toshkent: "FAN", 2002.-B.24] Qit'aning she'riy tarjimai esa quyidagicha:

G'arib bo'lmas ehsondan saxiy insonlar,

G'amdan ajin tushmas nurli yuzlarda.

Daryo suv toshirib ado bo'lmagay,

Quyosh nur sochmoqdan judo bo'lmagay.

Mazkur qit'a Alisher Navoiy ijodiga xos bo'lgan **saxovat, insoniylik va axloqiy yuksaklik** g'oyalari o'zida mujassam etgan. Qit'aning asosiy mazmuni — **haqiqiy saxiy inson hech qachon mol-davlatdan quruq qolmaydi**, balki berish orqali yanada barakaga erishadi, degan fikrga asoslangan. Qit'aning misralari tahlili esa quyidagicha: "*Чавонмард аз карам муфлис нагардад*" — bu misrada javonmard (ya'ni, olijanob, bag'rikeng inson) saxiylik (karam) qilganida hech qachon muflis (qashshoq) bo'lib qolmasligi ta'kidlanadi. Bu yerda "muflis" arabcha so'z bo'lib, "mol-davlatdan ajragan" degan ma'noni bildiradi. Shoir insoniy saxovatni moddiy zarar bilan emas, **ma'naviy yutuq** bilan bog'laydi. Ikkinchi misra ushbu fikrlarning mantiqiy davomi bo'lib yangraydi: "*Сахиро аз ато чин нест дар чехр*" — haqiqiy saxiy odam hadya berayotganda yuzida bezovtalik, achinish yoki majburlik ifodasi sezilmaydi. Bunday insonning chehrasida **saxiylikdan kelgan ichki mamnunlik va yuksaklik aks** etadi. Bu fikrni Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ham quvvatlaydi:

"Kimki bersa yuz ochuq, nuri ziyod bo'lur,

Kimki bersa ko'ngli qora, u ziyon topur.

"Ба пошидан чӣ нуқс ояд ба дарё,

Ба афшондан чӣ кам гардад зари меҳр?" — bu misralarda **saxovatli inson daryo va quyoshga** qiyoslanadi. Daryo suvi sepgan bilan kamaymagani, quyosh nurlarini sochgan bilan ozaymagani kabi **mehribon inson ham boshqalarga yaxshilik qilish bilan hech narsani yo'qotmaydi**, balki yanada boyiydi — ruhan ham, ijtimoiy hurmat jihatdan ham. Bu timsollar forsiy she'riyatda juda ko'p uchraydi. Sa'diyning "Guliston" asarida saxovat orqali dong taratgan podshoh haqida hikoyat mavjud. Unda podshoh ehsan sabab shuhratga erishgani, shuning uchun oltinlarini qulflab qo'yolmasligini aytadi. Hikoyadan ko'zlangan maqsad saxovat bir-ikki martalik emas davomiy bo'lishi, har bir inson umr bo'yi saxovat qilishga intilib yashashi lozimligini ko'rsatadi. Bu barcha zamonlar uchun axloq mezon bo'lmog'i kerak.

Mazkur qit'a orqali Navoiy **ehson qilish madaniyati, yuzdagi bag'rikenglik, va ruhiy poklikka asoslangan saxovatni** tarannum etadi. Unga ko'ra, chin saxovat nafaqat moddiy, balki **axloqiy va ichki komillik mezonidir**. Bu g'oya hazrat Ali (r.a)ning quyidagi hikmati bilan uyg'unlashadi: "*Saxovat qo'ldan emas, qalbdan bo'ladi.*" [Imom G'azzoliy, *Ihyo Ulumiddin*, Kitob al-Zakah] Alisher Navoiy o'zining "Devoni Foni" asaridagi qit'alari orqali nafaqat estetik zavq baxsh etgan, balki chuqur axloqiy va falsafiy fikrlarni ifodalagan. Ulardan biri – quyidagi qit'adir:

Сер бар ҳар хӯшае даст мазан!

Ки шавад мучиби сад ранчу фасод

Юз к-аблаҳтари ҳайвонот аст,

Сер аз тўъма чу гардад ба мурод.

Оху ар шох занад бар халқаш,

Натвонад сӯи ӯ чашм кушод.

Ту худ инсония ҳикмат фани ту,

Камтар аз юз шавӣ — шармат бод! [Alisher Navoiy. MAT. XX tomlik. 19-tom. Toshkent:

"FAN", 2002.-B.22] Qit'ani she'riy tarjima qilamiz:

To'q bo'lsang har nega uzatma qo'ling,

Sendan mashaqqatlar uzoq bo'ladi.

Jonzotlar ichida ochko'zi to'ng'iz:

Qorni to'ysa, g'amdan yiroq bo'ladi.

Ohu o'z qavmiga shoh suzsa agar,

Undan qochar xalqi, boqolmas aslo.

Inson, ilm-u hikmat sening faningdir.

Sen to'ng'iz bo'lmoqdan or qil doimo

Sa'diy Sheroziy "Guliston" asarida yozadi: "Ko'p yegan qush tuzoqqa tez tushar, oz yegan omon qolur". Alisher Navoiyning ham ushbu qit'asi inson axloqi, ochko'zlik, jamiyatdagi befarqlik va shaxsiy manfaatparastlikka qarshi ogohlik ruhi bilan yo'g'rilgan. Navoiy har bir kishini jamiyatda o'z o'rnini anglash, o'zgalarning haq-huquqiga tajovuz qilmaslik, saxovatli va me'yorni bilgan holda yashashga chaqiradi. Qit'ada birinchi misra orqali ochko'zlikka qarshi ogohlantirish beriladi: "Сер баp ҳар хӯшае даст мазан!" — ya'ni har bir g'amsiz boyluk yoki mulkka qo'l uzatma. Bu nafaqat odob-axloqqa, balki ijtimoiy tinchlikka xalaqit beruvchi holat sifatida ko'rsatiladi. Ochko'z inson jamiyatda ranj va fasod — ya'ni nizo va buzg'unchilik sababchisiga aylanadi. Ikkinchi baytda cho'chqa (юз) obrazida insonning hayvonga xos xulq-atvorni o'zlashtirib olish tahdidi yotadi. Cho'chqaning timsoli befarosatlik, ochko'zlik va ifloslik bilan bog'langan bo'lib, inson agar o'zida bor fazilatlarni ishga solmasa, undan ham tuban holga tushadi. Ohuning o'z eliga shox urishi esa o'z manfaatini ustun qo'ygan rahbar yoki qudratli shaxs obrazidir. Navoiy bu orqali kuch-qudrat egasi bo'lsa-da, o'z xalqiga zarar yetkazuvchi inson oxir-oqibat hurmatsiz va xor bo'lishini ko'rsatadi. So'nggi misralarda muallif insoniyatga yuzlanadi: "Ту худ инсония ҳикмат фани ту" — sen insonsan va hikmat sening faning, ya'ni buning aksi xijolat bo'lishga sabab. Bu yerda insoniy kamolot mezonini sifatida aql va hikmat ko'rsatilmoqda. Bu kabi fikrlarni Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ham ilgari suradi: "Ochko'zlikdan yiroq bo'lgan kishi doimo obro'da, ochko'z esa xor-u zalil bo'lur. Shunday bu qit'a axloqiy jihatdan o'ta muhim ijtimoiy saboqni o'zida mujassam etadi: inson nafaqat o'zini, balki jamiyatdagi tutgan o'rnini anglab yashashi, hirs, ochko'zlik kabi salbiy hislardan tiyilishi lozim. Agar inson o'z hikmatini yo'qotsa, u hayvondan ham pastga tushadi — bu esa chin inson uchun or-nomusdir.

Tahlil qilingan ushbu qit'a, shuningdek maqolada ko'rib chiqilgan boshqa namunalar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Alisher Navoiy forsiy qit'alari orqali o'zining chuqur tafakkuri, badiiy mahorati va tasavvufiy qarashlarini ifoda etgan. Bu qit'alar mazmunan boy, badiiy jihatdan mukammal bo'lib, shoir ijodining muhim qirralaridan birini tashkil etadi. Ularning tahlili Navoiy merosini chuqurroq anglashga xizmat qiladi..

BAHOUDDIN NAQSHBANDIY MA'NAVIY MEROSI VA ME'MORIY ANSAMBLI

Nurmuxammedov Mirvoxid Xamidulla o'g'li,
Namangan davlat universiteti talabasi
nurmuhammadovmirvohidjon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutasavvuf va ma'naviyat peshvosi Bahouddin Naqshbandning hayoti va uning yaratgan boy ma'naviy merosi keng yoritiladi. Muallif Bahouddin Naqshband asos solgan Naqshbandiylik tariqatining asosiy g'oyalari, axloqiy tamoyillari va jamiyatdagi ta'sirini tahlil qiladi. Shu bilan birga, maqolada ushbu ulug' zot nomi bilan bog'liq bo'lgan me'moriy ansambl — Bahouddin Naqshband majmuasi alohida o'rganilib, uning tarixiy shakllanish jarayoni, arxitektura xususiyatlari, me'morchilik uslubi va zamonaviy davrdagi madaniy-ma'naviy hayotdagi o'rni batafsil tahlil qilinadi. Mazkur maqola o'quvchiga Bahouddin Naqshband shaxsiyati hamda uning merosini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Shohi Naqshband, Xo'jayi Buzruk, Abdulazizxon, Dahmai shohon, Mazaffarxon, Hakim qushbegi, Qasri Orifon, soqoxona, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, muqarnas.

BAHAUDDIN NAGASHBAND SPIRITUAL HERITAGE AND ARCHITECTURAL ENSEMBLE

Abstract. This article extensively covers the life of the great mystic and spiritual leader Bahauddin Naqshband and the rich spiritual heritage he created. The author analyzes the main ideas, moral principles, and influence of the Naqshbandi order founded by Bahauddin Naqshband on society. At the same time, the article separately studies the architectural ensemble associated with the name of this great person - the Bahauddin Naqshband complex, and analyzes in detail its historical formation process, architectural features, architectural style, and its place in cultural and spiritual life in the modern era. This article allows the reader to understand the personality of Bahauddin Naqshband and his legacy more deeply.

Keywords: Shahi Naqshband, Khojai Buzruk, Abdulaziz Khan, Dahmai Shahan, Mazaffar Khan, Hakim Kushbegi, Qasri Orifan, soqokhana, Shaybanis, Ashtar Khanis, muqarnas.

ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ И АРХИТЕКТУРНЫЙ АНСАМБЛЬ БАХАУДДИНА НАГАШБАНДА

Аннотация. В статье дается всесторонний обзор жизни великого мистика и духовного лидера Бахауддина Накиббанды и созданного им богатого духовного наследия. Автор анализирует основные идеи, моральные принципы и влияние на общество ордена Накиббандия, основанного Бахауддином Накиббандом. В то же время в статье отдельно изучается архитектурный ансамбль, связанный с именем этого великого человека - комплекс Бахауддина Накиббанды, и подробно анализируется его исторический процесс формирования, архитектурные особенности, архитектурный стиль, а также его роль в культурной и духовной жизни в современную эпоху. Эта статья позволит читателю глубже понять личность Бахауддина Накиббанды и его наследие.

Ключевые слова: Шахи Накиббанд, Ходжай Бузрук, Абдулазиз Хан, Дахмай Шахан, Мазаффар Хан, Хаким Кушбеги, Касри Орифан, Сококхана, Шайбанис, Аштар Ханис, мукарнас.

Kirish. O'zbekiston hududi tarix davomida ko'plab buyuk allomalar, tasavvuf peshvolari va ma'naviy yetakchilarni yetishtirib bergan. Ularning orasida Bahouddin Naqshband hazratlari alohida o'ringa ega. Bahouddin Naqshband (1318–1389) – o'zining chuqur tasavvufiy qarashlari, axloqiy-ruhiy tarbiyasi va amaliy ta'limoti bilan butun islom olamida katta e'tirofga sazovor bo'lgan yirik mutafakkir hisoblanadi. U Naqshbandiylik tariqatiga asos solgan va o'zining hayoti, g'oyalari hamda targ'ibot faoliyati orqali musulmon jamiyatini axloqiy poklik, halollik, mehnatsevarlik sari undagan. Bahouddin Naqshband "Shohi Naqshband", "Xojayi Buzruk" kabi unvonlar bilan mashhur bo'lib, uning ta'limoti hozirgi kunda ham O'zbekiston, Markaziy Osiyo va boshqa ko'plab musulmon mamlakatlarida o'rganilmoqda. Naqshbandiylik tariqati asrlar davomida xalq ma'naviyati va ruhiyatining shakllanishida muhim rol o'ynab kelgan. Ushbu tariqatning asosiy shiorlaridan biri bo'lgan "Dil ba yor, dast ba kor" – ya'ni "Ko'ngil Xudoda, qo'l mehnatda" degan hikmat bugungi kungacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan va inson ruhiyati bilan mehnatni uyg'unlashtirishda muhim

omil bo'lgan. Bahouddin Naqshband yashagan XIV asr – Movarounnahrda islom ilmlari, tasavvuf va madaniyatning yuksak bosqichga ko'tarilgan davri bo'lib, bu jarayon Buxoro shahrining diniy-ma'rifiy markaz sifatidagi mavqeyini kuchaytirgan. Tasavvuf tarixi haqida gapirar ekanmiz, hazrat Bahouddin Naqshbanddan keyingi davrni ham baholashimiz lozim bo'ladi. XV—XVI asrlar Movarounnahr va Xurosonda naqshbandiya to'la tantana qilib, gullagan davr bo'ldi. Ayniqsa, Xoja Ahror Valiyning amaliy va Mahdumi A'zam — Ahmadi Xojagonning ilmiy faoliyatlari tufayli naqshbandiya mustahkamlandi, nufuzi oshdi, Hindiston, Arabiston yerlariga etib bordi, Turkiyaga tarqaldi[1]. Ana shu davrda Bahouddin Naqshband o'z g'oyalari va ta'limoti orqali butun musulmon jahoniga ta'sir ko'rsatgan va uning merosi bugungi kunda ham o'z ilmiy, tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatini yo'qotmagan. Shuningdek, Bahouddin Naqshband nomi bilan bog'liq me'moriy majmua – Bahouddin Naqshband me'moriy ansambli ham xalqimiz faxru-iftixoriga aylangan tarixiy obida sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu maskan nafaqat ziyoratgoh, balki tarixiy-madaniy va ruhiy tarbiya maskani bo'lib xizmat qilmoqda. Majmua me'morchiligida o'ziga xos uslub, estetik did va tarixiy qatlamlar mujassam. Shu sababli, ushbu maqolada Bahouddin Naqshband hazratlarining boy ma'naviy merosi, u asos solgan tariqatning g'oyaviy mazmuni hamda uning nomi bilan bog'liq me'moriy ansamblning tarixiy, madaniy va zamonaviy ahamiyati keng yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bahouddin Naqshbandiy nomi bilan bog'liq bo'lgan me'moriy majmua haqida tarixiy, diniy va arxitektura yo'nalishidagi bir qator muhim adabiyotlar mavjud. Ushbu manbalar orqali mazkur obidaning shakllanish jarayoni, me'moriy xususiyatlari va tarixiy ahamiyati chuqur o'rganilgan. Buxoroning shimoli-g'arb tomonida, shahardan 10 km uzoqlikda Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyekti barpo etilgan. Bahouddin Naqshband vafotidan so'ng, uning qabri avvaldanoq ziyoratgoh sifatida e'tiborga tushgan. Biroq, ushbu muqaddas maskanni majmua tarzida obod etish ishlari XVI asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Hozirgi Kogon tumanining Qasri Orifon qishlog'ida dafn etilgan Bahouddin Naqshband qabrining ustiga 1544–yili Buxoro xoni Abdulaziz I maqbara qurdirgan[2]. Ba'zi manbalarda keltirilishicha, 1544–1545-yillarda mozor atrofida keng ko'lamli qurilish ishlari boshlangan bo'lib, bu jarayon Abdulazizxon ibn Ubaydullaxon(1540-1550) nomi bilan bog'lanadi. Ammo, Shayboniylar sulolasi hukmdorlari orasida bunday nom bilan tanilgan shoh mavjud emas. Shu bois, tarixiy manbalarga asoslanib aytish mumkinki, mazkur obodonlashtirish ishlari Shayboniylar sulolasining noma'lum amiri yoki mahalliy hokim tashabbusi bilan boshlangan bo'lishi mumkin.

Biroq, ba'zi tarixiy manbalarda muammo yuzaga chiqadi: Shayboniylar sulolasi tarkibida Abdulaziz ismli hukmdor mavjud bo'lmagani sababli, tarixchilar bu nom ostida mahalliy hokim yoki sulola a'zolaridan biri bo'lgan shaxs nazarda tutilgan deb taxmin qilishadi. Masalan, tarixchi M. Is'hoqovning "O'zbekiston tarixiy yodgorliklari" nomli tadqiqotida, bu obodonlashtirish ishlari Shayboniylar davrida ziyoratgohlar qurilishining ommaviylashuvi doirasida amalga oshirilgani aytiladi. Shuningdek, Sadriddin Salim Buxoriy "Bahouddin Naqshband yoki Etti pir" asarida majmuaning tarixiy bosqichlari haqida fikr bildirar ekan, bu jarayonning bosqichma-bosqich kengayib, keyingi asrlarda ham davom etganini ta'kidlaydi[3]. Me'moriy jihatdan, majmua ilk bosqichda maqbara va kichikgina xonaqohdan iborat bo'lgan. Keyinchalik unga masjid, hujralar, darvozaxona, minora, hovli va hovuz qo'shilgan. Bu haqida "Buxoro me'moriy obidalar tarixi" nomli asarda aniq tavsiflar keltirilgan: maqbara peshtoqli, ikki gumbazli, ganchkori naqshlar bilan bezatilgan bo'lib, klassik Buxoro me'morchilik an'analariga asosida qurilgan.

Qurilishlar davomida mozor atrofi tartibga solinib, majmua ansambl tarzida shakllantirilgan. Ushbu davrda xonaqoh (sufi tariqatlari yig'in joyi), maqbara, ikkita masjid, daxmalar, sakxona (ziyoratchilar va muhtojlarga saxovat tariqasida ovqat, choy yoki suv tarqatiladigan joy), hovuz, quduq, minora, madrasa va Abdullaxon xonaqohi kabi inshootlar barpo etilgan. Keyingi davrlarda esa majmuaga baland peshtoqli darvozaxona, muzey, choyxona kabi binolar qo'shilib, ziyoratgohning zamonaviy holati shakllangan[4]. Bahouddin Naqshband majmuasi nafaqat diniy markaz, balki ijtimoiy-ma'naviy hayot markazi sifatida ham xizmat qilgan. Bu maskan naqshbandiylik tariqatining eng muhim ziyoratgohlaridan biri bo'lib, butun musulmon olamida obro'-e'tiborga ega. Bizga ma'lumki Bahouddin Naqshbandiy hazratlariga atab barpo etilgan me'moriy yodgorlik ansambl ko'rinishidagi majmua hisolanadi. Ansambl – bu binolarning o'zaro badiiy uyg'unlashgan turkumidan iborat bo'lib, madaniy yoki diniy ahamiyatga ega bo'lgan, bir-birini to'ldiruvchi me'moriy yodgorliklar va joylar majmuasidir. Bunday ansambllar odatda ma'lum bir shaxs, tarixiy hodisa yoki davrni yod etish maqsadida barpo etiladi[5]. Shu asosda xulosa qilishimiz mumkinki, Bahouddin Naqshband hazratlarining ulug' siymosi va tarixiy merosi faqat bitta me'moriy inshoot bilan emas, balki bir nechta yodgorliklar majmuasi – ansambl orqali e'zozlangan. Bu ansamblning har bir qismi–maqbara, masjid, xonaqoh va boshqa inshootlar ulug' zotning ma'naviy merosini ulug'lash, uni avlodlar xotirasida barqaror saqlash maqsadida barpo etilgan.

Bahouddin Naqshband vafotidan so'ng barpo etilgan ushbu majmua ko'p asrlar davomida ziyoratgoh sifatida faoliyat yuritib kelgan. Majmuaning umumiy tuzilmasi an'anaviy islomiy me'morchilik tamoyillariga

asoslanadi. Kompleksga kirish qismi kichik gumbazli chortoqdan boshlanadi. Chortoq - to'rt tomonlama ochiq, ustunlar bilan ko'tarilgan, gumbaz bilan yopilgan inshoot bo'lib, u markaziy yo'lak vazifasini bajaradi. Bu turdagi inshootlar O'rta Osiyo me'morchiligida ko'pincha diniy va ijtimoiy yig'inlar, shuningdek, ziyorat yo'lining boshlanish nuqtasi sifatida qurilgan. Darvozaxonadan o'tgach, majmua ikki tomonga yoyilgan: o'ngda kichik masjid joylashgan, chap tomonda esa ziyoratchilar uchun xizmat ko'rsatgan turli binolar bo'lganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Bu bino va inshootlar ziyoratchilar uchun ibodat, dam olish va diniy suhbatlar o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lgan. Yo'l davomida chap tomonda joylashgan Dahmai shohon, ya'ni xonlar maqbarasi, majmuaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ba'zilar bu maqbarani Qo'qon bilan adashtirishlari mumkin, biroq Dahmai shohon aynan Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon qishlog'ida, Bahouddin Naqshband majmuasi tarkibida joylashgan[6]. Bu maqbara to'rtburchak shaklga ega bo'lib, balandligi 2,5 metr, usti esa kulrang marmar bilan qoplangan. Maqbara naqsh va bezaklar bilan boyitilgan bo'lib, unda marmar o'ymakorligi, xattotlik san'ati namunalarini uchratish mumkin. Bu bezaklar orasida tokchalar, ustunchalar, sharaflar, sarv daraxti sur'atlari mavjud. Ayniqsa, sarv daraxti islomiy san'atda abadiylik va poklik timsoli sifatida ishlatiladi. Ba'zida naqshlar yozuvlar bilan uyg'unlashgan holda bajarilgan bo'lib, bu naqshinkorlik diniy-falsafiy ma'nolarni ham o'zida aks ettiradi.

Dahmai shohondan o'tgach, yo'lak nafis bezatilgan peshtoqqa olib keladi. Peshtoqning eshigidan o'tgach, o'ngda gumbazli maqbara joylashgan. Chapda - kiraverishda olti ustunli, oldi ayvonli oddiygina qilib qurilgan Muzaffarxon masjidi joylashgan. Masjid yoniga ikki ustunli Hakim qushbegi masjidi joylashgan. Uning janubida naqshdor, shimolida naqshsiz ayvonlar bor. Hakim qushbegi masjidining shimolida minora, undan narida ichki hovlidagi hovuzdan uch marta katta boshqa bir hovuz joylashgan. Hovlining tashqarisida (shimoli-g'arbda) to'rtburchak supa ustiga qurilgan eni 37 m, bo'yi 40 m li xonaqoh mavjuddir. Majmuaning markazida peshtoq-ravoqli ayvonlar bilan o'ralgan masjid joylashgan, uning tog'risida chorzamin uslubida, ya'ni to'rt tomonga qaragan tartibli shaklda qurilgan qirma naqshlar bilan bezatilgan mehrob mavjud. Imoratning har ikki tomonida simmetrik qurilgan ikki qavatli katta-kichik hujralar bo'lgan. Kompleks tarkibiga undan 500 m shimoli - sharqda joylashgan Qasri Orifon masjidi ham kiradi. U Bahouddinning onalari ziyoratgohidir. U yerda masjid yonida pastroq qilib yaratilgan minora bor. Masjid uch tarafdan ayvon bilan o'ralgan, shifti naqsh tushirilgan hovuzaklik qilib ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Me'moriy inshootning vujudga kelish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, turli bunyod etilgan majmualardan iboratdir. Ansamblning eng qadimiysi bu Shayx Bahouddin Naqshband dahmasidir. U marmar toshlari bilan o'ralgan bo'lib, ochiq osmon ostida, marmar panjaralar bilan bezatilgan holda barpo etilgan. Ushbu dahma o'zining sodda, ammo chuqur ma'naviy ruhi bilan ajralib turadi. Shayx Bahouddinning qabri marmardan ishlangan qabrtosh va stelalar ya'ni, marmar yoki granitni matnlar va o'yilgan tasvirlar bilan bezatilgan toshlardan iborat bo'lib, u maxsus baland tepalik ustiga joylashtirilgan. Bu yuksaklik nafaqat me'moriy g'oya, balki Naqshband hazratlarining yuksak maqomini ifodalovchi ramziy ma'noga ham ega. Dahmaning shimoliy tomonida esa kichik hajmdagi, tomonlari 9,5 m keladigan hovuz joylashgan bo'lib, u ham marmar bilan o'ralgan. Bu hovuz ansamblning umumiy tuzilmasiga nafislik va osoyishtalik baxsh etadi. Dahma bilan hovuz orasida quduq bo'lib, uning yonidagi chiroyli, mo'jazgina xona bo'lib, u asosan sukut saqlash, ibodat, dam olish yoki yakkalanish uchun - sakxona yaratilgan bo'lib, u yerda ziyoratchilarga «muqaddas» suv ulashilgan. Suv - tasavvufda poklik va ruhiy tozalik ramzi sifatida bu joyda ma'naviy mushohada va xotiraga xizmat qiladi[7]. Bahouddin Naqshband ziyoratgohida saqlanib qolgan tarixiy me'moriy yodgorliklardan yana biri - saqoxona hisoblanadi. Saqoxonalar asosan Bahouddin Naqshband majmuasi, Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasi yoki ko'hna masjidlarda barpo etilgan bo'lib, unda ziyoratchilar va mehmonlarga suv tortib beriladigan maxsus joy vazifasini o'tagan. Ushbu inshoot XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bunyod etilgan bo'lib, hazratning qabri shimoliy tomonida joylashgan kichik hovuz yonida qad rostlagan. Bu yerda chordaralik, ya'ni to'rt tomoni ochiq, chortoq shaklida, usti gumbaz bilan yopilgan kichik ko'shk mavjud. Bunday turdagi ko'shklar "saqoxona" deb atalgan bo'lib, unda ichimlik uchun mo'ljallangan toza suv saqlangan. Bu esa ziyoratchilar uchun nafaqat jismoniy tetiklanish, balki ma'naviy poklanish manbai bo'lgan. Bahouddin Naqshband me'moriy majmuasining o'ziga xos jihatlardan biri shundaki, XX asr boshlariga qadar ziyoratchilar ziyoratgoh hududiga g'arb tomondan kirishgan. Bu yo'lakda ketma-ket joylashgan uchta darvoza orqali o'tib, ziyoratgohga yetib kelganlar. Bu tartib ziyorat marosimining muqaddasligini va izchil yo'lini ifoda etgan.

Bahouddin Naqshband ziyoratgohi besh yuz yil davomida bosqichma-bosqich shakllangan. Uning dastlabki tarixi haqida ma'lumotlar kam bo'lsa-da, arxeologik va me'moriy tadqiqotlar orqali ilk binolarning asoslari va izlari aniqlangan. Bahouddin Naqshband vafotidan so'ng, u zot qabri atrofida dastlabki binolar barpo etilgan. Hazratning qabrlarining g'arbiy tomonida qabriston tashkil topgan bo'lib, bu yerda u zotning yaqin murid va ixlosmandlari dafn etila boshlangan. Oradan vaqt o'tib, bu joyda Buxoro hukmdor sulolalari vakillari dafn etila boshlagan va natijada "Shohlar xilxonasi" - "Dahmai shohon" deb ataluvchi maqbara

majmuasi vujudga kelgan. Dahmai shohon Bahouddin Naqshband maqbarasining g'arbiy tomonida joylashgan bo'lib, unda Temuriylar, Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasiga mansub hukmdorlar daxmalari qad rostlagan. Bu joy nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki me'moriy jihatdan ham katta qimmatga ega bo'lib, ziyoratgohning eng e'tiborga loyiq qismlaridan biri hisoblanadi.

Turli bo'limlarning dizayni davrlarning me'moriy uslublari haqida qiziqarli ma'lumot beradi, shuningdek, mahalliy musulmonlarning dafn etish an'alaridan dalolat beradi. Ammo Bahouddin Naqshband arxitektura majmuasi ziyoratgoh sifatida bugungi kunda ham ahamiyatli bo'lib, asrlar davomida ishlab chiqilgan ko'plab maxsus qoidalar hozir ham amalda[8]. Bu holat Bahouddin Naqshband me'moriy majmuasining nafaqat tarixiy va estetik ahamiyatini, balki ma'naviy va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ham ochib beradi. Har bir arxitektura unsuri – masalan, daxma, saqoxona, hovuz yoki darvoza – o'ziga xos ramziy ma'noni ifodalaydi va ziyoratchining ruhiy holatini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, asrlar davomida shakllangan ziyorat marosimlari va makon bilan bog'liq axloqiy qoidalar, bugungi kunda ham amal qilayotgani, bu maskanning faqat tarixiy emas, balki barhayot ma'naviy markazga aylanganini anglatadi. Bu esa, Bahouddin Naqshband merosining hozirgi jamiyatda ham dolzarb ekanidan dalolat beradi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillikning shonli va zafarli yillarida xalqimiz qo'lga kiritgan yutuqlar son-sanoqsiz va ularning har biri asrlarga tatigulikdir. Bularning bari betakror va yagona jonajon O'zbekistonimizning buyuk kelajak yo'lidan sobitqadamlik bilan dadil odimlayotganidan darak beradi. Har bir O'zbekiston xalqi ushbu amalga oshirilayotgan ishlarni teran anglab, mustaqilligimiz va tinchligimizni qadriga yetib, mamlakatimizdagi tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrashi lozim. Zero, tinchlik va totuvlik eng ulug' ne'matir.

1993-yili Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi munosabati bilan O'zbekistonda Bahouddin Naqshband ta'limoti o'rganishga ahamiyat kuchaydi. Buxoro davlat universiteti huzurida "Naqshbandiya" ilmiy markazi ish boshladi. U yerda tasavvufiy-irfoniy merosni tadqiq etish yo'lga qo'yildi. Buxoro davlat muzey qo'riqxonasida ham "Naqshbandiya" markazi tuzildi. Sharofatli odamning qadamida gul ochiladi, deyishadi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1993-yil 16-sentyabrda ilk bor islom olamining yirik vakili Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi tantanalariga tashrif buyurganda shu muborak manzilning baxti ochildi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tashabbusi va rahnamoligida ilgari qarovsiz yotgan joyda asrlarga tatigulik bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Necha asr muqaddam ko'milib ketgan obidalar qayta ko'z ochdi. Bu yerga qadam qo'ygan mehmonlar ziyoratni, eng avvalo, buyuk allomaning onasi mangu qo'nim topgan qabrdan boshlaydigan bo'lishdi. Birgina shu an'ananing qayta tirilishi millatimizda onaga ehtirom ramzini ifodalaydi[9]. Me'moriy inshootda 2003-yilda bunyod etilgan "Bobi Islom" – ya'ni Islom darvozasida xattot Habibulloh Solih tomonidan suls xatida so'zlar bitildi. Darvozaning muqarnas qismida, ya'ni murakkab shakldagi bezak turi hisoblangan, mehrob, tahmon yoki ravoqlarning tepa qismini yarim gumbaz ko'rinishidagi bezaklarda esa nasta'liq yozuvida usta quruvchilarning ismlari va imoratning qurilgan yili yozib qoldirilgan[10]. Bu yozuvlar nafaqat me'moriy obida haqida muhim ma'lumot beradi, balki o'sha davr hunarmandchilik va xattotlik san'atining yuksak darajada bo'lganini ham namoyon etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Bahouddin Naqshband shaxsiyati va u asos solgan naqshbandiya tariqati O'rta Osiyo hamda keng musulmon olamida chuqur iz qoldirgan. U faqatgina yirik tasavvuf arbobi sifatida emas, balki jamiyatni ma'naviy poklanishga, ichki intizomga va halollikka chorlovchi ulkan ruhiy yetakchi sifatida tarixda o'z o'rnini egallagan. Uning "Dil ba yor, dast ba kor" degan hikmati zamirida ham insonni ikki olam muvozanatida yashashga da'vat qiluvchi chuqur hayot falsafasi mujassam. Bahouddin Naqshband nomi bilan bog'liq me'moriy ansambl esa nafaqat diniy qadriyatlar bilan boyitilgan ziyoratgoh, balki o'z davrining me'moriy tafakkuri, uslubi va milliy-estetik qarashlarini mujassamlashtirgan yodgorlik sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Uning hududida mavjud bo'lgan daxma, saqoxona, hovuz, darvozalar va boshqa elementlar – barchasi asrlar davomida shakllangan, milliy me'morchilik an'analari bilan uyg'unlashgan muhim obidalar sirasiga kiradi. Ayniqsa, me'moriy tafsilotlar orqali tarixiy davrlar o'z aksini topgan bo'lib, har bir inshootda diniy-falsafiy va estetik yondashuvlar mujassam. Ziyoratgoh hududida yuzlab yillar davomida amal qilinayotgan marosimlar va ziyoratchilar uchun belgilangan axloqiy qoidalar – bu majmuaning hozirgi kunda ham tirik, faol va barhayot ma'naviy markaz ekanidan dalolat beradi. Bu yerda o'rnatilgan tartib-intizom, ziyoratgohga bo'lgan ehtirom jamiyatning o'z tarixiga, muqaddas qadriyatlariga bo'lgan yuksak munosabatini ifodalaydi. Uning hayoti va ta'limoti asrlar osha musulmon olamining ma'naviy yuksalishiga xizmat qilgan bo'lsa, bugungi kunda ham u kishining merosi yurtimizda ezgulik, poklik va kamtarlik timsoli bo'lib qolmoqda. Bahouddin Naqshband me'moriy ansambli esa nafaqat diniy ziyorat maskani, balki tarixiy-madaniy yodgorlik sifatida xalqimizning boy o'tmishidan darak beradi. Ushbu ansambl yillar davomida yangilanib, obod etilib, kelajak avlod uchun muqaddas meros

HISTORY

sifatida asrab qolinyapti. Bu esa xalqimizning oʻz tarixiga, maʼnaviyatiga va buyuk ajdodlariga boʻlgan chuqur hurmatidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент, “Mavrounnahr” – “Oʻzbekiston”, 2009. – 448 б.
2. <https://fikir-uz.narod.ru/37.html>
3. Sadriddin Salim Buxoriy. Bahouddin Naqshband yoki Etti pir. – Toshkent, “Gʻafur Gʻulom” nashriyoti, 2003. – 142 b.
4. Vaxitov M.M., Mirzayev Sh.R. Meʼmorchilik. – Toshkent, “Tafakkur” nashriyoti, 2010. – 366 b.
5. Ahmedov M.Q. Oʻrta Osiyo meʼmorchilik tarixi. – Toshkent, “Oʻzbekiston” nashriyoti, 1995. – 136 b.
6. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Daxmai_shohon_\(Buxoro\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Daxmai_shohon_(Buxoro))
7. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Bahoutdin_Architectural_Complex
8. <https://visitworldheritage.com/en/eu/bahouddin-naqshband-architectural-complex/3eddb97d-d9ab-432b-a5fe-7ecd2eac1b17>
9. Bobojova F. Buxoro meʼmoriy obidalari tarixi. – Buxoro, “Fan va Taʼlim” nashriyoti, 2022. – 285 b.
10. Zohidov P.Sh. Meʼmor olami. – Toshkent, “Qomuslar” Bosh tahririyati, 1996. – 239 b.

УЎК:93/94:327(470+575.1/.4)(043.3)

БУХОРО АМИРЛИГИ МАЪРИФИЙ ҲАЁТИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ КИРИБ КЕЛИШГА ДОИР ЎЗИШМАЛАР

Кличев Ойбек Абдурасулович,

*Ориентал университети Тарих кафедраси доценти,
тарих фанлари доктори (DSc)
klichev_oybek@mail.ru*

Аннотация. Мазкур изланиш Ўзбекистон Миллий архиви жамғармаларидаги бирламчи манбаларга таянган ҳолда Бухоро амирлиги маърифий ҳаётига кириб келган янги таълим шакллари тадқиқ этишга қаратилганлиги билан ажралиб туради. Россия империяси ўзининг Туркистон ўлкасида юритган таълим йўналишидаги сиёсатининг айрим жиҳатларини Бухоро амирлиги ижтимоий-маърифий ҳаётига ҳам жорий этишга уринган. Рус-тузем мактаблари, ундаги таълим жараёни, ўқувчилар, рус тилини ўрганиш курсларининг ташкил этилиши каби масалалар шулар жумласидандир. Мақолада айнан ушбу жиҳатлар ҳам ўзининг илмий ечимига эга бўлди.

Калит сўзлар: Эски Бухоро, рус-тузем мактаби, Ф.М.Керенский, Хиёбон, дарс, рус тилини ўрганиш курслари, қўшбеги, Муҳаммад Қосим гузари, В.П.Наливкин, Чоржўй.

ПЕРЕПИСКА О ПРОНИКНОВЕНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНУЮ ЖИЗНЬ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

Аннотация. Данное исследование основанное на первоисточников из фондов Национального архива Узбекистана отличается своей направленностью на изучение новых форм образования, вошедших в образовательную жизнь Бухарского эмирата. Российская империя пыталась внедрить некоторые аспекты своей образовательной политики в Туркестане в общественно-образовательную жизнь Бухарского эмирата. К ним относятся такие вопросы, как русско-туземные школы, учебный процесс в них, учащиеся, организация курсов русского языка. Именно эти аспекты также получили свое научное решение в статье.

Ключевые слова: Старая Бухара, русско-туземная школа, Ф.М.Керенский, Хиёбон, урок, курсы по изучению русского языка, кошбеги, Мухаммад Касим Гузари, В.П.Наливкин, Чорджуй.

CORRESPONDENCE ABOUT THE PENETRATION OF THE EDUCATIONAL SYSTEM OF THE RUSSIAN EMPIRE INTO THE EDUCATIONAL LIFE OF THE BUKHARA EMIRATE

Abstract. This study, based on primary sources from the collections of the National Archive of Uzbekistan, is notable for its focus on the study of new forms of education that have entered the educational life of the Bukhara Emirate. The Russian Empire tried to introduce some aspects of its educational policy in Turkestan into the public and educational life of the Bukhara Emirate. Russian Russian-native schools, the educational process in them, students, and the organization of Russian language courses are among these issues. It is these aspects that have also received their scientific solution in the article.

Keywords: Russian Russian school, F.M.Kerensky, Khiebon, lesson, Russian language courses, koshbegi, Muhammad Kasim Guzari, V.P.Nalivkin, Chorjui.

Кириш. XIX аср охири – XX аср бошларида Россия империясининг Ўрта Осиё минтақасида ўз маданиятини сингдириш тадбирларини икки босқичга ажратиш мумкин. Биринчи босқич бу империя бошқаруви остида ташкил этилган Туркистон генерал-губернаторлиги ҳудудида турли жамият ва ўқув муассасаларини жорий этишда намоён бўлса, иккинчи босқич ушбу сиёсатни Бухоро амирлиги ва Хива хонлигида амалга оширишга уринишдан иборат бўлган.

Бунинг исботи сифатида Бухоро амирлигида Россия империяси таълим тизими асосида фаолият юритган ўқув муассасаларини келтириб ўтишимиз мумкин. Бухоро амирлиги ва Россия империяси ҳукуматининг маориф соҳасидаги алоқаларини тадқиқ этишда сиёсий агентликнинг амирлик маъмурияти билан олиб борган ўзишмалари муҳим аҳамият касб этади.

Россия империяси маъмурлари Ўрта Осиё минтақаси аҳолисига ўз маданиятини сингдириш сиёсатини амалга ошириш учун дастлаб империя таълим муассасаларини ташкил этиш зарур деб ҳисобларди. Ушбу мақсадни амалга ошириш учун империя ҳукумати Туркистон генерал-губернаторлиги шаҳарларида рус, рус-тузем мактаблари, турли йўналишдаги билим юртлари, прогимназия ва гимназияларни ташкил этади.

Тадқиқот натижалари. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоро амирлиги ҳудудида империя таълим тизимига асосланган ўқув муассасаларини ташкил этиш ва у билан боғлиқ тадбирларни амалга ошириш масалаларига оид мактубларни тадқиқ этиш натижасида биз уларни қуйидаги гуруҳларга ажратдик:

Биринчи гуруҳ, Бухоро амирлигидаги шаҳарларда рус-тузем мактабларини ташкил этиш ва уларни моддий жиҳатдан қўллаб қувватлашга оид мактублар.

Иккинчи гуруҳ, амирлик ҳудудида рус тилини ўрганиш курслари ҳамда рус манзилгоҳларида фаолият олиб борган бошланғич, черков (приходной) мактаб ва билим юртларини ташкил этиш билан боғлиқ мактублар.

Мазкур даврда амирлик ҳудудида фаолият олиб борган таълим муассасаларининг амирлик ижтимоий-маърифий ҳаётидаги ўрнини тадқиқ этиш натижасида қуйидаги тарихий воқеалар тизимини кузатишимиз мумкин. Ушбу даврда амирлик ҳудудида анъанавий мактаб ва мадраса таълими билан бирга янги усул мактаблари ҳамда Россия империяси таълим тизимига асосланган рус-тузем, черков (приходной) мактаблари, прогимназия ва гимназия каби ўқув муассасалари фаолият олиб борган эди.

XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоро амирлигидаги анъанавий мактаб таълими ва қолаверса, “янги усул” мактаблари деб ном олган ўқув муассасалари тарихи, амирлик ижтимоий ҳаётининг аҳамиятга молик масалалари илмий адабиётларда яхши тадқиқ этилган. Аммо мазкур даврда амирлик ижтимоий ҳаётига кириб келган Россия таълим тизими ва унга дахлдор муассасалар тарихи етарли даражада ўрганилмаган.

Туркистон генерал-губернаторлиги каби Бухоро амирлиги ижтимоий-маърифий ҳаётида жорий этилган рус-тузем мактаблари, бошланғич черков (приходной) мактаблари, ўғил ва қиз болалар учун мўлжалланган прогимназия ва гимназиялар фаолиятини танқидий ўрганиш ва бу хусусда холис хулосалар бериш жоиз, деб ўйлаймиз.

Туркистон генерал-губернаторлиги маҳаллий аҳолисига рус тилини ўргатишнинг биринчи бўғини бу рус тили курслари ва рус-тузем мактаблари эди. Туркистон ўлкасида дастлабки рус-тузем мактаблари Тошкентда 1884 йили 19 декабрда ташкил этилади[1].

Архив ҳужжатларининг гувоҳлик беришича, амирликда бу турдаги мактаблар XIX асрнинг 90 йиллари бошларида ўз фаолиятини бошлайди. Бухоро амирлигидаги дастлабки рус-тузем мактаби Эски Бухоро шаҳрида ташкил этилади. Бунинг билан бирга Туркистон генерал-губернатори девонхонаси дипломатик қисм вакилининг 1894 йил 24 май куни сиёсий агент П.М.Лессар номига йўллаган хатидан билсак бўлади[2]. Унда Бухоро амира вакили Шодибек тўқсобе Тошкентга келгани ва шу вақтда амирнинг ўғли Саид Мир Олим Россиядан қайтиши муносабати билан амирни табриклаши ва Саид Мир Олимнинг ўқиш даврида яхши билим олаётгани, рус тилини ўрганишдаги ютуқлари хусусида тўхталиб, Бухоро савдо аҳли, қолаверса, давлат маъмурлари рус тилини ўрганишларини маслаҳат беради. Бунинг натижасида икки мамлакат, яъни Россия ва Бухоро ўртасидаги савдо алоқалари янада мустаҳкамланишини таъкидлайди. Агар амир (Аҳадхон) ва Тўражон (яъни Саид Мир Олим) рус тилини ўрганишга ўз мойиллигини кўрсатсалар, унда Бухоро амалдорлари бунга қизиқиш билдиришларини ҳам таъкидлайди. Дипломатик қисм амалдори мактаб Туркистон генерал-губернаторининг Тошкентда таҳсил олаётган мусулмон ўқитувчилари билан таъминлашини ва ўз кўмагини беришини билдиради.

П.М.Лессар 1894 йил 13 июлда Туркистон генерал-губернаторига ёзган мактубида Бухоро амира икки мамлакат муносабатларининг мустаҳкамланиши йўлидаги қадам сифатида ўз амалдорларининг фарзандлари таълим олишлари учун йўналтирилган Туркистон мактаблари дастури асосида таълимни ташкил этиш ва Тошкентдаги ўқитувчилар семинариясини ўқиган мусулмон ўқитувчилари фаолиятини сентябрь ойида бошлашга рухсат беришини билдирганини баён қилади[3].

Туркистон генерал-губернатори девонхонасининг сиёсий агентликка йўллаган мактубида Амирнинг рухсати хусусидаги маълумотдан келиб чиқиб, Туркистон генерал-губернаторлиги девонхонаси Туркистон ўлкаси ўқув юртларининг бош инспектори[4] билан алоқа ўрнатишини таъкидлайди. Ўз навбатида бош инспектор стат маслаҳатчи (статский советник) Ф.М.Керенский 1893 йилда Туркистон ўқитувчилар семинарияси битирувчиси, ҳозирги кунда Тўйтепадаги рус-тузем мактаби бошқарувчиси мусулмон А.Калининнинг Бухорога тайинланишини билдиради.

Туркистон ўлкаси билим юртлари бош инспекторининг 1894 йил 9 август №1938 рақамли сиёсий агентликка юборган хатида очилиши кўзланган мактабда таълим олиш харажатлари Бухоро амирлиги маъмурияти ва сиёсий агент хоҳиши асосида ташкил этилиши ҳақида фикр билдирилади[5]. Бу мактуб амирлик ҳудудидаги рус-тузем мактабларининг таъминоти амирлик ҳукумати маблағлари асосида ташкил этилганлигидан далолат беради.

Шундан сўнг сиёсий агентлик 1894 йил 7 декабрда Туркистон генерал-губернаторига, Санкт-Петербургдаги Осиё Департаменти бошлиғига ҳамда Туркистон ўлкаси ўқув юртларининг бош инспекторига юборган хатларида 1894 йили 6 декабрь куни Бухорода рус-тузем мактаби очилганлигини билдиради[6]. Бу амирлик ҳудудида ташкил этилган биринчи рус-тузем мактаби эди. Амирликдаги иккинчи рус-тузем мактаби эса 1915 йил сентябрда Эски Чоржўй шаҳрида ўз фаолиятини бошлайди.

Сиёсий агентлик амирлик шаҳарларида рус-тузем мактабларига ўқитувчилар тайинлаш, ўқув жараёнини ташкил этиш, ўқувчиларни қабул қилиш, мактаб таъминотини амалга ошириш каби масалаларни амирлик ҳукумати вакиллари билан ҳукуматлараро доирада, Туркистон генерал-губернаторлиги маъмурияти ва мактаб бошқарувчилари билан идоралараро муносабатларга киришган ҳолда ҳал этишга уринган. Ўзаро муносабат олиб боришнинг энг мақбул шакли эса бу мактуб алмашуви эди.

Ўзаро ёзишмаларнинг гувоҳлик беришича, амирлик ҳудудида Россия таълим тизими асосида фаолият юритган мактабларга ўқитувчи танлаш ва уни тайинлаш қуйидаги тартибда амалга оширилган. 1. Бухоро амирлигидаги рус-тузем мактабларидаги маҳаллий ўқитувчилар амирлик ҳукумати вакиллари – амир ва кўшбеги томонидан тайинланган. 2. Бухоро амирлигидаги рус-тузем мактаби, амирликнинг рус манзилгоҳларидаги бошланғич, ўғил ва қиз болалар черков (приходной) мактаблари, прогимназия, гимназия ва тижорат билим юртлари ўқитувчилари Туркистон генерал-губернатори, Туркистон ўлка ўқув юртлари бош инспектори томонидан тайинланган ҳамда ўз вазифасидан озод этилган. Амирликдаги бундай турдаги таълим муассасалари билан боғлиқ бирламчи масалалар эса бевосита Халқ билим юртлари Самарқанд вилояти инспектори назорати остида бўларди.

Бухоро амирлигида рус-тузем мактаби бошқарувчиси ва рус тили дарслари ўқитувчиси вазифалари бир шахс ваколат доирасига кирарди. Жумладан, Эски Бухоро рус-тузем мактабида 1894-1917 йиллар давомида А.А.Калинин, П.Корошков ва К.Ф.Бухаринлар бошқарувчи лавозимида фаолият олиб боришган[7]. 1915 йилда Эски Чоржўй рус-тузем мактабини эса Д.А.Сташков бошқара бошлайди. Улар ўзларининг дастлабки, фаолиятларини Туркистон генерал-губернаторлигидаги рус-тузем мактабларида бошлаганлар [8].

Ушбу бошқарувчилар Туркистон ўқитувчилар семинариясини битирган мусулмон ўқитувчилари ҳисобланган. Бундай тартиб, юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, Бухоро амири Абдулахад ва Туркистон генерал-губернатори ўртасидаги ўзаро келишув асосида амалга оширилган эди. Ёзишмаларнинг гувоҳлик беришича, амирлик ҳудудидаги рус-тузем мактабларининг ўқитувчилари ўрнига фақат мусулмон ўқитувчисини тайинлаш тартибига қатъиян риоя қилинган. Жумладан, 1895 йил 8 июнда Туркистон ўлкаси ўқув юртларининг бош инспектори Ф.М.Керенский сиёсий агентликка йўллаган хатида Бухородаги рус-тузем мактаби ўқитувчиси А.Калинин оилавий шароитидан келиб чиқиб, Бухорода ўқитувчилик лавозимидан бўшаётганини ва бошқа лавозимга тайинланишни сўраб мурожаат қилганини билдиради[9].

Мактуб сўнгиди Ф.М.Керенский Бухоро рус-тузем мактабига мусулмон ўқитувчиси А.Калинин ўрнига маҳаллий тилни биладиган ғайратли ва изланувчан Самарқанд рус-тузем мактаби ўқитувчиси Василий Вяткиннинг тайинланишига рухсат беришини сўраган.

Аммо сиёсий агент П.М.Лессар 14 июнда Ф.М.Керенскийга мурожаат қилиб, ўлка бошлиғи (Туркистон генерал-губернатори – О.К.)нинг 1894 йил 20 майда Бухоро амирига йўллаган №274 рақамли мактубида Бухородаги рус-тузем мактаби ўқитувчиси мусулмон бўлишини таъкидланганлиги ва мусулмон ўқитувчи тайинланишидан келиб чиқиб, А.Калинин ўрнига В.Л.Вяткинни тайинлаш мақсадга мувофиқ бўлмаслигини билдирди[10]. Кейинчалик Ф.М.Керенский 1895 йил 3 августда сиёсий агентликка йўллаган хатида А.Калинин ўз иш жойига қайтишини билдирган эди. Бу ҳолат, албатта, юқоридаги амир ва генерал-губернатор келишувига қай даражада риоя қилинганлигидан, келишув ижроси сиёсий агентлик ва амирлик кўшбегиси назорати остида бўлганлигидан далолат беради.

Амирликдаги рус-тузем мактабида маҳаллий ўқитувчини тайинлаш масаласи ҳам алоҳида аҳамият касб этади. Агар Туркистон генерал-губернаторлигидаги рус-тузем мактабларининг маҳаллий ўқитувчилари Туркистон генерал-губернатори ёки ўлка билим юртларининг бош инспектори буйруғи асосида тайинланган бўлса, Эски Бухоро ва Эски Чоржўйдаги рус-тузем мактаби маҳаллий

ўқитувчилари амирлик ҳукумати томонидан тайинланган. Ёзишмалар маълумотларига кўра, бу лавозимларда эски Бухорода Абдурахим Абдукаримов, Эски Чоржўйда эса Мулла Абулҳофиз Мулла Давлатёров фаолият олиб борганлар.

Ёзишмалардаги маълумотларга кўра, амирлик ҳудудида фаолият юритган Эски Бухоро ва Чоржўй рус-тузем мактабларида мусулмонлар билан бирга, христиан дини вакилларининг фарзандлари ҳам таҳсил олишган. Масалан, Эски Бухоро рус-тузем мактаби ўз фаолиятини 1894 йилда 31 та ўқувчи билан бошлайди. Уларнинг 13 таси мусулмон, 18 таси яҳудий аҳоли вакилларидан иборат эди[11]. 1915 йил сентябрь ойида ташкил этилган Эски Чоржўй рус-тузем мактабига қабул қилиниши керак бўлган ўқувчиларнинг миқдори тўғрисидаги дастлабки маълумотлар эса 1912 йил июнь ойида сиёсий агентлик ва амирлик ҳукумати ўртасидаги ёзишмаларда баён этилган. Буни қуйидаги мактубда кўришимиз мумкин.

“Ҳурматли Мирзо Насрулло-бий қўшбеги! Генерал-губернатор Чоржўй ҳудудидан йўл-йўлакай ўтаётган пайтда, Чоржўй бегига бухоролик ва рус савдогарлар бир-бирларини яхши тушунишлари учун рус тилини ўрганиши мумкин бўлган муссаса ташкил этиши кераклиги тўғрисида таклиф берган эди. Генерал-губернатор ушбу муассасани эски Бухородаги рус-тузем мактаби намунасида очишни ҳам таъкидлаб ўтганди. “Менинг фикримча, Чоржўйда дастлаб, 25-30 ўғил болаларга мўлжалланган кичик мактабни очиши мумкин. Кейинчалик эса талабдан келиб чиқиб, уни кенгайтурса бўлади...” (Сиёсий агентлик бошқарувчисининг 1912 йил 18 июндаги №3968 рақамли мактуби).

Эски Чоржўй шаҳрида рус-тузем мактабини ташкил этиш масаласи қўшбеги Мирзо Насрулло-бийнинг 1912 йил 28 июндаги сиёсий агентлик номига йўллаган №1263 рақамли жавоб мактубида баён этилади:

“Ҳурматли сиёсий агентлик бошқарувчиси жаноблари! Сиз 1912 йил 18 июндаги №3968 рақамли мактубингизда Чоржўйда ўғил болаларнинг рус тилини ўрганиши учун мактаб ташкил этишини сўраган эдингиз. Бу хусусда Амир ҳазратларига етказилди ва у киши қуйидагича фармон берди: “Чоржўй бегига мактабни ташкил қилиш учун фармон берилсин”. Сизнинг эътиборингизга Амир ҳазратлари бу фармон ижросини менинг зиммамга юклатганликларини билдираман”[12].

Ушбу ёзишмалар бир томондан Эски Чоржўй рус-тузем мактабида дастлаб 25-30 та ўқувчи таҳсил олиши белгиланганлигини кўрсатса, иккинчи томондан амирлик ҳудудидаги рус-тузем мактаблари билан боғлиқ барча тадбирларга қўшбеги масъул этиб тайинланганлигидан далолат беради.

Мактаб ўқувчиларининг жуда кам қисми ўқиш муддатининг тўлиқ тўрт йиллик босқичини тугатарди. Ўқувчиларнинг катта қисми савдогарларнинг фарзандлари бўлиб, улар бир ярим, икки йиллик таълимдан сўнг мактабга қайта боришмасди. Чунки улар ўз фаолияти учун керак бўлган рус тилида сўзлашиш, санаш ва ёзишни ўрганишарди, холос.

Россия империясининг рус-тузем мактабларини ташкил этишда кўзланган натижага эришмагани хусусида В.П.Наливкин ҳам қуйидагиларни таъкидлайди:

“Биз нимага эришдик? Маҳаллий аҳоли нимага эришди? Бу орқали фақат маҳаллий бозорларда рус тилини биладиган юзлаб савдогарлар кўпайди. Бу факт давлат аҳамиятига молик натижами? Уларнинг ташқи кўриниши ва сўзлашиши, ижтимоий ҳаётда (кўчада) рус тилини ўрганган ватандошларидан ҳеч қандай фарқлари қолмаганини кўришимиз мумкин”[13].

Бу фикрларнинг ўз даврида маҳаллий ўқувчилар учун дастлабки рус алифбосини яратган шахс томонидан билдирилиши, Россия империясининг маҳаллий аҳоли вакилларига ўз маданиятини рус-тузем мактаблари орқали сингдириш ғояси кутилган натижани бермаганидан далолат беради.

Туркистон генерал-губернаторлигида рус-тузем мактаблари ўқитувчисининг нуфузи унинг маҳаллий амалдор аҳоли вакиллари фарзандларини ўз мактабига жалб қилиш билан ҳам белгиланарди[14]. Бухоро амирлигидаги рус-тузем мактаби ўқитувчилари ҳам бу ишни амалга оширишга интилишган. Буни Эски Бухоро рус-тузем мактабида таълим олган аҳоли фарзандларининг ижтимоий келиб чиқиши хусусида К.Бухариннинг Халқ билим юртлари Самарқанд инспектори номига йўллаган мактубидан билиб олиш мумкин. *“...шаҳарнинг турли қисмларидан мактабга етиб келиш узоқлиги сабабли мактабда асосан унга яқин жойларда яшовчи савдо аҳли фарзандлари таълим олишади. Улар ҳам мактабда бор-йўғи бир ёки бир ярим йил давомида ўқийдилар. Аммо шаҳардаги амалдор фарзандларининг вақти кўп бўлгани ва мактабда тўлиқ таҳсил олиш имкониятига эгалигидан келиб чиқиб, мактабни амалдорлар яшовчи Хиёбон, Жўйбор ва Регистон гузарларига кўчириш кераклигини билдираман”[15].* Бу маълумотлар Эски Бухоро рус-тузем мактаби амирликнинг қуйи аҳоли қатлами болаларига эмас, балки амалдорлар фарзандлари учун мўлжаллаб ташкил этилганини яна бир бор исботлайди.

Эски Бухоро рус-тузем мактабини Хиёбон, Регистон ва Жўйбор гузарларига кўчириш масаласи сиёсий агентлик ва амирлик ҳукумати ўртасида 1912 йил июль ва август ойларидаги ўзаро ёзишмаларда ўз аксини топган. Жумладан, Мирзо Насрулло-бий кўшбеги амирлик ҳукуматининг мазкур масалага оид муносабатини сиёсий агентлик бошқарувчиси номига йўллаган 1912 йил 21 август санасидаги №1554 рақамли жавоб мактубида қуйидагича баён этади:

“Ҳурматли Сиёсий агентлик бошқарувчиси жаноблари! Сизнинг 1912 йил 4 августдаги Эски Бухоро рус-тузем мактаби ўқитувчисининг илтимоси баён этилган №3968 рақамли мактубингиз қабул қилинди. Унга жавобан қуйидагиларни маълум қиламан. Хиёбон гузарида жойлашган бино шаҳардан узоқда ва қолаверса, у қабристон яқинида жойлашган. Бино қурилишлари вайрона ҳолатида бўлиб, бир неча йилдан бери унда ҳеч ким яшамайди. У ер ўқувчилар учун узоқ ва мактаб учун мўлжалланмаган. Ҳайдархोजи бу бинони кўздан кечиргандан сўнг, менинг фикрларимни тасдиқлайди деб ўйлайман”[16].

Мактубни таҳлил этиш натижасида кўшбеги назарда тутган бино амирлик ҳукумати тассаруфидаги Бародбек ҳовлиси эканлиги, Ҳайдархोजи эса асли Мирбадалов Ҳайдархोजи бўлиб, у сиёсий агентликдаги Бухоро амирлиги девонхонаси бошқарувчиси лавозимидаги шахс эканлиги аниқланди. Ўзаро ёзишмалардан Эски Бухоро рус-тузем мактаби ўқитувчиси К.Бухарин Ҳайдархोजи билан бирга мактабни шаҳарнинг Муҳаммад Қосим гузарида жойлашган бир бинога кўчириб ўтишни режалаштиргани маълум бўлди. Аммо бу тадбир ҳам ўз мақсадига эришмаган ва натижада амирлик ҳукумати мактаб биносида ҳар йилги таъмирлаш ишларини амалга оширади.

Сиёсий агентликнинг амирлик ҳукумати ва Эски Бухоро ҳамда Чоржўйдаги рус-тузем мактаби бошқарувчилари билан олиб борган ўзаро ёзишмаларида амирлик ҳукумати мактабларга бино ажратиш ва уларни ҳар йили таъмирлашни ўз ҳисобидан амалга оширгани хусусидаги маълумотларни ҳам учратишимиз мумкин. Жумладан, Эски Бухоро рус-тузем мактабини таъмирлашга оид ёзишмаларга кўра, амирлик ҳукумати мактабни маълум муддат эски элчилик уйида жойлаштиришга рухсат берганини кўришимиз мумкин. Фикримизнинг исботи Мирзо Насрулло-бий кўшбегининг 1914 йил 20 октябрда сиёсий агентлик бошқарувчиси номига йўллаган №2611 рақамли мактубида баён этилган. Унда қуйидагиларни ўқиймиз:

“Ҳурматли Сиёсий агентлик бошқарувчиси жаноблари! Сизнинг 1914 йил 16 октябрдаги №3968 рақамли мактубингизга жавобан амирлик ҳукумати Эски Бухоро рус-тузем мактабини таъмирлаш даврида мактаб ўқитувчиси ва ўқувчиларига ўз фаолиятини мактаб яқинидаги эски элчилик уйида давом эттиришига рухсат берилганини билдираман”[17].

Амирлик ҳукуматинининг бу тадбири натижасида мактаб таъмирлаш ишлари даврида тегишли биносига эга бўлади. Эски Бухоро рус-тузем мактаби ўз фаолиятини 1918 йил март ойида тўхтатади. Мактаб жиҳозлари 1919 йилда эски Бухородаги темир йўл ходимлари фарзандлари учун очилиши режалаштирилган мактабга тақдим этилган.

Сиёсий агентлик мактубларини ўрганиш шуни кўрсатдики, Эски Чоржўй рус-тузем мактаби биноси ҳам амирлик ҳукуматининг тегишли кўрсатмаси асосида Чоржўй беги томонидан ажратилган. Мактаб Эски Чоржўйдаги амирлик ҳукуматига тегишли Отахўжа Фозилхўжа ҳовлисида жойлашган эди. Ушбу бинони дастлабки таъмирлаш, мактаб учун керакли буюм ва ўқув анжомлар билан таъминлаш мақсадида амирлик ҳукумати 4000 рубл миқдорида маблағ ажратади. Мактабдаги ҳар йилги таъмирлаш ишлари бевосита Чоржўй беги томонидан амалга оширилган. Мазкур масалага оид дастлабки мактуб сиёсий агентлик бошқарувчиси томонидан 1916 йил 13 августда амирлик ҳукумати номига йўлланади. Мазмун қуйидагича:

“Ҳурматли Мирзо Насрулло-бий кўшбеги! Чоржўй ҳарбий бошлигининг сиёсий агентлик номига йўллаган 1916 йил 8 августдаги №2865 рақамли ҳисоботида Эски Чоржўй рус-тузем мактабида ҳар йил ўтказилиши керак бўлган таъмирлаш ишларини олиб бориш кераклигини билдирди. Бу тадбир билан боғлиқ барча харажатлар Чоржўй беги томонидан амалга оширилишини инобатга олиб, Сиздан ҳурматли кўшбеги жаноблари тез орада рус-тузем мактабида таъмирлаш ишларини олиб бориш тўғрисида Чоржўй бегига тегишли кўрсатма беришингизни сўрайман. Сизга соғлиқ ва Амир ҳазратларининг марҳаматини тилаб, жавобингизни кутиб қоламан. Сиёсий агентлик бошқарувчиси: (имзо)

Кўшбеги ҳужжатлари орасида ушбу масаланинг амирлик ҳукумати томонидан ижобий ҳал этилганини тасдиқловчи мактуб мавжуд. Унда қуйидаги фикрлар баён этилади:

“Ҳурматли Янги Бухородаги Россия императори сиёсий агентлик бошқарувчиси жаноблари! Сизнинг 13 августдаги №7415 рақам Эски Чоржўй рус-тузем мактабида таъмирлаш ишларини олиб бориш зарурати хусусидаги мактубингиздан келиб чиқиб, Чоржўй бегига ушбу фаолиятни амалга

ошириш кераклиги тўғрисида тегишли кўрсатма берилди (Мирзо Насрулло-бий қўшбегининг №2085 рақамли мактуби 1916 йил 1 сентябрь)[18].

Ёзишмалар мазкур масала 1917 йил сентябрь ва октябрь ойларида ўзаро алмашилган мактубларда ҳам баён этилганини тасдиқлайди. Агар Эски Чоржўй рус-тузем мактабидаги таъмирлаш ишлари бек зиммасига юклатилган бўлса, бу фаолият эски Бухородаги мактабда қўшбеги тамонидан махсус тайинланган Мирзо Ашраф ва Мирзо Алихўжа жевачилар иштирокида амалга оширилган.

Бухоро амирлигида фаолият юритган рус-тузем мактаблари билан бирга рус тилини ўргатиш курслари ҳам ташкил этилади. Бу каби курсларни ташкил этиш масалалари бевосита амирлик маъмурияти рухсати билан йўлга қўйилган. Амирликдаги бундай курслар Чоржўйда ташкил этилган эди.

Эски Чоржўй почта-телеграф бошқармаси ходими Александр Салочаев 1911 йил 5 декабрь кuni рус тилини ўргатиш курслари фаолиятига рухсат беришни сўраб сиёсий агентликка мурожаат қилади. Сиёсий агент эса бу масалани кўриб чиқиш учун Бухоро амирлиги қўшбегисига мурожаат қилади. Қўшбеги ўз навбатида Чоржўй бегига беклик ҳудудида рус тилини ўрганиш истагини билдирган шахсларни аниқлаш тўғрисида кўрсатма беради. Шундан сўнг қўшбеги 1912 йил 12 январда сиёсий агентликка хат билан мурожаат қилади.

Унда Александр Салочаев Чоржўйдаги телеграфист бўлиб ишлаши баробарида яхудий ва эронлик савдогарларнинг хоҳиши билан ҳар бирдан 5 рубль миқдордаги тўлов эвазига рус тилини ўргатаётганини билдиради. Шу билан бирга, Бухоро амирлиги маъмурияти Александр Салочаевнинг рус тилини ўрганишни хоҳловчиларга дарс беришига қарши эмаслиги, аммо дарслар кечки пайтда эмас, балки кундуз кuni ўтказилиши мақсадга мувофиқ бўлишини таъкидлайди[19].

Сиёсий агент қўшбегининг жавоб хатидан келиб чиқиб, Чоржўй ҳарбий бошлиғига амирлик маъмурияти Александр Салочаевнинг маҳаллий аҳолига рус тилини ўргатишига қарши эмаслигини, аммо дарслар кундуз кuni ўтказилиши қулай бўлишини билдиради[20]. Бундан шундай хулоса қилиш мумкинки, амирлик ҳудудида рус тилини ўргатиш курсларини ташкил этишга рухсатни амирлик маъмурияти берган. Амирликдаги Янги Бухоро (Когон), Янги Чоржўй, Карки ва Термиз каби рус манзилгоҳларида черков (приходной), тижорат билим юртлари, прогимназия ва гимназиялар ташкил этилади. Бу каби таълим муассасалари фаолияти асосан империя таълим тизими ва тартибига асослангани боис, ёзишмаларнинг аксарияти амирлик ҳукуматининг ушбу ўқув юртларига бир марталик маблағ ҳамда бино қурилиши учун жой белгилаш масалаларига таъллуқли эди.

Хулоса. Юқорида баён этилган фикрлар асосида қуйидаги хулосаларни билдириш мумкин:

Сиёсий агентлик ва амирлик ҳукумати ўртасида олиб борилган ёзишмалар асосида XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоро амирлигининг маҳаллий аҳолиси истикомат қилган Эски Бухоро ва Эски Чоржўй шаҳарларида рус-тузем мактаблари ҳамда рус тилини ўрганиш курслари фаолият олиб борган. Янги Бухоро (Когон), Янги Чоржўй, Карки ва Термиз каби рус манзилгоҳларида ҳам черков (приходной), тижорат билим юртлари, прогимназия ва гимназиялар ташкил этилган.

Бухоро амирлигида рус-тузем мактабини ташкил этиш ва фаолиятини йўлга қўйиш масалаларида империя маъмурлари амирлик ҳукумати вакиллари билан муносабатга киришган. Мактабни ташкил этишнинг муҳим шарти ҳисобланган мусулмон ўқитувчини танлаш ва мактабга ўқувчилар қабул қилиш, маҳаллий аҳоли вакилларига рус тилини ўргатиш курсларини ташкил этиш масалалари ўзаро ёзишмалар орқали амалга оширилган.

АДАБИЁТЛАР:

1. Муминов И.М. Ўзбекистондаги тиббий-илмий ва ижтимоий-фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар (IX асрдан XX асрнинг бошларигача). – Тошкент: Фан, 1999. – Б.166.
2. Ўзбекистон Миллий архиви (кейинги ўринларда – Ўз МА), И-3-фонд, 1-рўйхат, 79-ийгмажилд, 51-варақ.
3. Ўз МА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 79-ийгмажилд, 52-варақ.
4. Туркистон ўлкаси ўқув юртларининг бош инспектори – 1875 йилда Туркистон генерал-губернаторлиги ҳузурида Халқ маориф вазирлигининг тавсияси билан тайинладиган билим юртлари бош инспектори лавозими жорий қилинади. Бош инспектор ўлка бошлиғи ҳузурида фуқаролик ўқув муассасалари устидан назорат бўйича асосий ёрдамчи саналган. Унинг зиммасига барча ўқув бўлими ишларини бажаришдан ташқари, ўқув маҳкамаси хизматчиларининг ўз вазифаларини тўғри ва ҳалол бажаришини назорат қилиш, ўқув муассасаларида педагогик, маъмурий ҳамда хўжалик бўлимлари бўйича умумий ва хусусий низомлар ҳамда қоидалар ижросининг назорати юклатилган. Қаранг:

Қодиров Н.Н. Туркистон ўлкасидаги рус таълим муассасалари тарихи (1867-1917 йй.). – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2014. – Б.67.

5. Ўз МА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 79-йиғмажилд, 53-, 57-варақлар.
6. Ўз МА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 79-йиғмажилд, 63-варақ.
7. Ўз МА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 262-йиғмажилд, 3-варақ;
8. Масалан А.А.Калинин Тошкентдаги 2-рус-тузем мактабида, Д.А.Сташков эса Самарқанддаги 2-рус-тузем мактабида фаолият юритган. Қаранг: ЎзР МДА И-3-фонд, 1-рўйхат, 79-йиғмажилд, 59-варақ; И-3-фонд, 1-рўйхат, 475-йиғмажилд, 25-варақ.
9. Ўз МА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 79-йиғмажилд, 88-варақ.
10. Ўз МА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 79-йиғмажилд, 90-91-варақлар.
11. Открытие русско-туземной школы в Бухаре // Туркестанские ведомости, 1894. 5(27) декабрь №91.
12. Ўз МА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 475-йиғмажилд, 2-варақ.
13. Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь. – Ташкент: Электрическое. Типо-лит “Туркестанские ведомости Печатного Дела”, 1913. – С.111.
14. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1917 гг.). – Москва: Изд-во Акад. пед. наук РСФСР, 1960. – С 197.
15. Ўз МА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 400-йиғмажилд, 21-варақ.
16. Ўз МА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 400-йиғмажилд, 110-варақ.
17. Ўз МА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 475-йиғмажилд, 13-варақ.
18. Ўз МА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 929-йиғмажилд, 256-варақ.
19. Ўз МА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 400-йиғмажилд, 6-варақ.
20. Ўз МА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 400-йиғмажилд, 8-варақ.

XIX АСРНИНГ ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА БОЖХОНАЛАР ФАОЛИЯТИ

Очилдиев Файзулла Бобоқулович,

Ўзбекистон Миллий университети профессори, т.ф.д,
fayzullaochildiev@gmail.com

Аннотация. Мақолада XIX асрнинг охири – XX аср бошларида Бухоро амирлигида божхона тизими фаолияти, амирлик божхонасининг Туркистон божхона округига бўйсундирилиши ҳамда Бухоро-Россия ўртасида тузилган шартномада савдо-сотиқ ишларига доир маълумотлар таҳлил қилинган. Шунингдек, Бухоро амирлигининг Россия божхона таркибига қиритилиши, Келиф, Керки, Патта-Кесар, Бассарга, Чўчка-Гузар, Айваж, Сарой, Чубек ва Богорак божхона бўлимларининг ташкил этилиши ва уларнинг ишлаш тартиби каби масалалар ёритилган.

Калит сўзлар: Бухоро, амирлик, Туркистон, Россия, Ўрта Осиё, Афғонистон, Айваж, Пандин, Карки, Калиф, Чўчка-гузар, Патта-Кесар, Сарой, Чубек, божхона, закат, савдо, маҳсулотлар.

ТАМОЖЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX — НАЧАЛЕ XX ВВ

Аннотация. В статье анализируется деятельность таможенной системы Бухарского эмирата в конце XIX – начале XX вв., подчинение таможи эмирата Туркестанскому таможенному округу, а также сведения о торговле и коммерции в договоре, заключенном между Бухарой и Россией.

Также были освещены такие вопросы, как официальное включение Бухарского эмирата в таможенную систему России, создание Келифского, Керкинского, Патта-Кесарского, Бассаргинского, Чушка-Гузарского, Айваджского, Сарайского, Чубекского и Богорацкого таможенных управлений и порядок их работы.

Ключевые слова: Бухара, эмират, Туркестан, Россия, Средняя Азия, Афганистан, Айвадж, Пандин, Карки, Калиф, Чочга-гузар, Патта-Кесар, Сарай, Чубек, таможня, закат, торговля, продукты.

CUSTOMS ACTIVITIES IN THE BUKHARA EMIRATE IN THE LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURIES

Abstract. The article analyzes the activities of the customs system of the Bukhara Emirate in the late XIXth and early – XXth centuries, the subordination of the emirate's customs to the Turkestan Customs District, as well as information about trade and commerce in the agreement concluded between Bukhara and Russia.

Issues such as the official inclusion of the Bukhara Emirate in the Russian customs system, the creation of the Kelif, Kerki, Patta-Khisor, Bassargin, Chushka-Guzar, Aivaj, Sarai, Chubek and Bogoratsky customs departments and their operating procedures were also covered.

Key words: Bukhara, Emirate, Turkestan, Russia, Central Asia, Afghanistan, Aywaj, Pandin, Karki, Calif, Chochga-Guzar, Patta-Kesar, Sarai, Chubek, customs, zakat, trade, products.

Кириш. Ўрта Осиёда (Туркистонда) дастлабки божхоналар 1868 йил 29 январда Россия империясининг Қўқон хонлиги билан савдо битими имзолагандан сўнг ташкил этилди. Шундан сўнг (1868 йилдан бошлаб) Оренбург ва Ғарбий Сибир божхона чизиқлари тугатилди. Кейинчалик, 1881-йилда “Божхона назорати тўғрисида” Низом қабул қилинди. Унда Хитой, Афғонистон, Эрон, Бухоро амирлиги ва Хива хонликларида Туркистонга савдо маҳсулотларни олиб кириш қоидалари белгиланди[1]. 1894 йил 6 июндаги қонун билан алоҳида Каспийорти округи ташкил этилди. Бухоро амирлиги божхонаси эса Туркистон божхона округи бошлиғига бўйсундирилди[2]. Каспийорти божхона округи Бухоро амирлиги, Хива хонлиги, Туркистон ўлкаси, Афғонистон, Ҳиндистон ва Эрондан олиб келинадиган барча савдо маҳсулотларини назорат қилиган.

Асосий қисм. 1881 йил Россия ҳукумати томонидан “Божхона назорати тўғрисида”ги Низом қабул қилингандан сўнг, 1882 йилга келиб, Сирдарё вилоятида 19 та, Зарафшон округида 5 та ва бўлими чегараларида 3 та рус божхона пунктлари ташкил этилди. 1886 йилга келиб эса “Туркистон ўлкаси божхона

қисмини ташкил этиш тўғрисида” қонун қабул қилиниб, Жиззах, Каттакўрғон, Самарқанд ва Фарғонада божхона бўлимлари фаолият юрита бошлади[3]. 1895 йил 1 январдан бошлаб Бухоро амирлигида фаолият олиб борган ташқи (Афғонистон билан чегара қисми) божхона бўлимлари Россия империяси божхона тизимига ўтказилди.

1873 йил 23 сентябрда Шахрисабзда Бухоро амири Музаффар ва Туркистон генерал-губернатори Кауфман ўртасида шартнома имзоланди. Бу йилги шартноманинг 6-моддасида рус савдогарлари Россиядан Бухорога келаётган ёки Бухородан Россияга кетаётганда барча турдаги маҳсулотлардан 2,5% миқдорда закот олиш белгиланган. Ушбу шартномада россиялик савдогарларга ҳам маҳаллий (мусулмон) савдогарларга берилган ҳуқуқ берилган. Амирликда рус савдогарларидан закотдан бошқа бирон бир қўшимча солиқ ва йиғимлар ундирилиш тақиқланди. Шартноманинг 7-бандида рус савдогарларига амирлик ҳудудидан қўшни давлатларга савдо маҳсулотларини божсиз олиб ўтиш ҳуқуқи берилди[4]. Сулҳ шартларининг тўртинчи шartiда рус савдогарларига ўз хоҳишлари билан Бухоро амирлиги ҳудудидаги шаҳарларда ўзларининг қарвонбошилари бўлишларига ва қарвонсаройлар қуришга рухсат берилди. Ўз навбатида бухоролик савдогарларга ҳам Россия ҳудудида русларга берилган ҳуқуқлар берилди. Бешинчи шartiда, Россия ҳудудидан Бухорога келадиган ва ундан чиқиб кетадиган барча турдаги маҳсулотлардан Туркистон ўлкасида олинадиган миқдорда, яъни маҳсулотнинг умумий қийматидан 2,5 фоиз миқдорида солиқ олиниши кўрсатилиб ўтилган[5].

1893-1894 йилларда Санкт-Петербургда божхоналар бирлашмасини ташкил этиш масаласига доир кенгаш ўтказилди. Бу кенгаш қарорлари асосида Молия вазирлиги билан ҳамкорликда Туркистон ўлкаси генерал-губернатори А.В. Вереvский Ўрта Осиёда янги божхона тузилмаларини ташкил этишга бағишланган экспедиция ташкил қилинди. Ушбу экспедиция Бухоро амирлиги ва Хива хонлиги чегараларини кўздан кечириш ва божхона пунктлари учун қулай бўлган жойларни топишни мақсад қилган[6]. 1894 йил ёзида Россия матбуотида божхонанинг Самарқанддан Янги Бухорога кўчирилиши, Ашхобод ва Калифда божхоналар ташкил этиш тўғрисида хабарлар пайдо бўлди. Натижада 1895 йил 1 январдан расман Бухоро амирлиги ҳудудида Бухоро, Калиф, Керки, Патта-Кесар божхоналари, Бассарға, Чушка-Гузар, Айваж, Сарой, Чубек ва Боғорак божхона постлари тармоғи ташкил қилинди[7]. (амирликда божхоналарни ташкил этиш 1895 йил 1 январдан фаолият бошлаган бўлса-да, уларни ташкил этиш масаласи анча олдин маълум бўлганди). Ташкил қилинган божхоналарнинг вазифаси маҳсулотларнинг ҳар қандай кўринишда: маҳсулот, пул, қимматли қоғозлар, қимматбаҳо буюмлар, қурол-яроғ ва бошқаларни назорат қилишдан иборат бўлган.

Давлат кенгаши томонидан тасдиқланган қарорининг II бандида ҳар бир божхона ишчи ходимлари таркиби ҳам кўрсатилган. Унга кўра бошқарувчи ва унинг икки аъзоси (улардан бири ғазначи вазифасини бажарган), ҳисобчи ва бож йиғувчи (у божхона котиби ҳам бўлган), омбор назоратчиси ва унинг икки нафар ёрдамчисидан иборат бўлган. Божхона бошлиғига барча турдаги маҳсулотларни божхона ичкарисига олиб кирилишини назорат қилиши, контрабанданинг олдини олиши ва ноқонуний олиб қирилган маҳсулотларни мусодара қилиш, тақиқланган маҳсулотларни (жумладан, спиртли ичимликлар, тамаки ва бошқалар) олиб кириш ҳамда сотилишига йўл қўймаслик каби вазифалар юклатилган.

Россия ҳукумати томонидан ташкил этилган янги божхона бўлимлари учун алоҳида йўриқнома ишлаб чиқилган бўлиб, Осиё мамлакатларидан (асосан Афғонистондан) Россия, Бухоро ва Хивага олиб кирилиши ва мамлакатдан олиб чиқилиши тақиқланган маҳсулотлар рўйхати илова қилинган. Бу рўйхатга афюн, гиёҳванд моддалар ва уларни чекиш учун мосламалар, қурол-яроғ, ўк-дорилар, ароқ, ширинликлар, шакар сироплари, Россия ҳамда чет эл мис ва қумуш тангалари киритилган[8].

1895 йилдан сўнг Шарқий Бухорода ҳам божхона хизмати ўз фаолиятини бошлаган бўлиб, Россия қоидалари асосида ташкил этилганди. Шунинг учун ҳам божхонадан маҳсулот (юк) олиб ўтувчи савдогарларнинг деярли барчасида божхонадан олиб ўтиш ҳужжатига эга бўлмаган. Чунки Шарқий Бухорода бу янгилик билан савдогарларнинг кўпи таниш бўлмаган. Шу сабабли, Шарқий Бухоро божхонасида бошқа ҳудудлардан келтирилган маҳсулотларни ички бозорларга олиб ўтиш ҳужжатига эга бўлмаган савдогарлар тез-тез учраб турган. Россия божхона қоидаларига кўра, маҳаллий ишлаб чиқарилган маҳсулотларни божсиз (ҳужжатсиз) олиб ўтишга рухсат берилмаган. Маҳсулотларга ҳужжат божхона идоралари томонидан берилган. Архив ҳужжатларида Сарой қишлоғи божхонаси ходимлари томонидан "Туркистон божхона округи бошлиғига маҳаллий аҳоли томонидан ишлаб чиқилган маҳсулотларга кўрсатма беришни сўрагани келтирилган. Унда савдогарларга гувоҳномалар бериш ва улар томонидан етиштирилган зиғир, зиғир ва кунжут уруғлари каби қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотларини Саройдан Карки ва Бухорога олиб кетаётганда Амударё бўйлаб пастда жойлашган божхоналар томонидан ушлаб қолинмаслиги ва бож тўлашга мажбур қилинмаслиги учун кўрсатма бериш сўралган[9]."

Бухоро амирлиги ягона божхона тизимига тортилгандан сўнг янги божхона сиёсатининг самарадорлиги пасайиб, бир қатор муаммолар гирдобда қолди. Асосий муаммолардан бири шундан иборат эдики, Россия давлат кенгашининг тасдиқланган қарори ҳамда Бухоро ва Хива билан тузилган шартномаларда Бухоро амирлиги чегараларида рус божхоналарини ташкил этишни назарда тутган, аммо бу ҳудудда илгари мавжуд бўлган назорат ўтказиш пунктларини бутунлай тугатишни кўзда тутмаганди. Бундан ташқари, илгари мавжуд бўлган "закот" деб аталган савдо солиғи жойлардаги йиғувчиларнинг келишув шартларига кўра ундирилиши сақланиб қолганди. 1880 йилларда Бухоро амирлигига ташриф буюрган европалик сайёҳларнинг маълум қилишича, 1870-1880 йилларда Бухоро амирлигида бир қатор божхона постлари (чегарада, Амударё бўйида, Тош-Қўрғонда ва Бухоронинг чекка ҳудудларида) мавжуд бўлиб, у ерда амир амалдорлари томонидан амирликка олиб келинган савдо моллари ва бошқа мулклардан закот ундирганлар[10].

Амирлик божхона чегарасига киритилгандан сўнг, Бухоро амири ва унинг амалдорлари даромад манбаи саналган "закот"дан воз кечолмаган, аксинча, иккала савдо қилувчи томон ҳам тўлов олишга ҳаракат қилган. Натижада, Россия божхона постлари билан бир қаторда, ўша жойларда маҳаллий "закотчи"лар ҳам фаолият юритган ва бир хил маҳсулотга амалда икки марта божхона солиғи солинган. Божхона бирлашмасидаги бу муаммо кўп йиллар ўтса ҳам сақланиб қолинди. Масалан, 1910 йилда Туркистон генерал-губернатори П.И. Мищенко махсус йиғилишда Бухоро амирлигида "ички божхона" мавжудлигини таъкидлаб, улар, ҳатто, Россия маҳсулотларидан ҳам йиғимлар олишини баён қилган[11].

Туркистон ўлкасига қўшни саналган Бухоро амирлиги Ўрта Осиёга тарқатиладиган чойнинг асосий импортчиси ҳисобланган. Бироқ, амирликдаги оғир савдо шароитлар ва Бухоро маъмуриятининг савдодан закот йиғишдаги ўзбошимчалиги туфайли, савдогарлар Россия ҳукуматидан Туркистон ўлкаси учун Самарқанд шаҳрида божхона ташкил этишни сўрашга мажбур бўлганлар. Кўпчилиқ савдогарларнинг эътирозлари инobatга олиниб 1902 йилда Самарқанд божхона бўлими ташкил этилди. Бу эса Бухоро божхонасининг Ўрта Осиё минтақасидаги аҳамиятини пасайтириб юборди[12].

Ягона божхона иттифоқи баъзи бир муаммоларга қарамай, Россия учун фойдали бўлди дейиш мумкин. Биринчидан, Россия тadbиркорларига Бухоро амирлигида савдо қилиш учун катта имтиёзлар берилди. Бу эса уларга амирликдаги фаолиятларини сезиларли даражада кенгайтириш имконини яратди. Айрим хориж маҳсулотларига юқори миқдордаги божларнинг жорий қилиниши ва бошқаларини олиб кирилишига қўйилган тақиқ Ўрта Осиё бозорларини Россия маҳсулотлари билан тўлдириш имконини берди. XX аср бошларига келиб амирликка келтирилган хориж маҳсулотларининг 95 фоиздан ортиқ қисми Россия саноатида ишлаб чиқарилган маҳсулотлар ташкил этган. Шунингдек, Бухоро божхоналари орқали Россиядан келтирилган маҳсулотлардан олинган божхона йиғимлари йилига 1-1,2 миллион рублга етган.

1894 йилда ягона божхона тизимининг жорий этилиши амалда Бухоро амирлигининг Шарқий Бухородаги савдо мустақиллигига барҳам берди. XIX аср охирига келиб, бу ҳудудлар орқали хориж мамлакатлари билан олиб бориладиган савдо йўллари тўлиқ Россия ихтиёрига ўтди. Шу тариқа ушбу ҳудуддаги истеъмол бозорларидаги рақобат Россия фойдасига ҳал қилинди. 1895 йилда Россия ва Афғонистон чегарасида божхона назоратининг жорий этилиши икки давлат ўртасидаги савдо ривожига ижобий таъсир кўрсатди. Масалан, Россиядан Афғонистонга экспорт қилинган "гули" номи чит нархи дастлаб 1 пуди 30 рублгача баҳоланган бўлса, 1895 йилда 5 рубль 40 тийинни кейинчалик 6 рубль 40 тийинни ташкил этган. Натижада, асосан аёллар қўйлаги ва шалварлари учун ишлатиладиган мазкур читлар Афғонистонда нархи 16% га арзонлашган. "Гули" читидан ташқари, Афғонистонга Асафа Баранова фабрикасида ишлаб чиқарилган "альван" номи қизил пахта мато экспорт қилинган[13]. Бухоро амирлиги ўзининг сиёсий мустақиллигини 1868 йилда йўқотган бўлса, 1895 йилга келиб иқтисодий мустақиллигидан ҳам маҳрум бўлди. Юқорида қайд этилганидек, 1895 йилдан Бухоро-Афғонистон чегарасида Калиф, Чўчкагузар, Патта-Кесар, Айваж каби рус божхона бўлимлари очилди. Шундан сўнг Афғонистондан баъзи инглиз маҳсулотларини Бухоро амирлигига олиб кириш тақиқланди ва қолганлари учун катта миқдорда бож белгиланди[14].

Карки, Калиф, Чўшка-гузар, Патта-Кесар, Айваж, Сарой, Чубек, Пендин божхона пунктлари орқали 1896 йилда 28 минг 254 пуд юк, жами сўммаси 884 минг 871 рубллик, 1900 йилда 31 минг 661 пуд юк, 890 минг 695 рубллик, 1904 йилда 94 минг 30 пуд юк, яъни 1 млн 544 минг 158 рубллик рус маҳсулотлари амирлик орқали Афғонистонга олиб кирилган. Маҳсулотларнинг асосий қисмини пахта матолари, метал буюмлар, оққанд каби рус маҳсулотлари ташкил қилган. Карки, Калиф, Чўчка-гузар, Патта-Кесар, Айваж, Сарой, Чубек, Пендин божхона идоралари орқали Афғонистондан Россияга 1896 йилда 538 минг 910 пуд юк, жами баҳоси 2 млн 159 минг 927 рубллик, 1900 йилда 406 минг 720 пуд

HISTORY

юк, 2 млн 120 минг 841 рубллик, 1904 йилда 485 минг 42 пуд юк, жами баҳоси 2 млн 763 минг 741 рубллик жун ва тери маҳсулотлари, қуритилган мева, пахта, чорва моллари экспорт қилинган[15].

Бухоро амирлигининг ташқи савдо алоқаларини олиб боришда Айваж божхона бўлимининг ҳам ўрни муҳим роль ўйнаган. 1896-1904 йилларда Афғонистондан Айваж божхонаси орқали Бухоро амирлигига олиб кирилган маҳсулотлар кўрсаткичларини куйидаги жадваллардан кўриш мумкин.

Маҳсулотлар	1896-йил	1900-йил	1904-йил
Қоракўл ва тулки терилари	519 пуд	70 пуд	290 пуд
жун	23 пуд	28 пуд	896 пуд
Тери маҳсулотлари: а) Катта ҳажмдаги ишланмаган терилар, эчки ва қўй терилари	400 пуд	1703 пуд	1428 пуд
б) Ишланган майда терилар (меша)	6 пуд	1 пуд	-
Қуритилган мевалар	2 минг 887 пуд	2 минг 601 пуд	3 минг 969 пуд
Кунжут ва зиғир	21 минг 286 пуд	40 минг 762 пуд	27 минг 157 пуд
пахта	1 минг 063 пуд	16 минг 633 пуд	4 минг 516 пуд
жундан ишланган маҳсулотлар	-	14 пуд	-
жун гиламлар	1 пуд	1 пуд	-
Йирик ва майда чорва моллари	926 дона	-	9 минг 400 дона
Жами қиймати рубль ҳисобида (бошқа аҳамиятсиз кичик товарлар билан бирга)	32 минг 567 рубль	112 минг 892 рубль	134 минг 583 рубль

1896-1904 йилларда Афғонистонга Айваж божхонаси орқали рус маҳсулотларининг чиқарилиши[16]

Маҳсулотлар	1896-йил	1900-йил	1904-йил
Пахта матолари	2 минг 294 пуд	922 пуд	34 пуд
Оққанд	58 пуд	-	-
Металлар ва метал маҳсулотлари (асосан чўян қозонлар ва кумғонлар)	119 пуд	191 пуд	747 пуд
Қоғоз ип (пряжа)	66 пуд	-	-
Керосин	-	-	8 пуд
Чинни идишлар	12 пуд	40 пуд	18 пуд
Ёзув қоғози	55 пуд	-	32 пуд
Стеарин шамлари	3 пуд	-	-
Жами қиймати рубль ҳисобида (бошқа аҳамиятсиз кичик товарлар билан бирга)	100 минг 839 рубль	40 минг 278 рубль	9 минг 166 рубль

XX асрнинг дастлабки йилларида Айваж божхонаси орқали 1900 йилда 26 минг 760 рубллик, 2 минг 272 пуд маҳсулотлар, 1901 йилда 5 минг 570 рубллик, 114 пуд маҳсулотлар, 1902 йилда 46 минг 79 рубллик, 1 минг 77 пуд маҳсулотлар, 1903 йилда 11 минг 112 рубллик 288 пуд мануфактура маҳсулотлари импорт ва экспорт қилинган[17]. Келтирилган маълумотлардан кўришиб турибдики, Бухоро амирлигининг Айваж божхонаси орқали Афғонистон билан амалга оширилган савдо алоқалари барқарор бўлмагани яъни баъзида камайиб, баъзида ортиб тургани кузатилади.

1904 йилда Афғонистондан Айваж божхонаси орқали амирликка 4 минг 516 пуд пахта импорт қилинган бўлиб, Термиздаги пахта заводларида қайта ишланган[18]. 1903 йилда Афғонистондан Айваж божхонасидан 7 минг 432 бош чорва моллари кириб келган бўлса, 1904 йилда бу кўрсаткич 9 минг 408 бошга етган. Аммо 1905 йилга келиб, бу рақам кескин камайиб, 385 бошни ташкил этган. Келтирилган чорва моллари асосан амирликнинг марказий шаҳарлари ва Туркистон ўлкасининг турли ҳудудларига тарқатилган[19].

1910 йилда Айваж божхонаси орқали 107 пуд пахтадан ишланган матолар, 426 пуд оққанд, 1 минг 645 пуд шакар, 18 пуд гугурт, 50 пуд атторлик моллари жами 42 минг 655 рубллик рус маҳсулотлари Афғонистонга экспорти қилинган[20]. 1912 йилда Айваж божхонаси орқали Афғонистондан 994177 рубллик, 1913 йилда 977159 рубллик, 1914 йилда 713046 рубллик маҳаллий ва хориж маҳсулотлар олиб кирилган. 1912 йилда 44184 рубллик, 1913 йилда 13377 рубллик, 1914 йилда эса 52546 рубллик[21] маҳсулотлар экспорт қилинган.

Бухоро амирлигининг сўнги йилларда олиб борган ташқи савдо алоқаларига эътибор қаратадиган бўлсак импорт қилинган маҳсулотлар ҳажми экспорт маҳсулотлар ҳажмидан сезиларли

даражада кўпроқ бўлгани кўзга ташланади. Бунда Айваж божхона бўлимининг ўрни ҳам муҳим бўлган. Шунингдек, Афғонистон ва бошқа хориждан келтирилган катта миқдордаги маҳсулотларни Бухоро амирлигига контрабанда йўли билан олиб кириш ҳолатлари учраб турган. Туркистон маъмурияти томонидан берилган маълумотларда, ҳар йили Шеробод, Термиз, Сарой, Қўрғонтепа, Қабодиён, Қўлоб ва бошқа шаҳарлар орқали Бухоро амирлигининг турли ҳудудларига, Туркистон ўлкаси ва Россияга контрабанда йўли билан йирик миқдордаги савдо моллари чиқарилганлиги таъкидланган[22].

Хулоса. Бухоро амирлиги яғоа божхона тизимига тортилгандан сўнг янги божхона сиёсатининг самарадорлиги пасайиб, бир қатор муаммоларни келтириб чиқарди. Амирликнинг яғона божхона иттифоқига киритилиши Россия тадбиркорлари учун фойдали бўлиб, Бухоро амирлиги ҳудудларида уларга эркин савдо қилиш имтиёзларини берди. Россия ҳукумати томонидан айрим хориж маҳсулотларига қўшимча божлар жорий қилинди. Натижада Ўрта Осиё бозорларида катта бўшлиқ пайдо бўлди. Амирлик бозорларида юзага муаммолар Россияда етиштирилган маҳсулотлар билан тўлдирилди. Афғонистон ва бошқа хориж мамлакатларидан олиб кирилган савдо моллари Айваж божхонасидан ташқари Пандин, Карки, Калиф, Чўчка-гузар, Патта-Кесар, Сарой ва Чубек божхона бўлимлари орқали ҳам амирликка олиб кирилган ва ташқарига чиқарилган. Бунда амирликдан импорт ҳамда экспорт қилинган савдо молларининг баҳоси ва миқдори тўғрисида маълум бир тасаввурга эга бўламиз.

АДАБИЁТЛАР:

1. Абдулвоҳидова Ф.М. *Торговые отношения в Восточной Бухаре в конце XIX и начале – XX века. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Душанбе – 2022. – С. 147.*
2. Ботиров Э. А. *Туркистон АССРда божхона иши тарихи. тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) Диссертация автореферати. Тошкент – 2025. Б – 16.*
3. Губаревич-Радобильский А. *Экономический очерк Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. / – СПб., 1905. – С.169.*
4. Губаревич-Радобильский А.Ф. *Материалы для изучения хлопководства. – СПб. 1912. Вып. II. – С.116.*
5. Губаревич-Радобильский А.Ф. *Материалы для изучения хлопководства. – СПб. 1912. Вып. II. – С.123.*
6. Губаревич-Радобильский А.Ф. *Материалы для изучения хлопководства. – СПб.1912. Вып. II. – С.121.*
7. Губаревич-Радобильский А.Ф. *Материалы для изучения хлопководства. – СПб. 1912. Вып. II. – С.132.*
8. Губаревич-Радобильский А.Ф. *Материалы для изучения хлопководства. – СПб. 1912. Вып. II. – С.126.*
9. Искандаров Б.И. *О некоторых изменениях в экономике Восточной Бухары на рубеже XIX – XX вв. – Сталинабад: АН Тадж. ССР, 1958. – С. 93.*
10. Логофет Д.Н. *Бухарское ханство под русским протекторатом. – Т. 2. СПб., 1912. – С.287.*
11. Мельников Д. А. *Район операционных путей от Термеза к Кабулу (Опыт военно-географического описания). Ташкент, 1907, – С.134-135.*
12. Очилдиев, Ф. Б. (2008). *Сурхон воҳаси бекликларидagi ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар.Т.: ABU MATBUOT-KONSALT, 168 б.*
13. Почекаев Р.Ю. *Включение Бухарского эмирата и Хивинского ханства в таможенную черту Российской империи (1895 г.) / Р.Ю. Почекаев. - журнал "Право. Журнал Высшей школы экономики", N 3, июль-сентябрь 2016. – С. 178.*
14. Почекаев Р.Ю. *Включение Бухарского эмирата и Хивинского ханства в таможенную черту Российской империи (1895 г.) / . – С. 179.*
15. Скальковский К. *Внешняя политика России и положение иностранных держав // 2-е изд., перераб. и доп. – СПб.: Типография А.С. Суворина, 1901. XVI. - 682 с.*
16. Тухтаметов Т. *Россия и Бухарский эмират в начале XX века. – Душанбе, 1977. – С. 137.*
17. Ходоров И. Е. *Очерк торговли Таджикистана. На родное хозяйство Таджикистана, Изд. Госплана ТАССР, 1926, – С.371.*
18. Юсупов Ш. *Очерки истории Кабадианского бекства в конце XIX – начале XX века. – Душанбе, 1986. – С.97.*
19. ЎзМА, И 1-жамгарма, 1-руйхат, 2076-иш, 144- орқа варақ.
20. ЎзМА, R-330- жамгарма, 1- руйхат, 28- иш, 16-варақ.

HISTORY

21. ЎзМА, II 1-жамғарма, 12-руйҳат, 1775-йил, 107-варақ.
22. ЎзМА, II 126-жамғарма, 1-руйҳат, 13131-йил, 23-варақ.
23. ЎзМА, II 2-жамғарма, 31-руйҳат, 251-йил, 29-варақ.
24. Ochidiyev, F. B. (2023). The system of government in the bukhara emirate in the late xix and early xx centuries. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(01), 46-55.

БУХОРОДА 1925-1940 ЙИЛЛАРДА ХАЛҚ ТАЪЛИМИ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИШЛАР

Бобожонова Феруза Хаятовна,

Бухоро давлат университети доценти, т.ф.н.

feruzahayatovna@mail.ru

orcid: 0000-0002-3255-2286

Аннотация. Мақолада Бухорода 1925-1940 йилларда халқ таълимини ривожлантириш йўлида амалга оширилган ишлар тўғрисида маълумот берилган. Шунингдек, совет ҳокимияти йилларида амалга оширилган таълим тизимидаги ислохотлар, мактабларнинг ташкил этилиши ва унинг коммунистик мафкура сиёсати таъсирига олинишининг оқибатлари ва натижалари, таълимдаги камчиликлар манбалар асосида илмий таҳлил қилинди.

Калит сўзлар: Бухоро, коммунистик мафкура, совет мактаблари, лотин алифбоси, таълим, мактаб, муаллимлар, бошланғич мактаб, ўрта мактаб, маориф.

РАБОТЫ, ПРОВЕДЕННЫЕ В БУХАРЕ ПО НАРОДНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ В 1925-1940 ГОДАХ

Аннотация. В статье представлены сведения о деятельности, проводившейся в Бухаре в 1925-1940 годах по направлению развития народного образования. Также на основе источников были научно проанализированы реформы системы образования, проведенные в годы Советской власти, последствия и результаты организации школ и ее влияние на коммунистическую идеологическую политику, недостатки образования.

Ключевые слова: Бухара, коммунистическая идеология, советские школы, латиница, образование, школа, учителя, начальная школа, средняя школа, образование.

WORKS CARRIED OUT IN BUKHARA ON PUBLIC EDUCATION IN 1925-1940

Abstract. The article provides information about the activities carried out in Bukhara in 1925-1940 in the direction of development of public education. Also, the reforms in the educational system carried out during the years of Soviet power, the consequences and results of the organization of schools and its influence on the communist ideological policy, educational deficiencies were scientifically analyzed based on the sources.

Key words: Bukhara, communist ideology, Soviet schools, Latin alphabet, education, school, teachers, primary school, secondary school, education.

Кириш. Ўзбекистон мустақиллик бўлгандан сўнг таълим соҳасида улкан ютуқлар қўлга киритмоқда. Яқин ўтмишга назар ташлайдиган бўлсак, совет мустамлакачилиги даврида Бухоро ҳудудида санокли таълим муассасалари бўлиб, уларнинг аксарияти талаб даражасида бўлмаган. Уларда етишиб чиқган мутахассислар мамлакат аҳолисининг жуда оз қисмини ташкил этган. Совет ҳукумати ўзбек халқи учун ёд бўлган комунистик мафкура билан миллат онгини забт этишга ҳаракат қилган.

Асосий қисм. XX аср 20–30 йилларида мамлакатимиз таълим тизими мураккаб ва зиддиятли даврни бошидан кечирди. Бу даврда совет ҳокимияти “шаклан миллий, мазмунан социалистик” маданият барпо этишга киришди. Совет давлати янги типдаги мактаблар очар экан, аввало ўзига содиқ бўлган кадрларни шакллантиришга ҳаракат қилди. Миллий ғоялар четга сурилиб, ўрнига коммунистик мафкура жорий қилинди. Совет мактабларида асосий эътибор ғоявий-мафкуравий тарбияга қаратилди.

Ўзбекистонда 1925-1940 йилларда халқ таълимини ривожлантириш йўлида катта ишлар амалга оширилди, бу ўртада икки марта (1929, 1940) алифбо алмашинувини бошдан ўтказишга тўғри келди.

1929 йил 1 декабрда Ўзбекистон араб хатидан лотин алифбосига ўтди. Лотин алифбосига ўтилиши тарихига назар ташлайдиган бўлсак, XX асрда Ўзбекистон ташкил топиши билан бу ерда шакланган миллат – ўзбеклар учун ёзма тил ишлаб чиқиш муаммоси кўтарилди. Бунга қадар ўзбеклар ҳамда унинг аждодлари араб хатига асосланган форс алифбосидан фойдаланиб келган эди. Замон

Ўзгариши, тил замонавийлашиши ва бошқа омиллар туфайли алифбони қайта кўриб чиқишга эҳтиёж туғилди.

1926 йилги Боку съездида барча туркий халқлар учун ягона лотин алифбоси жорий этилиши ҳақида қарор қабул қилинди. Қарор ижросини Ўзбекистонда таъминлаш учун бир қанча алифбо лойиҳалари илгари сурилди. Улар 1929 йил май ойида Самарқандда бўлиб ўтган имло конференциясида кўриб чиқилди. Конференцияда рус туркологлари Александр Самойлович, Лев Шчерба, қримтатар тилшуноси Бакир Чўбонзода, ўзбек олимлари Садриддин Айний, Фитрат ва бошқалар қатнашди.

1928 йилда Янги алифбо марказий қўмитаси алифбо лойиҳасини таклиф этган. Муҳокамалар натижасига кўра:

- ўзбек тилини ёзувда ифода этиш учун 34 ҳарфдан иборат лотин алифбоси қабул қилинди;
- ўзбек адабий тили қипчоқ шеваларига асосланиши белгиланди;
- ёзувда сингармонизм – унлилар уйғунлиги акс этиши, барча ўзлашма сўзлар бу қонуниятга мослаб ёзилиши тасдиқланди.

Шу тариқа янги ўзбек тили пайдо бўлди. Самарқанд конференциясида 29 банддан иборат имло қоидалари ишлаб чиқилди. 1929 йил 1 декабрдан лотин ёзувига расман ўтилди. Демак, 1929 йилдан бошлаб лотин ёзувидаги ўзбек алифбосида ўқитиш амалга оширилган. Араб имлосида савод чиқаришдан кўра лотин имлосида савод чиқариш анча осон бўлган ва кўп вақтни талаб қилмаган. Ўзбекистон ССР МИҚ 1928 йилнинг августида “Янги ўзбек ёзувига ўтиш тўғрисида” қарор қабул қилди ва янги алифбога ўтишни тугаллаш муддатини 1930 йилнинг охири деб белгилади. Мазкур тадбирнинг айна шу пайтда ўтказилиши халқимизга, шу жумладан бухороликларга ҳам жуда оғир юк бўлиб тушди. Чунки бу тадбир жуда катта маблағларни талаб этар эди. Ўша давр тақозоси билан янги ўзбек алифбосини ўрганишни истамаган кишилар эса “саводсиз” деб эълон қилинган. Саводсизликни тугатиш учун ҳаммаси бўлиб икки йилу тўрт ой вақт берилди, табиийки, бундай қисқа муддатларда буни бажариб бўлмасди. Бунинг устига, ўқитувчиларнинг етишмаслиги, мактаблар учун биноларнинг деярли йўқлиги, дарсликлар ва ўқув қуролларининг йўқлиги бу вазифани белгиланган муддатларда бажариш мумкин эмаслигини кўрсатди.

Демак, 1929 йилида ўзбек жамияти араб ёзуvidан лотин ёзувига ўтган эди. Лекин бу ёзув узок турмаган ва 5 йилдан кейин кичик ўзгариш киритилган. Лотин ёзувининг биринчи ҳаётига шу тариқа 1940 йилда хотима ясалган ва шу йилдан то мустақил Ўзбекистон даврига қадар кирилл ёзуви амалда бўлган. Шу тариқа 1940-йилнинг 8-майида Ўзбекистон ССР Олий Советининг III сессиясида кириллица графикасига асосланган ўзбек алифбоси тасдиқланди. Ушбу алифбони тўлиқ жорий этишнинг сўнгги муддати 1942-йилнинг 1-январи этиб белгиланди.

Советларнинг таълимга бунчалик катта эътибор беришининг ўзига яраша сабаблари бор эди. Аҳолининг саводини чиқариш орқали совет тузумининг афзаллигини кўрсатиш, халқни коммунистик мафкура асосида тарбиялаш, тарғибот-ташвиқот ишларини мумкин қадар кенг табақаларга етказиш, кичик миллатларнинг эътиборини қозонишни мўлжаллашган эди. Шубҳасиз, бу каби тадбирлар советларнинг халқ ўртасидаги обрўини кўтариб, уларнинг ҳокимиятини мустаҳкамлар, коммунистик ақидаларнинг кучайишига хизмат қилар эди. Бухорода 1930 йилларнинг охирига келиб 82 та бошланғич, тўлиқсиз ўрта ва ўрта мактаблар фаолият кўрсатарди.

Аннотация. В статье приведены сведения об истории Бухарской фабрики золотого шитья. Искусство золотого шитья, являющееся одной из отраслей лёгкой промышленности, уходит своими корнями в далёкие века. Родиной золотого шитья в Узбекистане считается Бухара. В частности, освещается деятельность ремесленных мастерских, артелей, цехов и фабрики, организованных в сфере золотого шитья. В начале даётся определение искусству золотого шитья. Также рассматривается деятельность Бухарской фабрики золотого шитья и достижения филиалов, созданных в районах. В производственном процессе сохранялась традиция наставничества, и описано мастерство ряда известных мастеров-золотошвейев. Продукция, выпускаемая на Бухарской фабрике золотого шитья, получила мировую известность. На данном предприятии производилось более сорока видов изделий, таких как тюбетейки, сюзане, шторы, национальные свадебные покрывала, изящно украшенные узбекскими национальными орнаментами. Пятилетние планы и ежедневные задания, установленные государством, выполнялись на 110–115 процентов. В то же время отмечено наличие работников, проявлявших халатность к своей работе. Приведённые сведения основаны на ряде литературных источников, архивных данных, материалов прессы и интервью.

Ключевые слова: Бухара, золотное шитьё, артель, текстиль, шёлковая ткань, сотрудничество, фабрика, проект, хлопок, обязательство, специалист, производство.

HISTORY OF THE BUKHARA GOLD EMBROIDERY FACTORY

Abstract. The article provides information about the history of the Bukhara gold embroidery factory. The art of gold embroidery, one of the branches of the light industry, dates back many centuries. In Uzbekistan, Bukhara is considered the birthplace of gold embroidery. In particular, the article highlights the activities of handicraft workshops, artels, production units, and the factory established in the field of embroidery. It begins with a definition of the art of gold embroidery. The article also discusses the operations of the Bukhara embroidery factory and the achievements of its branches established in various districts. The traditional master-apprentice system was preserved in production, and the skills of several renowned embroidery masters are described. Products manufactured at the Bukhara gold embroidery factory gained international fame. More than forty types of items were produced at the enterprise, including skullcaps, suzani, curtains, and national wedding bedspreads, all beautifully decorated with traditional Uzbek patterns. The five-year plans and daily tasks set by the state were fulfilled at 110–115 percent. At the same time, the article mentions workers who showed negligence in their duties. The presented information is based on various literary sources, archival materials, press publications, and interviews.

Keywords: Bukhara, gold embroidery, artel, textile, silk fabric, cooperation, factory, project, cotton, obligation, specialist, production.

Kirish. Buxoro zardo'zlikning asl vatanidir. Asrlar davomida xalq zardo'zlik san'atini, uning sir-asrorini qadrlab avlodidan-avlodga yetkazib kelgan. Hamma hunarlar o'rtasida zardo'zlik san'ati yuksak baholangan. Boshqa hunarlar singari zardo'zlar ham birlashma asosida ishlaganlar. Buxoroda zardo'zlar guzari bo'lgan. Bu guzarining nomi guzari Mirdusum. Tarixdan ma'lumki, qadimiy Buxoroning guzarlari, aksariyat unda yashovchi aholining kasb-kori nomi bilan atalgan. Xiyobon mahallasidagi Mirdo'stim guzari esa zardo'zlar nomi bilan mashhur bo'lgan hozirgi Xo'ja Funjoriy nomli mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli Mirdo'stim ko'chasi [11].

Zardo'zlik bilan erkaklar shug'ullanganlar. Hunarmandlar o'rtasida shunaqa naql bo'lgan, agar ayolning qo'li zarga tegsa zar qoralanadi deyishgan. Shunga qaramay ko'pchilik hunarmandlar o'zlarining xotin-qizlariga uylarida zardo'zlik san'atini o'rgatganlar. Zardo'z hunarmandlar shogirdlikka faqat o'g'il bolalarni olishgan. Hunarni o'rgangan o'g'il bolalar keyin "usto" nomini olib, hunarmand bo'lib ishlay boshlagan. Milliy hunarmandchilik rivojlanib borgan.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan milliy va madaniy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Shu jumladan, milliy hunarmandchilik va turizmni rivojlantirish va uni o'rganish, ayniqsa, hunarmandchilik va turizm tarixi hududimizni iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishi bilan bog'liq muammoli masalalarni tadqiq etish davr talabi darajasiga aylandi. Buxoroda milliy Zardo'zlik san'ati orqali turizmni rivojlantirish sohalariga e'tibor kuchaytirildi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot obyekti Buxoroda zardo'zlik san'atining rivojlanish uchun turtki bo'lgan jihatlar o'rganilib, Buxoro zardo'zlik fabrikasi tarixi haqida ma'lumotlar jamlandi. Asosan, matbuot materiallari va arxiv ma'lumotlaridan keng foydalanildi. Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik va izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. XIX asrda Buxoro zardo'zlik san'ati yuksak rivojlangan. Zardo'z hunarmandlar amirlarga va ularning oila a'zolariga zardo'zidan chopon, etik, salla, belbog', ayollar ko'ylagi tikib bergan. Amir Muzaffarxon (1860-1885yy) amirligi davrida Arkda ustaxona ochilib, u yerda yigirmaga yaqin usta zardo'zlar ishlagan. Amir Abdulahatxon davrida (1885-1911yy) 2 ta ustaxona bo'lib, bittasi Arkda (Qushbegi qo'l ostida) ikkinchisi Xauzi-Mirdusum guzarida tashkil etilgan. Amir Olimxon davrida (1911-1920yy) zardo'zlikka tushgan katta buyurtmalarni, "Zakotchi-kolon" ustaxonasi va yigirmadan ortiq ustaxonalar bajargan.

1920-1927-yillar davrida esa zardo'zlikka talab kamaygan. Sababi, zardo'zlikda tillarang xom-ashyo ko'p ishlatilgan bo'lib, bu xom-ashyoning narxi baland bo'lgan. Faqatgina keyinchalik zardo'zlik mehnati o'z ishini asta-sekin rivojlantirib, kooperativlar shaklida tashkil etilgan. So'ngra bir qancha sexlardan iborat artel tashkil etilgan. Unda zardo'zlik sexi ham mavjud bo'lib u yerda ustozodalardan: Abdurasul Valiyev, Omonjon Majidov, Raxmat Mirzayev, Sayfiddin Mirzayev, Sayfiddin Sa'dullayev, Fayzullo G'aybullayev va boshqalar o'z ishlarini yosh xotin-qizlarga o'rgatganlar. Asta-sekin artelda zardo'z xotin-qizlar ham ish faoliyatini boshladilar. Artelning birinchi xotin-qiz zardo'zlari B.Ahmedova, P. Hakimova, M.Kenjayeve, M.Mavlonova, M.Qodirovalardir.[1,9]

O'zbekiston SSRning tashkil etilishi bilan kolxoz va savxozlar tashkil etila boshlagan. Hududlar bo'ylab, sanoat korxonalari ham tashkil etila boshlagan. Qo'l mehnatiga asoslangan dastgohlar va milliy sanoat texnikalari o'rniga ishni unumini oshiruvchi texnikalar kirib kela boshlagan. Respublikada kolxozlashtirish, sanoatlashtirish uchun besh yillik rejalar ishlab chiqilgan. Besh yillik rejalarini bajarish uchun sanoatlashtirishda ishlar jadallashgan.

Buxoro shahrida zardo'zlik arteli 1930-yilgacha yakka tartibda faoliyat yuritgan. 1930-yildan Buxoro Zardo'zlik arteli uyushgan holda faoliyat yurita boshlagan. 1933-yil 17-avgustida hunarmandchilik ishlab chiqarish artelining "Nizomi" tasdiqlanib, uy sharoitida zardo'zlik bilan shug'ullangan hunarmandlar nizomga asosan uyushmaga birlashtirilgan.

1939-yilda Buxoro shahrida Molotov nomidagi badiiy-tikuvchilik arteli tashkil etilgan. Dastlab 67 zardo'z usta va ishchi kuchidan iborat bu artelda 50 ta yog'och dastgohi hamda 12 ta eskirgan tikuv mashinasi bilan ishni boshlagan. Xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarga sifatli mahsulotlarni tayyorlash maqsadida yuqori malakali 10-15 mutaxassislardan iborat doimiy maxsus brigadalar tuzilgan.

1954-yil 9-yanvar kuni artelning yig'ilishida 85 kishi ishtirok etib, quyidagi masalalar ko'rilgan ya'ni kooperativ sanoat artelining nizomi muhokama qilinib, zardo'zlik sexida ishlab chiqarish jarayonida sifat masalalari tasdiqlangan.[2]

Ikkinchi muhim soha bu tambur tikish sexida ishlovchi quyidagi ishchilar haqida ham ma'lumotlar berilgan: Jumayeve Saida, Hakimova Robiya, Halilova Xadicha, Vohidova Munira, Xolboyeva Fotima mazkur

ishchilar artelning doimiy a'zolari bo'lishiga qaramay, sex va artel bo'yicha belgilangan rejani muntazam bajarmagan. Shu sababli, ularni 1954-yil 12-yanvardan boshlab ishdan bo'shatish masalasi taklif qilingan. Yig'ilish artel direktori Sh. R. Raxmatova raisligida o'tgan.

Molotov nomidagi badiiy-tikuvchilik arteli 1957-yil iyun oyida "Oktabrning 40 yilligi" arteliga o'zgartirilib, Buxoro viloyat ijroiya qo'mitasi sanoat boshqarmasiga bo'ysundirilgan. 1960-yil may oyida esa ushbu artel nomi yana o'zgartirilib, "Oktabrning 40 yilligi" zardo'zlik fabrikasi deb yuritila boshlagan. 1962-yil noyabr oyidan boshlab "Oktabrning 40 yilligi" zardo'zlik fabrikasi O'zbekiston sanoat kengashi tarkibidan chiqarilib, O'zbekiston Badiiy Maishiy Xizmat Uyushmasi ta'sarrufiga o'tkazilgan va "Zardo'zlik fabrikasi" nomi bilan yuritila boshlangan. Fabrika ikki asosiy sexdan iborat bo'lgan: zardo'zlik sexi, tambur tikish sexi, poyabzal sexi, 1-brigada, 2-brigadalardan iborat bo'lgan.[3]

Tambur sexiga ta'rif beradigan bo'lsak, asosan, zardo'zlikda ishlatiladigan qadimiy tikish usullaridan biridir. Tambur ignasi maxsus ilgakli igna yordamida matoga ip tortib tushiriladi. Ushbu uslubda tikilgan naqshlar o'ziga xos noziklik va yumshoqlik bilan ajralib turgan. Tambur tikish texnikasi kashtachilik va to'qimachilik texnologiyasining vazifalari tikilgan naqshlari chiroyli va mustahkam bo'ladi, chunki ilmalar mato yuzasida bir xil tarqaladi. Tambur ignasi yordamida naqsh tushirish odatiy qo'l ishiga qaraganda tezroq bajarilgan. Ayniqsa, zardo'zlikda oltin va kumush iplar bilan ishlaganda, tambur usuli yorqin va jozibali natija bergan. Tambur tikish usul nafaqat O'zbekistonning Buxoro va Samarqand zardo'zlik an'analarida, balki Hindiston, Xitoy va Yevropaning ayrim zardo'zlik maktablarida ham qo'llanilgan. Xususan, o'zbek zardo'zlarining ipak va metall iplar bilan ishlashida tambur usuli an'anaviy sanaladi. Buxoro zardo'zlik fabrikasida ham alohida tambur sexi bo'lgan. [10] Tambur sexida o'zbek milliy naqshlarini zar tikuvchi qizlar miyoriga yetkazib, berilgan topshiriqlarni 110-115 foizga bajarishgan. Suratda tambur sexining yetakchi ustasi kunlik topshiriqlarini muddatidan oldin bajarib kelgan Robiya Boqiyeva.

"Buxoro Zardo'zlik" hissadorlik jamiyatning laboratoriya va muzeyi mudiri Muborak Ahmedovanning jurnalistga bergan javoblaridan ma'lum bo'lishicha Buxoro zardo'zligining tarixida birinchi zar tikish karbos yoki charm ustida tikilgan, keyinchalik shoyi va baxmalga tikilgan.

Xalq ustalari azaldan hunar sirlarini ustozdan o'rganib, keyin uning an'anasini boyitgan holda davom ettirgan. No'mon Aminov ham ana shunday ustoz ko'rgan zardo'z san'atkorlardan. Uni zardo'zlik san'ati sirlaridan ilk bor xabardor qilgan, bu sohaning piri, Buxoro amirligi ustaxonasida zardo'zlik bilan shug'ullangan kishi uning otasi Aminjon Majidov bo'lgan.

Zardo'zlik san'ati tarixi haqida, qadimgi ustalar haqida No'mon Aminov o'zining "Biz zardo'zlarmiz" kitobida batafsil hikoya qilib bergan. Bu kitobning yozilishiga ham otasining so'zi turtki bo'lgan. "O'g'lim, unutmanga, zardo'zlik san'ati hech qachon yo'qolmaydi, chunki bu xalq san'ati. Lekin men senga bu hunarning nimaiki sirini o'rgatgan bo'lsam, barisini kelgusi yoshlarga ham aytib bermog'ing lozim",- degan ekan otasi.[4] No'mon Aminov otasidan yaxshi saboq olgach, 1934-yil F.E.Dzerjinskiy nomidagi artelda ish boshlagan. Kichkina artel borib-borib yiriklashgan.

No'mon Aminovning hayoti va ijodiy faoliyati ana shu korxona bilan chambarchas bog'langan. Doimo yoshlarga turli maslahatlar berib kelgan. 1982-yil fabrika jamoasi tomonidan tikilgan zardo'z usullari aks ettirilgan albom tuzgan.

Fabrikasida tikilayotgan zardo'zlik ishlarida qizil, moviy, siyoh, yashil singari o'tkir ranglardan foydalanilgan. Zardo'zlar mehnati shu qadar nozikki, uni to'liq mexanizatsiyalashtirish sira mumkin emas ekan. Shuning uchun ham har bir ishda betakrorlik va o'ziga xos go'zallik aks etib turarkan.

No'mon Aminov ishlari respublikamizning ko'pgina muzeylarida saqlanmoqda. Ular turli davrlarda bajarilgan bo'lishiga qaramay, san'atkor mahoratining izchilligi, yangi uslublarning tiniqligi bilan kishini maftun etadi. Ustaning bu asarlardagi yutug'i shundaki, u hech qachon otasi o'rgatgan tajribalarda to'xtab qolmagan, o'zi ham yangi-yangi naqshlar, kompozitsiyalar ustida ishlagan. Xalq amaliy san'atining o'lmasligi, kuchi va ravnaqi ham ana shunda. Toshkentdagi Xalq amaliy san'ati muzeyida saqlanayotgan "Go'ri Amir" pannosi Samarqandning 2500-yilligiga bag'ishlangan. Bu asarda san'atkor me'moriy yodgorlikning chizmasi qora kimxobda tikilgan.

Zardo'zlik fabrikasiga 1972-yil korxonaning ixtirochilari ishlab chiqqan 17 ta qimmatli ijodiy ish qilingan. Ularning hammasi ishlab chiqarishga joriy qilinib, 4 ming so'mlik foyda olingan. Texnika nazorat bo'limi boshlig'i Gulchehra Haydarova, Matluba Boqiyeva, mohir zardo'zlar A.Qo'ldosheva, N.Sultonov, R.Imomova, M.Temirovalar fabrikaning eng yaxshi ixtirochi ratsinalizatorlari hisoblanganlar. Ular do'ppi, nimcha, oyoq kiyim va boshqa zardo'zlik buyumlarining yangi nusxalarini ijod qilib mahsulot turini ko'paytirishga sifatini yaxshilashga katta hissa qo'shganlar.[5]

Buxorodagi zardo'zlik fabrikasi davlat sifat belgisiga sazovor bo'lgan ishlar amalga oshirilgan. Buxoro viloyati tumanlarida fabrikaning filiallari ham tashkil etilgan bo'lib, o'g'il va qiz bolalar, kelin-kuyovlar kiyadigan zar do'ppi va zar belbog'lar tikilgan. Jumladan, "Madaniyat" kolxozida 1981-yildan chevar qizlari

ishlashi uchun filial tashkil etilgan. S. Ayniy nomli o'rta maktab o'qituvchisi Davronoy Nekova bitiruvchi 10-sinf qizlari bilan uchrashish o'tkazish uchun zardo'zlik fabrikasi filialiga kelib, zardo'zlarni maktabga taklif qilib ketgan. [6] O'zbekiston Kompartiyasi XX syezdi delegati zardo'z Malika Ochilova S. Ayniy nomli o'rta maktabga tashrif buyurgan. Tikuvchilikni xohlovchi qizlar bo'lsa, filialga ishga taklif qilgan.

Malika Ochilova 26 yil Buxoro zardo'zlik fabrikasida ishlagan. Fabrikada mehnat qilib, boy tajriba orttirgan. Malika Ochilova 1981-yilda qisqa muddat ichida "Madaniyat" kolxozidagi filialiga 30 nafar qizni ishga qabul qililib, ularga zar tikishni o'rgatgan. Usta va shogirdlar o'zaro musobaqa asosida ishlab, yaxshi natijalarni qo'lga kiritganlar. Gulbahor Farmonova, Farida Rajabova, Liza Hakimova, Mahbuba Saidovadek qo'li gul chevarlarning har biri oyiga 21-22 do'ppiga gulixafang tikgan. Malika Ochilova ixtiro qilgan "Chorbodom" ("o'g'il bolalar do'ppisi), "Gulixafang" (qizlar do'ppisi), "Festival" (kelin-kuyovlar uchun) do'ppilariga davlat "sifat belgisi" berilgan. Filialda shu do'ppi nusxalar tikilgan.[7]

Mashhur zardo'z Muyassar Temirova 1941-yil Buxoro viloyatining Buxoro tumanida dunyoga kelgan. Maktabni tamomlagach, Buxoro Zardo'zlik fabrikasiga ishga kirgan. Muyassar Temirova mehnat faoliyatining dastlabki paytlaridanoq kasb sirlarini puxta egallashga, zardo'zlik san'atini rivojlantirishga intilgan. U usta maqomiga yetishguncha ko'p yillar mehnat qilgan. Usta, sex boshlig'i va fabrikada bo'lim boshlig'i darajasiga erishgan. Zardo'z M.Ahmedovadan zardo'zlikning sirlarini o'rgangan. 1970-yil an'anaviy zardo'zlik buyumlari (do'ppi, to'n, kavush)ning yangi naqsh mujassamotlarini yaratgan. 1970-yil Yaponiyada bo'lgan ЭКСПО 70 ko'rgazmasida ayollarning zardo'zi libosi majmuini tayyorlab, namoyish etgan. Zardo'zlik matoga, bosh kiyimga, eshik pardalarga zarhal yoki kumush iplar bilan naqsh tushirish bo'lib, katta mehnat va sabr talab qilgan. "Sabrning tagi oltin", deganlari chin ekan. Muyassar Temirovaning sabr-u saboti va zahmatlari munosib baholangan. O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va gerbini zardo'z portretida yuksak mahorat bilan yaratgan. 1978-yil O'zbekiston xalq rassomi unvoni bilan 1995-yil O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining to'rt yilligi munosabati bilan O'zbekiston Qahramoni unvoni bilan taqdirlangan. [8]

Yurtimizda mustaqillik yillarida zardo'zlik ham asl holiga qayta boshladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslanayotgan vatanimizda sanoat korxonalariga birin-ketin moliyaviy mustallik berila boshlagan. Buxoroda Zardo'zlik fabrikasi hissadorlik jamiyatiga aylantirilgan. 1992-yil fabrika direktori B.A.Saidjonov va o'z kasbining fidoyisi bo'lgan, ishbilarmon, tashabbuskor Bahodir Abduraxmonov yetakchilik qilib, ish sur'atini oshirib borganlar.

Hissadorlik jamiyati jamoasi tomonidan betakror bir-biridan chiroyli butun ko'z nuri, mehri ila tikilgan to'nlar, qizlar xalati, ko'ylagi, do'ppi, tufli, belbog', so'zana, dasturxon, barxitni yangi nusxadagi naqshlar bilan bezatganlar. "Bahor", "Kabutar", "Amir", "Buxoroyi Sharif", "Bahouddin Naqshband", "Alisher Navoiy", "Tovus", "Ka'batullo" kabi ponolar zardo'zlik sana'ti tarixini yoritishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi. [10]

"Zardo'zlik" hissadorlik jamiyati qoshida 2 ta zardo'zlik va zargarlik buyumlarini sotuvchi do'koni bor. Bunday do'konlar Toshkent, Zarafshon shahrida keyinchalik boshqa viloyatlarda ham ochilgan.

Xulosa o'rniida aytish kerakki, Buxoro "Zardo'zlik" fabrikasida ishlangan noyob zardo'zlik kiyim-kechaklari vatanimiz tarixini dunyoga taratdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Fabrikada turli xil millat vakillari ishlashgan. Buxoro xotin-qizlari ish bilan ta'minlangan. Viloyatlardagi fabrikalar bilan doimo tajriba almashinilgan. To'qimachilik, tikuvchilik, gul bosish sohalarini bajaradigan texnologiyalarini ishlatishni o'rganish uchun xorijiy davlatlarda tajribalarini oshirishgan. Vatanimizda milliy an'ana to'y hashamlarimiz zardo'z kiyimlarisiz bo'lmaydi. Shunday ekan zardo'zlik sanati yo'qolib ketmaydi. Zardo'zlar ishi og'ir va murakkab bo'lishiga qaramay, uning katta afzalliklari borligini yaxshi bilishadi. Axir, zardo'zlarning mehnati tufayli qadimgi milliy madaniyat, katta san'at an'analari saqlanib qolinmoqda. Buxoroliklarning ko'pchiligi o'zlarining zardo'zlik ishlarini jonidili bilan sevishadi. Buxoroda zardo'zlik mahsulotlariga hamisha talab katta. Zardo'zlar esa bu bilan cheksiz g'ururlanishgan.

ADABIYOTLAR:

1. A.Norboyev // *Buxoro zargarlik san'ati. Iqtisod va hisobot 1997-yil 7-8-son 62-bet.*
2. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1153 - fond, 2 - ro'yxat, 42 - yig'ma jild, 5 - varaq.
3. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1221 - fond, 1 - ro'yxat, 2 - yig'ma jild, 12 - varaq.
4. Sovet O'zbekistoni San'ati 1982-yil №5 23-bet.
5. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). *To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni. Farg'ona davlat universiteti, (1), -B 49.*
6. Аминов Н. Биз зардўзлармиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 1981.– 55 б.
7. А.Турсунов // *Бухоро зардўзлиги тарихидан. Бухоронома 2012-йил 5-декабр, 4-bet №97*
8. Г.Фармонова // *Зар тикувчи. Бухоро ҳақиқати 1981-йил 5-май*

HISTORY

9. Гончарова П.А. Золотошвейное искусство Бухары. – Ташкент: Издательство литературы и искусство имени Гафур Гуляма, 1986. – 112 с.
10. Ж.Йўлдошев // Қишлоқ зардўзлари. Бухоро ҳақиқати 1981-йил 5-май
11. Ўзбекистоннинг маърифатпарвар аёллари I жилд Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти давлат корхонаси Тошкент 2021. –Б 39.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA KASALXONALAR VA SOG'LIQNI SAQLASH ISHLARI HOLATI

Samadov G'olibjon Zaynidinovich,

Buxoro davlat universitetining I bosqich tayanch doktoranti

g.z.samadov@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston o'lkasidagi davlat kasalxonalarini (dor ush-shifolar), tabiblar va hakimlar faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar keltiriladi. O'lkaning Rossiya imperiyasi bosqiniga va bosqinidan keyingi holati haqida ma'lumotlar beriladi. Turkiston general-gubernatorligida joriy qilingan yangicha tibbiyot muassasalari haqida so'z boradi. Ularning faoliyatiga doir ba'zi jihatlar solishtirilib tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tibbiy xizmat, dor ush-shifo, tabobat, kasalliklar, davolash usullari, salomatlik, tabib, tashxis.

СОСТОЯНИЕ БОЛЬНИЦ И ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ В КОНЦЕ XIX — НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация. В статье представлены сведения, связанные с деятельностью государственных больниц (врачебных амбулаторий), врачей и hakimov в Туркестанском крае в конце XIX — начале XX вв. Приведены сведения о положении страны до и после вторжения Российской империи. Будут обсуждены новые медицинские учреждения, введенные в Туркестанском генерал-губернаторстве. Сравниваются и анализируются некоторые аспекты их деятельности.

Ключевые слова: Медицинская услуга, медицина, лекарственное средство, заболевания, методы лечения, здоровье, врач, диагностика.

THE STATE OF HOSPITALS AND HEALTH CARE IN THE TURKESTAN REGION AT THE END OF THE 19TH AND BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Abstract. This article provides information on the activities of state hospitals (dispensaries), doctors and judges in the Turkestan region at the end of the 19th and beginning of the 20th centuries. Information is provided about the state of the region before and after the invasion of the Russian Empire. It talks about the new medical institutions introduced in the Turkestan Governorate. Some aspects of their activities are compared and analyzed.

Key words: Medical service, medicine, medicine, diseases, treatment methods, health, doctor, diagnosis.

Kirish. Bashariyat yaralibdiki, inson tanasi turli xil kasalliklar va nuqsonlar bilan kurashib keladi. Tarixning turli davrlarida insoniyat turli xil kasalliklar, epidemiyalar tufayli uzoq yillar aziyat chekib keldi. Bunda aholiga kasalxonalar asosiy yordamni bergan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasidagi sog'liqni saqlash holati va kasalxonalarni o'rganishning muhimligi shundaki, bu davrda dastlab asrlar osha shakllanib kelgan an'anaviy tibbiy tizimi va Rossiya imperiyasi bosqinidan keyingi o'zgarishlarning sodir bo'lganligidir. Chunki bu jarayon ilmiy o'rganishni taqozo etadi. Ushbu maqolada shular haqida tahlillar keltiriladi.

Tadqiqot usullari. Ishning obyekti XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasining sogliqni saqlash tizimi va kasalxonalar faoliyati bo'lib, mazmunni yoritishda quyidagilardan foydalanildi: 1) bu davr mahalliy mualliflari asarlari; 2) Rossiya imperiyasi davri tadqiqotlari natijalari; 3) mustaqillik yillari tadqiqotlari natijalari. Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimlilik, xolislik kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Turli xil kasallik va epidemiyalarning tarqalishi barcha davrlarda davlat rahbarlarining sog'liqni saqlash ishlariga jiddiy e'tibor qaratishiga undagan. Mamlakatda dor ush-shifo(kasalxona)lar faoliyati yo'lga qo'yilgan va moddiy ta'minoti uchun vaqf mulklari ajratib berilgan, ba'zilar to'liq davlat ta'minoti asosida faoliyat olib borgan. Kasalxonalarning moddiy texnik bazasi, kadrlar salohiyati hukumat nazoratida bo'lgan. Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonligida dor ush-shifo(kasalxona)lar faoliyati nisbatan tizimli yo'lga qo'yilgan. Ulardagi bosh hakim, tabiblar va jarrohlarning alohida sinovlari asosida tanlab olingan. Hududlarda alohida tabiblar tayyorlaydigan

madrasalar tashkil etilgan va ularda sifatli ta'limni ta'minlash, nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish uchun kasalxonalar va tibbiyot madrasalari yonma-yon qurilgan. Madrasalar ta'lim tizimida izchillik ta'minlangan. Madrasalarda asosan dorishunoslik, tashxis asoslari, shariat va fiqh chuqur o'rgatilgan. Dorishunoslik fani madrasalardagi asosiy fanlardan bo'lgan. Har bir giyohning farmokologik xususiyatlari chuqur o'rganilgan va ulardan kasalliklarni davolashda unumli foydalanilgan. O'qitishda imtihonlar juda shaffof holda o'tkazilgan, imtihondan o'tolmagan talabalar keyingi bosqichga o'qish imkoniga ega bo'lmagan. Madrasani muvaffaqiyatli tugatgan talabalar mamlakat bo'ylab dor ush-shifolarga yuborilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkistonda tabiblar tomonidan Abu Ali Ibn Sino asarlariga, jumladan u tomonidan qo'llanilgan kasalliklarning ko'plab turlarining tavsifi va davolash usullariga keng murojaat qilinganini ko'rish mumkin[1, 19]. Bu haqda toshkentlik mashhur tabib Bositxon ibn Zoxidxon Shoshiy (1878-1959) o'zining «Favoid ul-adviyya va mavoid ul-ag'ziyya» asarida «Tabiblar orasida mo'tabar va o'qitiladigan kitoblardan Abu Ali ibn Sinoning «Qonun» va yana uning «Adviyat al-qalbiya» asarlari»ni tilga olgan holda yana turli kasalliklar, ularni davolash va tashxis qo'yishga doir ko'plab mashhur asarlarni sanab o'tadi. Ular «Ibn Baytor ismi bilan mashhur bo'lgan Molikiyning «Jomi'» kitobi, Antokiyning «Tazkirayi uli-l asbob» nomi bilan mashhur bo'lgan «Tazkirayi Antokiyni» asari; Shayx Yusuf Bag'dodiyning «Ma layasa' li-t-tabib jahlah» «Tabibning ma'yusligi uning bilmasligidandir» nomi bilan mashhur bo'lgan «Tazkira»si, Shayx Ismoil ibn Haybatullohnning «Irshod» nomli kitobi va boshqa kitoblar shular jumlasidan[2, 9]. Tegishli darslik va qo'llanmalar orqali yetuk tabib va jarroh bo'lib yetishishgan. Yuqorida qayd etilgan tabobatga oid mashhur asarlar Turkistonda tabiblar uchun kerakli qo'llanmalardan sanalib, madrasalarda tabobat fanidan o'qitilgan edi. Tabib bo'lish uchun madrasalarda o'qish zarur bo'lgan, an'anaviy tabobatni o'rganish uchun tabiiy fanlar bilan parallel ravishda diniy va dunyoviy fanlarni mukammal egallashi lozim edi. Dorilarni tayyorlash va bemorlarni to'g'ri davolash uchun diniy bilimlar, Qur'on, Hadis hamda fiqh ilmlari o'rgatilgan. Negaki, halol va harom tushunchalari islom olamida doimo birinchi o'rinda turgan[3, 146]. O'z o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, amirlik va xonliklarning moliyasida vaqf mulklari katta ahamiyat kasb etgan. Ijtimoiy sohaning aksariyati vaqf daromadlari hisobidan kun kechirgan va olingan daromadlar ma'lum qoidalar asosida taqsimlangan. Shifoxona va madrasalarda vaqf daromadi hisobidan talabalarni oziq-ovqat bilan ta'minlash belgilangan va eng muhimi, bemorlarga ham shu taomdan ajratilgan[5, 108,243]. Shifoxonalar asosan, vaqf mulklari va ma'lum qismi davlat g'aznasidan moliyalashtirilgan. Foydalanilgan dori vositalari bugun biz qo'llaydigan sun'iy va kimyoviy dori vositalaridan farqli o'laroq mutlaqo tabiiy edi. Bunday dori vositalari inson tanasi uchun tabiiy immunitetni kuchaytirib kasalliklarga qarshi kurashuvchanlikni mustahkamlagan. Malakali tabiblar esa mamlakat bo'ylab dor ush-shifolarga yuborilgan va ular aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatgan. Kasalxonalar moddiy ta'minoti uchun hukmdorlar alohida vaqf mulklari ajratgan. Vaqf mulklaridan tushgan daromadlar davlat kasalxonalarining sarf xarajatlari uchun ishlatilgan. Ba'zi kasalxonalar esa to'gridan to'g'ri davlat xazinasidan moliyalashtirilgan. Bunday kasalxonalarda asosan harbiy va davlat amaldorlari davolanishgan. Hukmdorlar va ularning oila a'zolari uchun esa alohida shifoxonalar tashkil etilgan. Bu tartib qoidalar Turkiston o'lkasining deyarli barcha hududlarida birdek amalda bo'lgan. Chunki boshqaruv jihatdan Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonligi bir biriga o'xshash edi. Dor ush-shifolar faoliyati ham bir biriga yaqin edi, faqat tabiblar va jarrohlarning malakasi va tajribasi bilan bir biridan ajralib turgan.

Buxoro amirligida dor ush-shifolar faoliyati ham tizimli yo'lga qo'yilgan edi. Mana shunday muassasalardan biri Buxoroning Registon maydonidagi "Dorush shifo" kasalxonasi edi va u bir qavatli, madrasa ko'rinishida bo'lgan[4, 13]. Buxoro amirligi tibbiyot madrasalari hakimlar tayyorlash bo'yicha O'rta Osiyoda mashhur bo'lgan. Mir Arab madrasasi ham ma'lum vaqt davomida bemorlar qabul qilinadigan joy bo'lganligi manbalarda qayd etilgan[14, 54]. Subhonqulixon davrida tashkil qilingan "Dorush-shifo" shifoxonasi to'rt yil Turkistonni zabt etguniga qadar tabiblarni tayyorlovchi asosiy muassasa bo'lgan[12, 417]. Shifoxonalarning tuzilishi va sharoitlariga kelsak, bu yerda bemorlar uchun maxsus xonalar, dorixonalar, hammomlar, oshxonalar va boshqa turdagi xonalar mavjud bo'lgan[4, 18]. Shifoxonalarda bemorlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lgan. Hatto qishda isitilishi uchun alohida kishi yollangan. Dor ush-shifolarda davolanayotgan bemorlar kasalxona hisobidan ovqatlantirilganligini hisobga olsak, ovqatlar menyusi parhezboq va hazm qilinishi yengil taomlardan iborat bo'lgan. Amirlikda sog'liqni saqlash ishlarida davlat kasalxonalari bilan birga o'z uylarida faoliyat olib boradigan tabiblarning ham hissasi salmoqli edi. Xalq orasida chechakchi, rishtachi, bibi hokim(ayollar tabibi) [4, 20] kabi nomlar bilan ataladigan tabiblar guruhlar mavjud bo'lgan. Aksariyat hollarda ular alohida mavze, guzar va ko'chalarda yashashgan. Ko'chalarning nomlanishi ham shunga monand bo'lib, "shikastabandon", "tabibon" [13, 136]nomli guzarlar bo'lgan. Bu tabiblar bemorlarni o'z uyida qabul qilgan. Kasalliklar tarqalishi ham hududdiy xususiyatga ega bo'lgan. Masalan XIX asr oxirida Buxoroda ovqat hazm qilish tizimi buzilishi bilan bog'liq kasallik tarqaladi[8, 17], bu kasallikni davolash usuli sifatida nonvoylar bilan hamkorlikda nonga sedana qo'shishgan. Natijada keng

tarqalgan kasallikka barham berilgan. Qiziq tomoni bu usul hozirga qadar saqlanib qolgan. Buxoro ziyolilar qatlami orasida ham bu soha bilan qiziqib, aholiga yordami tekkan jadidlar ham mavjud edi. Jumladan, Mirzo Siroj Hakim 300 ga yaqin rishtaga chalingan bemorlarni o'zi kashf etgan usul orqali davolagani ma'lum. Mirzo Siroj tabib emas, oliy malakali shifokor sanalardi[17, 95]. U Erondagi Amerika tibbiyot kollejini tugatgan edi.

Xiva xonligida ham shifoxonalarni tashkil qilish va foydalanish qoidalari o'ziga xos tarzda edi. Xonlikda ham Buxoro amirligi singari tibbiyot madrasalari tizimli yo'lga qo'yilgan. Sherg'ozixon madrasasi xonlikda tabiblar yetishtirib berish vazifasini bajargan va u yerda o'z davrining atoqli tabiblari mudarrisilik qilgan. Xivadagi Ko'hna Ark majmuasida kasalxona mavjud bo'lgan. Mahalliy aholi bilan birga janglarda yarador bo'lgan navkarlar ham Xivadagi "Dorush-shifo"da davolanish uchun yuborilganligi manbalarda qayd etilgan[6, 226]. Xonlar kasalxonalar faoliyatini o'z nazoratiga olgan. Kasalxonalar qoshida dorixonalar tashkil etilgan. Xonlikda aholining o'rtacha yoshi 25-30 yosh ekanligi, xonlar bunga sabab qilib hakimlarning kamligi va tibbiy asarlar kam ekanligini ta'kidlagani aytilgan[15, 71]. Shundan kelib chiqib hukmdorlar bu sohani yanada kuchaytirishga farmon bergan. Davlat kasalxonalari bilan birga mahalliy tabiblar ham faoliyat yuritgan. Xivalik tabiblarning davolash usuli va vositalari o'ziga xos edi. Ular bemorlarni 2 xil usulda davolagan: 1) *empirik* – an'anaviy usulda, dorilar va shifobaxsh o'simliklar yordamida; 2) *mistik*- Qur'on oyatlari yordamida, ruhiy ishonchga asoslanib davolash. Rossiyadan kelgan elchi-sayyoh Baziner ham buni o'z esdaliklarida yozib ketgan. Xivada sariq kasaliga chalingan bemorlarning qulog'i orqasidan qon olish usulida davolash usuli ham mavjud bo'lgan[15, 29]. Xiva tabiblarining ham alohida mintaqaviy davolash usullari bor edi. Bu mintaqada tabiblari yaralarni giyohlar bilan davolashda ustasi farang bo'lib, boshdan qon olishga katta ahamiyat berishi manbalarda alohida qayd etilgan[16, 29].

Qo'qon xonligi mavjud bo'lgan davrda kasalxonalar va shifoxonalar xuddi Buxoro amirli va Xiva xonligi singari davlat tomonidan kerakli dori darmon va moddiy texnik baza bilan taminlangan. Qo'qon, Toshkent va boshqa hududlarda davlat amaldorlari hamda aholi uchun shifoxonalar ochilgan va faoliyat yuritgan. Jumladan, Toshkent bekligida shaharning Kaykovus arig'i sohilida shifoxona faoliyati yo'lga qo'yilgan[7, 35]. Kasalxonalar ta'minoti uchun kerakli dori vositalaridan zaxiralar tayyorlab qo'yilgan. Dor ush-shifolar uchun kerakli resurslar va manbalar bilan ta'min etilgan. Turkiston o'lkasining Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar sog'liqni saqlash ishlari xuddi shu ko'rinishda va tartibda edi. Xonlikda tibbiy muassasalarning soni aholi soniga nisbatan kamligi, moliyalashtirishdagi muammolar tufayli aholi davolanish maqsadida davlat tomonidan qurilgan shifoxonalarga emas, tabiblariga murojaat qilishi kuchaygan[8, 22]. Tabiblar esa o'z uylarini istalgan paytda bemorlarni qabul qilish imkoniga ega bo'lgan. Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligini egallab, Turkiston general gubernatorligini tuzgach, yangicha tipdagi shifoxonalar qurishni boshlagan. Vaqf mulklari musodara qilinib, davlat hisobiga o'tkazildi. Bu esa an'anaviy tipdagi kasalxonalar moddiy ta'minotiga salbiy ta'sir etdi. Natijada asta sekinlik bilan ular faoliyati to'xtay boshladi. Imperiya ma'muriyati Turkiston general gubernatorligi hududida *zemstvo tibbiyoti* deb atalgan yangicha tizimning ayrim jihatlari olib kirdi[9, 10]. Yangicha tipdagi kasalxonalar o'lkaning markaziy shahar va viloyatlarida tashkil etilgan. O'lkada yevropacha namunadagi kasalxonalar, poliklinikalar qurila boshlandi. Ular tibbiyot xodimlari bilan taminlandi. Dastlab kasalxonalarga harbiy feldsherlar, harbiy shifokorlar jalb qilindi. Lekin bu ishlar o'lkaning chekka hududlari uchun to'liq amalga oshirilmadi[8, 99]. Dastlab mahalliy aholi yangicha tipdagi kasalxonalarga davolanishga bormagan. Mahalliy aholi bunda g'ayridinlar mavjud deb, ularga davolanishdan bosh tortgan. Natijada hududlarning sog'liqni saqlash holati yomonlasha boshlagan. Keyinchalik bu tizimdagi muammolarni hal qilish uchun mahalliy mutaxassislar bilan to'ldirildi. Ular yangicha uslub va tizimga moslashishi uchun qisqa muddatli o'quv kurslari va malaka oshirish ishlari yo'lga qo'yildi. Mahalliy aholining ham bu shifoxonalarga ishonchi orta boshladi. Ayniqsa bu holat 1892-yilda Toshkentda vabo kasalligi tarqalgandan so'ng boshqa hududlarga tarqamasligi uchun emlash ishlarining kuchaytirilganligida ko'zga tashlanadi. Hududlarga emlovchilar yuborilib aholini yoppasiga emlash ishlari amalga oshirilgan. Bunda mahalliy mutaxassislarning hissasi salmoqli bo'ldi. Mutaxassislar avvaldan mavjud an'anaviy emlash usullari bilan ruslar olib kirgan emlash usullarini uyg'unlashtirib ish olib borgan. Farg'ona viloyati bosh shifokori V. Kushelevskiy aholining chechakka qarshi muntazam qo'llaydigan emlash uslubi mavjudligini qayd etgan[10, 168]. Bunday emlash shakli Farg'ona vodiysi, Buxoro amirligi va qozoq qabilalari o'rtasida ko'proq tarqalgan bo'lib, aholi emlovchilarni "chechakchi" deb atagan[11, 89]. Ular o'lkadagi patranaj ishlari va emlash tadbirlarida jonbozlik ko'rsatgan. O'lkada milliy ziyolilari orasida ham bu soha rivojiga o'z hissasini qo'shganlari bo'ldi. Ular o'zlarining yangicha davolash usullari va g'oyalari bilan kirib kela boshladilar. Farg'ona vodiysida Mahmud Yayfoni zamonasining mashhur tabibi bo'lish bilan bir qatorda tibbiyot yutuqlarini o'rgangan va shu asosda rus shifokorlari bilan muloqot qilgan hakimlardan biri bo'lgan. Qiziq tomoni, Mahmud Yayfoni Chodak qishlog'ida shifokorlar davolay olmagan bolani tuzatib[18, 94], xalq orasida obro' qozonadi. Rus tilini yaxshi bilgan va shu orqali rus va mahalliy hakimlar hamkorligini yo'lga qo'yadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxirida Turikiston o'lkasida kasalxonalar va ularning faoliyati an'anaviy sog'liqni saqlash usullari saqlab qolindi. Rossiya bosqinidan so'ng kirib kelgan yangicha sog'liqni saqlash tizimi bilan an'anaviy usullar uyg'unligi sodir bo'ldi. Milliy ziyolilar esa soha uchun yangicha yangicha g'oya va tashabbuslar olib kirdi.

ADABIYOTLAR:

1. Ёролов А. Ўтмишдаги даволаш ва шифобахш муассасалар. Тошкент. 1990.
2. Абдусаттор Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. Тошкент. 2007.
Абдужаббор Муҳаммад Собир ўғли. Асрлар ошган табобат. Тошкент. 2007.
3. Боситхон ибн Зоҳидхон Шоший Фавоид ул-адвийя ва мавоид ул-ағзийя (дориларнинг фойдалари ва овқатларнинг дастурхонининг манфаатлари). Табдил ва сўз боши муаллифи М. Ҳасаний. – Тошкент: Фан, 2007.
4. Кушелевский В. Материалы медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Т. 1. Новый Маргелан. 1891.
5. Жамолова Д. Туркистон ва Шарқ мамлакатлари тараққийпарварларининг ўзаро алоқалари (XIX аср охири – XX асрнинг биринчи чораги). Тошкент. 2023.
6. Асадов Д., Назиров М. Маҳмуд Ҳакимнинг юқумли касалликларнинг даволаш ва соғлом турмуш тарзини таъминлаш учун ишлатган дори воситалари. Журнал "Гепато-гастроэнтерологических исследований". 2021. 1-маҳсус сон.
7. Асророва Л. Бухоро мадрасалари тарихидан: Аҳмад ибн Исмоил хон мероси. Тошкент. 2017.
8. Муҳаммадризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Риёзу-д-давла. Наширга тайёрловчи А. Ўрозбоев. Тошкент. 2020.
9. Гойибов М. ва бошқ. Хива тиббиёти. Тошкент. 2013.
10. Бабенко О. Медицина Российской империи конца XVIII – начала XX века в новой научной литературе. История и археология (материалы V международная научная конференция). Краснодар. 2018.
11. Сухарева О. Квартальная община позднефеодального города Бухара (в связи с историей кварталов). Москва. 1976.
12. Патхиддинов Р. Фаргона вилоятида чечак касаллиги. О'tmishga nazar. 2022. № 1.
13. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820-годах, гвардейско го генерального штаба капитана Н. Муравьева, посланного в эти страны для переговоров. Часть 2. Москва. 1822
14. Turkic medical treatise from Islamic Central Asia: A critical edition of a seventeenth-century Chagatai work by Subhān Qulī Khan. Boston. 2015. 417-p.
15. Д. Жамолова. Туркистон ва Шарқ мамлакатлари тараққийпарварларининг ўзаро алоқалари (XIX аср охири – XX асрнинг биринчи чораги). Тошкент. 2023.
16. Ширинова Н. Туркистонда анъанавий доришуносликдан фойдаланиш масалалари / Туркистонда тиббиёт: анъана ва инновациялар (XIX аср охири – XX аср бошлари). Масъул муҳаррир: С.Б. Шадманова. Тошкент: Akadempnashr. 2019.
17. Ҳикматиллаев Ҳ. Шарқ табобати. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994.
18. Jumanazarov Xurshid. Turkistonda tibbiyot tarixi (XIX yuzyillik so'ngi – XX yuzyillik boshi). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi. Toshkent. 2024

VATAN HIMOYASI AJDODLARIMIZDAN MEROS

Naimov Ismat Nusratilloevich,
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrası dosenti, t.f.f.d., (PhD)
ismat.naimov@yandex.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Ahmad Donish ilmiy merosiga asoslagan holda Buxoro amirligidagi mudofaa tizimini isloh qilishga qaratilgan ilg'or vatanparvarlik g'oyalari to'g'risida fikrlar bayon etilgan. Ahmad Donishning mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va asrab avaylash uchun qanday tadbirlarga e'tibor qaratish hamda ularning zaruriyati shuningdek, mamlakat mustaqilligini asrab-avaylashdagi ahamiyati to'g'risida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ahmad Donish, podshohlar jangi, qurolsoz, jangovarlik, harbiy malaka, sarboz, adolat, to'g'ri fikrlilik.

DEFENSE OF THE FATHERLAND IS THE HERITAGE OF OUR ANCESTORS

Abstract. This article describes the life of Ahmad Donish, who lived and worked in the second half of the XIX century, as well as his ideas of progressive patriotism aimed at reforming the defense system of the Bukhara Emirate. Conclusions were also drawn about strengthening the country's defense capability, what attention should be paid to them and their importance in preserving the country's independence.

Keywords: Ahmad Danish, battle of kings, armorer, morale, military qualification, soldier, justice, right thinking.

ЗАЩИТА ОТЕЧЕСТВА – НАСЛЕДИЕ НАШИХ ПРЕДКОВ

Аннотация. В данной статье описывается жизнь Ахмада Дониша, жившего и работавшего во второй половине XIX века, а также его идеи прогрессивного патриотизма, направленные на реформирование оборонной системы Бухарского эмирата. Также были сделаны выводы об укреплении обороноспособности страны, о том, какое внимание следует уделять им и их важности в сохранении независимости страны.

Ключевые слова: Ахмад Даниш, битва королей, оружейник, боевой дух, военная квалификация, солдат, справедливость, правильная мышления.

Kirish. Dunyoda mustaqil davlatlar mavjud ekan doimiy ravishda ularning tinchligi va osoyishtaligiga xavf soluvchi kuchlar mavjud bo'ladi hamda ularning tajovuzi o'z navbatida mamlakat fuqarolarini doimiy sergak turishlarini taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakat mustaqilligini asrash va uni mustahkamlash doimiy ravishda fuqarolar e'tiborida bo'lib kelgan. Bunda esa ajdodlarimizning amaliy xatti-harakatlari biz uchun namunali ibratdir. Shu sababli, ular tomonidan qoldirilgan tarixiy merosni o'rganish nihoyatda ahamiyatli sanaladi. Ayniqsa, bugungi glabashuv jarayonlarida inson ongi va erki uchun xurujlar avj olayotgan tahlikali zamonda ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan Vatan himoyasi to'g'risidagi g'oyalari o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda, buyuk ma'rifatparvar ajdodlarimiz bilan bir qatorda hamyurtimiz, ensiklomedist olim Ahmad Donishning ham ijodida istiqlool uchun kurash haqidagi nihoyatda ahamiyatli g'oyalari mavjudligini ta'kidlash o'rinli hisoblanadi.

Natijalar muhokamasi. Ahmad Donish (1827-1897) XIX asr ikkinchi yarmida Buxoro amirligida yashab ijob etgan – mohir xattot, tarixchi, muhandis, diplomat bo'lish bilan birgalikda atoqli davlat arbobi hamdir. Maslakdoshi Sadr Ziyo o'zining "Navodiri ziyoiya" asarida "suratkashlikda Behzodu Moniy, falakshunoslikda Ulug'bek Ko'ragoniy, xattotlikda Mir Ali, lavhakashlikda Mir Shofe'i, tabobatda Ibn Sino, she'r navislikda Sa'diy Sheroziy hamda saxovatpeshalikda Hotami Toy" [10: b. 47] – deb, serqirra faoliyatiga yuksak baho beradi hamda uning barcha hunarlardan xabardor ekanligini e'tirof etadi.

Ahmad Donish (1827-yil 22-sentabr – 1897-yil 14-mart) Buxoro shahrining Ko'chayi Sangin guzarida tug'ilgan bo'lib, uning to'liq ismi-sharifi Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Xanafiy al-Siddiqiy al-Buxoriy bo'lib, Ahmad Abu Bakr avlodidan hisoblanadi [1: b. 33]. U dastlabki ta'limni oilasida, so'ngra mahalla

guzaridagi madrasalardan birida oladi. Keyinchalik o'rta asr madrasa ta'limidan qanoat qilmasdan astronomiya, handasa va hisobni shaxsiy tashabbusi bilan "kunjaki domla" (repititor)larni topib o'rganadi. U Ibn Sino, Umar Hayyom, Navoiy, Fuzuliy, Mirzo Bedil asarlarini o'qish bilan birgalikda sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari"ni ham qunt bilan mutolaa etadi. Hech shubha yo'qki, uning davlat tuzilishi hamda mamlakat mudofaasini mustahkamlash to'g'risidagi fikrlarining shakllanishida "Temur tuzuklari" alohida o'rin tutgan bo'lmasa [7]. Zamonasining barcha ilmlarini egallangan Ahmad ibn Nosirning nomi tez orada zayolilar orasida shuhrat topadi. Hatto Buxoro Amiri Nasrullo uning xushnavisligidan xabar topib, saroy kutubxonasini boyitish va saltanatini ma'rifat yo'li bilan mustahkamalash maqsadida saroy xizmatiga jalb etadi.

Ahmad Donish 1857, 1869 hamda 1873-yillarda Rossiya imperiyasiga Buxoro amirligining elchilari mirzasi (kotibi) sifatida safarlar qiladi. Ushbu safarlar davomida u mamlakatning diqqatga sazovor joylarini tomosha qilish bilan birgalikda, imperiyaning davlat tuzilishi hamda uning mustahkam mudofaasi bilan ham qiziqadi va undagi tartib-intizom hamda tuzilishini diqqat bilan o'rganadi.

Peterburgda Ahmad Donish Rossiya vazirlari va davlatning yuqori rahbar kadrlari (siyosiy elita) bilan rasmiy uchrashuvlar va muzokaralar olib boradi [4: b. 143].

Ahmad Donish Rossiya harbiy tuzilmalaridagi tartib-intizom hayratga qoldirgan edi. Xususan, 1869-yil avgust oyida Toshkentdan Peterburggacha Amirning o'g'li To'rajon, elchi Abulqosimbiy, bosh kotib A.Donish va boshqa qator buxorolik elchilar delegatsiyasi a'zolarining xafvsizligini imperiya poytaxtigacha ta'minlab borgan rus askarlarining mahoratlariga qoyil qolgan edi. Ta'kidlash lozimki, delegatsiya 22-oktabrda Peterburgga podpalkovnik Kolzakov, kapitan Shpitsberg, leytenant Sirtlanov mas'ulligida yetib keladilar. 1869-yil 11-dekabrda ular ushbu xizmatlari uchun shaxsan rus podshosi Aleksandr II tomonidan munosib taqdirlanadilar [10].

Nisbatan zamonaviy mudofaa tizimi bilan tanishgan A.Donish o'z ona vatanining himoya tizimi naqadar orqaga qolganligining guvohi bo'lib afsuslanadi va imkon qadar Buxoro amirligiga maxsus missiya bilan keladigan imperiya agentlaridan amirlik mudofaa qobiliyatini yashirishga harakat qiladi. Jumladan, 1869-70 yillarda Buxoro amirligi elchilari tashrifiga javoban, Rossiya imperiyasining tarkibida faqatgina harbiylardan iborat bo'lgan ayg'oqchilari 1870-yilning aprelida Buxoroga tashrif buyuradi [6: b. 5]. Polkovnik S.I. Nosovich' rahbar bo'lgan missiya a'zolari amirlik mudofaasi bilan tanishishni ixtiyor etadilar va qushbegi orqali Amir Muzaffar (1860-1885)ga yozma ravishda bu haqda ma'lum qiladilar. Albatta, missiya a'zolarining mazkur xoxishi amirga xavotir sola boshlaydi va imkon qadar vaziyatdan chiqish yo'llarini izlaydi. Natijada, ushbu nozik masala saroyda munosib hurmatga ega bo'lgan va bir necha marta Rossiyada safarlarda bo'lib, diplomatik mahorati shakllangan A.Donishga ishonib topshiriladi. 1870-yilning 7-iyunda amirning ishonchli vakili sifatida missiya a'zolari huzuriga tashrif buyurgan A.Donish, missiya rahbariga "imperiya hukumati Buxoro amirligi bilan do'stlik va tinchlik o'rnatish niyatida ekan unda imperiyaning mohir to'p quyuvchilari, qurolsozlari, askar va ofitserlarini Buxoro sarbozlarining tajribalarini oshirish uchun o'rgatishga yuborish va amirlik mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga amaliy yordam berish, shundan keyingina amirlik mudofaa tizimini hech ikkilanmay xorijiy fuqarolarga tanishtirish mumkinligi" to'g'risida taklif bilan murojaat etadi. Missiya rahbari ushbu takliflarni amir o'zining yozma maktubida kiritishini va albatta, uni Turkiston General gubernatoriga yetkazishini ma'lum qiladi [6: b. 72-73]. Biroq, yuqorida qayd etilgan takliflar e'tiborsiz qoladi. Xullas, A.Donishning ehtiyotkorligi bilan missiya a'zolari qisman o'z niyatlariga erishgan ya'ni, amirning eng sara askarlari missiya a'zolari oldida saf tortgan bo'lsalarda, mamlakat mudofaa qobiliyati to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

Peterburg safarlaridan so'ng qalamiga mansub ilk asarlardan biri "Mamlakatni boshqarish va xalqni ma'rifatlilik qilish haqida"gi risola hisoblanadi. O'ziga xos "tuzuk" hisoblangan ushbu risola 1875-yilda vujudga kelgan bo'lib, u A.Donishning qomusiy bilimlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu asarida o'z zamonasining siyosiy va ijtimoiy muammolarini aks ettirib, uni amir Muzaffarxonga bildiradi.

Amir ushbu asar bilan tanishguniga qadar A.Donishga o'z hukumatida yuqori mansablaridan birini egallashni taklif etgan edi. Biroq, A.Donish mazkur taklifni agarda amir hukumat tarkibi, tuzilishi hamda islohotlarni yuqorida keltirilgan risolada bayon etilganidek amalga oshirilishiga ruxsat berilsagina, qabul qilishini bildiradi. Islohot takliflariga Amir va boshqa yuqori lavozimli amaldorlar sukut bilan javob qaytardilar. Afsuski, risola muallifining jur'ati olib borilayotgan siyosatga oshkora qarshilik va noshukurchilik sifatida baholanadi va amir bu holatdan nihoyatda g'azablanib – "men uni elchilik tarkibida Rossiyaga yubordim, u esa menga aql o'rgatishga jazm etdi, men uni boshqa yubormayman" – deb, salbiy munosabat bildiradi. Bundan xabar topgan A.Donish "Men esa bu axmoqlar xizmatida bo'lishni ham xoxlamayman" deb, javob qaytaradi [3: b. 116].

Albatta, amirga islohotchilik g'oyalari aks ettirilgan islohotnoma yoqmas edi. Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, A.Donish ushbu tuzukida jar yoqasiga kelayotgan va mustaqilligi tobora qo'ldan boy

berilayotgan mamlakat mudofaasini zudlik bilan isloh qilish zarurligini bayon etgan edi. Bunga sabab, A.Donish 1868-yil may oyida Rossiya Imperiyasi tomonidan Samarqandning bosib olinishi, buning natijasida imperiya foydasiga shartnoma tuzilganligi hamda amir Muzaffarning tobelik siyosatidan norozi bo'lgan beklar (Jo'rabek va Bobobek), shu jumladan, hukmdorning o'g'li Abdumalik to'raning otasiga qarshi ko'targan qo'zg'oloni turtki bo'lgan edi. O'z navbatida Samarqand bilan birgalikda Kattaqo'rg'on ham qo'shib olingan edi.

Shartnomada Amirlikka tegishli joylarda Rossiya fuqarolariga erkin savdo qilishlariga, savdo agentliklarini tashkil etish hamda ularning shaxsi, mol-mulkining xavfsizligini ta'minlashga doir imkoniyatlarni yaratish amirlik zimmasiga yuklatildi [5: b. 249]. Sulhda ko'rsatilgan 125000 tilla (500.000 so'm) tovon pulini to'lashga ham amir ilojisiz rozilik bildirdi. Amir belgilangan kontrabutsiyani bo'laklab, dastlab 10000, 85000 va 30000 tillani belgilangan muddatdan oldinroq to'ladi [11: b. 56]. Bu esa o'z navbatida, fuqarolar zimmasiga tushar va mamlakat iqtisodiy ahvolini yanada tang ahvolga solar edi. Bu ham yetmaganidek, Amir Muzaffarning Turkiston General Gubernatori K.P. Kaufmanga 1869-yilning 23-iyulda yo'llagan maktubida yuqorida qayd etilgan hatti-harakatlar mamlakat tinchligi va fuqarolar xotirjamligi uchun qilinayotganligini hech ham uyalmay bayon etganini amirning shaxsiy munajjimi sifatida kuzata turgan A.Donishni tashvishga solayotgan edi. Bu yerda amir nafaqat chorasiz qolganligi, balki o'z hokimiyatini qo'sh-qo'llab topshirganligini ham oshkor qilib qo'ygan edi.

“Navodir-ul vaqoye” asarining tarkibiy qismi hisoblangan “Mamlakatni boshqarish va xalqni ma'rifatli qilish haqida”gi risola A.Donishning serqirra hayotiy tajribasi mahsuli bo'lib, unda mutafakkirning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy masalalar bilan birgalikda mudofaaga oid ham teran fikrlari bayon etilgan. A.Donish ushbu nodir asarida amir askarlarining mag'lubiyatining sababini shunday ifodalaydi: “Amaldorlar qo'shinga har taraflama jabr qilishar, sarkardalar himmatsiz, g'ayratsiz, nodon edi. Askarlar qullarga xizmat qilishni or bilib, orqasini o'girib qochishga yuz tutdi, shunday kilib, hamma viloyatlar Rusiya tasarrufiga o'tdi. Sababi shundaki, bir askarga beriladigan maosh to'rt kishiga beriladigan bo'ldi, bir sarkardaga beriladigan tanho ikkitasiga beriladigan bo'ldi...” [8: b. 5].

A.Donish “Navodir-ul vaqoye”da kuchli davlat va saltanat qurish uchun o'zini-o'zi boshqarish organlari va viloyatlar tuzish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, “Askarsiz davlat bo'lmaydi, xazinasiz askar yashay olmaydi”. Hukmdor mamlakatning kengashi va undan unadigan hosilotning mahsulotiga qarab askar tutsin” – deb, tavsiya etadi. Davlat himoyasi to'g'risida fikr yuritib, mudofaa ishlariga katta ahamiyat qaratilishi zarurligini uqtiradi. Qo'shinning boshliqlari botir, uzoqni ko'radigan, irodasi mustahkam shaxs bo'lishlari, ular uch malakaga: jangovarlik, to'g'ri fikrlilik va harbiy malakaga ega bo'lishi shart, deb hisoblaydi.

Ahmad Donish davlat boshlig'i harbiy holat xavfi paydo bo'lganda g'alabani ta'minlash uchun quyidagi masalalarga jiddiy e'tibor berishi lozimligini qayd etadi:

- “Hukmdor dushman tomonga emas, boshqa tomonga yurish qilmoqchi bo'lib, ovoza tarqatsin;
- Safar asbob-anjomlari butunlay tayyor bo'lmaguncha yo'lga chiqmasin;
- Har kuni askarning ko'nglini ko'taradigan ishlar qilsin, ya'ni ularga in'om va ehsonni ko'p qilib, boshdan oyoq kiyim qilsin;
- Askarning ahvolidan bir nafas ham xabarsiz qolmasin, fitna-fasot ishlari chiqmasligi uchun ularni hushyorlik bilan shaxsan tekshirib tursin;
- Qo'shinning oraul boshliq (avangard boshlig'i) mansabiga ko'pni ko'rgan, tajribali, so'zi o'tkir, bahodir va xalqqa yoqimli kishini qo'ysin;
- Har kuni, har soat dushman holidan xabardor bo'lib, o'z holidan uning xabardor bo'lishiga yo'l qo'ymasin;
- Mumkin bo'lsa, dushman bilan kelishish yo'lini tutsin;
- Dushman ustidan tez g'alabaga erishish uchun askarni intizomda tutib, ularning safini tajribalilar bilan boyitsin;

- Askar turadigan joyni obod saqlasin, quyosh, qor va yomg'ir ostida qolishdan ehtiyot etsin.

Fathiy zafar ozroq bo'lsada, qanoat qilsin, dushmanni quvib tuzoqqa tushmasin” [1: b. 55-56].

Ahmad Donish o'z asarlarida tinchlik va osoyishtaliksiz mamlakatning farovon turmushga erishib bo'lmashligini qat'iy ta'kidlaydi. Qachonki, tinchlik bo'lsagina o'zga yurtlardan savdogarlar, hunarmandlar va olimlar kelib saltanat ravnaqi uchun hissa qo'shadilar deb, hisoblaydi.

Saltanat xizmatini ikki toifadagi kishilarga ya'ni, “qalam egalari”- ziyolilar va “qilich egalari” ya'ni, sipohiylarga topshirish ma'qbulligini ta'kidlaydi [1: b. 63]. Qalam egalari mamlakat kirim-chiqimi, sarf-xarajatlari hamda ichki va tashqi munosabatlarni tartibga solishda, qilich egalari esa mamlakat tinchligini ta'minlashda zarurdirlar, deydi u.

Ahmad Donish ushbu asarida mamlakatda farovonlikka erishish yo'llari haqidagi fikrlarini davom etar ekan, saltanat to'rt ustunga – “insof va adolat, askar va xalq, oqar suv hamda xazina”ga ega bo'lishi lozimligini

HISTORY

qayd etadi [1: b. 48]. Agarda bulardan biri bo'lmis ekan, boshqalari ham o'z o'rinlarida mustahkam turolmasliklarini ishonch bilan bayon etadi.

Ahmad Donish mamlakat himoyasi uchun qanday sifatlarga ega bo'lgan kishilar xizmatidan foydalanish to'g'risida ham o'zining qimmatli tavsiyalarini berib o'tadi. Xususan, uning fikricha askar quyidagi ko'nikma va sifatlarga ega bo'lishi lozim bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va amaliyotga foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- shijoatli va bahodir;
- fahm-farosatli va har ishda tez tushunadigan;
- boshidan issiq-sovuq ishlar o'tgan va tajriba ko'rgan;
- botirlik qilish chog'ida qilich va miltiq, o't va suv xavfidan parvo qilmaydigan;
- ziyraklik va donishmandlik bilan og'ir kunlarda har ishning mag'ziga tezdan yeta oladigan;
- ish ko'rgan, maraka va maydonga tushgan, bir necha bahodirlar bilan to'qnashgan bo'lsagina, bunday askarlar bilan shon-sharafga erishish mumkinligi to'g'risida ishonch hosil qiladi [1: b. 55].

Ma'rifatparvar bu fikrlar bilan cheklanib qolmaydi. U yuqoridagi qayd etilgan o'gitlari bilan mutlaq amirlik mudofaa qobiliyati talab darajasida oshirib bo'lmisligini yaxshi anglar edi. Shuning uchun, mamlakat mudofaasi uchun zarur bo'lgan maxsus noma tayyorlab uni Amir Abdulahadga (1885-1910) taqdim etadi. Unda amirlikda muvut fabrikasini tashkil etish, harbiy ishlardan xabari bor muallimlarni xorijdan taklif etib, askarlarga maxsus harbiy jangovor tayyorgarlik to'g'risidagi o'quv mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish, to'p quyish zavodlarini qurish kabi qator takliflar o'z aksini topadi [2: b. 129]. Biroq alloma takliflari har odatdagidek, e'tiborsiz qoldiriladi.

Alloma harbiylarning moddiy ta'minoti masalalarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik to'g'risida ham qat'iy fikrga ega edi. Jumladan, bu to'g'risida shunday fikr bildiradi: "Jang maydonida qurbon bo'lgandan keyin bolalari muhtojlikdan halok bo'lishini bilgan har kanday shaxs jasorat ko'rsatmasligi tabiiy holdir. Har bir kishi jang maydoniga kirar ekan oilasi: farzandi va xotining tinchligini ko'zda tutadi. Binobarin, hech kishi sababsiz o'z nafi uchun o'zini o'limga hukm etmaydi" [2: b. 46]. Bu bilan A.Donish harbiylarning ijtimoiy ta'minoti va uning kafolati masalalari hal etilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Asarning xotimasida Buxoro amirligining mudofaa tizimidagi mavjud tartiblar tanqid qilinadi. Buxoro amirligida Chingizxon zamonidan qolgan eski tartib asosida ish olib borilayotganligi sababli, butun davlat boshqaruvini zamona talabiga muvofiq qayta qurish kerakligi to'g'risida qat'iy qarorga keladi. Xalq farovon turmushini yaxshilash, davlat va ijtimoiy munosabatlar boshqaruvini takomillashtirish masalalari bo'yicha o'ziga jur'at topib, bor kuchi bilan ularni amirga tushintirishga harakat qiladi. Biroq oxir-oqibat uning harakat zoye ketib, "Amir Temur dunyoning to'rtidan bir qismida o'z jasorati, mardligi bilan nom qozongan bo'lsa, Buxoro amirlari badaxloqliklari, irodasizliklari, ko'rquqlilari bilan o'z nomlarini badnom qildilar" [2: b. 72] – degan, ayanchli xulosaga keladi.

Xulosa va tavsiyalar. Ta'kidlash joizki, Ahmad Donishning amirlik mudofaa qobiliyatini mustahkamlash to'g'risida qayd etilgan yuqoridagi islohotnomasi o'z-o'zidan vujudga kelmagan. Bunday ilg'or g'oyalarning paydo bo'lishiga qator omillar: *birinchidan*, amirlik ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy ahvolidan, tobora inqiroz holatiga tushib qolayotganligi; *ikkinchidan*, Rossiya imperiyasiga safarlari va imperiya mudofaa qobiliyatining mustahkamligiga guvoh bo'lganligi; *uchinchidan*, amirlik hududiga tobora tahdid solayotgan Rossiya imperiyasining tajovuzkorona siyosati hamda ko'z o'ngida bir necha amirlik hududlarining qo'ldan boy berilganligi sabab bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ustivor vazifalar ijrosi yuzasidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa Doktrinasini" mamlakatimiz tinchligini ta'minlashga qaratilgan dasturil amal bo'lib, XIX asrning mohir davlat arbobi, ma'rifatparvar olim Ahmad Donishning yuqorida qayd etilgan pandu-o'gitlarining to'liq ro'yobga chiqishi sifatida baholash mumkin. Chunki, ayni paytda mamlakatimizda Vatan mudofaasi masalariga berilayotgan e'tibor hamda harbiy xizmatchilarga og'ir mehnatlarini munosib baholagan holda ular, shuningdek, oila a'zolariga berilayotgan imtiyozlar ularning kuchiga yanada kuch qo'shib, milliy ruhlarini mustahkamlash va mamlakatimiz sarhadlarini himoya qilishdagi jasoratlarini oshirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR:

1. Аҳмад Дониш. Наводирул вақое. Форс тилидан А.Ҳамроев ва А.Шокиров таржимаси. – Тошкент: "Фан", 1964. – Б. 33.
2. Аҳмад Дониш. Рисола ёҳуд мангитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2014.

2. Аҳмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург. Перевод с таджикского М.Н. Османова и Л.Н. Демидчика. – Сталинобад: “Таджикиздат”, 1960.
3. Жумаев Р. Бухоро-Россия дипломатик муносабатларида Аҳмад Донишининг мавқеи ва ўрни (XIX асрнинг 50-70 йиллари) // БухДУ Илмий ахбороти. – Бухоро, 2017. - №4.
4. Зиёев Ҳ. Россиянинг Қозон, Астрахан, Сибир, Қрим, Кавказ ва Туркистонга тажовузи ва ҳукмронлигига қарши курашлар (XVI асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари) VI жилд. – Т.: “Янги аср авлоди”. 2012.
5. Костенко Л.Р. Путешествие в Бухару русской миссии. (С маршрутом от Ташкента до Бухары). – С-Петербург: “Издание Бортневского”, 1871.
6. Наимов И. Аҳмад Дониш ҳукмдорга қандай тавсиялар берган // “Ватанпарвар”, 2019 йил 13 сенятбр, - № 37.
7. Ражабов Қ. Мунгли кечмиш ёхуд тарихдаб бир сабоқ // “Ёшлик” (Тошкент), 2014. - №5.
8. Садр Зиё. Наводири Зиёия. – Душанбе: “Адиб”, 1991.
9. O‘zR MDA, I-1-fond, 20-ro ‘yxat, 2025-yijma jild, 1, 1a, 2-varaq.
10. O‘zR MDA, I-715-fond, 1-ro ‘yxat, 39 a-yijma jild, 56-varaq.

TURKISTONDA MILLIY TA'LIM –TARAQQIYOT O'ZAGI

*Jo'rayev Hamza Atoyevich,**Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk ma'rifatparvar olim, sovet davrida Markaziy Osiyoda tan olingan ilk professor Abdurauf Fitratning ilm-fan sohasidagi xizmatlari, Buxoroda yangi usul maktablarini tashkil etishi, yoshlarni diniy ilm bilan birgalikda dunyoviy ilmlarni ham o'rganishga targ'ib qilganligi haqida ma'lumotlar tahliliy yoritilgan. Shuningdek, Qorako'ldagi Xalqaro matematika maktabini bugungi kunda mamlakatimizdan tashqarida ham yaxshi bilishadi, Maktab uchun ayniqsa, 2019-2020 o'quv yili juda muvafaqiyatliarni, qo'lga kiritganligi va Xalqaro matematika maktabini bitirgan 48 nafar o'quvchining barchasi oliy ta'lim muassasalariga talabalikka tavsiya etilganligi asoslab o'tilgan va maktab o'quvchilari xalqaro olimpiadalarda davlat mukofoti bilan taqdirlanganligi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, diniy, ta'lim, zamonaviy, ta'lim, "yangi usul", o'quv, darslik, musiqa, Sharq, milliy, maktab, qadriyatlar, ma'naviy, meros.

НАЦИОНАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ТУРКЕСТАНЕ – ЯДРО РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье представлен аналитический обзор вклада великого просвещенного ученого, первого признанного профессора в Средней Азии в советское время, Абдурауфа Фитрата, в сферу науки, его организации новых школ мысли в Бухаре и его поощрения молодежи к изучению светских наук наряду с религиозными знаниями. Также Международная математическая школа в Каракуле сегодня хорошо известна за пределами нашей страны. Научно обосновано, что школа достигла больших успехов в 2019-2020 учебном году, и что все 48 выпускников Международной математической школы были рекомендованы к поступлению в высшие учебные заведения. Учащиеся школы удостоены государственных наград на международных олимпиадах.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, религиозное образование, современное образование, «новый метод», образование, учебник, музыка, Восток, национальная школа, ценности, духовное, наследие.

NATIONAL EDUCATION IN TURKESTAN IS THE CORE OF DEVELOPMENT

Abstract. The article presents an analytical review of the contribution of the great enlightened scientist, the first recognized professor in Central Asia during the Soviet era, Abdurauf Fitrat, to the field of science, his organization of new schools of thought in Bukhara and his encouragement of young people to study secular sciences along with religious knowledge. Also, the International Mathematical School in Karakul is well known outside our country today. It is scientifically substantiated that the school achieved great success in the 2019-2020 academic year, and that all 48 graduates of the International Mathematical School were recommended for admission to higher education institutions. Students of the school were awarded state awards at international Olympiads.

Key words: Jadidism, enlightenment, religious education, modern education, "new method", education, textbook, music, East, national school, values, spiritual, heritage.

Kirish. Har bir xalq o'z shaxsiy, milliy ruhiy madaniy qiyofasiga ega ekan, bu o'ziga xoslikning o'zagi-milliy ta'limdir. Milliy ta'lim har bir xalqning o'zi anglashi, tabiati, ma'rifiy darajasi, aql-idroki, ta'bi, xullas, tafakkuriga xos va mos bo'lmog'i lozim.

Hukumatning asosiy vazifasi yoshlarning ta'limi bo'lishi lozim. XX asr ulug' olimi Abdurauf Fitrat (1886-1938) ham tanazzulga yuz tutib borayotgan, bir vaqtlar dunyoning eng nurli go'shasi bo'lgan Turkiston va uning fojiasini o'z vaqtida angladi. Yurt uchun qayg'urdi, yondi, tutaqdi. "O'zining sharaflari dovruq'ini dunyo xalqlarining quloqlariga zirak etib taqqan". Turkiston taraqqiyoti, uning ertasi bo'lgan maorif, milliy ta'lim uchun ham tahsinga sazovor ezgu ishlar qildi. Oliy o'quv yurtlariga adabiyot tarixi va nazariyasidan darsliklar yozish barobarida, "ibtidoiy sinflarning so'ngi sinflari uchun ham "O'quv" darsligi yozdi. 71 sahifadan iborat ushbu maktab darsligi 1917-yil Bakuda nashr etildi. Fitrat katta umid bilan mazkur kitob muqovasida ushbu so'zlarni bitdi. "Turkiston maktablarida qabul bo'lsa, ikkinchi bo'lagi daho chiqadi"[1].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. BXSР hukumati ham maorif va madaniyat sohalarini isloh qilishga e'tibor qaratdi. Bu borada, ayniqsa, Buxoro hukumati tarkibida tashkil qilingan Maorif nozirliги, uning birinchi noziri Abdurauf Fitrat faollik ko'rsatdi. Inqilobiy qo'mitaning 1920-yil 20-oktyabrdagi qarorida respublika hududidagi barcha eski maktablar va madrasalarni isloh qilish va ularda dunyoviy bilimlarni kengroq o'qitishni joriy qilish ko'zda tutildi. Ta'limda darslikning bosh fazilati yoshlarni fikrlashga o'rgatish, mustaqil mushohada qobiliyatini o'stirish, tafakkurni ota-bobolarning muqaddas madaniy merosi bilan boyitish, milliy ongini o'stirishga asoslanganligidir. Shu bilan bir qatorda yangi tipdagi maktablar tashkil qilish, aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish ishlari ham boshlab yuborildi. 1923-yilga kelib Buxoro Respublikasida bunday maktablar soni 40 ta bo'lgan bo'lsa, 1924-yilda 69 ta umumiyta'lim, 4 ta musiqiy, 3 ta hunar maktablari, 13 ta internat faoliyat ko'rsatdi. Ularda jami 5604 nafar o'quvchi ta'lim oldi. Biroq bu raqam maktab yoshidagi bolalarning faqat 3,1% tashkil qilardi, xolos. Buxoroda xotin-qizlar ta'limiga ham e'tibor berilgani o'sha davr tarixi uchun ham, bugun uchun ham katta ibratdir. Ular uchun maxsus maktablar tashkil etilganligi katta yutuqlardan biri edi.

Muhokama. 1923-1924 o'quv yilida respublikada ana shunday maktablardan 5 tasi mavjud bo'lib, ularda 306 ta xotin-qiz o'qigan edi. Umumiy ta'lim maktablarini darsliklar va boshqa adabiyotlar bilan ta'minlash maqsadida hukumat tomonidan xalq maorifi sohasiga ajratilayotgan mablag' hajmi ham ortib bordi. Masalan, 1922-1923 o'quv yilida davlat budjetidan 5.6% miqdorda mablag' ajratilgan bu raqam 1923-1924 o'quv yiliga kelib 21% ni tashkil etdi[2]. Fitrat Buxoroni ijtimoiy-madaniy hayotiy masalalarida faol ishtirok etdi. To'ra bobo Jo'rayev o'sha yillarni shunday eslaydilar. Musiqa maktabi Fitratning uylaridan sal yuqoriroqda, Rahmonquli madrasasida joylashgandi. Fitrat domla biz, san'atga ishtiyoqmand yoshlarni maktablardan terib, musiqa bilim yurtiga jalb qilgan edilar. 1924-yillarda men afg'on rubobida Muxtor Ashrafiy dutorda, A. Ismatov, Hamidiy – changda soz chalish bo'yicha Domla Halim Ibodovdan saboq olgan edik.

Buxorodagi san'at maktablarida Domla Halim Ibodov bilan birga N.Nasriddinov Ma'rufjon Toshpo'latov tanburdan, Mirjon Ostonsov – naydan, akamullovi Tohirjon - dutordan, Haydarqul Hakimov g'ijjakdan, Mallaboyev - changdan, rus ayoli Yermolenko pianinodan saboq berardilar. Keyinchalik musiqa maktabi Sharq milliy maktabi deb ataldi[3].

Natijalar. Abdurauf Fitratning millatning ma'rifatli bo'lishi uchun qilgan xizmatlaridan eng asosiysi usuli jadid maktablarini tashkil qilishi desak to'g'ri bo'ladi. Fitrat usuli jadid maktabini din va imon, Vatan va millat kelajagini ta'minlashning birdan-bir yo'li deb ko'rsatdi. Muhimi shundaki, muallif bugungi Ovrupa sivilizatsiyasining manbai Sharq ekanligini, ilm, axloqining, davlat va jamiyatni boshqaruvning asl andozalari islom madaniyatidan olinib, taraqqiy ettirilganini, uning asl egalari esa, o'z mulklarini tamom unutilib, ovrupaliklarga muhtoj qolganini farangi tilidan rad qilib bo'lmaydigan dalillar bilan isbotlab berdi[4].

Xususan, 1922-yil 25-sentyabrdan 25-oktyabrga qadar Germaniyaga davolanishga borgan Fayzulla Xo'jayev Germaniyaning turli shaharlarida ilm-hunar olayotgan yuzdan ortiq turkistonlik yigit-qizlar bilan muloqotda bo'ladi. Ularning yashash sharoiti, o'qishlari bilan qiziqadi. Fayzulla Xo'jayev Berlindan turib, BXSР MIKga "Berlin maktublari" nomi bilan yo'llangan xatlar "Buxoro axbori" gazetasida 1922-yil 19-noyabda chop etilgan[5]. Jumladan, yosh mutaxassis kadrlarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash uchun 1924-yil 9-yanvarda Fayzulla Xujayev rahbarligida BXSР Xalq Nozirlar Sho'rosining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilish bayonnomasida Germaniyada o'qiyotgan buxorolik talabalarga ko'pincha 15 so'm oltin miqdorida va 13 ta oliy ta'lim muassasida ta'lim olayotgan talabalarning har biriga 75 so'm oltin miqdorida stipendiya to'lash to'g'risida qaror qabul qilindi[6]. Xususan, BXSРda 13 ta internat borligi ham, o'quvchilarga bepul yotoqxona va bepul ovqat tashkil etilganligi ham ta'lim sifatini rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, Sharq musiqa maktabida 50 nafar talabaga oyiga 15 ming so'm oylik va qishlik, yozlik, ichki va tashqi kiyim, bosh va oyoq kiyimlari berilgan. Maktabda Sharq cholg'ularidan boshqa Yevropa notasi ham o'rgatilgan. Xullas, BXSР hukumati o'zining to'rt yillik tarixiy davrida millatimizni zamonaviy taraqqiyot darajasiga ko'tarish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rdi. Buxoroda musiqa maktablari, hunar maktablari, ayollar maktablari, I va II pog'onali maktablar, internatlar tashkil qilindi. Tajriba eng yaxshi ilm-fan, internat tajribasi oddiy maktab emas, balki qobiliyatli maktab hisoblangan. Shuning uchun Markazning tazyiqi tufayli totalitar tartib kuchaytirilib, keyinchalik millatning iqtidorli ma'rifatparvar insonlari qatag'on qilindi. Biz hech qachon o'tmishni o'zgartira olmaymiz. Biz faqatgina hozirdan harakat qilib, kelajani o'zgartirishimiz mumkin. Ayrim hollarda esa talaba-o'quvchilar safini to'ldirish uchun BXSР nomidan Turkiston ASSРdan ham bolalar tanlov yo'li bilan ro'yxatga kiritilgan[7].

Fitrat g'oyasida, o'zing o'zgarimasang olam o'zgarimas, ta'limotini ilgari surib, Turkistonda asosan milliy ta'lim xalqning boy milliy ma'naviy hamda umumbashariy qadriyatlarini asosida isloh qilinadi. Milliy ta'limni isloh qilish va milliy kadrlarni tayyorlash uchun, asosiy mablag' maorifga ajratildi.

Fitrat yashagan davr siyosati erkin fikr, hur g'oyalarni butunlay inkor qilar edi. Shu bois jadidlar qattiq tazyiq ostiga olindi. Jadidlarning eng asosiy vazifasi hisoblangan milliy ozodlikka erishish, xalq bolalarini ma'rifatli qilish kabi ustuvor maqsadlar butunlay qoralanib, bu ziyolilar marksizmni inkor qilishda, o'tmishni ideallashtirishda, burjua millatchiligi g'oyalarini tashviq etishda ayblandi. Jadidchilik g'oyalarining asosiy tashviqotchilaridan bo'lgan Abdurauf Fitrat 1937-yil 24-aprelda O'z SSR NKVD boshlig'i Zagvozdin ko'rsatmasi bilan Davlat Xavfsizligi Boshqarmasi 4-bo'limining boshlig'i DX leytenant O'g'abekov tomonidan hibsga olindi va bir yarim yillik qiynoqlardan so'ng "millatchiligi" "aqsilinqilobchiligi", "xalq dushmani" "vatan xoini" "nemis, ingliz razvedkasi ayg'oqchisi" kabi ayblovlar bilan SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan sud qilinib, 1938-yilning 4-oktyabrida otib o'ldirildi. Qatl jazosi olimning jismoniy mahv etilishi edi, xolos. Fitratning ilmiy-adabiy merosi, yurt rivoji uchun amalga oshirgan islohotlari hozirgacha ham ahamiyatini yo'qotgan emas. Uning adabiyot nazariyasiga oid fikr-mulohazalari hozirgi tadqiqotlar uchun ham asos vazifasini o'tab kelmoqda. Fitrat asarlari u hayotlik paytlaridayoq yuksak baho olgan, boshqa tillarga tarjima qilingan[8]. Har bir xalq har bir millatning o'z o'tmishini o'rganish, uning chuqur ildizlariga murojaat etishi tabiiy jarayondir. Moziyning o'ziga xos xususiyati va muhim ahamiyati shundaki, u tarixiy saboqlar boy ma'naviy tushuncha, yuksak umuminsoniy qadriyatlar misolida yaratuvchilik va ezgulikka intilish tuyg'ularini tarbiyalaydi. Tariximizda yillar o'tib bu ilm ahlining izdoshlari yaqqol ko'rinib qoldi. Yangi turdagi o'quv dargohlarida bolalarning bilimini hisobga olib, tabaqalashtirib o'qitishga asosiy e'tibor qaratilyapti. Bunday uslub hozirdanoq o'zining ijobiy natijasini ko'rsatyapti. Misol Qorako'ldagi Xalqaro matematika maktabini bugungi kunda mamlakatimizdan tashqarida ham yaxshi bilishadi, desak yangilishmagan bo'lamiz. Sinchkovlik qon-qoniga singan To'xtamurod Jumayev Boltiqbo'yi respublikalarga sayohat qilganida fizika-matematika maktablari borligi, bilganda ham nisbatan ko'pligini ko'rib hayron qolgandi. O'zbekistonda faqat poytaxdagina bitta shunday dargoh borligini o'ylab "Nega bizda ochib bo'lmaydi?", degan fikriga borgan va dastlab o'shanda ko'ngli-da o'z ona yurtida ham maxsus maktabni tashkil etish niyati tug'ilgandi.

To'xtamurod Jumayevning sa'y-harakatlari behuda ketmadi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1990-yil 15-yanvardagi 32-sonli va viloyat ijroiya qo'mitasining 1990-yil 29-apreldagi 113,8 –sonli qarorlariga asosan 1-sentyabrdan Qorako'l shahrida 164- ixtisoslashtirilgan "Yosh fizika va matematikalar maxsus maktab-internati" ochish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bunday muvaffaqiyatlar zamini esa uzoqqa borib taqaladi. 1990-yilda asli kasbi matematika fani o'qituvchisi bo'lgan To'xtamurod Jumayevning yelib-yugurishi bilan Qorako'l shahrida iqtidorli bolalar maktabi-internatini ochdilar Maktab uchun ayniqsa, 2019-2020 o'quv yili juda muvaffaqiyatli kechdi. Xalqaro matematika maktabini bitirgan 48 nafar o'quvchining barchasi oliy ta'lim muassasalariga talabalikka tavsiya etildi. Maktab o'quvchilari xalqaro olimpiadalarda 4 ta oltin, 7 ta kumush, 5 ta bronza medallarni qo'lga kiritishdi. Nafosat Jo'rabekova, Sevara Ostonsova kabi iqtidorli o'quvchilar Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi bo'lishgan bo'lsa, Doniyor Ismoilov, Anvarbek Rahmatov kabi iste'dodli yoshlar "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlandi[9].

Yangi O'zbekistonda iqtidorli yoshlarga e'tibor davlat siyosati darajasida ekanligi bejiz emas. Chunki mazkur muammo dunyoning turli mamlakatlarida ushbu masalani tadqiq etishda iqtidorli yoshlarni tanlash, ularni tarbiyalash va rivojlantirishga doir o'ziga xos tajriba to'planganligini alohida qayd etib o'tish o'rinlidir[10].

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubi, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma'lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi. Maxsus o'quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi. Fan va texnikani, siyosat va iqtisodiyotni, madaniyat va san'atni o'rgatish markazlari qabilidagi hamda milliy (elita) ta'lim muassasalari tashkil etiladi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobit qadam faoliyat amalga oshiriladi. Akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ruyobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi[11].

Erishilgan ba'zi yutuqlar bilan juda ko'p muammolar bor: Matematika, fizika fanlari chuqurlashtirishi munosabati bilan sinflarga ajratilgan dars asoslari kuchaytirilgan, biroq shu fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan programmaga asoslangan darsliklar yo'q. O'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish bo'yicha tarbiyachilarga metodik qo'llanmalar kashf etilmagan fan kabinetlarini jihozlash uchun komplekt materiallar yetishmaydi. O'zbekiston mustaqil respublika bo'lishi, munosabati bilan "O'zbekiston xalqlari tarixi" darslari kiritilgan, ammo hech qanday ko'rgazmali qurol, karta, atlas va boshqa sxema diagrammalar yo'q. Darslik 8-9 sinflarga 50% 10-11 sinflarga esa mutloq yo'q. Litsey o'qituvchilarga ham haq to'lashida yechilmagan muammolar bor. Oddiy umumta'lim maktablarida o'qituvchilarga qanday haq to'lansa, litseyda ham shunday haq to'lanadi.

Bu esa o'z navbatida tajribali o'qituvchilarni tanlab olishga, oliy o'quv yurti mutaxassislarini litseydagi mashg'ulotlariga jalb etishda qiyinchalik to'g'dirmoqda. Universitetdan kelgan o'qituvchilar ham oddiy o'qituvchi kabi mablag' oladilar bu ham fan nomzodlarini ketib qolishiga sabab bo'ladi. Xalq ta'limi vazirligi chiqargan qo'llanmasiga asosan. Litsey o'qituvchilar maoshiga 15% qo'shilishi ko'rsatilgan, lekin oblono planlashtirish bo'limi bu kursatmani bajarmadi litsey bo'lishi munosabati bilan juda ko'p muammolar va kamchiliklar mavjud litsey ma'muriyati bu masalalarni yechishga harakat qilmoqdalar[12].

AQSHda juda boy ilmiy-amaliy tajriba to'plangan. Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash maqsadida tashxislash va testlashtirish sohasida qator yutuqlar mavjud. Iqtidorli bolalarni o'qitish metodikalari ishlab chiqilgan. Ular uchun chuqurlashtirilgan o'quv dasturlari va maxsus tayorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchilarni tayorlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Maskur yo'nalishdagi faoliyatda Fan va ta'lim vazirligi, ko'pgina universitetlar, kollejlari, mahalliy ta'lim tashkilotlari ishtirok etadilar[13].

Xulosa. Ta'limda bittagina erkinlik turini bilamiz bu ham bo'lsa fikrlash erkinligi. Chunki ta'lim–dunyoni o'zgartirish uchun ishlatishingiz mumkin bo'lgan eng qudratli quroldir. Dunyoviy ilmlar nuqtayi nazaridan qarasak, olimlar jamiyat rivoji, millat ma'rifati uchun mas'ul shaxslar hisoblanadilar. El-yurt taraqqiy qilishi uchun, eng avvalo, millat ozod va erkin bo'lishi lozim. Jadidlar bu haqiqatni to'g'ri anglagan holda vatan hurligi uchun harakat qildilar, bu yo'lda qurbonliklar berildi, mash'um qatlarga guvoh bo'lindi, ammo ularning faoliyati tarixdan munosib o'rin egalladi.

ADABIYOTLAR:

1. Buxoro haqiqati, 1994 yil 17 avgust. №66.
2. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston Sovet Mustamlakachilik davrida. – Toshkent: "Sharq", 2000. – B. 246-247.
3. Buxoro haqiqati, 1997 yil 2 aprel. №27.
4. Qosimov B. Milliy uyg'onish. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2002. – B. 263.
5. O'zbekiston milliy arxivi, 48- fond, 1-ruyxat, 260-ish, 36- varaqa.6.
6. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076>.
7. Бухоро тарихи масалалари Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 1996. Б.138.
8. Қосимов Б. Миллий уйғониш Тошкент "Маънавият" 2002 371 –б.
9. Бухоро ҳақиқати 1994 йил 17 август №66.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги ПФ-5466-сон "“Ёшлар – келажакимиз” давлат дастури тўғрисида”ги Фармони // қонун ҳужжатлари миллий баъзаси 15. 08 2018 йил.
11. Баркамол авлод- Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори Тошкент нашриёти, 1997.Б.55.
12. Ўзбекистон миллий архиви, М-37фонд, 4-рўйхат, 58-варақ
13. Ғаниева Р.Ф. Иқтидорли ўқувчилар билан ишлашда чуқурлаштирилган таълимни таъкил этишга оид назарий ёндашувлар О'з МУ хабарлари №1/3 2018 й. В. 181.

UDK 433.94

TURKIYANING ISTANBUL SHAHRIDAGI "O'ZBEKLAR TEKKESI" (BUXOROLIKLAR TEKKESI): TARIXI VA HOZIRGI HOLATI.

Hayitov Shodmon Ahmadovich,

Buxoro davlat universiteti Tarix fanlari doktori, professor

Ismailov G'afurjon Xasanovich,

Buxoro davlat universiteti II bosqich tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan "O'zbeklar tekkesi" (yoki "Buxoroliklar tekkesi")ning tarixiy shakllanishi, diniy va ijtimoiy vazifalari, shuningdek, uning hozirgi holatini yoritadi. Tekkening ildizlari XI asrdagi so'fiylik harakatlari va Yassaviya tariqatining Kichik Osiyodagi tarqalishiga borib taqaladi. Maqolada XIX–XX asrlarda Istanbulda faoliyat yuritgan buxorolik so'fiylar boshchiligidagi tekkalarning soni, ular o'rtasida Uskudordagi tekkening o'rni, bunyod etilish sabablari, faoliyat yuritgan shayxlar, hamda uning haj safaridagi ziyoratchilar, muhojirlar va siyosiy shaxslar uchun boshpana vazifasini o'tagani haqida so'z yuritiladi. Maqola shuningdek, ushbu maskanning diniy, madaniy va diplomatik aloqalardagi tarixiy rolini ham yoritadi.

Kalit so'zlar: Istanbul, tekke, takya, Uskudor, Sultontepa, Shayx, Adham Ibrohim afandi, Ato afandi, Najmiddin afandi, Ahmad Ertugin, tekke qabristoni, Nashbandiy oqimi muzey, o'zbek tili, urf-odat, sulton, xalifa, hunarmand, ta'mir.

"УЗБЕКСКИЙ ТЕККЕ" (ТЕККЕ БУХАРЦЕВ) В СТАМБУЛЕ, ТУРЦИЯ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ

Аннотация. Данная статья освещает историческое формирование, религиозные и социальные функции, а также современное состояние «Узбекского текке» (или «Текке бухарцев»), расположенного в Стамбуле, Турция. Корни текке восходят к суфийским движениям XI века и распространению Ясавийского тариката в Малой Азии. В статье рассматривается количество текке, действовавших в XIX–XX веках в Стамбуле под руководством бухарских суфиев, роль текке в Ускюдаре среди них, причины его основания, шейхи, осуществлявшие там деятельность, а также его функция как убежища для паломников, мигрантов и политических деятелей во время хаджа. Кроме того, статья освещает историческую роль этого места в религиозных, культурных и дипломатических связях.

Ключевые слова: Стамбул, текке, такья, Ускюдар, Султантепе, шейх, Адхам Ибрагим эфенди, Ато эфенди, Наджмуддин эфенди, Ахмад Эртугин, кладбище текке, музей накибандийского тариката, узбекский язык, обычаи, султан, халиф, ремесленник, реставрация.

THE "UZBEK TEKKE" (TEKKE OF THE BUKHARA NATIVES) IN ISTANBUL, TURKEY: HISTORY AND CURRENT STATE

Abstract. This article explores the historical development, religious and social functions, as well as the current state of the "Uzbek Tekke" (or "Tekke of the Bukhara People") located in Istanbul, Turkey. The roots of the tekke trace back to the Sufi movements of the 11th century and the spread of the Yasawiyya order in Asia Minor. The article discusses the number of tekkes led by Bukhari Sufis operating in Istanbul during the 19th and 20th centuries, the unique role of the one in Üsküdar, reasons for its establishment, the sheikhs who served there, and its function as a shelter for pilgrims, migrants, and political figures on their way to Hajj. The article also highlights the historical role of this site in religious, cultural, and diplomatic relations.

Keywords: Istanbul, tekke, takiya, Üsküdar, Sultantepe, sheikh, Adham Ibrahim Efendi, Ato Efendi, Najmiddin Efendi, Ahmad Ertugin, tekke cemetery, Naqshbandi order museum, Uzbek language, customs, sultan, caliph, artisan, restoration.

Kirish. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida va turli toifadagi lug'atlarda "takya", "takyaxona", tekke(turkcha) "takka" kabi atamalarga duch kelinadi[1;B.237]. Takyaxonalar, musofirxonalar, xonaqoh ma'nolarini ifodalab, sharq mamlakatlarida sayyoh, savdogar, ziyoratchilar uchun boshpana vazifasini bajargan. So'fiylar, darveshlar boshpanasi, qarorgohi bo'lgan tekkelar tarixi XI asrga borib taqaladi. Tekkelar barpo etish XVI asrdan – XIX asr oxiriga qadar Yaqin va O'rta Sharq davlatlarida Sharq dunyosida mashhur shaharlar hisoblangan Bag'dod, Damashq, Xalab, Omman, Quddus, Bombay(Mumbay), Peshovar, Izmir,

Ko'nya, Adana, Bursa, Istanbul Shaharlarida 100 dan ortiq tekkelar faoliyat yuritgan. Turkiya hududida dastlabki tekke bundan 900 yil oldin (XI-XII asr) tashkil topib, eng qadimgi tekke Urla va Cheshme yo'li ustidagi Samut Bobo tekkesi qurilgan. Ushbu tekke Turkiston shayxlari, Yassaviya tariqati vakillari so'fiylar (Alperenlar) Kichik Osiyoga Yassaviy ta'limotini targ'ib qiluvchilar boshpanasi bo'lgan. Turk tarixchisi Mehmet O'zgen bu tekkega 19 ming sonli Yassaviya ordeni alperinlaridan biri asos solgan deb ma'lumot keltiradi. Turkiyada o'zini Yassaviy avlodi, shajarasi vakili deb hisoblovchi kishilar hozirda ham istiqomat qilmoqda. Ular o'zlarini Shahobiddin Yassa (marhum), G'ulom Yassa, Akbar Yassa, Turon Yassa kabi nomlari bilan atashadi. Yassaviya ta'limotchi targ'ibotchilaridan biri, Samut Bobo tekkesi shayxi musulmonlar jamoasiga murojaat qilib: "Chirog'imni Rum eliga jamladim" degan. Bu bilan Saljuqiylar davlatiga biz islom so'fiylik ma'lumotini yoyish uchun turklar yeriga yuborildik, deb murojaat qilishgan.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra naqshbandiya ta'limotini XVI asrdan boshlab sharq dunyosida yoyish uchun o'nlab tekkelar mavjud bo'lgan. Hatto XVI-XIX asrlarda birgina Turkiyada 677 ta tekke bo'lganligi, ular asosiy qismi "Buxoroliklar tekkesi", "O'zbeklar tekkesi" nomlari bilan atalishi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Yuqoridagi sanada bir qadar mubolag'a borligi ehtimoldan holi emas. Biroq son-sanoqsiz tekkelar Usmoniylar saltanati hududi shaharlarida bunyod etilgani ayni haqiqat. Onado'li(Kichik Osiyo)ning Edirnakapi, Fotih, Karagurmek, Izmir, Istanbul shaharlarida "Buxoro tekkeleri" bo'lgan. Istanbul shahrida (Turkiyaning qadimiy poytaxti) XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ayrim ma'lumotlarda 8 ta, ba'zi ma'lumotlarda 7 ta o'zbeklar tekkesi mavjudligi qayd etilgan. Biroq ushbu tekkelar o'rniga hozirda boshqa binolar qad ko'targani, 3 tasi saqlangani va shulardan faqat bittasi hozirga qadar mavjud bo'lib turgani aniqlangan.

Mazkur maqolada Istanbulda hanuzgacha saqlanib qolgan Uskudordagi tekkening bunyoq etilishi tarixi, unda faoliyat yuritilgan shayxlar, tekkeni hozirgi holati haqida, uning oldida joylashgan qabristonida dafn etilgan ayrim millatdoshlar haqida imkon qadar fikr-mulohazalar bildirishni lozim topdik.

Maqolaning asosiy mazmuni. Istanbul shahrining Osiyo qismida Sultontepa tepaligida qad ko'targan Uskudordagi "Buxoroliklar tekkesi" vujudga kelishi haqida turlicha fikrlar mavjud Istanbul Turkiston aholisining Makka va Madinaga ham ziyorati uchun eng muhim yo'l tarmoqlaridan biriga joylashgan shahar edi. XVI-XVII asrlarda o'rta asr tipidagi dunyoda saqlanib qolgan, uch qit'a (Osiyo, Afrika, Yevropa) mamlakatlaridan o'nlabini o'z qo'li ostida birlashtirgan Usmoniylar saltanati yuksak qudratga ega bo'lgan. Saltanatni sulton boshqarib, ayni paytda xalifalik unvoni ham sulton qo'lida edi. Sulton arab xalifasi titulini qo'lida ushlab turgani uchun musulmon dunyosida katta mavqeiga ega edi. Usmoniy sulton va xalifa Bosfor bo'g'ozida kemada sayr qilib yurgan kunlarning birida bir guruh musofirlar hozirgi Sultontepada to'planib turganidan voqif bo'lgan xalifa Mustafo Sadir a'zam (bosh vazir)ga to'planib turganlar kimlar ekanligini aniqlashni buyuradi. Bu ko'zlari va yuzlaridan nur sochib turgan kishilar Turkistonlik hojilar bo'lib, Istanbul orqali siz xalifadan Makka va Madina hajiga ketish uchun ruxsat so'rayotganlarini bildirgan. Bu ziyoratchilarning aksariyati Buxorolik bo'lib, oralarida Xo'ja Bahouddin Naqshband ta'limoti targ'ibotchilari, shayx maqomidagi shaxslar bo'lgan. Sulton ularga boshpana qurishga ruxsat berib, Sultontepadan yer ajratish va vaqf qilishni buyuradi. Dastlab xazinadan mablag' ajratilgunga qadar tekki o'rnida chodir uylar bunyod etilgan. Ko'p o'tmay tepalik o'rnida uch qavatli "o'zbeklar tekkesi" (adabiyotlarda "Buxoroliklar tekkesi" bo'lib ham keladi) qad ko'taradi. Tekkening qurilgan sanasi 1752-1753 yillar sifatida qayd etilgan. Sulton Mehmed II tekke qurilishiga mablag' ajratar ekan Naqshbandiy shayxi ordeni vakillaridan Abdulla Ali Anbar bilan shaxsiy muloqotda bo'lgan. Yana bir jihat shundaki Sulton tekkega qurilganidan so'ng shaxsan tashrif buyurgani, tekkedagi musofirlar dastlab barchasi buxoroliklar bo'lgani haqida ham fikrlar mavjud[2;B.2]. Uskudordagi tekkeni Naqshbandiy sulukidagi shayxlar boshqargan. Ular tekkedan turib Xo'ja Bahouddin Naqshband (1318-1389) ta'limotidagi "Dil ba yoru - dast ba kor", "Safar dar vatan", "Xilvat dar anjuman", "Xush dardam", "Kam yegin, kam gapir, kam uxla" kabi so'fiylik aqidalarini turklar orasida targ'ib qilingan. Tekke shayxlarining el orasida, sulton va uning a'yonlari orasida mavqe'i va obro'si baland bo'lgan. Hatto turk sultonining ayrim mo'tabar vazirlari, amalador va a'yonlari ham tekke shayxlariga murid bo'lib, ular naqshbandiya sulukiga a'zo bo'lib kirishgan. Shundan bo'lsa kerak, hozirda Turkiya respublikasida 19-20 foizi musulmonlar o'zlarini naqshbandiylik oqimida deb hisoblashadi.

Tekke Turkistondan Istanbulga keladigan musofir, muhojir, qalandar va darveshlar uchun vaqtinchalik boshpana vazifasini bajargan. Turli maqsadlarda Istanbulga yetib kelganlar tekkega tekin ovqatlanirilganlar, boshpana bilan ta'minlanganlar, hatto, bemorlarga tibbiy yordam ham ko'rsatilgan. Nochor va pulsiz qolganlarga xayr-ehson qilish ham amalga oshirilgan. Makka va Madina hajidan ziyorat qilib iziga qaytganlar bir muddat Uskudordagi tekkega "nafaslarini rostlab", "hordiq chiqarib" keyin asl vatanlariga qarab yo'lga chiqqanlar. Ziyoratchilar orasida ayrim sabablarga ko'ra ajdodlari yurtiga qaytmasligi istagi va zarurati tug'ilsa, bundaylar uchun uy-joy qilib alohida chiqib ketguncha tekkega vaqtincha istiqomat qilishgan. Masalan, Buxoro va Turkiston ozodligi va taraqqiyparvarlik harakatida muhim iz qoldirgan Said Ahroriy

(1895-1931)ning otasi Abdurashid sandiqchi Makka va Madina haj ziyoratidan qayta turib “o‘zbeklar tekkesida” to‘xtagan. Bir muddat u yerda yashab keyin Istanbul guzarlaridan biriga uy-joy qilib chiqib ketgan. Said Ahroriy Istanbulda tavallud topib, turk assubayi (kichik zobit) sifatida birinchi jahon urushi yillarida Kavkaz frontida Rossiya armiyasi tomonidan asirga olingan. Avval Sibirga surgun qilishgan, so‘ngra Turkistonga qochib kelgan. Chunki Rossiya hukumati musulmon amirlari Turkistonga surgun qilishmagan. Turkiston musulmonlari o‘z dindoshi, mashabdoshlarini qo‘llab-quvvatlaydi, degan fikr ruslarda kuchli bo‘lgan[3;B.36].

Uskudordagi “o‘zbeklar tekkesi”dan Turkistondan zulm, soliq siyosati va taqib-tazyiqlar tufayli qochib kelganlar (qochoqlar) ham boshpana topdilar. Ular ham mehr-muruvvat, moddiy-ma‘naviy madad ko‘rsatildi. Ayrim paytlarda O‘rta Osiyo xonlari Turkiyaga yuborgan savdo agentlari, elchilar tekkega tashrif buyurishgan. Savdogar va elchilarning sulton bilan uchrashuvlarini tashkillashtirish o‘zaro bitimlar tuzumi kabilarda tekke shayxlari vositachilik qilishgan. Aytish mumkinki, “O‘zbeklar tekkesi” Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo‘qon xonliklari o‘rtasidagi diplomatic hamda savdo-sotiqda vositachilik qilishgan. Tekke shayxlari Turkiya-O‘rta Osiyo hamkorligini mustahkamlanishining o‘ziga xos “muhim ko‘prigi” bo‘lishgan. Turkiyadagi siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy, ruhiy vaziyatdan va uning o‘zgarib turishi jarayonidan muntazam xabardor bo‘lgan tekke doimiy yashovchilar o‘z vatandoshlari mushkuliga hamisha hamdard bo‘lishgan. Uskudordagi tekke kamida har kuni 50-60 kishi istiqomat qilgan. Tekkega kelib ketuvchilar ham shundan kam bo‘lmagan. Tekkede yashovchilarga dunyoviy va diniy ilmlardan ham vaqt-vaqti bilan saboq bergan. Tekke shayxlari va unda istiqomat qiluvchilar Turkiston mintaqasidagi siyosiy vaziyatdan xabardor bo‘lib turishgan. 1916-yildagi Jizzax qo‘zg‘oloni paytida qo‘zg‘olonchilarga ruhiy madad bo‘lish maqsadida sulton xutbasi va payg‘ambarning “mo‘yi muboragi”ni olib kelgan Abdualil ismli shaxs aslida yorliqni tekke shayxidan olib keldi[4].

Tekkening uch mashhur shayxlaridan biri Ato (ota) afandi Turkiston bo‘ylab sayohat qilib, hatto, sharqiy Buxoroda Anvar posho (1881-1922) bilan uchrashgan. Turkiyadagi “Kamolotchilar inqilobi”ni qo‘llash uchun turklarga yordam ko‘rsatish maqsadida mablag‘ to‘plashni targ‘ib qilgan.

Shu o‘rinda “o‘zbeklar tekkesi”da shayxlik lavozimida faoliyat yuritgan insonlar haqida ham fikr yuritish o‘rinli bo‘lardi. Aynan quyida ism-sharifi keltirilib, faoliyati haqida fikr yuritiladigan shayxlar davrida tekke o‘zining yuksak mavqe‘i va obro‘sig ega bo‘ldi.

Buxorolik shayx Muhammad Ibrohim Adham afandi Naqshbandiya ta‘limoti targ‘ibotchilaridan biri tasavvuf va dunyoviy ilmlardan yaxsigina xabardor inson bo‘lgan. Muhammad Ibrohim Adham afandi Buxorodan avval Adanaga kelgan, so‘ngra “o‘zbeklar tekkesi”ga shayxlik lavozimiga tayinlangan. U haqida “ming san‘at egasi” iborasini qo‘llash odat tusiga kirib, to‘quvchilik, yog‘och o‘ymakorligi san‘atini mukammal bilgan. Hunarmandchilikdan saboq oluvchi “san‘at maktabi”ga uni Midxat poshsho direktor lavozimiga tayinlagan. Bu maktab o‘rta ma‘lumotli hunarmand kasb egalari tarbiyalagan Muhammad Ibrohim Adham afandi rahbarligida maktabdan yuzlab tokar va slesarlar yetishib chiqishdi. Shuningdek, Turkiyada ilk bor “obro‘” (turkcha “ebro‘”) san‘atini ya‘ni marmarga naqsh tushurish san‘atini joriy etdi. O‘sha paytlarning yirik kashfiyoti bo‘lgan, kanalizatsiya tizimida chugun quvurlardan foydalanishni joriy etdi. U 1867-yilda Parij san‘at asarlari ko‘rgazmasida ishtirok etib oltin medal bilan taqdirlandi. Turkiya – ona vatan, O‘zbekiston “Turkiston – ota vatan” degan Turkiyalik muhojirlar uchun an‘anaviy shiorni ilgari surdi[5;294 S.]. Ibrohim Adham afandi tekkeni muzeyga aylantirdi, u yaratgan bug‘ mashinasi, o‘z qo‘li bilan quygan osh-palov qozoni, mis, tunuka idish-tovoqlar, qoshiq-vilkalar antikvar sifatida saqlanmoqda.

Turk hukmron doiralari Ibrohim Adham afandini “texnika kashfiyotchisi” sifatida e‘tirof etib, uni bir necha bor to‘n, sarmo, qimmatbaho sovg‘alar bilan mukofotladilar. U yasagan oila va ro‘zg‘or uchun asqotadigan buyumlar turk e‘tiborli oilalariga kirib bordi.

Ato (ota) afandi ikkinchi taniqli shayx bo‘lib o‘zidan o‘chmas iz qoldirdi. U shayx, fiqhshunos, tasavvuf bilimdoni sifatida nom qoldirdi. Ato afandi tekkeni boshqargan yillarda mamlakatda “Kamolotchilar inqilobida” (1918-1922 yillar) yuz bergan davr edi. Istanbul inglizlar qo‘lida bo‘lib, Angliya, Turkiya mustaqilligini tugatib uni o‘rnida “Buyuk Yunoniston” davlatini tuzmoqchi edi. Shunday og‘ir vaziyatda tekke o‘q-dori, qurol-yaroq omboriga aylandi. Mustafa Kamolning Anqaradagi muvaqqat hukumatni qulab Bosfor bo‘g‘ozi orqali kechqurun katta partiyadagi qurol-yaroq, harbiy anjomlar yashirin yuborib turildi. Tekkede o‘sha yillarda turk ozodlik harakatining vakillari Mehmed Akif Ersuy, Adnan Odil Fevzi poshsho Chaqmoq (keyinchalik Mustafa Kamol hukumatida harbiy vazir, marshal) bosh shtab boshlig‘i tekke yashirin boshpana topishdi. Ingliz bosqinchilari uzoq vaqt tekkening Turkiya ozodligi harakati yo‘lidagi xizmatini aniqlay olmadilar. Tekkening hozirgacha saqlanib qolishida ushbu tarixga dahldor xizmati katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ato afandi Mustafa Kamol bilan uchrashdi, beminnat xizmati tufayli “abadiy prezident”, “turklar otasi”ning izzat-hurmatiga sazovor bo‘ldi. 1925-yilda Mustafa Kamol Turkiyadagi tekkelarni tugatish haqida

farmon berarkan, “o‘zbeklar tekkesi”ni saqlab qolish haqida bekordan-bekor o‘z farmonida alohida qayd etmagan[7;B.151-157].

Uchinchi shayx Najmiddin afandi “o‘zbeklar tekkesi” uning boshqaruvida “musiqi san’ati” markaziga aylandi. Najmiddin afandi dunyoviy va diniy ilmlardan xabardor bo‘lishiga qaramay u o‘nlab musiqa asboblari chala olardi. O‘nlab musiqa, qo‘shiqchilik san’ati vakillarini tarbiyalab yetishtirgan Najmiddin afandining farzandi Adham o‘zbekdan so‘ralganda: “noyob san’at egasi bo‘lgan padari buzrukvorimiz tekke yonidagi qabristonda abadiy uyquda yotibdi” – deb javob bergan.

Albatta, “o‘zbeklar tekkesi” uzoq asrlardan buyon o‘z qiyofasini saqlab qolishida uning bir necha bor ta’irlangani bilan bog‘liq ma’lumotlar ham saqlangan. Usmoniylar saltanati davrida oxirgi marta tekke sulton Abdulhamid II hukmronlik yillarida (1876-1909) to‘la ta’irdan chiqarilgan. Ungacha tekkeni ta’irlab turishda turk sultoni xazinasidan, sulton amaldorlari tomonidan vaqti-vaqti bilan mablag‘ ajratilgan tekke daftardorining qayd daftarida ta’irlash uchun sarflangan mablag‘ yozib borilgan.

AQSHlik o‘zbek, milliarder Ibrohim Adham afandi qizlaridan birining o‘g‘li Ahmad (Ahmet) Ertuygen 1984-yilda o‘zbeklar tekkesini o‘z shaxsiy mablag‘i hisobidan oxirgi bor ta’irlagandi. “O‘zbeklar tekkesi”ni Turkiyadagi o‘zbek madaniyati targ‘iboti markaziga aylantirish haqida istiqlol yillarida bir qator takliflar berildi. Biroq Istanbul shahar rahbariyati bu binoda o‘quvchilar uchun litsey tashkil etdi; bir qator firma va kompaniyalarga boshqa tekkelar singari ijaraga berdi.

Istanbuldagi “Turkistonliklar jamiyati” sobiq raisi Hoqoy Damir turk mutasaddilarga “O‘zbeklar tekkesi”ni ta’irlash uchun O‘zbekistondan usta hunarmandlar taklif etish; tekkeni istiqbolda Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek madaniyatini targ‘ib qilish institutiga aylantirish kabi takliflarni kiritdi. Istanbulda Servantes nomidagi ispan, Byoje nomidagi nemis xalqaro institutlari faoliyat yuritayotganligini hisobga olganda hoqon Demir taklifi ayni muddao bo‘lardi. Ushbu takliflar 2003-yilda Turkiya respublikasi Rejep Tayib Erdo‘g‘an (hozirgi prezident) O‘zbekistonga tashrif buyurganida unga yetkazilgan. Biroq, tekke Istanbul meri tomonidan ta’irdan chiqartirilib, ayrim firma va kompaniyalarga ijaraga berib yuborilganligi achinarli holdir.

Xulosa. Ko‘p asrlar davomida Yaqin va O‘rta sharq mamlakatlarining o‘nlab shaharlarida faoliyat yuritgan takkaxona (tekke)lar orasida Istanbulning (Konstantinopol, Turkiya) Osiyo qismida 1752-1753-yillarda qurilib, hozirga qadar asl qiyofasini saqlab qolayotgan “o‘zbeklar tekkesi”, (“buxoroliklar tekkesi”) o‘ziga xos, ko‘pgina tarixiy voqealarni guvoh bo‘lgan dargoh hisoblanadi. Ushbu tekke salkam 3 asrdan buyon Turkiya-O‘zbekiston qavm-qarindoshlik va o‘zaro do‘stlik aloqalarining ramziy binosi sifatida yashab kelyapti.

Tekke musofir va ziyoratchilar uchun qarorgoh, miskin va kambag‘allar uchun moddiy madad sifatida uzoq asrlar davomida turkistonliklarga xizmat qildi. Uning muzeyda saqlangan o‘zbek palovi damlangan kattakon qozon, asora-atiqalar, idish-tovoqlar va o‘zbek milliy kiyim-kechak buyumlar tekke tarixidan guvohlik beradi[6;100 b.]. Tekkening Turkiya(Usmoniylar saltanati) va O‘rta Osiyo xonliklari o‘rtasidagi savdo-sotiq, diplomatik, madaniy, ilmiy aloqalarini mustahkamlashdagi roli beqiyos bo‘ldi. Shu tekkelar tufayli o‘zbek-turk do‘stligi tarixi ildizlari yanada mustahkamlandi.

“O‘zbeklar tekkesi”ning 3ta mashhur shayxlari Ibrohim Adham afandi, Ato(ota) afandi, Najmiddin afandi kabilar tufayli “o‘zbeklar tekkesi”, “ming hunar markazi”, “musiqi va abro‘(ebro‘) san’ati markazi”, “kamolotchilar inqilobini qo‘llash markazi” kabilariga aylandi. Tekke shayxlari turk yuqori tabaqasi(elitasi) va oddiy xalq orasida naqshbandiylik ta’limotini targ‘iboti bilan mashhur bo‘lishdi. “O‘zbeklar tekkesi”ni O‘zbekiston tarixi va madaniyati targ‘iboti markaziga aylantirish ikki yoqlama ham ahamiyatli bo‘ladi. Bugungi kunda turkiy davlatlar ittifoqi mustahkamlanib borar ekan, turk-o‘zbek qarindoshlik aloqalari yangi pallaga ko‘tarilishi yuz berayotgan ekan, “o‘zbeklar tekkesi” taqdiri haqida jiddiy o‘ylash va oqilona ish tutish foydadan holi bo‘lmas edi.

ADABIYOTLAR:

1. *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Tom 8 “O‘zME” Davlat ilmiy nashriyoti. 2004.*
2. *Mavlonov Shukurzoda. Amerikaning o‘zbek milliarderi yoxud AQSDagi Buxoro shayxlari avlodi Muhammad Munir Ertegün sulolasi haqida// “Vatandosh” gazetasi (AQSH).11-son; 2011-yil 1-dekabr.*
3. *Hayitov Sh.A; Raxmonov K.J. Istiqlolning ikki buyuk farzandi. Buxoro -2003.*
4. *Mirzo Qo‘qondiy Abduholiq. Jizzax qo‘zg‘oloni(qissa)// “Jadid”. 2024-yil 9,16,23-fevral*
5. *Istanbul Turkistan tekkelari (Ata yurt ila ona yurt arasindaki ma’naviy kuprikler).-Istanbul, 2017.*
6. *Hayitov Sh.A. Istanbul safari xotirlari. –Toshkent. “Fan ziyosi”. 2024.*
7. *Hayitov Sh.A. Istanbuldagi Buxoro (Turkiston) tekkelari tarixi xususida/ “Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Buxoro-2019.*

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI VA HINDISTONNI BOG‘LOVCHI SAVDO YO‘LLARI

Ibrohimov Nozimjon Ixtiyorovich,

Buxoro davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

nozimjonibrohimov086@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligi va Hindiston o‘rtasida olib borilgan savdo aloqalarida muhim sanalgan savdo yo‘llari va uning tarmoqlari to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritilgan. Shuningdek, savdo markazlari, ikki mamlakat o‘rtasida amalga oshirilgan import va eksport mahsulotlar turi hamda savdo yo‘llaridan olinadigan bojlar kabi masalalar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Buxoro amirligi, Hindiston, savdo yo‘llari, yo‘nalishlar, davon, savdo markazlar, bozorlar, import, eksport, mahsulotlar.

ТОРГОВЫЕ ПУТИ, СОЕДИНЯЮЩИЕ БУХАРСКИЙ ЭМИРАТ И ИНДИЮ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВВ

Аннотация. В данной статье представлена информация о торговых путях и их ответвлениях, которые считались важными в торговых отношениях между Бухарским эмиратом и Индией. Также были изучены такие вопросы, как торговые центры, виды импортируемой и экспортируемой продукции между двумя странами, а также пошлины, взимаемые на торговых путях.

Ключевые слова. Бухарский эмират, Индия, торговые пути, направления, перевалы, торговые центры, рынки, импорт, экспорт, товары.

TRADE ROUTES CONNECTING THE BUKHARA EMIRATE AND INDIA IN THE SECOND HALF OF THE 19TH - EARLY 20TH CENTURIES

Abstract. This article provides information about the trade routes and their branches that were considered important in the commercial relations between the Bukhara Emirate and India. The study also examines issues such as trade centers, types of imported and exported products exchanged between the two countries, and customs duties collected along the trade routes.

Keywords. Bukhara Emirate, India, trade routes, directions, mountain passes, trade centers, markets, imports, exports, products.

Kirish. Buxoro amirligi O‘rta Osiyoda sharq tijorat dunyosining yirik markazlaridan biri sanalgan. Xususan, XIX asrga kelib tijorat saxosida amirlikning mavqe yanada ortib bordi. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Hindiston o‘rtasida olib borilgan savdo aloqalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jadal rivojlanganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu davrda amirlikning Buxoro, Qarshi, Samarqand, Sherobod, Xisor, G‘uzor va boshqa yirik shaharlari Hindistonning Peshovar, Mo‘lton, Kalkutta, Shikarpur kabi savdo markazlari sanalgan shaharlari bilan izchil savdo ishlarini olib borgan. Ikki mamlakat o‘rtasida amalga oshirilgan tijorat ishlari Afg‘onistonning Qobul, Hirot va Qandahor shaharlaridan o‘tuvchi yirik karvon yo‘llari orqali amalga oshirilgan[1]. Tijorat ishlarini olib borishda karvon yo‘llarining o‘rni beqiyos bo‘lib, savdogarlar o‘z mahsulotlarini manzillariga xavfsiz va tezroq yetib borishdan manfaatdor bo‘lgan. Savdogarlar har doim xavfsiz va ravon yo‘llardan yurishga xarakt qilgan. Yo‘llarning xavfsizligi esa ular uchun eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Asosiy qism. Buxoro amirligi va Hindiston o‘rtasida olib borilgan tijorat ishlarining tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, savdo yo‘llarining o‘rni muhim sanalib ulari bir necha tarmoqlarga bo‘lingan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib amirlik bilan Hindiston o‘rtasida olib borilgan savdo aloqalari bir nechta karvon yo‘llari va ularning yo‘nalishlari orqali amalga oshirilganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Hindistonning Peshovar shahridan yo‘lga chiqqan savdo karvoni Haybor davoni orqali 3 kun yo‘l yurib Jalolobod shahriga, undan so‘ng esa Qobulga kelishgan. Bu yerda savdogarlar olib kelayotgan yuklari uchun zakot solig‘ini to‘lab, yana yo‘lida davom etishgan. Hindikush tog‘lari orqali o‘tuvchi yo‘l tog‘lik hududlardan iborat bo‘lganligi uchun o‘tish ancha murakkab va bir qancha haf xatarlar mavjud bo‘lgan. Savdogarlar uchun asosiy muammo Haybor davonida yashovchi qabilalar sanalgan. Ular doim savdo karvonlariga hujum qilib turishgan. Ularning hujumidan saqlanish uchun savdogarlar haybor davonida yashovchi povinda qabilasining qurolli kuchlaridan

foydalanib kelishgan. Povinda qabilasi karvonlarning xavsizligini taminlashdan tashqari ularning o'zlari ham savdo ishlari bilan shug'ullangan. Povinda qabilasi a'zolari Buxoro bozorlariga Hindistonning janubida to'qilgan "muslin" (yupqa) matosini, nil bo'yog'i, doka, choy, kimxob, bo'yoq beruvchi ildizlar, dorivor giyohlar, kora murch, shali va boshqa savdo mollarni keltirib sotgan [2].

Qobuldan yo'lga chiqqan (Peshovardan) karvon Bomiyyongacha 16 kun yo'l yurgan. Bu davrda savdogarlar Sarichashma, Xulm va Bomiyyonda to'xtab yana zakot to'lashgan. Bomiyyondan chiqqan karvon Balxgacha 2 kun, Balxdan Karkigacha esa 7-9 kunlik yo'lni bosib o'tib bu shaharlarda ham zakot to'lab, Qarshi shahriga yetib kelgan. Bu yerdan Qo'qon va Toshkentga boruvchi savdogarlar Samarqand orqali o'z manzillariga, Buxoroga boruvchilar esa amirlikning turli hududlariga yo'l olishgan[3].

Bu yo'nalishda harakatlangan karvonlar Buxorodan Hindistonga qaytishda ham Qarshi va Karkida boj to'lab, afg'on hududiga kirishgan. Savdogarlar Balx, Xulm, Bomiyyon va Qobul shaharlarida yana boj to'lab, Jalolobodga, undan so'ng Xaybar dovoni orqali Peshovarga ketishgan. P.I. Nebolsin haybar dovoni orqali o'tuvchi Peshovar yo'li Buxoro amirligini Hindistonning Shikarpur, Mo'ltan, Peshovar shaharlari bilan bog'lashda muhimligini ta'kidlagan. Shuningdek, Savdo karvonlari Lahor, Peshovar, Haybar dovoni orqali Kobulga kelishini, bu yerda barcha savdo karvonlari birlashib, Bomiyyon, Oybek, Toshqo'rg'on, Mozori Sharifga, Amudaryodan o'tib Kalifga undan so'ng Buxoroga kelishini, Kobuldan-Buxorogacha bo'lgan yo'lni 27 kun davomida bosib o'tganligini ham bayon qilgan"[4].

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Buxorodan Hindistonga chiqariladigan mahsulotlar ichida ipak alohida o'ringa ega bo'lgan. Buxorodan ipak ortilgan tuyalar 15 kunda Xulmga yetib borgan va savdogarlar har bir pud yuk uchun 1,5 tildan boj to'lashgan. Umuman olganda savdogarlar Hindiston shaharlariga yetib borguncha har bir tuyaga ortilgan ipak uchun 250-300 rupiygacha boj to'lashgan. Buxorodan jo'natilgan ipakning asosiy kismi Mo'ltan shahrida tayyor mahsulotga aylantirilib Hindistonning turli shaharlariga tarqatilgan. Ipakdan tayyorlangan matolarni savdo markazlariga yetkazishda shikapurlik savdogarlar yetakchilik qilishgan[5].

Qarshi shahridan Hindistonga borish uchun chiqqan savdo karvonlari ikki yo'nalishda: Ajirim-Sho'rbozor-Ayritom-Qo'ng'irtog'ning g'arbiy qismidagi qishloqlar orqali[6], ikkinchi yo'l esa Jom-Sho'rquduq-Qoratikon qudug'i orqali Qo'ng'irtog'ning janubiy-sharqiy yon bag'irlari bo'ylab o'tganligi manbalarda keltirilgan[7]. V.A. Petrov Hindistonga olib boradigan Buxoro-Qorako'l tarmog'i to'g'risida ma'lumot bergan. unga ko'ra yo'l Zarafshonning ikkinchi oqimi bo'ylab Chandir qishlog'idan o'tib, Qorako'ldan 40 verst uzoqlikdagi qumliklardan o'tib, Bitik va Farab qishloqlari orqali davom etib, Chorjo'yga undan so'ng Afg'onistonga o'tilgan[8]. Savdogarlar Karmana-Qarshi-Kelif yo'nalishidagi ichki mahalliy yo'l tarmoqlaridan ham foydalanishgan. Ushbu tarmoqlar ham Afg'oniston va Hindistonning asosiy savdo shaharlariga olib borishda muhim tranzit yo'l hisoblangan.

XIX asrning o'rtalariga kelib, Buxoro-Hindiston o'rtasida savdo aloqalar ikkita asosiy yo'l orqali amalga oshirilgan. Birinchisi Kalkutta yoki Bombaydan chiqqan savdo karvonlari Peshovar shahri orqali Qobulga u yerdan Buxoroga; Ikkinchisi esa Hindistondan dengiz yo'li orqali fors qo'ltig'idagi Eronning Bandar-Busheht portiga kelib, u yerdan Isfahon, Mashhad, Marv, Chorjo'y va Buxoroga kelgan. Hindiston mahsulotlarini Buxoroga Eron yo'llari orqali olib o'tish nisbatan qisqa bo'lsa-da, Eron orqali Buxoroga olib olib kirilgan mahsulotlarning tannarxi Afg'onistondan olib kirilganga nisbatan 4 rubl 30 tiyinga arzon bo'lgan. Shuning uchun savdogarlar Eron orqali Buxoro olib keluvchi yo'ldan kam foydalanishgan. Qachonki favqulotda vaziyatlar, davlatlardagi ichki nizolar, karvon yo'li xavsizligi yaxshi ta'minlanmagan vaqtlardagina bu yo'ldan yurishga majbur bo'lgan.

XIX asrning oxiri XX asr boshlariga kelib, oldin mavjud bo'lgan, shahar va tumanlarni bir-biri bilan bog'lovchi yo'llar o'z ahamiyatini yo'qotmadi. 1. Buxoro-Qashqar, 2. Buxoro-Marv, 3. Buxoro-manqishloq, 4. Buxoro-Saroy[9] kabi yo'llar shular jumlasidandir. Bu tarmoqlar ichida Buxoro-Saroy yo'li ingliz-hind mollarni amirlikka olib kirishda muhim savdo yo'li bo'lgan. Saroydan chiqqan karvon Qo'rg'ontepaga kelgan, u yerdan Sharqiy Buxoroning Qozoq mozori, Saroy, Chubek, Bag'oraq, Ko'lob, Hisor va Qabodiyon hududlariga olib borgan[10].

Buxoro-Hindiston savdo aloqalarida Buxoro-Qashg'ar yo'lining o'rni ham muhim edi. Buxorodan yo'lga chiqqan karvolar Samarqand, Xo'jant, O'sh, Marg'ilon, Bulatog' dovoni orqali Qashg'arga yetib borgan. Sado-sotq yaxshi rivojlanganligi uchun ham bu shaharni "Kichik Buxoro" ham deb atashgan, Bu yo'l tarmog'i Marv, Mang'ishloq, Saroy kabi shaharlarining savdogarlari uchun muhim chiqish joyi bo'lib xizmat qilgan. Bu yerda yo'l yana tarmoqlarga ajralib, birinchi tarmoq orqali Xitoyga, boshqasi orqali esa Hindistonga borish mumkin bo'lgan. Bu yo'lning avfzallik tomoni shunda ediki, yo'llardagi oraliq masofalarining yaqinligi va kam xarajatligi bo'lgan. Kamchilligi ya'ni salbiy tomoni bu yo'llar tog' yo'llari bo'lganligi uchun yo'l qisimlarini yomg'irlar yuvib ketishi, yuk ortilgan karvonlarning xavfsiz olib o'tishga qiyinchilik

tug'dirgan[11]. Hind savdogarlari aynan Qashg'ar yo'li orqali O'rta Osiyoni ko'k choy bilan ta'minlab kelishgan[12].

Buxoro-Qarshi-Termiz-Saroy yo'li ham boshqa savdo yo'llari kabi qadimgi davrdan boshlab savdogarlarga xizmat qilib kelgan. Bu yo'l tarmog'i to'g'rsida D. Logofet ham ma'lumot berib "Qadimgi davrlardan boshlab mahalliy va xorij savdogarlari bu yo'ldan uzluksiz foydalanadi. Bu yo'l orqali Yevropa va Hindistonga karvonlar qatnaydi, undan Buxoro amirligi katta xajmda daromad ko'radi deb tariflaydi"[13]. I. Yavorskiy ham bu yo'lning savdo ishlarini olib borishda muhimligini bayon qilgan. Shuningdek, "yo'l harakatlanish uchun tekis va qulay, bu esa karvonlarning doimiy harakat qilishidan dalolat beradi deb ta'kidlaydi"[14]. A. Vamberi esa bu yo'llarning xavfsizligini ta'riflab shunday yozadi: Buxoro amiri tomonidan yo'llar kuchlili inazoratga olingan, bu yo'ldan nafaqat katta-kichik savdo karvonlari, balki alohida sayohat qiluvchilar ham bimalol yurishlari mumkin"[15].

Buxoro amirligining xalqoro savdo aloqalarida Bandi Sulton-Hirot-Qandahor savdo yo'lining ham ahamiyati muhim Manbalarning guvohlik berishicha bu savdo yo'ldan karvonlar qadim zamonlardan beri foydalanib kelinganligi qayd qilingan. XIX asrning 60-80 yillariga kelib ham Buxoro-Chorjo'y-Marv karvon yo'li Buxoro-Hindiston savdo aloqalarini olib borishda nufuzi baland bo'lgan[16]. Buxoro -Chorjo'y- Marv, Buxoro-Qarshi-Termiz-Saroy yo'llari Buxoro-Hindiston savdogarlari uchun asosiy magistral yo'l bo'lib xizmat qilgan. Buxoro-Hindiston savdo aloqalarida quruqlikdagi yo'llardan tashqari Chorjo'ydan Qarshi orqali Saroygacha bo'lgan masofada cho'zilgan Amudaryo suv yo'lidan ham foydalanilgan[17].

Masalan, Qarshi-Termiz-Saroy yo'lining Sherobodan Qarshi- Buxorogacha bo'lgan yo'nalishida yuklarni tashish uchun bir oy davomida 500 tagacha, qishda esa 1000 tagacha tuyalarni yollash mumkin bo'lgan. Tuyalarda yuklarni tashish narxlari turlicha bo'lgan. Sherobodan Qarshigacha 3 rubl 40 kopeykadan 4 rublgacha, Kalifgacha 3 rubldan 3 rubl 50 kopeykagacha, G'uzorgacha 2 rubl 60 kopeykadan 3 rublgacha, Amudaryo kechuvidagi Cho'chqaguzargacha 1 rubl 60 kopeykadan 1 rubl 90 kopeykagacha kira haqi olingan[18].

Y.A.Lyusternik Buxoro-Hindiston savdosida Panj va Amudaryo qirg'oqlari bo'ylab Buxorogacha cho'zilgan uchta savdo yo'llar tarmog'ini ko'rsatib, ulardan ham savdo karvonlari qatnaganligini ta'kidlagan. Birinchisi Buxorodan Kalkutttagacha bo'lgan yo'l tarmog'i uning oraliq masofasi 7674,4 kmni tashkil etib savdo karvoni 181 kunda mazilga yetib borgan. Yo'lning oraliq masofasining uzoqligi, davonlardan o'tishda savdogarlardan katta mashaqqat talab qilganligi uchun buxorolik va boshqa savdogarlar bu yo'ldan deyarli foydalanishmagan. Ikkinchisi Buxorodan Kalkutttagacha bo'lgan yo'lning yana bir qo'shimcha tarmog'i bo'lib, uning umumiy uzunligi 7165,6 kmni tashkil etib, karvonlar 169 kunda yetib borgan. Bu yo'l tarmog'i ham savdogarlar uchun qulay bo'lmagan, shu sababli undan kam hollar foydalanishgan. Uchinchisi Buxorodan Hindistonning savdo markazi sanalgan Kalkutttagacha bo'lgan shoshilinch yo'li, bu yo'l 7716,8 km dan iborat bo'lib, bu masofani 172 kunda bosib o'tish mumkin bo'lgan[19].

Buxoro amirligining xorij davlatlari bilan olib borilgan savdosida Hindistonning o'rni muhim bo'lgan. Masalan, Buxorodagi Abdurashid, Badriddin, Barran ko'hna, Domlasher, Ismoilxo'ja va Mirzagul karvonsaroylari Peshovardan keltirilgan choylar uchun omborxona vazifasini o'tagan. Bu karvonsaroylarda choyni 16 xil navi sotilgan. N.Petrovskiy 1870 yil boshidan ingliz-hind mollari savdosi to'g'risida ma'lumot to'plab "O'rta Osiyo savdosiga oid ikki yillik kuzatishlarim asosida men aniq ishonamanki, Buxoro bu savdoning bosh maskanidir", – deb ta'riflaydi[20].

XIX asrning 80-yillariga qadar bo'lgan davrlarda Buxoro-Hindiston o'rtasida amalga oshirilgan savdo yo'llar va ularning tarmoqlari savdo sotiq ishlarini olib borishda muhim ahamiyatga ega edi. Masalan, Bombeydan Buxoroga Qobul orqali yetkazilgan ingliz-hind mahsulotlari yiliga 4 mln. rubldan iborat bo'lgan. Bunda Afg'oniston orqali olib kirilgan savdo mahsulotlarning ulushi sezilarli ijobiy ko'rsatkichga ega bo'lgan. 1895-yildan boshlab Batumi tranzit yo'lining ochilishi bilan bu yo'l bu karvon yo'llari o'zining oldingi ahamiyatini yo'qotdi.

1880-yil 26-avgustda Mixaylovskoe ko'rfazidan Qizil Arvatgacha bo'lgan 217 chaqirimlik masofada temir yo'l qurish ishlari boshlandi. Transkaspiy temir yo'lining qurilishi Buxoro amirligi va Turkiston o'lkasiga hind choyi importining o'sishga katta turki bo'ldi. Hindistondan keltirilgan choy va boshqa savdo mollari dengiz orqali Batumiga, Kavkaz temir yo'li bo'ylab esa Bokuga yetkazilgan, u yerdan Kaspiy dengizi orqali Krasnovodskka jo'natilgan. Bu yo'l Rossiya uchun ham juda foydali bo'lib, Rossiya paroxodlari va temir yo'llari orqali yetkazilgan yuklardan katta foyda ko'rgan. 1895 yilda dengiz tranzit yo'lining ochilishi natijasida ko'k choy importi 25 ming pudgacha oshdi, bu umumiy choy importining 1/5 qismini tashkil etgan[21].

1888-yil may oyidan boshlab Buxoro-Hindiston savdogarlari yangi savdo yo'lidan ham foydalana boshladi. Hind mahsulotlari O'rta Osiyoga Bandar-Bushir, Mashhad, yoki Batumi va Krasnovodsk orqali kirib kela boshladi. Bu marshrut bir qator afzalliklarga ega bo'lgan. Birinchidan, bu yo'l yuklarning tezroq o'z

HISTORY

maziliga yetib kelishni taminlagan (ilgari mahsulotlar 5-6 oydan ortiq vaqt davomida yetkazilgan), ikkinchidan, yo'l xavfsizroq bo'lgan (yo'llarda hech qanday talonchilik yoki o'g'irlik sodir bo'lmagan). Yangi savdo yo'li Rossiya sanoat va savdo doiralari uchun katta istiqbollarni ochib berdi. Shuningdek, bu temir yo'l Rossiya savdogarlari manfaati uchun ko'proq xizmat qilgan. Biroq, yangi savdo yo'lining ochilishi hind savdogarlari uchun to'liq samara bermadi. Transkaspiy temir yo'lidagi yuqori bojlar Buxoro amirligi va Turkiston o'lkasiga hind mahsulotlarining kirib kelishini sezilarli darajada kamaytirgan. Masalan, I. A. Remez 1891-1892 yillarda muslin va indigo importi 1 mln. 128 ming rublga qisqarib ketganligini ta'kidlaydi[22].

Xulosa. Savdo yo'llarining O'rta Osiyo davlatlari uchun ahamiyati juda katta bo'lib, bu yo'llardan buxorolik savdogarlardan tashqari Xiva, Qo'qon xonligi va sharq mamlakatlari savdogarlari ham faol savdo ishlarini olib borishgan. Buxoro-Hind savdogarlari karvon yo'llarida bir necha marta zakot solig'ini to'lashga majbur bo'lishiga qaramay ikki davlat o'rtasida savdo sotiq ishlari to'xtab qolmadi, aksincha, yildan yilga savdo aloqalari rivojlanib borgan. Amirlikka temir yo'lining kirib kelishi bilan ikki davlat o'rtasida amalga oshirilgan savdo yo'llarining ahamiyati pasayib ketdi, bu yo'llardan foydalanish deyarli to'xtadi. Endilikda Buxoro-Hindiston savdogarlari yangi savdo yo'lidan Bandar-Bushir, Mashhad, Batumi, yoki Krasnovodsk yo'lidan foydalana boshladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ochildiyev, F. B. (2023). Trade relations of the emirate of bukhara with india in the 60-80 years of xx century. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(06), 38-45.
2. Razoqov D.X. Buxoro xonligining tashqi savdo aloqalari.(XIX asrning 60-90-yillari).Toshkent.1994.-S124.
3. Teterevnikova A.N. Ocherk vnutrennoy trgovli kirgizskoy stepi. > -Spo; 1867 -S.64.
4. Nebolsin P. I. Ocherki trgovli Rossii so Sredney Aziey // ZRGO. Kn. 10. SPb.,1855.-S. 186
5. Baykova N. B. Rol Sredney Azii v russko-indiyskix trgovnykh svyazyax. – T., 1964.-C.184.
6. Yevreynov. Rekognossirovka puti cherez Djamskiy pereval na Guzar i na Karshi 1887 g. / Sbornik geograficheskix, topograficheskix i statisticheskix materialov po Azii. – SPb., 1888. – S. 115-118.
7. Xanikov N. Opisanie Buxarskogo xanstva... – S. 106–108.
8. Petrov V.A. Putevye zametki klassnogo topografa tit. sov. Petrova 1884 g. / Sbornik geograficheskix, topograficheskix i statisticheskix materialov po Azii. – Vyp. XXI. – SPb., 1886. – S. 60-63.
9. Yorov A.Sh. Buxarskiy emirat na mirovom rynke (vtoraya polovina XIX - nachalo XX stoletiya) Dissertasiya. Dushanbe - 2005. -S.85.
10. O'zMA, I 46-jamg'arma, I-ro'yxat, 12-ish, 92-varaq, 93- orqa varaq,
11. Yorov A.Sh. Buxarskiy emirat na mirovom rynke (vtoraya polovina XIX - nachalo XX stoletiya) Dissertasiya. Dushanbe - 2005. -S.85.
12. Torgovoe dvijenie anglichan v Srednyuyu Aziyu //Turkestanskije vedomosti. 1871.
13. Logofet D. V gorax i na ravninax Buxary. - SPb., 1913. - S.395-396.
14. Yavorskiy I. Puteshestvie russkogo posolstva po Afganistanu i Buxarskomu xanstvu (1878-79). -T.1.-SPB., 1882.-C.42.
15. Vamberi A. Puteshestvie po Sredney Azii. M. Vostochnaya literatura.-S.112-113.
16. Ochildiyev, F. B. (2022). Socio-political processes in the bukhara emirate in the second half of the xix-early xx centuries. *Current research journal of history*, 3(03), 13-20.
17. Yusupov Sh. Vaxshskaya dolina nakanune ustanovleniya sovetsoy vlasti. - S.94.
18. Ochildiev F.B. Surxon vohasi beklklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar. T.: ABU MATBUOT-KONSALT. 2008.– B.138.
19. Lyusternik Ye.Ya. Russko-indiyskie ekonomicheskie svyazi v XIX veke. / Ye.Ya. Lyusternik. - M., 1958.-S.84-86.
20. Ochildiev F.B. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent, "FIRDAVS-SHOH" 2022. –B. 218.
21. Gubarevich-Rodobyilskiy A. F. Chay i chaynaya monopoliya. SPb., 1908. -S. 88.
22. Remez I. A. Vneshnyaya trgovlya Buxary do mirovoy voyny. Tashkent, 1922.-S. 16.
23. Ochildiev, F. B. (2024). Trade relations of the bukhara empire with russia in the second half of the 18th century-the beginning of the 19th century.The American journal of social science and education innovations,6(02), 25-30.
- 24.Ibrokhimov, N. I. . (07.11.2023). Trade relations between the emirate of bukhara and india in the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 3(06), – R. 9–15.

HISTORY

25. Nozimjon I. Ibrokhimov.(31.01.2024). *The place of trade in the diplomatic relations of the bukhara emirate with india*. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, <https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-01-03>. – R. 21–27.

26. Nozimjon Ibrokhimov. (19.12.24). *Trade relations of bukhara emirate with india in the xix century*. *Oriental Journal of Social Sciences*. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-04-06-18>. -P. 164-171.

TURKIYA MAFKURAVIY SIYOSATINI RIVOJLANISHIDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI

Ravshanov Suhrobbek G'ayrat o'g'li,

*O'zMU Siyosat nazaryasi va falsafasi: siyosiy talimotlar tarixi va metodologiyasi mutaxassisligi bo'yicha tayanch doktoranti
suhrobbekravshanov03@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada rivojlangan davlatlar qatoridan o'z o'rnini egallagan hamda dunyo yetakchiligiga da'vo qilayotgan Turkiyaning xalqaro maydonda ta'sirining oshishiga katta hissa qo'shayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarining mafkuraviy, siyosiy, ijtimoiy, gumanitar ta'siri baholab o'tilgan. Bu tashkilotlarning Turkiyaning "yumshoq kuch" siyosatini amalga oshirishda muhim bo'g'ini bo'lib xizmat qilmoqda. Butun olam o'zaro urushlar, ochlik, qurg'oqchilik, tabiiy ofatlardan aziyat chekayotgan bir davrda ularning bu qiyinchiliklarni yengib o'tishda kamarbasta bo'lib turgani tahsinga sazovordir. Aynan bu ko'makni nafaqat musulmon olamiga, balki sobiq usmonlilarning ta'sirida bo'lgan hududlarda ham olib borilayotgani turklarga nisbatan yaxshi kayfiyatni shakllantiribgina qolmay ularga nisbatan xayrixohlikni ham oshirmoqda.

Kalit so'zlar: 'yumshoq kuch', madaniy muammolar, nodavlat notijorat tashkilotlari, BMT, AKP, UNICEF, Yevropa Ittifoqi, neoliberalizm.

НЕПРАВИТЕЛЬСТВЕННЫЕ НЕКОММЕРЧЕСКИЕ ОРГАНИЗАЦИИ В РАЗВИТИИ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ

Аннотация. В статье оценивается идеологическое, политическое, социальное и гуманитарное воздействие неправительственных, некоммерческих организаций, вносящих существенный вклад в повышение влияния Турции на международной арене, занявшей свое место среди развитых стран и стремящейся к мировому лидерству. Эти организации служат важным звеном в реализации политики «мягкой силы» Турции. В то время, когда весь мир страдает от войн, голода, засухи и стихийных бедствий, похвально, что они стойко преодолевают эти трудности. Именно такая поддержка оказывается не только мусульманскому миру, но и территориям, находящимся под влиянием бывших османов, что не только создает хорошее настроение по отношению к туркам, но и повышает доброжелательность по отношению к ним.

Ключевые слова: «мягкая сила», культурные вопросы, неправительственные организации, ООН, ПСР, ЮНИСЕФ, Европейский союз, неолиберализм.

NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN THE DEVELOPMENT OF TURKEY'S IDEOLOGICAL POLICY

Abstract. The article assesses the ideological, political, social, and humanitarian impact of non-governmental non-profit organizations, which have made a significant contribution to the increase in the influence of Turkey, which has taken its place among the developed countries and is striving for world leadership, in the international arena. These organizations serve as an important link in the implementation of Turkey's "soft power" policy. At a time when the whole world is suffering from wars, hunger, drought, and natural disasters, it is commendable that they are standing firm in overcoming these difficulties. It is precisely the fact that this support is provided not only to the Muslim world, but also to the regions under the influence of the former Ottomans, which not only creates a good mood towards the Turks, but also increases goodwill towards them.

Key words: 'soft power', cultural issues, non-governmental organizations, UN, AKP, UNICEF, European Union, neoliberalism.

Kirish. Sharq va G'arb o'rtasidagi ko'prik bo'lib kelayotgan Turkiya o'zini bugungi kunda turkiy dunyoga, musulmon dunyosiga rahnamo sifatida ko'rmoqda. Da'vo qilishi uchun yetarlicha imkoniyatlari va sabablari mavjud. Sharqiy blokning qulashi va siyosiy ikki qutblilik tugashi ortidan paydo bo'lgan yangi dunyo tartibi, sovuq urush davrida yuzaga kelgan biroq turli xavf omillari tufayli yuzaga chiqqan olmagan ko'plab mikro muammolarni siyosiy maydonga olib chiqdi. Mazkur muammolarni siyosiy maydonga olib chiquvchilar

ko'pincha nohukumat tashkilotlar bo'ldi. Shu sabab XX asrning ikkinchi yarmiga kelib nohukumat tashkilotlarning ham ichki, ham tashqi siyosatda qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki sezilarli darajada ortib bordi. Yangi dunyo tartibi natijasida avval mavjud bo'lgan ikki qutblilik turli dinlar, falsafalar va iqtisodiy tushunchalardan iborat o'nlab yangi bloklarga bo'linishiga olib keldi. Bu esa Turkiya uchun Ittifoq parchalangach uning o'rniga chiqish uchun harakat boshladi. Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Bolqon davlatlariga asosiy e'tiborini qaratdi. Bu mintaqalarda ta'sirini oshirishda amerikalik olim J. Nay yaratgan "yumshoq kuch" nazaryasi juda qo'l keldi. Chunki uni qo'llash uchun Turkiyada yetarlicha imkoniyat va resurslar mavjud edi. "Yumshoq kuch"ning muhim qon tomiri sifatida Turkiyaning nodavlat notijorat tashkilotlari paydo bo'ldi. Bu tashkilotlarning jamiyatning barcha jabhalarini qamrab olib, Turkiyaning ta'sirini oshirmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Turkiyaning nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatiga nafaqat Sharq, balki G'arb olimlari ham katta qiziqish bilan kuzatib bormoqda. Yangi dunyo tartibotini shakllanishida Turkiyaning o'rnini baholab nodavlat notijorat tashkilotlariga ham to'xtalib o'tgan olim Binay. M, ingliz olimi Adele Wudz, I. Mag'a, O'Jaha. Altan – Oljay va ko'plab turk olimlarini keltirishimiz mumkin. NNT larni o'rganish asnosida qiyosiy uslub, tarixiy-madaniy uslublardan keng foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Turkiyada madaniy, tarixiy, diniy va iqtisodiy tushunchalardan quvvat oluvchi yangi siyosiy tushuncha va o'ziga ishonch hamda milliy o'ziga xoslik paydo bo'ldi[1]. Bu singari yangi qarashlar va o'zgarishlarning shakllanishida nohukumat tashkilotlar muhim rol o'ynadi. Shunday qilib, milliy hukumatlar faqat jahon iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan davlat xizmatlarini ko'rsatishi kutilayotgan bugungi global iqtisodiy munosabatlarda NNTlarning ham milliy, ham xalqaro miqyosdagi kuch va faolligini tobora ortib borishiga olib keldi. Masalan, 1945-yilda BMT tashkil etilganda, xalqaro munosabatlarni shakllantirishda asosiy ishtirokchilar davlatlar ekanligi shubhasiz edi. Bugunga kelib bu tushuncha o'zgardi, XXI asrning birinchi o'n yilligi oxiriga kelib nodavlat notijorat tashkilotlari vaqti-vaqti bilan davlatlardan ko'ra xalqaro munosabatlarga ko'proq ta'sir ko'rsatadigan yangi o'yinchilar sifatida o'zlarini ko'rsatishmoqda, ularning siyosati ham global, ham milliy va mahalliy miqyosda aks etmoqda. Ular qanday nomlanishidan qat'i nazar, NNTlar bugungi kunda xalqaro tizimning o'ta muhim ishtirokchilaridir. Ma'lumki, ayrim yirik NNTlarning byudjetlari va resurslari ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarnikidan yuqori. Bolalar jamg'armasi (*Save the Children Fund (SCF)*), Yepiskoplarga yordam fondi (*MISEREOR*), Oxfam-UK, Friedrich-Ebert Foundation, Qishloq xo'jaligini rivojlantirish milliy assotsiatsiyasi (*Association nationale pour le Developpement Agricole*), Amnesty International, Greenpeace, Chegara bilmas shifokorlar (*Médecins sans Frontière*), UNICEF, International Planned Parenthood Federation, Hermann-Gmeiner-Fonds va boshqa shunga o'xshash nodavlat notijorat tashkilotlari o'z faoliyat guruhlarida yetakchi bo'lib, ko'plab mamlakatlarning milliy byudjetlaridan kattaroq byudjetga ega bo'lishdan tashqari, xalqaro tashkilotlar va davlatlarning qaror qabul qilish mexanizmlariga bevosita ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega[2]. Masalan, hozirda Greenpeace xalqaro nodavlat ekologik tashkilot sifatida Yevropa, Amerika, Osiyo va Tinch okeanining 40 ta davlatida faoliyat yuritadi, 24 ta milliy va 4 ta mintaqaviy vakolatxonalari bilan 101 ta davlatda 2,8 million tarafdor tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. O'zining qudrati tufayli NNT AQSHning 1971-yilda Alyaskadagi yadro sinovlaridan voz kechishida, 1996-yilda butun dunyo bo'ylab yadroviy sinovlarni taqiqlashda, Shell shirkatining 1995-yilda Shimoliy dengizdagi Brent Spar neft yonilg'i quyish platformasini cho'kib ketishining oldini olishda katta rol o'ynadi. Shuningdek, 2000-yilda Turkiyaning atom energetikasi loyihasini bekor qilish yo'lida jamoatchilik fikrini faol shakllantirishda katta natijaga erishdi.

Xalqaro miqyosda faoliyat olib boruvchi yana bir muhim NNTdan biri "Chegara bilmas shifokorlar" tashkiloti bo'lib u o'zining uzoq yillik faoliyati davomida milliy hukumatlar kirib borolmagan nuqtalarga kirib bordi va milliy hamda xalqaro miqyosdagi sog'liqni saqlash tizimida muhim ishtirokchiga aylandi. Xususan, bezgak va Ebola kabi o'lim xavfi yuqori bo'lgan kasalliklardan aziyat chekayotgan hududlardagi samarali faoliyati, 1999-yilda Tinchlik uchun Nobel mukofotiga munosib ko'rilgan edi. Mazkur tashkilot Kosovo, Ruanda, Checheniston, Vetnam, Nikaragua, Livan, Afg'oniston va Efiopiya kabi mamlakatlardagi fuqarolar urushlari, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muammolarni hal qilish va tabiiy ofatlardan keyin muhtoj aholiga yordam qo'lini cho'zish borasida ham hal qiluvchi rol o'ynagan edi. Bugungi kunda "Chegara bilmas shifokorlar" tashkilotining 18 mamlakatda filiallari bor va NNT turli inqiroz zonalarida 20 000 mahalliy xodim, 2 000 xalqaro hamshira, texnik, logistika va moliya mutaxassislarini ish bilan ta'minlaydi. UNICEF ga kelsak, u BMT tomonidan bolalarni himoya qilish, ta'limni rivojlantirish, bolalarni asosiy ehtiyojlar bilan ta'minlashga yordam berish va ularning o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishi uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida yaratilgan fondidir. UNICEF kam ta'minlangan, o'ta qashshoqlikda yashovchi, tabiiy ofatlar qurboni bo'lgan, zo'ravonlik va ekspluatatsiyadan aziyat chekkan, nogiron bolalarni alohida himoya qilishga katta ahamiyat beradi. U o'z faoliyati davomida hukumatlarni bolalar huquqlarini keng himoya

qilishga chaqiradi, har yili e'lon qilib boradigan hisobotlari orqali u davlatlarning bolalar huquqlari borasidagi siyosatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Nodavlat tashkilotlarning faoliyati Turkiya fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishda yangi hodisa sifatida ko'rilmasa-da, biroq G'arb mezonlari asosidagi fuqarolik jamiyati fenomeni haqida gap ketganda bu tashkilotlar faoliyatiga nisbatan yangi sub'ekt sifatida qaraladi. Turkiyada nodavlat tashkilotlar bilan ishlash bo'yicha eski amaliyot va an'analar mavjud, biroq hozirgi vazifasini hisobga olganda, bu yo'nalish yangi va kam rivojlangan hisoblanadi[3.7-17]. Davlat ko'plab sohalarida, jumladan, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohalarida o'z mas'uliyatini NNTlar yoki bozorga topshirayotgan bir sharoitda Turkiya ijtimoiy siyosiy hayotida nodavlat tashkilotlar faoliyati ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Biroq Turkiyaning nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik borasidagi amaliyotining o'ziga xosligi shundaki, tashkilotlarga nisbatan neoliberal qarashlar faoliyatning barcha sohalarida o'z ta'sirchanligini saqlab, g'oyalar ustidan hukmronlik qilishga harakat qiladi. Turkiyada fuqarolik tashabbusi harakatlari doirasida baholanishi mumkin bo'lgan ko'plab nodavlat tashkilotlar mavjud. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin[4.75-80]:

1. "Professional" nodavlat tashkilotlar (Kasaba palatalari va uyushmalari, ommaviy axborot vositalari);
2. "Huquq va erkinliklar" sohasida rivojlanayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari: Inson huquqlari assotsiatsiyasi (*Human Rights Association*), Mazlum-Der;
3. An'anaviy konservativ bo'lmagan nodavlat tashkilotlari: Maarif Foundation;
4. "Tahlil platformasi" sohasida rivojlanayotgan nodavlat tashkilotlar: Liberal Thought Community, Freedom Research Association, TESEV, TÜSEV;
5. Etnik va madaniy huquqlar atrofida vujudga kelgan nodavlat tashkilotlar: Kavkaz uyushmalari, alaviylar uyushmalari, Kurd Harakati;
6. Fuqarolik jamiyati jabhasi sifatida e'tiborni tortayotgan sohalardan biri atrof-muhitga muhofazasi: TEMA, Turkiya Atrof-muhit jamg'armasi, Tabiiy hayotni himoya qilish uyushmasi;
7. Yana bir toifaga kamolchilik singari yo'nalishdagi tashkilotlar kiradi. 1980-yillarda paydo bo'lgan Zamonaviy hayotni qo'llab-quvvatlash uyushmasi singari;
8. Nodavlat notijorat tashkilotlari rivojlanishining yana bir yo'nalishi tadqiqot va hamkorlikdir: AKUT, Deniz Feneri, Turk Qizil Yarim Oy jamiyati, Diyanet Foundation, Human Rights and Freedoms Humanitarian Relief Foundation (IHH), Volunteers, Hayrat Humanitarian Relief Foundation, Aziz Hüdayi Foundation, Cansuyu Assistance and Solidarity Association, Yardımeli International Humanitarian Aid Association, Doctors Worldwide, Search and Rescue Association, Beşir Association, Sadakataş Association, Vuslat Association;
9. Bu turkumlashga Turkiyada faoliyat yuritayotgan xalqaro nohukumat tashkilotlarni ham kiritishimiz mumkin: Conrad Adenaur foundation, Amnesty International, Helsinki Monitoring Committee, Green Peace va boshqalar singari.

Turkiya nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati uzoq tarixiga ega bo'lsada, o'nlab yillar davomida bu tashkilotlarning asosiy vazifasi davlat ideallarini targ'ib qilishga yo'naltirilgan edi[5.43]. 1980 va 1990-yillarda Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga integratsiyalashuv bilan bog'liq siyosiy spektrdagi o'zgarishlar, ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasidagi majburiyatlarning bajarilishi NNT faolligini oshirdi[6.73-83]. 2000-yillarga kelib esa YEI tomonidan qo'yilgan majburiyatlarni faol bajarilishi NNTlar sonining yanada o'sishiga olib keldi, ularning ko'pchiligi demokratlashtirish yo'nalishiga ega edi[7.157-179]. Bu davrda Turkiya hukumati uyushmalar va jamg'armalar to'g'risidagi qonunlarni liberallashtirdi, tashkilotlar ustidan davlat nazorati darajasini, shu jumladan, moliyalashtirish manbalari va tashqi sherikliklar kabi masalalarni yumshatdi[8.76]. Shunga qaramay, Assotsiatsiyalar Departamenti va Jamg'armalar Bosh boshqarmasi og'ir byurokratik qoidalarga bo'ysunishda davom etgan fuqarolik jamiyati tashkilotlarini nazorat qilish usullarida nomuvofiqligicha qoldi[9].

2011-yil ATP parlamentda ko'pchilik o'rinlarni qo'lga kiritganidan so'ng NNT reglamentini liberallashtirish yo'nalishini o'zgartirdi. 2013-yildagi Gezi bog'idagi noroziliklardan so'ng hukumat hukumatga qarshi faollar va ular bilan bog'liq tashkilotlarni bostirishga kirishdi. (Sarfati, 2017) . 2015-yilda, asosan, kurdlardan tashkil topgan Xalq demokratik partiyasi (HDP) parlamentda o'z o'rniga ega bo'lgach, AKP kurd hududlariga harbiy bostirib kirishga kirishdi va kurd fuqarolik jamiyati ishtirokchilariga qarshi keskin choralar ko'rdi (Aras & Duman, 2019) . Ko'p o'tmay, 2016-yil iyul oyida rejimga qarshi muvaffaqiyatsiz davlat to'ntarishi fuqarolik jamiyatining keng doirasi, jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari, maktablar, ommaviy axborot vositalari va davlat xizmatchilarining katta kadrlarini qattiq bostirishga sabab bo'ldi. To'ntarish va undan keyin bostirilishi Turkiyada faoliyat yuritayotgan G'arb nodavlat tashkilotlariga nisbatan shubhalarni kuchaytirdi (Mellen & Lynch, 2017) .

Bu kuchaygan tazyiq va avtoritarizm kuchayib borayotganiga qaramay, Turkiyada fuqarolik jamiyati tashkilotlari soni o'sishda davom etdi (Yabansi, 2019) . Ushbu o'sishning bir qismini Turkiya chegaralarida

suriyalik qochqinlar sonining ko'payishini qo'llab-quvvatlash uchun paydo bo'lgan tashkilotlar bilan bog'lash mumkin (Sunata & Tosun, 2019). Turli tashkilotlar suriyalik qochqinlarga xalqaro tashkilotlar, milliy nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalliy boshlang'ich tashkilotlar va diniy xayriya tashkilotlari hamda milliy, viloyat va mahalliy darajadagi davlat institutlarini qo'llab-quvvatlaydigan "faoliyat aralashmasi" ni tashkil qiladi (Yilmaz, 2019). 2016-yilda Yevropa Ittifoqi va Turkiya o'rtasidagi kelishuv bo'yicha muzokaralar natijasida suriyaliklarga insonparvarlik yordami uchun olti milliard yevro mablag' ajratilgan, evaziga muhojirlarning Yevropaga borishini oldini olish uchun chegarani xavfsizlik bilan ta'minlagan. Yevropa Ittifoqining qochqinlar bo'yicha jamg'armasi ushbu mablag'larni BMT agentliklari tomonidan INGO, NNT va davlat institutlari orqali boshqariladigan loyihalarga ajratdi (Mandirasi, 2020). Natijada, bir qancha nodavlat notijorat tashkilotlari qochqinlarni qo'llab-quvvatlash sohasida o'z faoliyatini davom ettirdi, hattoki davlat qochqinlarni qabul qilish rejimini mustahkamlagan va fuqarolik jamiyati faoliyatini bostirgan bo'lsa ham.

Nodavlat notijorat tashkilotlari bugungi dunyoda, ayniqsa demokratik jamiyatlarda tobora o'sib borayotgan o'rinni egallab, ularning sanksiyalar qo'llash qobiliyati asta-sekin o'sib bormoqda. Shu voqelikdan so'ng, milliy va xalqaro NNTlar nafaqat ijtimoiy taraqqiyot rolini o'ynashi, balki demokratik hayot taraqqiyotida muhim rol o'ynashi haqiqatdir va Yevropa mamlakatlarida ham, mamlakatimizda ham mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'rtasida parallel yondashuv muhim ahamiyatga ega. milliy siyosat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati. Shu maqsadda nodavlat notijorat tashkilotlarining ushbu rivojlanishi va taraqqiyoti hamda ularning o'rni mamlakatimizning ichki va xalqaro siyosati va strategiyalari bilan uyg'un holda e'tiborga olinishi, milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda baholanishi hamda rag'batlantiruvchi muhit yaratilishi zarur. yanada samarali muvofiqlashtirish va hamkorlikni yaratish kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda demokratiyaning o'ziga xos xususiyatlari konstitutsiyaviy davlat, hokimiyatlar bo'linishi, siyosiy erkinlik, shaffoflik, davlat boshqaruvining cheklanganligi, dunyoviylik, xalq va nodavlat notijorat tashkilotlarining erkin o'z taqdirini o'zi belgilashini aks ettirish uchun saylov natijalari zarur hisoblanadi. Boshqa tomondan, demokratiyaning regressiv omillari sifatida quyidagi omillar ta'kidlanadi: politsiya davlati, hokimiyatning monopollashuvi, qaram sud tizimi, cheksiz hukumat, inson huquqlarining buzilishi, depolitizatsiya, diktatura rahbariyatining taqiqlari, sirlar, dinni yashirish, siyosiyashtirish, ta'limning past standartlari, siyosiy befarqlik, manfaatlar va bosim guruhlari suvereniteti, plutokratiya. Shubhasiz, demokratik qadriyatlar hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan bugungi kunda NNT faoliyati va jamoaviy ishtirokni inkor etib bo'lmaydigan omillardir. Boshqacha aytganda, nodavlat notijorat tashkilotlari o'z maqsadlari qanday bo'lishidan qat'i nazar, demokratik mamlakatlardagi fundamental tashkilotlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Binay, M. (1997), 1997'de Yeni Dünya Düzeni, <http://www.turkiye.net/mbinay/review96/1997.html>. (05.03.2024)
2. Woods, Adele (2000), *Facts About European NGOs Active in International Development, International Development, Development Centre Studies, Development Centre of the Organization for Economic Co-operation and Development (OECD)*.
3. Mağa, İ. (2001). *Sivil Toplum: Bir Devletin Büyümesi, İstanbul: YGS Yayınları. S 7-17*
4. Çaha, Ö. (2017). *Sivil Toplum Sivil Topluma Karşı: Sivil Toplumun Türkiye'deki ve Dünyadaki Serüveni. İstanbul: Mana Yayınları. S. 75-80*
5. Bahçecik, ŞO., & Turhan, Y. (2022). *Mapping relations between state and humanitarian NGOs: The case of Turkey. Third World Quarterly, 43, 979.*
6. Tocci, N. (2005). *Europeanization in Turkey: Trigger or anchor for reform? South European Society and Politics, 10(1), 73–83.*
7. Altan-Olcay, O., & Icdygu, A. (2012). *Mapping civil society in the middle east: The cases of Egypt, Lebanon and Turkey. British Journal of Middle Eastern Studies, 39(2), 157–179.*
8. Bikmen, F. (2005). *Progress on civil society legislation in Turkey. The International Journal of Not-for-Profit Law, 7(2), 76.*
9. Varon, L., Yermioğlu Yılmaz, S., Dereci, S., Ersen, T.B., and Balcıoğlu, Z. (2014). *Monitoring Matrix on Enabling Environment for Civil Society Development: Turkey Report. TUSEV.*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA JANUBIY KOREYA MUNOSABATLARINING
TARIXIY TADRIJI BORASIDA**

Nurmetova Fazilat Ilxomovna,

Andijon davlat universiteti erkin tadqiqotchisi,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

siyosiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya munosabatlarning tarixiga nazar tashlanib, uning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalari tarixi, rivojlanish evolyutsiyasi hamda hozirgi holati haqida ma'lumotlar tadqiq etildi. Unda sarmoyaviy hamkorlik, texnologiyalar transferi, ta'lim tashabbuslari va institutsional asoslar, shu jumladan, KOICA kabi asosiy sohalarga e'tibor qaratildi. Maqolani yozishda tarixiy tahlil, tizimli yondashuv hamda qiyosiy tahlil metodlari orqali tanlangan mavzuning asl mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Tadqiqotning asosiy qismida munosabatlar o'rnatilish jarayoni, ikki va ko'p tomonlama aloqalarning huquqiy asoslari hamda hamkorlikning institutsionallasuvi jihatlariga e'tibor qaratildi. Izlanish natijalari shuni ko'rsatadiki, ikki mamlakat munosabatlari ilk kunidan boshlab to bugunga qadar barqaror rivojlangan hamda muammolar sabab muzlashlar bo'lmagan. Shuningdek, hozirda davlatlaro munosabatlarni kengayishi uchun salmoqli salohiyatga ega barqaror va tarkibiy jihatdan muvozanatli sheriklik platformalari yaratilganligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Janubiy Koreya, diplomatik aloqalar, siyosiy muloqot, madaniy hamkorlik, KOICA, koreys diasporasi, xalqaro munosabatlar, investitsiyaviy hamkorlik.

**ОБ ИСТОРИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ
УЗБЕКИСТАН И ЮЖНОЙ КОРЕЕЙ**

Аннотация. В данной статье рассматривается история взаимоотношений Республики Узбекистан и Южной Кореи, исследуется история ее связей в политической, экономической, культурно-гуманитарной сферах, эволюция развития и современное состояние. Основное внимание уделяется таким ключевым направлениям, как инвестиционное сотрудничество, передача технологий, образовательные инициативы и институциональные структуры, включая KOICA. При написании статьи была предпринята попытка раскрыть истинную суть выбранной темы методами исторического анализа, системного подхода и сравнительного анализа. Основная часть исследования была сосредоточена на процессе установления отношений, правовых основах двусторонних и многосторонних отношений, а также институционализации сотрудничества. Результаты исследования показывают, что отношения между двумя странами развивались стабильно с первого дня и по настоящее время, и никаких заморозок из-за проблем не было. Это также свидетельствует о том, что в настоящее время созданы стабильные и структурно сбалансированные партнерские платформы, имеющие значительный потенциал для расширения межгосударственных отношений.

Ключевые слова: Узбекистан, Южная Корея, дипломатические отношения, политический диалог, культурное сотрудничество, KOICA, корейская диаспора, международные отношения, инвестиционное сотрудничество.

**ON THE HISTORICAL STUDY OF RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN AND SOUTH KOREA**

Abstract. This article reviews the history of relations between the Republic of Uzbekistan and South Korea, examining information on the history, development evolution and current state of its relations in the political, economic, cultural and humanitarian spheres. It focuses on key areas such as investment cooperation, technology transfer, educational initiatives and institutional frameworks, including KOICA. When writing the article, an attempt was made to reveal the true essence of the selected topic through historical analysis, a systematic approach and comparative analysis methods. The main part of the study focused on the process of establishing relations, the legal basis of bilateral and multilateral relations, and the institutionalization of cooperation. The results of the study show that the relations between the two countries have developed steadily from the very beginning to the present day and have not been frozen due to problems.

It also indicates that currently stable and structurally balanced partnership platforms with significant potential for expanding interstate relations have been created.

Keywords: *Uzbekistan, South Korea, diplomatic relations, political dialogue, cultural cooperation, KOICA, Korean diaspora, international relations, investment cooperation.*

Kirish. Janubiy Koreya Osiyo - Tinch okeani mintaqasidagi O'zbekiston mustaqilligini tan olgan birinchi davlat hisoblanib, mamlakatlar bugungi kunga qadar ikki hamda ko'p tomonlama munosabatlarda barqaror va izchil hamkorlik olib bormoqda. Bu borada Janubiy Koreya sobiq Prezidenti Mun Chje Inning so'zlarini ta'kidlab o'tish joiz. "...O'zbekiston bizning eng yaqin hamkorlarimizdan biri bo'lib, turli sohalaridagi aloqalarimiz izchil rivojlanib borayotganidan mamnunmiz. Janubiy Koreya bugungi kunda butun Yevrosiyoda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash yo'lidan bormoqda. Markaziy Osiyoda asosiy o'ringa ega O'zbekiston ushbu rejaning markazidadir. Mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan beri 14 marta davlat rahbarlari darajasidagi uchrashuvlar bo'lib o'tdi. So'nggi yillarda ushbu muloqotlar yanada faollashib, ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik aloqalari iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarida va gumanitar sohada o'z aksini topmoqda[1].

Darhaqiqat, ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil yanvar oyida o'rnatilgan bo'lib, shundan buyon davlatlararo aloqalar siyosiy, iqtisodiy va ta'lim sohalarida kengaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Prezidentlik davri boshlanishi bilan 2017-yilning 22-noyabrida Janubiy Koreyaga dastlabki rasmiy tashrifi amalga oshirilishi o'zaro munosabatlarda tarixiy yangi davr sahifalarini ochib berdi[2]. To'rt kunlik rejalashtirilgan ushbu tashrifda Janubiy Koreya Prezidenti Mun Chje In bilan keng formatdagi dialog amalga oshirildi. Xususan, Janubiy Koreya – O'zbekiston biznes-forumining ochilish marosimi tashkil etilib, Prezident Shavkat Mirziyoyev dastlab ikki mamlakat iqtisodiy va moliyaviy tuzilmalari rahbarlari, yetakchi ishbiarmonlari ishtirokida o'tgan Janubiy Koreya – O'zbekiston biznes-forumida qatnashdi. 700 dan ortiq ishtirokchi qatnashgan forum ochilishida Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In bilan birgalikda kun tartibidagi ikki tomonlama keng ko'lamli masalalar, jumladan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, moliyaviy-investitsiyaviy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarida davlatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Shuningdek, mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan fikr almashildi[3].

Munosabatlarning yaqin o'tmishiga nazar solinadigan bo'lsa bunday yirik doiradagi kelishuvlar bundan oldin ham tashkil etilganini ko'rish mumkin. Jumladan, 2014-yilga e'tibor qaratilsa, ikki davlat o'rtasidagi Strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiya imzolangani, unga ko'ra ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirishga qaror qilingani (Prezident Pak Kin Xening 2014-yildagi Toshkentga tashrifidan so'ng) tufayli O'zbekiston Janubiy Koreyaning Markaziy Osiyodagi eng yirik savdo sherigiga aylanganini qayd etish mumkin[4]. Shundan so'ng, 2015-yilda O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasida savdo-sarmoyaviy, iqtisodiy-texnikaviy va boshqa sohalariga oid 60 ta, jami 7,7 milliard AQSH dollarlik hujjat imzolandi. Natijada 2015-yilda mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 1,7 milliard AQSH dollaridan oshdi, bu Janubiy Koreyaning Markaziy Osiyo respublikalari bilan tovar ayirboshlash hajmining 50 foiziga to'g'ri keladi[6].

O'zbekiston va Koreya Respublikalari ta'lim sohasidagi hamkorlikning amaliy natijasi Toshkentda 1992-yilda Koreya ta'lim markazining ochilishi bo'ldi. Koreya Respublikasi Ta'lim vazirligi huzuridagi Koreya ta'lim markazi koreys tilining keng tarqalishida muhim rol o'ynagan muassasa bo'lib xizmat qildi. Koreya elchixonasi qoshida ochilgan mazkur markaz 30 yildan ortiq davr mobaynida mamlakatimiz hududida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Markaz etnik koreys millatiga milliy urf-odat, an'analarini saqlab qolishga ko'maklashish bilan bir qatorda koreys tili kurslari ham tashkil etilgan. Xususan, markaz ko'magida "Incheon ta'lim festivali", "Tabiiy fanlar festivali", koreys tili bo'yicha Respublika olimpiadalari o'tkazilib kelmoqda[7].

O'zbekiston Janubiy Koreyalik mutaxassislarni Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga vazir o'rinbosarlari, shuningdek, bir qancha oliy o'quv yurtlari prorektorlari lavozimlariga taklif qildi. 2014-yilda Janubiy Koreyaning Inha universiteti Toshkent shahrida barcha fanlarni ingliz tilida taqdim etadigan yuqori axborot texnologiyalarini rivojlantirishga ixtisoslashgani ma'lum bo'lgan filialini ochdi[8]. Janubiy Koreya Yeosu Texnologiya Instituti Toshkentda Yeosu Texnologiya Instituti filialini[9] (Hozirgi Toshkent kimyo xalqaro universiteti) ochdi va bu O'zbekistondagi birinchi xususiy universitet bo'ldi [10].

Mazkur universitet tomonidan taklif etilgan o'quv kurslari arxitektura va shaharsozlik, qurilish muhandisligi, muqobil energiya, biznes boshqaruvi, turizm, xalqaro marketing, xalqaro iqtisodiy aloqalar, boshlang'ich ta'lim, koreys tili filologiyasi, estetika va moda dizayni kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Mahalliy oliy ta'lim muassasalari Janubiy Koreyaning 45 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan, ko'plab Koreya universitetining filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

Ikki xalq madaniy hamkorligining yuqori nuqtasi sifatida 2019-yilda Prezident Mun Chje Inning O'zbekistonga tashrifi chog'ida Toshkentda Koreya madaniyati va san'ati uyi ochilganini qayd etish muhim. Buning natijasida, Samarqand, Buxoro, Nukus kabi shaharlarda ham koreys madaniyati markazlari tashkil etildi. Bu orqali ikki mamlakat o'rtasidagi xalq diplomatiyasi muloqoti yanada mustahkamlandi va bu chin ma'noda davlatlarning madaniy diplomatiyada erishgan katta yutug'i bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida davlatlarning munosabatlari yanada mustahkamlash maqsadida, 1991-yilda O'zbekistondagi koreys milliy madaniy markazlari o'ziga jamlagan "Koreys milliy madaniy markazlar Assotsiatsiyasi" o'z faoliyatini boshlaydi[11]. Buning natijasida Janubiy Koreya Respublikasi mamlakatimizdagi koreys madaniy markazlarini faoliyatini qo'llab quvvatlashda hamda O'zbekiston bilan aloqlarni yanada mustahkamlashga harakat qiladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda eng ko'p milliy madaniy markaz – koreys milliy madaniy markazi bo'lib, ularning soni 26 tani tashkil qiladi. Shuningdek, "Tinbo" ilmiy-texnik jamiyati, Yoshlar markazi, Oqsoqollar kengashi ham faoliyat yuritadi[12].

Ta'kidlash joizki, o'zbek va koreys xalqlarining ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlarini mushtarak. Mamlakatlarimiz og'ir damlarda bir-birini qo'llab-quvvatlagan. Ma'lumki, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 180 ming fuqarodan iborat koreys diasporasi bugun ko'pmillatli jamiyatimizning ajralmas qismidir[13]. Mamlakatimizda koreys madaniyati markazlari uyushmasi, viloyatda esa uning bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda. Uyushma mamlakatimizda va xorijda koreys tili, madaniyati, urf-odat va an'analari saqlash va rivojlantirish bo'yicha faol ish olib bormoqda.

Qolaversa, 2017-yilda "Do'stlik bog'i"da etnik koreyslarning O'zbekistonga ommaviy ko'chib kelganining 80 yilligiga bag'ishlangan monument ochilgan edi. Toshkentning markaziy ko'chalaridan biriga Seul nomi berildi. Koreya xalqining ma'naviy-madaniy merosini asrab-avaylash va rivojlantirish maqsadida Koreya Respublikasi hukumati tomonidan Toshkent shahrida Koreya madaniyati va san'ati uyi foydalanishga topshirildi[14]. Bu ikki xalq o'rtasidagi azaliy do'stlikning yana bir yorqin ramzidir.

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar 1992-yilda boshlangan. O'sha davrda ikki davlat o'rtasida Savdo shartnomasi imzolangan bo'lib, ikki yildan so'ng savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'mita o'z ishini boshlagan edi. Mamlakatarning iqtisodiy hamkorligi avtomobilsozlik, elektrotexnika, formoseftika, maishiy texnika, qishloq xo'jaligi kabi sohalarida yo'lga qo'yilishi, uning ko'p soha va tarmoqlarda faoliyati oshib borishiga yo'l ochdi[15]. Shuningdek, Janubiy Koreya Qoraqalpog'istonda sement zavodi qurishdan manfaatdor va Samarqandda qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash klasterini yaratdi.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga tayanilsa, birgina 2021-yilda koreyalik hamkorlar ishtirokida 400 million dollargacha bo'lgan investitsiyalar o'zlashtirilgan. 2022-2023-yillarda bo'lsa, energetika, neft-gaz kompleksi, kimyo va neft-kimyo, farmatsevtika, qayta ishlash sanoati, qishloq xo'jaligi, transport, logistika, turizm kabi sohalarida umumiy qiymati 3,4 milliard dollardan ortiq bo'lgan 55 ta yangi loyiha tayyorlangan[16].

Koreya Eksimbanki bilan birgalikda umumiy qiymati 1,28 milliard dollarlik 12 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Koreya kapitali ishtirokidagi korxonalar soni ortib bormoqda. 2021-yil boshida ularning soni 888 tani (O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar umumiy sonining 7,5 foizi) tashkil etgan bo'lsa, shundan 77 tasi 2020-yili tashkil etilgan [17].

2016-2019-yillarda O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2,5 baravardan ziyod o'sib, 1,1 milliard dollardan 2,77 milliard dollarga, Koreya Respublikasining O'zbekiston Respublikasi umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 5,2 foizdan 6,6 foizga oshdi [18].

2020-yil yakunlariga ko'ra, koronavirus pandemiyasi tufayli ishbilarmonlik faolligining pasayishi tufayli O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi savdo aylanmasi 13,1 foizga, jumladan, Koreya Respublikasi bilan 12,6 foizga qisqardi va 2,14 milliard dollarni tashkil etdi, Koreya Respublikasining O'zbekiston umumiy tovar aylanmasidagi ulushi ham bir oz qisqarib, 59 foizni tashkil etdi.[19]

Qayd etish joizki, Koreya Respublikasidan import tarkibida asosiy ulush (70 foizga yaqin) sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun sotib olinadigan "mashina va uskunalarga" to'g'ri keladi. Natijada O'zbekistonning Koreya Respublikasi bilan tashqi savdosida sezilarli nomutanosiblik yuzaga keldi va import eksportdan 25 baravar ko'proq ko'rsatgichga ega bo'ldi.[20]

Tibbiyot sohasi ham hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) moliyaviy va texnik ko'magida o'zbekistonlik mutaxassislar Janubiy Koreyaning yetakchi klinika va markazlarida malaka oshirmoqda[21].

2021-yildagi O'zbekiston-Koreya sammiti chog'ida Prezident Mun Chje In Koreya tomoni O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi masalasida har tomonlama yordam berishini yana bir bor tasdiqladi. Shu o'rinda eslatib o'tish joizki, Prezident Sh.Mirziyoyev 2017-yil noyabr oyida Koreya Respublikasiga "O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha hamkorlik bo'yicha hukumatlararo memorandum" imzolangan edi. Shuningdek, JST Bosh kengashining 2018-yil iyul oyida qabul qilingan qarori bilan Koreya Respublikasining BMTning Jenevadagi bo'limidagi doimiy vakili Ji-ah Paik xonim O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish bo'yicha ishchi guruhi raisi etib tasdiqlangani ham e'tiborga molik.[22].

Koreya Respublikasi bilan bir qatorda AQSh, Rossiya, Yaponiya va Xitoy kabi boshqa davlatlar O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishini texnik qo'llab-quvvatlamogda, Yevropa Ittifoqi esa O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi uchun texnik yordam ko'rsatish loyihasini moliyalashtirish uchun 5 million yevro miqdorida grant ajratdi. Yevropa Ittifoqi loyihasi, xususan, zarur hujjatlarni tayyorlash, shuningdek, o'zbekistonlik mutaxassislarning xalqaro savdo tizimida JST kelishuvlari bo'yicha malakasini oshirishda yordam beradi.

Qayd etish lozimki, "to'rtinchi sanoat inqilobi"ni ilgari surish maqsadida "raqamlashtirish" sohasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum, zamonaviy ko'p tarmoqli klinika va Kimyo-texnologiyalar markazini qurish loyihalari uchun EDCF jamg'armasi bilan 1 milliard dollar miqdoridagi uch yillik dasturni amalga oshirish bo'yicha kredit shartnomalari imzolangan.[23] Bundan tashqari, mamlakatimizdagi muhim energetika infratuzilmasi obyektlarini modernizatsiya qilish bo'yicha yetakchi kompaniyalar darajasida shartnomalar tuzilgan.

Yana bir muhim jihat shundaki, tomonlar ikki tomonlama erkin savdo shartnomasini tuzish bo'yicha muzokaralarni boshlashga kelishuvga erishgan.

Shuningdek, muntazam siyosiy maslahatlashuvlarni davom ettirish va parlamentlararo almashinuvni faollashtirish, mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligini nishonlash bo'yicha ikki tomonlama tadbirlar dasturini tayyorlash bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Barqaror iqtisodiy va savdo sheriklik (STEP) to'g'risidagi bitim respublikaga tashqi savdoda o'zaro hamkorlikning ilg'or shakllarini joriy etish, tashqi savdo operatsiyalari bilan bog'liq tartib-qoidalarini yengillashtirish va eksportni rag'batlantirish imkonini beradi. Ikki davlat rahbarlari tomonidan muhokama qilingan "Barqaror iqtisodiy va savdo sheriklik (STEP) kelishuvi"dan tashqari, tomonlar "Yangi kelishuv" loyihasining asosiy elementi bo'lgan raqamli va yashil sektorlarda hamkorlikni kengaytirish bo'yicha o'zaro anglashuv memorandum imzolagan[24].

Xulosa. Tadqiqot natijalaridan shularni xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi munosabatlar o'zaro ishonch, hurmat va manfaatlarga asoslangan. Diplomatik aloqalar barqaror siyosiy zamin yaratgan bo'lsa, iqtisodiy hamkorlik amaliy natijalar bermoqda, ta'lim va madaniyat sohalaridagi aloqalar esa inson kapitaliga sarmoya bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu ko'p qirrali hamkorlik O'zbekistonning modernizatsiya jarayonlarida Koreya tajribasidan samarali foydalanish imkonini beradi. Kelajakda bu munosabatlar yanada mustahkamlanishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. <https://interkomitet.uz/glavnaya/otnosheniya-mezhdu-uzbekistanom-i-respu/>
2. <https://uza.uz/ru/posts/otnosheniya-mezhdu-respublikoy-uzbekistan-i-respublikoy-kore-20-04-2019>
3. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/01/28/online-summit/>
4. <https://www.podrobno.uz/cat/obchestvo/uzbekistan-i-yuzhnaya-koreya-provodyat-peregovory-po-vozobnovleniyu-otpravki-uzbekskikh-migrantov-na/>
5. <https://review.uz/post/perspektiv-razvitiya-torgovx-otnosheniy-mejdu-uzbekistanom-i-yujnuy-koreey>
6. <https://minenergy.uz/uz/news/view/2779>
7. O'zbekiston-Koreya: iqtisodiy hamkorlik istiqbollari <https://review.uz/uz/post/uzbekistan-koreya-perspektiv-ekonomicheskogo-sotrudnichestva>
8. O'zbekiston – Janubiy Koreya: Strategik sheriklik munosabatlarida yangi bosqich. <https://president.uz/oz/lists/view/1276>
9. O'zbekiston – Janubiy Koreya: Strategik sheriklik munosabatlarida yangi bosqich. <https://president.uz/oz/lists/view/1276>
10. O'zbekiston – Janubiy Koreya: Tashrif doirasida muhim hujjatlar imzolandi. <https://president.uz/oz/lists/view/1275>

11. O'zbekiston – Koreya Respublikasi: o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi ufqlari. <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-koreya-respublikasi-o-zaro-manfaatli-hamkorlikni-28-05-2015>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 24 martdagi PQ-2155-son "Toshkent shahrida Inxa Universitetini tashkil etish to'g'risida" Qarori,. <https://lex.uz/ru/docs/-2440275?ONDATE=28.07.2023>
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 17- dekabrdaqi 1007-son "Toshkent Kimyo xalqaro universiteti faoliyatini tashkil etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori,. <https://lex.uz/docs/-4648550?ONDATE=05.04.2022%2000>
14. <https://interkomitet.uz/glavnaya/otnosheniya-mezhdu-uzbekistanom-i-respu/>
15. O'z MA M-37-fond, 1-ro'yxat, 5690-yig'ma jild
16. Дмитриева М.О., Троякова Т. Г. Корейцы Узбекистана в поисках новой идентичности в // Известия Восточного института. 2021. № 2. С. 45–63.
17. O'zbekiston-Koreya: iqtisodiy hamkorlik istiqbollari <https://review.uz/uz/post/uzbekistan-koreya-perspektiv-ekonomicheskogo-sotrudnichestva>
18. <https://uza.uz/ru/posts/otnosheniya-mezhdu-respublikoy-uzbekistan-i-respublikoy-kore-20-04-2019>
19. <https://review.uz/post/perspektiv-razvitiya-torgovx-otnosheniy-mejdu-uzbekistanom-i-yujnoy-koreey>
20. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/01/28/online-summit/>
21. O'zMA M-37- fond, 1-ro'yxat, 1257-yig'ma jild
22. <https://www.podrobno.uz/cat/obchestvo/uzbekistan-i-yuzhnaya-koreya-provodyat-peregovory-po-vozobnovleniyu-otpravki-uzbekskikh-migrantov-na/>

**TURKIYA - O'ZBEKISTON MUNOSABATLARIDA DINIY-MADANIY OMILNING O'RNI
VA AHAMIYATI**

Nuriddinov Doston Axatjon o'g'li,

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi
nuriddinovdoston07@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarda diniy va madaniy omillarning ahamiyati tahlil qilinadi. Turkiya va O'zbekiston ikki davlat sifatida o'zaro madaniy va diniy qadriyatlar asosida mustahkam hamkorlikka ega bo'lib, bu omillar ularning diplomatik va xalqaro munosabatlarda muhim o'rin tutadi. Diniy-madaniy omillar ikki xalq o'rtasidagi o'zaro tushunish, do'stlik va hamkorlikni rivojlantirishda vosita vazifasini bajaradi. Shuningdek, bu omillar turli madaniy va diniy tadbirlar, ta'lim almashinuvi va madaniyat sohasidagi loyihalar orqali ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashda yordam beradi. Maqolada bu jarayonlarning tarixi, hozirgi holati va kelajakdagi istiqbollari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Turkiya- O'zbekiston munosabatlari, diniy omil, madaniy omil, diniy-madaniy aloqalar, madaniyatlararo hamkorlik, diplomatik munosabatlar, diniy qadriyatlar, madaniy almashinuv, xalqaro hamkorlik, turk dunyosi.

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ РЕЛИГИОЗНО-КУЛЬТУРНОГО ФАКТОРА В ОТНОШЕНИЯХ
ТУРЦИЯ-УЗБЕКИСТАН**

Аннотация. Анализируется значение религиозных и культурных факторов в политических, экономических и культурных отношениях между Турцией и Узбекистаном. Турция и Узбекистан, как две страны, имеют прочные партнерские отношения, основанные на общих культурных и религиозных ценностях, и эти факторы играют важную роль в их дипломатических и международных отношениях. Религиозные и культурные факторы служат средством развития взаимопонимания, дружбы и сотрудничества между двумя народами. Эти факторы также способствуют укреплению двусторонних отношений посредством различных культурных и религиозных мероприятий, образовательных обменов и культурных проектов. В статье рассматриваются история, современное состояние и перспективы этих процессов.

Ключевые слова: Турецко Узбекские отношения, религиозный фактор, культурный фактор, религиозно-культурные отношения, межкультурное сотрудничество, дипломатические отношения, религиозные ценности, культурный обмен, международное сотрудничество, тюркский мир.

**THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE RELIGIOUS-CULTURAL FACTOR IN TURKEY-
UZBEKISTAN RELATIONS**

Abstract. Analyzes the importance of religious and cultural factors in political, economic and cultural relations between Turkey and Uzbekistan. Turkey and Uzbekistan, as two countries, have strong cooperation based on mutual cultural and religious values, and these factors play an important role in their diplomatic and international relations. Religious and cultural factors serve as a means of developing mutual understanding, friendship and cooperation between the two peoples. These factors also help to strengthen bilateral relations through various cultural and religious events, educational exchanges and projects in the field of culture. The article examines the history, current state and future prospects of these processes.

Keywords: Turkey Uzbekistan relations, religious factor, cultural factor, religious and cultural relations, intercultural cooperation, diplomatic relations, religious values, cultural exchange, international cooperation, Turkic world.

Kirish. Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarning ildizlari qadimgi tarixga, Turkiston davriga borib taqaladi. Ularning umumiy xususiyatlari ham ikki turk qabilasining madaniyati va tilidagi o'xshashlikdan kelib chiqadi. Balki bu omil Turkiyaning 1990-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan olgan birinchi davlat bo'lishiga sabab bo'lgandir. 1992-yil aprel oyida Turkiyaning Toshkentdagi elchixonasi, 1993-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasining Anqaradagi elchixonasi, Istanbul shahrida mamlakatimizning Bosh konsulligi ochildi. 1996-yilda ikki davlat o'rtasida Abadiy do'stlik va hamkorlik

to'g'risidagi shartnoma imzolangan[7]. O'zbek va turk xalqlari aloqalari o'tmish ma'lumotlari uzoq tarixga borib taqaladi. Etnik kelib chiqishi, tili, dini, milliy urf-odatlar, marosimlari, an'analar, turmush tarzi, ruhiy olami bir bo'lgan o'zbek va turk xalqlarining o'zaro aloqalari nafaqat siyosiy, iqtisodiy, balki madaniy sohalarida ham hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi diniy-madaniy aloqalar mavzusida mavjud adabiyotlar asosan ikki asosiy yo'nalishda rivojlangan. Birinchi guruh ilmiy ishlar Turkiya va O'zbekistonning tarixiy, madaniy va dini aloqalarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ularda turk dunyosining umumiy qadriyatlari, diniy meros va madaniy an'analar tahlil qilinadi. Shuningdek, madaniy almashinuv, ta'lim sohasidagi hamkorlik va diniy tashkilotlar faoliyati haqida ham ko'plab maqolalar mavjud. Ammo, bu mavzuda hali chuqur va keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar kamligi kuzatiladi, shuning uchun mazkur tadqiqot yangilik sifatida ahamiyatga ega. Mazkur mavzuni o'rganishda quyidagi metodlardan foydalanildi. **Tarixiy-tahliliy metod** Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi diniy-madaniy aloqalarning tarixiy ildizlari va rivojlanishini o'rganish uchun qo'llanildi. Turkiya va O'zbekiston madaniy va dini tizimlarining o'ziga xosliklari va umumiy jihatlarini taqqoslashda ishlatildi.

Natijalar. O'tgan davrda ikki qardosh xalq vakillari, ulamolari, olimlari, shoirlari, adiblari bir madrasalarda tahsil olganliklari, haj ziyoratlari, elchilik aloqalari mobaynida do'stona madaniy aloqalar bog'lab, bir-birlaridan ma'naviy ozuqa olganlar. Turkiston jadidlari Turkiya ilm-fan va madaniyatidan bahramand bo'lganlar va ko'plab yoshlar zamonaviy ilm olish uchun bu yurtga o'qishga yuborilgan. Sovet tuzumi davrida ikki qardosh xalq o'rtasidagi aloqalar ma'lum vaqt to'xtatilgan bo'lsada, XX asrning 70-80 yillarida ikki o'rtadagi aloqalarni tiklashga bag'ishlangan ko'plab maqolalar chop etirilib, munosabatlar qayta tiklana boshlandi. Natijada 1990-yilda o'zaro badiiy jamoalar o'rtasida aloqalarni o'rnatish, kitoblar nashr etish, teleko'rsatuv va konsertlar ayriboshlash kabi hamkorlik aloqalari o'rnatishga muhim qadamlar qo'yildi.

Mustaqillik yillari ikki xalq o'rtasidagi madaniy aloqalarni to'la tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston va Turkiya hamkorligining eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri bu ta'lim sohasi hisoblanadi. 1991-yil 19-dekabrda O'zbekiston va Turkiya davlatlari Prezidentlari "O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi hukumatlari o'rtasida madaniyat, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va turizm sohasida o'zaro hamkorlik to'g'risida"gi bitim, "O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasidagi 1992–1993 yillar mobaynida madaniyat, ta'lim va fan sohasidagi ayirboshlash protokoli"[8], O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 7-apreldagi 178-son "O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya Respublikasi o'rtasidagi kadrlar tayyorlash sohasidagi bitimlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[8] Qarori (Hujjat kuchini yo'qotgan 22.07.2022) ikki davlat o'rtasida ta'lim tizimi sohasidagi hamkorlikda huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. 1992-yil 26-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Turkiya Respublikasining milliy ta'lim vazirini qabul qilib, unda ta'lim sohasidagi ikki mamlakat hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, bu borada amaliy dasturlar hamda loyihalar, ishlab chiqish kabi masalalar yuzasidan kelishib olindi[2].

1992-yilda O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi va Turkiyaning "Silm" shirkati o'rtasida "1992-2000-yillarga mo'ljallangan ta'lim sohasidagi hamkorlik dasturi"[13] qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 27-mayda 255-son "O'zbekiston-Turkiya litseylarining faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (Hujjat kuchini yo'qotgan 07.08.2008) e'lon qilindi. Qarorda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Turkiya Respublikasi "Silm" shirkati bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Samarqand, Namangan, Farg'ona, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida o'zbek-turk litseylarini tashkil etishni nazarda tutildi. Litseylardagi o'quv me'yoriy xujjatlarini O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda o'quv rejalar va dasturlari bo'yicha tashkil etish, ikki oy muddatda O'zbekiston-Turkiya litseylarida ishlayotgan turkiyalik mutaxassislar uchun tuzilgan ikki tomonlama shartnoma talablari, o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomala qilishi shakllari o'zbek xalqining qaror topgan milliy odatlariga va an'alariga muvofiqligi, "O'zbekengilsanoat" davlat uyushmasi, "Mahalliy sanoat" davlat korporatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda tanlov asosida litseylarning o'quvchilari uchun milliy ramzli kiyim-bosh modelini ishlab chiqish, litseylarga oziq-ovqat mahsulotlari, asbob-uskunalar ajratish xususidagi mezonlar belgilandi[8].

Islom dini Markaziy Osiyoga Turkiyadan ertaroq tarqaldi. Markaziy Osiyoda islom olami uchun taniqli olimlar[9] yetishib chiqdi. Islom madaniyati mintaqada yashovchi turkiy xalqlarga ta'sir etib, o'ziga xos madaniyat yaratdi. Bu islom madaniyatini o'ziga singdirgan turkiy xalqlar keyinchalik Kichik Osiyoga o'rnashib, islom madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan. Bugun Islom dinining Markaziy va Kichik Osiyodagi yutuqlari butun musulmon olamida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston va Turkiyada eng ko'p sunniylar yashaydi. 70 yil ateizm mafkurasida yashagan Markaziy Osiyo xalqlari mustaqillikka erishgach, islom mafkurasini rivojlantirish uchun mos mafkuraviy modelni tanlash vazifasi qo'yildi. Tanlovda Eron, Saudiya

Arabistoni va Turkiyaning islom modeli ishtirok etdi. Erondagi teokratik boshqaruv va shia omillari va Eron G'arbda fundamentalizm va terrorizm markazi sifatida ko'rilishi fonida bu variant qabul qilinishi mumkin emas edi. Bundan tashqari, Eronning Tojikistondagi fuqarolar urushida (1992-1997) islomiy muxolifatdan foydalanishi mintaqa hukumatlarini xavotirga solgan. 1990-yillarda Saudiya Arabistonidan kelgan diniy missionerlar masjid, madrasa va diniy nashriyot sohasida o'z faoliyatini boshladi. Biroq ularning faoliyati O'zbekiston hukumati tomonidan 1993-yilda mamlakat fuqarolarini konstitutsiyaviy tuzumga, ruhoniylarni davlat siyosiy elitasiga qarshi qo'yish, vahhobiylar g'oyalarini tarqatishini oldini olish maqsadida taqiqlangan edi. Turk modelining O'zbekistonga etnik va til yaqinligi, madaniy yaqinligi, dinning davlatdan ajralganligi, ahli sunna hanafiy mazhabiga mos kelishi bilan bog'liq o'xshashliklar mavjud vabu madel tanlandi. Turkiyaning eng yaqin ittifoqchilari AQSh va Yevropa ham Turkiyaning mintaqadagi faolligini qo'llab quvvatladi[14].

O'tgan asrning 90-yillarida O'zbekistonda 65 dan ortiq turk ta'lim markazlari faoliyat ko'rsatgan[14]. Bu ta'lim muassasalarining barchasi Fathulloh Gulenning "Hizmet" tashkiloti tomonidan nazorat qilinadi[11]. 1996-yilda Turkiyada N.Erboqon boshchiligidagi Islomiy Refah (Favonlik) partiyasi hokimiyatga keldi. O'shanda Turkiyadagi universitetlarda 100 dan ortiq O'zbekistonlik talaba tahsil olayotgan edi. Turkiyada tahsil olayotgan o'zbek talabalarining radikallashtirishidan qo'rqib, O'zbekiston hukumati barcha talabalarni deportatsiya qildi[10]. Biroq 2000-yildan keyingi yillarda ularning faoliyatida o'z vazifalaridan chetlashish, din yo'nalishida noqonuniy ravishda o'quvchilar mafkurasini chalg'itish kabilari ko'zga tashlanadi. Shu bois, O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi va Turkiyaning "Silm" shirkati o'rtasida "1992–2000-yillarga mo'ljallangan ta'lim sohasidagi hamkorlik dasturi" shartnoma muddatini tugaganligi sababli O'zbekistondagi ushbu litseylar faoliyati to'xtatildi[6].

O'zbek turk litseylarining O'zbekistonda va umuman boshqa davlatlarda faoliyatini to'xtatilishi to'g'risida Turkiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi bo'lgan Ahmad Bashar Shen ta'kidlashicha, "Ular 2016-yil 15-iyulda sodir etilgan davlat to'ntarishi yetakchisi Fethullah Gulen nomi bilan bog'liq. "Fethullohchi" terror tashkiloti o'zini bir paytda ta'lim ulashuvchi bo'g'in sifatida ko'rsatib, dunyoning 150-160 davlatlariga joylashib olayotgan bir davrda, O'zbekistonda turk litseylar faoliyati tugatildi. "FETO" nafaqat Turkiyaning, balki boshqa davlatlarning ham tizimiga joylashib olib, davlatni qayta tuzishni maqsad qilib qo'ygan, maxfiylik va tovlamachilik ustiga qurilgan yangi avlod terrorchi tashkilotidir. "FETO"ning Turkiyadagi asosiy moliyaviy manbasi hisoblangan ta'lim markazlari, darsxonalarining yopilishi tashkilotga katta zarba bo'ldi. Ma'lum bo'lishicha, Fethullah Gulen 1970-yildan xususiy maktablar ochib, yoshlarni ongiga ta'sir o'tkazishga harakat qilgan[11]. O'quvchilarining aksariyati kelgusida qurolli kuchlar, adliya, sud, politsiya kabi davlatning muhim idoralari ish bilan ta'minlangan. Keyinchalik, Turkiyadagi 2016-yil 15-iyul voqealari ham aynan shunday harbiylar tomonidan amalga oshirilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunga qadar o'n minglab davlat mulozimlari yuqorida keltirilgan sabab tufayli ishdan olingan. 2000-yillar O'zbekiston-Turkiya munosabatlarida turg'unlik bilan kechdi.

So'ngi yillarda Turkiya O'zbekistonda vijdon va e'tiqod erkinligi sohasida amalga oshirilgan ishlarga yuksak baho berdi. Xususan, inson huquqlari mustahkamlandi, 16 ming kishi "ekstremistik diniy guruhlar"ga aloqador shaxslar ro'yxatidan chiqarildi va masjidlariga 10 yillik taqiqlardan so'ng azon ovoz kuchaytirgichidan foydalanishga ruxsat berildi. Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida islom dinining asl insoniy mohiyatini jahon jamoatchiligiga yetkazish eng muhim vazifa ekanini ta'kidladi. Ulug' allomalar, xususan, Imom Buxoriyning buyuk ilmiy merosini asrab-avaylash va o'rganish, ma'rifiy islom ta'limotini keng targ'ib etish maqsadida Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Toshkent shahrida Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilayotganini ta'kidladilar. Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyyib Erdo'gan hech bir davlat rahbari Islom dini qadriyatlarini BMT minbaridan bunchalik dadil himoya qilmagani va Imom Buxoriy nomini tilga olinmaganini ta'kidladi[15].

Muhokama. O'zbekiston va Turkiya Islom diniga qarashlari mushtarak bo'lib, diniy mavzudagi turli uchrashuv va yig'ilishlarda hamkorlikni mustahkamlaydi. Bir necha yil avval O'zbekistonlik Qur'on qorilari boshqa musulmon mamlakatlarida o'tkazilgan Qur'on musobaqalarida qatnashgan. Tanlangan yoshlarimiz Turkiyada o'tkazilgan qori tanlovida ham bir necha bor qatnashgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 1-sentabr kuni Hazrati Imom majmuasiga tashrifi chog'ida O'zbekistonda Qur'on musobaqasini o'tkazish taklifini bildirgan edi. 2018-yilda Qur'on musobaqasida 3000 dan ortiq kishi qatnashdi. Globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil oktabr oyida Turkiya diniy ishlar vaziri doktor Ali Erbash bilan uchrashuvda G'arbda islomofobiya kabi noto'g'ri tushunchalarning tarqalishiga qarshi kurashda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi hamkorlik muhimligini ta'kidlagan edi. Prezident Mirziyoyev musulmonlarning ISHID, Boko Haram, Al-Shabab va FETO kabi radikal islomiy guruhlariga qo'shib ketishining oldini olish uchun to'g'ri diniy ta'lim olish zarurligini ta'kidladi[12]. 2017-yilning 7-11-sentabr kunlari Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tgan Islom hamkorlik tashkilotining Fan va

texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitida ishtirok etgan Prezident Mirziyoyev musulmon davlatlari ilmfanda ortda qolayotganini ta'kidladi[12]. Islom hamkorlik tashkilotining fan, ta'lim va madaniyat bo'yicha tuzilmasi (ISESCO) Buxoroni 2020-yilda "Islom madaniyati poytaxti"[13] deb e'lon qildi.

Diniy ta'lim sohasida 2018-yil 3-iyun kuni Buxoro shahridagi Mir Arab oliy diniy maktabi hamda Turkiyaning Ibn Xaldun, Istanbul Zaim, Kastamonu, Istanbul universitetlari bilan hamkorlik memorandumi imzolandi[3]. O'zbekistonda 9 ta o'rta maxsus va 2 ta oliy diniy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda. 2019-yilning 21-23-fevral kunlari Buxoro shahrida xalqaro ziyorat turizmi bo'yicha birinchi xalqaro forum bo'lib o'tdi. Forumda ziyorat turizmi bo'yicha boy tajribaga ega Turkiya delegatsiyasi ham ishtirok etdi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi diniy hamkorlik ikki davlatning islom olamidagi obro'siga va diniy bag'rikenglik, ekstremizm va mutaassiblikka qarshi kurash, islom diniga uzoq yillar xizmat qilgan allomalarning ilmiy merosini o'rganish[5], xalqaro tashkilotlar doirasidagi diniy hamkorlik davom ettiriladi. O'zbekiston mintaqadagi siyosatini faollashtirgandan so'ng ko'plab xalqaro tashkilotlarda o'z taklif va tashabbuslarini ilgari surmoqda. Xususan, Turkiya O'zbekistonning 2018-yilda Turk kengashiga a'zo bo'lganini mamnuniyat bilan qabul qildi.

Ma'lumki, Turkiya turk integratsiyasi jarayonini tezlashtirishdan manfaatdor. Islom g'arb tipidagi moliyaviy operatsiyalardan asosiy e'tiborni moliyaviy masalalarga qaratishi bilan farq qiladi. O'zbekiston islomiy moliya bo'yicha ham bundan mustasno emas. Xususan, Islom taraqqiyot banki[11] O'zbekistonda turli loyihalarni moliyalashtirib kelmoqda. Ma'lumot uchun, O'zbekiston ushbu moliya muassasasiga 1991-yilda Turkiya taklifiga binoan a'zo bo'lgan. Turkiya prezidenti Erdo'g'on 2018-yil 29-aprel kuni O'zbekistonga rasmiy tashrifi chog'ida hamkasbi Mirziyoyev bilan suhbatlashgani va Imom al-Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Moturudiy islom tadqiqotlari markazini ishga tushirish bo'yicha kelishuvga erishilganini ma'lum qilgan edi[4]. Aytish mumkinki, 1992-yil 23-yanvarda Toshkentda Turk madaniy markazi ochildi. Shu yili 30- noyabr 2-dekabr kunlari Boku shahrida turkiy tilli davlatlar Madaniyat ishlari vazirligi vakillarining uchrashuvi bo'lib, anjumanda turkiy tilli davlatlar Madaniyat vazirligining Kengashi ta'sis etildi. Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Turkiya va O'zbekiston Respublikalari bu Kengashning a'zolari bo'ldi. Turkiy tilli davlatlar Madaniyat vazirligining Kengashi har olti oyda ta'sischi davlatlarning birida navbat bilan yig'ilish o'tkazib turadigan bo'lishdi. Kengash ishini muvofiqlashtirish, uning qarorlarini amalga oshirish maqsadida haqiqiy a'zo bo'lgan davlatlar vakillaridan iborat doimiy faoliyat ko'rsatuvchi "Turksoy" (Turkiya davlatlar madaniyati va san'ati hamdo'stligi) ijroiylar qo'mitasi tashkil etildi[8]. Bundan tashqari, 2017-yilning 13-14 sentyabr kunlari Toshkentda Fransiya, Niderlandiya, Turkiya, Xitoy, Qirg'iziston, Qozog'iston, Ozarbayjon tarixchi olimlari ishtirokidada "Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat" mavzusida katta ilmiy anjuman o'tkazildi[4]. 2018-yil 5-10 mart kunlari Turkiyaning Kastamonu universiteti rahbariyati taklifiga ko'ra, Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi vakillari u yerga tashrif buyurib, mamlakatimizning boy madaniy tarixi, milliy an'analarini o'zida ifodalagan qator madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etdilar. Shuningdek, kelgusida ikki davlat madaniyati, san'ati tarixini o'rganish hamda targ'ib qilish, o'zaro hamkorlikda ilmiy-madaniy xalqaro konferensiyalarni O'zbekiston va Turkiyada o'tkazish, jumladan, turizmni yanada kengroq targ'ib etish masalalari ko'zda tutildi[10].

2018-yilning noyabr oyida Turkiyaning Kastamonu shahrida Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganish bo'yicha ilmiy konferensiyalar o'tkazish taklifi turkiyalik olimlar tomonidan bildirib o'tildi. Shuningdek, Amir Temur va temuriylar davri tarixi, madaniyatiga bag'ishlangan "Turkiya va O'zbekiston yagona tarix" mavzuida xalqaro anjuman tashkil etilib, unda turk hamda o'zbek tarixchi olimlarining ma'ruzalari tinglandi. Xususan, Kastamonu universiteti professori Jevdat Yakubug'li "Buyuk sohibqiron Amir Temurning Isfandiyorbek bilan munosabatlari", Istanbuldagi Marmara universiteti professori Mehmet Shaxingo'z "Turk dunyosida yagona tarix o'quv qo'llanmasining tayyorlanishiga doir", tarix fanlari doktori X.Yunusova "XX asr 80-yillarida O'zbekistonda millatlararo munosabatlar", Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi raisi o'rinbosari To'lqin Hayit "Amir Temur obrazining adabiyotda o'rganilishi", O'zR FA Temuriylar tarixi Davlat muzeyi direktori X.Fayziyev "Temuriy shahzoda Shohruh Mirzo davrida ilm-fan va madaniyat", O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi S.G'ulomov "Pirmastiy inshosida Amir Temurga oid biografik ma'lumot borasida" kabi mavzularda ilmiy ma'ruzalari bilan ishtirok etdi[4]. Konferensiyadan so'ng turk va o'zbek olimlari tomonidan Amir Temur va temuriylar davri tarixi, madaniyatiga bag'ishlangan kitoblar bir-birlariga taqdim qilindi. Ular orasida Mirzo Ulug'bekning turk tilida nashr etilgan "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asari ham bor edi. Xususan, mazkur yilda O'zbekiston Milliy universiteti hamda Turkiyaning Ibn Xaldun universiteti o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida kelishuv imzolandi[3]. Shuningdek, Turkiya Respublikasidagi Istanbul, Anqara, G'oz, Hojitepa va Ibn Xaldun universitetlarida bo'lib o'tgan muzokara va uchrashuvlarda zamonaviy sharoitdagi jurnalistika fakultetlari faoliyatini rivojlantirish, jurnalistika sohasida ta'lim berish, nazariya va amaliyotni sintez qilishning usullari bo'yicha tajriba va o'zaro fikr almashildi.

Ikki davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlarning tiklanishi 2012-yilda Turkiya munosabatlarni normallashtirish bo'yicha ba'zi diplomatik qadamlar qo'yganidan so'ng boshlandi[12]. 2016-yil sentabrida O'zbekistonda rahbariyat almashganidan buyon Anqara va Toshkent o'rtasidagi aloqalar jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Tomonlar strategik sheriklik va siyosiy muloqotni mustahkamlashga sodiqligini yana bir bor tasdiqlar ekan, ular uchun, ayniqsa, butun dunyoda keskinlik kuchaygan bir paytda, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro masalalar bo'yicha pozitsiyalarni kelishish ham muhim edi. Turkiya prezidenti ta'kidlaganidek, "O'zbekiston bilan mustahkam qardoshlik rishtalariga asoslangan munosabatlarimiz strategik sheriklik darajasiga ko'tarilganini" Turkiya yuksak qadrlaydi". Muzokaralar shuni ko'rsatdiki, Turkiya va O'zbekiston mintaqaviy va xalqaro kun tartibidagi, jumladan, BMT, Islom hamkorlik tashkiloti va Turkiy kengash doirasidagi eng dolzarb masalalar bo'yicha qarashlari bir xil. Ikki davlat rahbarlari zamonaviy tahdid va tahdidlarga qarshi kurashishda hamkorlikni kuchaytirishga kelishib oldilar.

Rejep Tayyip Erdo'g'on va Shavkat Mirziyoyev muzokaralar chog'ida madaniy-gumanitar hamkorlik masalalariga jiddiy e'tibor qaratdi. Xususan, madaniyat, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va sport sohalarida ma'rifiy islom dinini targ'ib qilish bo'yicha hamkorlikda tadbirlar o'tkazish muhimligi ta'kidlandi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Prezident Erdo'g'on Anqara shahrida Erdo'g'anning o'zi tashabbusi bilan tashkil etilgan Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi "Millat kutubxonasi"ning ochilish marosimida Prezident Mirziyoyevni yagona oliy martabali mehmon sifatida taklif qilgan edi. Bu yangi qurilgan kutubxona Turkiyadagi eng katta kutubxona bo'lib, unda 4 million bosma kitoblar, 120 milliondan ortiq maqola va hisobotlar, shuningdek, 550 ming elektron kitoblar va nodir kolleksiyalar mavjud[6]. Marosimda so'zga chiqqan Mirziyoyev o'zbek va turk xalqlarining tarixiy ildizlari, ma'naviy qadriyatlari mushtarak ekanligini, chunki Imom al-Buxoriy, al-Beruniy, al-Xorazmiy, al-Kushjiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Yunus Emre, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlar merosi ikki xalq kamolotida muhim rol o'ynaganini ta'kidladi. O'z navbatida Prezident Erdo'g'on Turkiya uchun "O'zbekiston bizning bilim, donolik va madaniyat dunyomizga oziq bo'lgan, sivilizatsiyaga oid qarashlarimizni shakllantirgan olimlar yetishib chiqqan hayot manbalari orasida eng muhimi" ekanini ta'kidladi[2]. Shavkat Mirziyoyev kutubxonaga turli mavzudagi 350 dan ortiq kitoblar, jumladan, o'zbek xattotlari tomonidan ko'chirilgan noyob Usmon Qur'oni nusxasini sovg'a qildi[2]. Bundan ko'rinib, turibiki, O'zbekiston va Turkiya munosabatlari, madaniy, diniy, siyosiy yo'nalishlarda meyoriy munosabatlar olib bormoqda. Mamlakatlar nafaqat ikki tomonlama formatda, balki ko'p tomonlama global va mintaqaviy platformalar doirasida ham hamkorlik qilish uchun ulkan salohiyatni ro'yobga chiqarmoqda. Ular orasida BMT, Turkiy davlatlar tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqalarni alohida qayd etish mumkin.

Ikki mamlakat qonun chiqaruvchi organlari o'rtasida samarali aloqalar o'rnatildi. O'zbekiston-Turkiya hamkorligi kun tartibini shakllantirish, erishilgan kelishuvlar ijrosini yuqori darajada nazorat qilishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Turkiya Buyuk Millat Majlisining do'stlik guruhlarini va ixtisoslashtirilgan qo'mitalari faol ishtirok etmoqda. Bundan tashqari Ikki davlatning geografik joylashuvi va salohiyatini inobatga olgan holda, ularning transport-logistika yo'nalishlarini rivojlantirishga qiziqish yo'nalishlari ham mos keladi. Xususan, tomonlar "Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston-Turkmaniston-Ozarbayjon-Gruziya- Turkiya-Yevropa" multimodal transport koridorini ilgari surishdan manfaatdor. Ushbu keng ko'lamli loyihaning amalga oshirilishi ikki davlatning o'zaro manfaatli asosda tashqi savdo salohiyatini sezilarli darajada oshirish, shuningdek, O'zbekiston va Turkiya hududlari orqali tranzit yuk tashish hajmini oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, so'nggi yillarda parlamentlararo muloqot, ayniqsa, qizg'in kechmoqda. Xususan, turkiyalik parlamentariylar O'zbekistonda 2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tgan Konstitutsiyaviy referendum va shu yilning 9-iyulida bo'lib o'tgan Prezident saylovini kuzatishda faol ishtirok etdi. O'z navbatida, 2023-yil 14-may kuni Turkiyada bo'lib o'tgan Prezidentlik va parlament saylovlarida O'zbekistondan kuzatuvchilar ishtirok etdi. Parlament delegatsiyalarining qator o'zaro tashriflari, ularning ko'p tomonlama joylarda uchrashuvlari, shuningdek, qonun chiqaruvchi organlar raislari o'rtasida telefon orqali muloqotlar bo'lib o'tdi[2].

Bugungi kunda O'zbekiston o'z qo'shnilari va tashqi hamkorlari bilan aloqalarni qayta tiklagach, bu munosabatlar o'zining tabiiy shaklini kasb etmoqda. Yaxshi shaxsiy munosabatlarga asoslangan Rajab Toyyib Erdo'g'on va Shavkat Mirziyoyev Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik tarixida yangi sahifa ochdi. Ular ikki davlat o'rtasidagi o'zaro siyosiy ishonchni mustahkamlab, o'zaro samarali hamkorlik uchun qulay shart-sharoit va keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qildi[1].

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi zamonaviy madaniy hamkorlik mamlakatlarimiz o'rtasidagi mustahkam va dinamik aloqalardan dalolatdir. Bu aloqalar o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash, madaniy landshaftni boyitish va umumiy qadriyatlarni ilgari surishda muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyat ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning shakllanishi va qo'llab-quvvatlanishida muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi madaniy aloqalar chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, umumiy madaniy xususiyatlar va qadriyatlar bilan ajralib turadi. Keyingi o'n yilliklarda bu aloqalar ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlik orqali yanada mustahkamlandi. Kelgusida O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun katta istiqbollar mavjud. Har ikki davlat hamkorlikning mavjud shakllarini mustahkamlashda davom etishi va o'z madaniyatlarini yanada boyitish, mintaqaviy anglashuv va hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha yangi tashabbuslarni ishlab chiqishda davom etishi mumkin.

Xulosa. Adolat va Taraqqiyot partiyasining hokimiyatga kelishi Turkiya siyosiy tizimini tubdan o'zgartirib, mamlakatni "institutsonal dunyoviylik" ramzlarini saqlagan holda amaliy konfessionalizmga yo'naltirdi. Diyanet byudjetining keskin oshishi, imom hatip maktablarining ta'lim tizimidagi ulushining ikki barobarga ko'tarilishi, hijob cheklovlarining bosqichma bosqich bekor qilinishi, shuningdek Qur'on va sunnatni maktab dasturlariga chuqur integratsiyalash, bir tomondan dindor qatlam ijtimoiy koalitsiyasini ravnaq toptirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'qimishli qatlamining sekulyar talablarini cheklab, siyosiy markazlashuvni chuqurlashtirdi. Shu tariqa, AKPning dastlabki yillarda Yevropa Ittifoqi bilan muzokaralar orqali yo'lga qo'yilgan liberal modernizatsiya vektorini keyinchalik faol markazlarning va quyi institutlarning vertikal bo'ysunuviga asoslangan neo-usmoniy konservatizmni o'zgartirdi.

Ta'lim sohasidagi "4+4+4" tizimi, evolyutsiya nazariyasining o'quv jarayonidan chiqarib tashlanishi, jihad va diniy atamalarining darsliklarga kiritilishi davlatning mafkuraviy apparatini konservativ diniy diskurs bilan birlashtirdi. Gender tengligi va ilmiy dunyoqarash ko'rsatkichlari xalqaro reytinglarda pasaydi, ayollarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi ham torayib bordi, biroq hukumat buni "axloqiy barqarorlik" va "ma'naviy yetuk avlod" tamoyillarini mustahkamlash sifatida targ'ib etdi. Institutsonal darajada, Diyanetning moliyaviy va tashkiliy kengayishi diniy ijtimoiy servislarni, jumladan oilaviy konsalting, talabalar yotoqxonasi va hatto media ishlab chiqarishni o'z vakolat doirasiga tortdi. Bu esa sekulyar tuzumda diniy byurokratiya fenomenini yuzaga keltirdi va huquqiy normativ tartibni performativ konfessionalizm bilan almashtirish xatarini kuchaytirdi. Ichki transformatsiyalarning tashqi yo'nalishda ham aks etib, Turkiyaning neo usmoniy mintaqaviy ambitsiyalarini mustahkamladi. Jumladan, islomiy moliya markazlari va IHT maydonlarida siyosiy madaniy yumshoq kuchni kengaytirish amaliyotiga asos bo'ldi. Aynan shu nuqtada Turkiya hamda O'zbekiston o'rtasidagi diniy madaniy strategik rezonans kasb etadi. Ikki xalqni bog'lovchi hanafiy Maturidiy meros, jadidchilik davridan saqlanib kelayotgan ilmiy ma'rifiy almashinuv va zamonaviy ziyorat turizmi oqibati o'laroq shakllangan dual platformalar Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqanddagi Imom Buxoriy xalqaro markazi hamda Anqaradagi Millat kutubxonasi, transmilliy yumshoq kuch klasteri sifatida ish bermoqda. O'zbekistonning ma'rifiy islom konsepsiyasini ilgari suruvchi siyosati Turkiyaga aniq normativ hamkor sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev.Sh. *"We will continue our path of national development with determination and bring it to a new level."* T: "Uzbekistan", 2017. p- 390.
2. МИД Турции (2020). *Отношения между Турцией и Узбекистаном. Доступен по адресу: <http://www.mfa.gov.tr/relations-between-turkey-and-uzbekistan%20.en.mfa>. Дата обращения: 24.02.2025.*
3. Ортиқов Ш. Бир- бирини соғинган икки қардош эл // *Халқ сўзи*. 2018 йил 11 апрель.
4. Ҳабибуллаев Н. Буюк соҳибқирон фаолияти халқаро миқёсда кенг ўрганилмоқда // *Халқ сўзи*. 2018 йил 7 апрель.
5. Хайдаров, И. М., & Каримов, Н. Р. (2017). *Classification of the scientific heritage of hakim tirmidhi. in european research* (pp. 28-31).
6. Баяз, Зафер Фатих (2020). *Турция: Эрдоган собирается разрезать ленточку Библиотеки Наций. Доступен по адресу: <https://www.aa.com.tr/en/culture/turkey-erdogan-set-to-cut-ribbon-of-nations-library/1737443>. Дата обращения: 10.02.2025*
7. Данилов В.И. *Турция после Второй мировой войны: демократический эксперимент продолжается* –М: Восток, 1998.
8. ЎзМА, М-26-фонд, 1-рўйхат, 75-иш, 4-7-варақлар.
9. Khudoyberdiyevich, D. A., & Rakhmonkulovich, N. K. (2018). *The contribution of sarah sviri to the study of the scientific heritage of hakim tirmidhi. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 8(11), 60-67.
- Türk dünyasının dini meseleleri. Türkiye Diyanet vakfi yayınları. Ankara. 1998.* http://ktp.isam.org.tr/pdfdrgr/D118311/1998/1998_ersahins.pdf.

10. Туркияда ўзбекистонлик талабалар бирлашмаси ташиқил этилди. <https://kun.uz/01579477> 22.01.2018.
11. The Islamic Development Bank has been operating since 1975. Uzbekistan has a 0.3% share in the charter capital of the organization. Turkey has a share of 6.45%. <https://www.isdb.org/isdb-member-countries>.
12. President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev's speech at the first summit of the Organization of Islamic Cooperation on science and technology. (20.01.2020) <http://uza.uz/uz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidentishavkat-mirziyeevning-islo-10-09-2017>.
13. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълим вазирлиги мактаб – интернатлар ва янги турдаги ўқув юртлари бошқармаси жорий архиви. // 1992-1998 йиллар материаллари. – Б. 2.
14. Türk dünyasının dini meseleleri. Türkiye Diyanet vakfı yayınları. Ankara. 1998. http://ktp.isam.org.tr/pdfdrg/D118311/1998/1998_ersahins.pdf.
15. Memorandums of cooperation have been signed between 4 prestigious Turkish universities and Mir Arab High School. / <http://www.mir-arab.uz/ruknlar/99> <http://uza.uz/uz/society/qur-on-musobaqasida-kim-golib-bo-ldi-24-04-2018>.

IJTIMOIIY VA SIYOSIY REKLAMA DAVLATNING AXBOROT STRATEGIYASINI
AMALGA OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA

*Isanova Gulbaxor Taxiroyva,
O‘zMU siyosatshunoslik kafedrası dotsenti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy va siyosiy reklamalar davlatning axborot strategiyasini amalga oshirishdagi o‘rni va ahamiyati o‘rganiladi. Tadqiqotda reklamaning kommunikativ, ideologik va targ‘ibot vositasi sifatida jamiyatga ko‘rsatgan ta‘siri tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi solishtirilib, zamonaviy texnologiyalar orqali davlat g‘oyalarining aholiga yetkazilishidagi samarali mexanizmlar aniqlangan. Tahlillar reklama vositalarining ijtimoiy ongni shakllantirish, fuqarolik faolligini oshirish va milliy qadriyatlarni mustahkamlashdagi roli kuchayib borayotganini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy reklama, siyosiy reklama, axborot strategiyasi, davlat siyosati, kommunikatsiya, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy ong.

СОЦИАЛЬНАЯ И ПОЛИТИЧЕСКАЯ РЕКЛАМА КАК СРЕДСТВО РЕАЛИЗАЦИИ
ИНФОРМАЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ ГОСУДАРСТВА

Аннотация. В данной статье исследуется роль и значение социальной и политической рекламы в реализации информационной стратегии государства. В исследовании анализировалось влияние рекламы на общество как коммуникативного, идеологического и пропагандистского инструмента на основе системного подхода. Также проведено сравнение опыта Узбекистана и зарубежных стран, выявлены эффективные механизмы доведения государственных идей до населения с помощью современных технологий. Анализ показал, что роль рекламных средств в формировании общественного сознания, повышении гражданской активности, укреплении национальных ценностей возрастает.

Ключевые слова: социальная реклама, политическая реклама, информационная стратегия, государственная политика, коммуникация, гражданское общество, общественное сознание.

SOCIAL AND POLITICAL ADVERTISING AS A MEANS OF IMPLEMENTING THE
INFORMATION STRATEGY OF THE STATE

Abstract. This article explores the role and importance of social and political advertising in the implementation of the information strategy of the state. The study analyzed the impact of advertising on society as a communicative, ideological and propaganda tool based on a systematic approach. Also, the experience of Uzbekistan and foreign countries has been compared, and effective mechanisms in communicating State ideas to the population have been identified through modern technologies. The analysis showed that the role of advertising media in shaping social awareness, promoting civic activism, and strengthening national values was growing.

Keywords: social advertising, political advertising, information strategy, public policy, communication, civil society, social consciousness.

Kirish. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi kompaniyalarga mijozlar bilan aloqani yangi usullar orqali yo‘lga qo‘yish imkonini bermoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar xizmat va mahsulotlarni targ‘ib qilishda muloqotdagi to‘siqlarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy medianing hayotning ijtimoiy va iqtisodiy jabhalariga chuqur singib ketgan eng samarali onlayn vositalardan biri ekanligini ko‘rsatdi. Ijtimoiy tarmoqlar internetda foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontentni ishlab chiqish va tarqatish imkonini beruvchi dasturlar majmuasi sifatida tushuniladi. Bu — Internet orqali bilim, axborot, fikr va tajriba almashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi foydalanuvchilarning odatlari va harakat uslublarini ifoda etadi. Bundan tashqari, bu vositalar geografik joylashuv va vaqt farqidan qat‘i nazar, real vaqtli muloqotni amalga oshirishga imkon beradi.

Ko‘plab mutaxassislarning fikricha, ijtimoiy media har bir faoliyat sohasi uchun o‘ziga xos kontseptual yondashuvlarga ega. Shuningdek, ijtimoiy mediadan foydalanish doirasi tobora kengayib borayotgani va bu atamaning ta‘rifi ham rivojlanib borayotgani aniqlangan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining

hozirgi rivojlanish bosqichi Internetdan foydalanish darajasining ortib borishiga olib kelmoqda, foydalanuvchilar soni esa izchil ko'paymoqda.

"Ijtimoiy reklama" atamasi Rossiyada professional muhitda "jamoat xizmati reklamasi" (PSA – Public Service Announcement) tushunchasining muqobili sifatida faol qo'llanilgan. Bu atamani birinchi bo'lib faol ishlatganlardan biri Igor Burenkov bo'lib, u keyinchalik Birinchi kanalning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha direktori lavozimida ishlagan.

AQShda ijtimoiy reklama bozorining asosiy muvofiqlashtiruvchisi sifatida 1942-yilda tashkil etilgan nodavlat tashkilot — Reklama kengashi (The Advertising Council) tan olinadi. Dastlabki faoliyati Ikkinchi Jahon urushidagi g'alabani ta'minlash maqsadida aholining safarbar qilinishiga qaratilgan edi. Urushdan keyingi davrda esa Kengash ijtimoiy reklama sohasidagi kompaniyalarni rejalashtirishni boshladi.

Ilk yillarda Reklama kengashi reklama mavzularini ehtiyotkorlik bilan tanlagan bo'lib, ular jamiyatda keskin bahs yoki qarama-qarshiliklarga sabab bo'lmagan. Ularning dastlabki kompaniyalaridan ba'zilari quyidagilar edi: Koreya urushida qatnashayotgan askarlarga maktub yozishga undash, avtomobil boshqarayotganda xavfsizlik kamarlarini taqishni targ'ib qilish, va o'rmon yong'inlarining oldini olish bo'yicha axborot berish.

Ijtimoiy reklama orqali beriladigan ma'lumotlar sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya resurslarini tejash, huquqbuzarliklarning oldini olish, aholining ijtimoiy himoyasi va xavfsizligini ta'minlash, ma'naviy-ma'rifiy masalalar, shuningdek, notijorat xarakterdagi boshqa dolzarb mavzularni qamrab oladi.

Fuqarolar tomonidan ijtimoiy reklama kontentini bepul tayyorlash va tarqatish bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar, shuningdek o'z mablag'lari yoki mol-mulkini ushbu faoliyat uchun boshqa shaxslarga taqdim etish holatlari xayriya faoliyati sifatida baholanadi. Bunday fuqarolar amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega.

Siyosiy reklama — bu jamiyat yoki uning muayyan qismining siyosiy tanlov bilan bog'liq qarorlarini va xatti-harakatlarini o'zgartirishga qaratilgan reklama turidir. U siyosiy muhitdagi kayfiyatlarni shakllantirish, siyosiy maqsadlarni ilgari surish va siyosiy kuchlar, g'oyalar hamda amaliyotlarni targ'ib qilishga xizmat qiluvchi vositalar va usullar majmuasidir.

Siyosiy reklama tijorat maqsadli reklama bo'lmaganligi sababli, u mahsulot yoki xizmat sotish orqali foyda olishga emas, balki siyosiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. Aynan shu jihati uni ijtimoiy reklama bilan o'xshatadi. Siyosiy reklamaning asosiy vazifasi — reklama ob'ektiga nisbatan ijtimoiy munosabatni o'zgartirish, shuningdek, jamiyat yoki uning alohida guruhlarining siyosiy xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Bunday reklamaning ob'ekti odatda "siyosiy mahsulot" deb yuritiladi va unga quyidagilar kiradi: siyosiy partiyalar, nomzodlar, dasturlar, qarashlar yoki tashabbuslar.

Siyosiy reklama zamonaviy ko'rinishda XX asr boshlarida Yevropa va Shimoliy Amerikada shakllana boshlagan bo'lsa-da, uning ilk shakllari qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. O'sha davrda siyosiy e'lonlar og'zaki shaklda bo'lib, fuqarolarga siyosiy tanlov qilish imkonini yaratgan va siyosiy yetakchilarni targ'ib qilishga xizmat qilgan. Bu e'lonlar ko'pincha raqiblarning yutuqlari yoki imkoniyatlarini inobatga olmagan, balki reklama qilinayotgan shaxsning aql-zakovati, boyligi va notiqlik mahoratini ta'kidlagan.

Bundan tashqari, siyosiy reklama o'sha davrlarda vizual shaklda ham mavjud bo'lgan — hukmdorlarning haykallari, portretlari, monumental yozuvlar orqali ularning obro'sini oshirishga xizmat qilgan.

O'rta asrlarda esa siyosiy reklama, asosan, hukmdorlar buyruqlari va ularni maqtoovchi bayonotlar shaklida bo'lgan. Rossiyada esa siyosiy reklama g'oyaviy targ'ibot vositasi sifatida 1910–1920-yillarda paydo bo'ldi. Bu davrda V.I. Lenin boshchiligidagi kommunistik va sotsialistik qarashlar faol himoya qilingan.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Axborot strategiyasi zamonaviy davlatlar uchun milliy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va siyosiy muvozanatni saqlab qolishning muhim omillaridan biridir. Bu strategiyaning asosi – aholiga tezkor, ishonchli va yo'naltirilgan axborotni yetkazishdan iborat. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ijtimoiy va siyosiy reklama axborot strategiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko'riladi.

Ko'plab nazariy manbalarda reklama nafaqat mahsulot yoki xizmatni targ'ib qilish vositasi, balki ideologik, siyosiy va axloqiy qadriyatlarni keng jamoatchilikka yetkazish instrumenti sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, siyosiy reklama orqali davlat imidji, islohotlar mohiyati va fuqarolik jamiyati g'oyalari singdiriladi.

Adabiyotlarda reklama faqat tijorat vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va siyosiy murosaga yo'l ochuvchi vosita sifatida ko'rilmogda. Ayniqsa, raqamli axborot muhiti rivojlangan sari ijtimoiy va siyosiy reklama orqali davlat strategiyasining maqsad va g'oyalari ommaga keng va samarali tarzda yetkazilmogda.

Ijtimoiy va siyosiy reklama konsepsiyalari turli olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Masalan, Harold Lasswell o'zining kommunikatsiya modeli orqali axborotning kimdan, qanday vosita bilan va kimga yetkazilishi davlat siyosatida naqadar muhim ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, siyosiy reklama ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumotlarni boshqarish va aholi ongiga ta'sir qilish vositasi sifatida ishlatiladi.

Shuningdek, Entoni Giddens modern jamiyatda davlatlar "axborot jamiyati"ga aylanayotganini ta'kidlab, reklama va kommunikatsiyaning siyosiy boshqaruvdagi rolini alohida ko'rsatadi. O'zbekiston kontekstida esa ijtimoiy va siyosiy reklamaning rivojlanishi 2017- yildan keyingi ochiqlik siyosati va davlat imidjini yaratish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq.

Shuningdek, YUNESKO, OSCE va boshqa xalqaro tashkilotlarning axborot siyosati va ommaviy kommunikatsiya sohasidagi hisobotlari ijtimoiy reklamaning fuqarolik ongini shakllantirishdagi o'rni va roliga e'tibor qaratadi.

Ijtimoiy va siyosiy reklamaning davlat axborot strategiyasidagi o'rni tobora kuchayib borayotgani nafaqat mahalliy, balki xorijiy tadqiqotlarda ham ko'p bor tilga olinmoqda. Bugungi kunda reklama faqat tijorat maqsadlariga xizmat qilmay, balki jamiyatdagi ijtimoiy kayfiyatni shakllantirish, davlat g'oyalarini keng ommaga yetkazish, fuqarolik faolligini oshirish kabi strategik vazifalarni ham bajaradi.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan yozilgan ilmiy asarlarda, xususan, H. Qodirov (2021), S. Karimov (2023), M. Abdullayeva (2020) ishlarida reklamaning ideologik jihatlarini, axborot siyosatining vositasi sifatidagi roli va uning samaradorlik mezonlari chuqur tahlil qilingan. Jumladan, reklamaning axborot makonida "yumshoq kuch" vositasi sifatida ishlatilishi haqida fikrlar ilgari surilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, reklama orqali aholining ongiga bevosita bosim o'tkazmasdan, ularni ongli qaror qabul qilishga yo'naltirish mumkin.

G'arb adabiyotlarida esa reklama va axborot siyosatining o'zaro aloqasi ommaviy kommunikatsiya nazariyalari asosida ko'rib chiqiladi. McQuail (2020) mass-kommunikatsiya vositalarining demokratik jamiyatdagi axborot oqimini qanday boshqarishi mumkinligini tahlil qilgan. Habermas (2022) esa reklamaning jamiyatdagi jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi rolini jamiyat maydonining transformatsiyasi orqali izohlaydi. Ayniqsa, siyosiy reklama demokratik jarayonlarda ommani jalb qilish, ishonch muhitini yaratish va raqobatga asoslangan kommunikatsiyani tashkil etishda muhim vosita sifatida baholanadi.

Yana bir muhim jihat – reklamaning raqamli muhitda qanday transformatsiyaga uchrashi. Jenkins (2020) raqamli kommunikatsiyada konvergent madaniyatni o'rganib, reklama vositalari turli platformalarda qanday uyg'unlashishini ko'rsatadi. Bunda siyosiy va ijtimoiy kontent bir vaqtning o'zida bir nechta auditoriyani qamrab olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa davlat axborot strategiyasining tez, samarali va izchil ishlashiga asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ilmiy asosda olib borilgan bo'lib, ko'p yo'nalishli yondashuvga tayanilgan. Dastlab, davlatning axborot siyosatida reklama vositalarining qanday o'rin tutishi aniqlanishi uchun ilmiy-nazariy modellar o'rganildi. Shuningdek, reklama mazmunining g'oyaviy, vizual va lingvistik tahlili asosida ularning auditoriyaga ko'rsatgan ta'sir kuchi baholandi.

Empirik ma'lumotlar yig'ish bosqichida reklama kompaniyalariga doir ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy axborot portallaridagi namunalardan foydalanildi. Shuningdek, aholining turli yosh va ijtimoiy guruhlaridan olingan fikrlar asosida reklamaning psixologik va ijtimoiy qabul darajasi tahlil qilindi.

Vaqt kesimidagi tahlil orqali reklamaning turli davrlardagi (saylov kampaniyalari, pandemiya payti, islohotlar bosqichi) ijtimoiy vazifasi va u orqali uzatilayotgan axborotning mohiyati solishtirildi. Shuningdek, diskursiv tahlil asosida reklama matnlaridagi mavzular va ularning mafkuraviy jihatdan qanday yo'naltirilgani ko'rib chiqildi.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

- Kontent tahlil: ijtimoiy va siyosiy reklama namunalarining mazmuni, tili va tasviriyl vositalari o'rganildi.
- Solishtirma tahlil: O'zbekiston va boshqa davlatlardagi axborot strategiyasida reklama vositasining o'rni qiyoslab tahlil qilindi.
- Sotsiologik yondashuv: ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilarning ijtimoiy-siyosiy reklamalarga bo'lgan munosabati va ularga ko'rsatgan reaksiyasi tahlil qilindi.
- Tizimli yondashuv: reklamaning davlat axborot siyosatidagi funksional roli aniqlanib, uni amalga oshirish mexanizmlari o'rganildi.

Tadqiqotda bir nechta metodologik yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Bu yondashuvlar ijtimoiy va siyosiy reklamaning nafaqat tashqi ko'rinishi, balki ichki ma'nosi, ta'sirchanligi va strategik funksiyalarini chuqurroq anglashga xizmat qildi.

Birinchidan, semantik tahlil yordamida reklama matnlarida qo'llanilgan iboralar, ramzlar, emotsional signal va mavzular tahlil qilindi. Shu asosda, reklama vositalarining ong ostiga ta'sir qilish usullari aniqlab borildi.

Ikkinchidan, intervyu va fokus-guruh usuli qo'llanilib, aholining turli toifalari — talaba yoshlar, o'qituvchilar, marketing mutaxassislari va siyosatshunoslar bilan suhbatlar o'tkazildi. Ular reklamanning ijtimoiy ongga ko'rsatgan real ta'sirini aniqlashga xizmat qildi.

Uchinchidan, komparativ metod asosida O'zbekiston, Janubiy Koreya, AQSh va Turkiyada qo'llanilayotgan davlat axborot strategiyalari va ularning reklama orqali qanday amalga oshirilayotgani qiyosiy jihatdan o'rganildi. Har bir mamlakatda reklama vositalarining o'ziga xosligiga qarab axborot uzatish usullari tahlil qilindi.

To'rtinchidan, vaziyatli tahlil (case study) asosida ayrim ijtimoiy reklama kompaniyalari chuqur o'rganildi. Masalan, "Sog'lom hayot uchun bir qadam", "Kelajak — yoshlarnikidir", "Yangi O'zbekiston — yangi imkoniyatlar" kabi kompaniyalar reklamanning axborot strategiyasidagi real roli haqida muhim xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy va siyosiy reklama orqali davlat fuqarolarning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatib, ularni ma'lum ijtimoiy yoki siyosiy qadriyatlar asosida shakllantirish imkoniyatiga ega. Masalan, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi ijtimoiy reklama sog'liqni saqlash strategiyasining axborot asosi bo'lsa, saylovoldi kompaniyalari davridagi siyosiy reklama fuqarolarning faol ishtirokini rag'batlantiradi.

O'zbekistonda olib borilayotgan "Yangi O'zbekiston" siyosiy strategiyasi doirasida aholini islohotlarga jalb etish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va fuqarolik faolligini oshirish maqsadida ijtimoiy-siyosiy reklama faol qo'llanilmoqda. Reklama vositasida davlat o'z maqsadlarini yengil va ta'sirchan shaklda tushuntiradi, bu esa murakkab huquqiy yoki iqtisodiy masalalarni oddiy fuqaroga tushunarli qilish imkonini beradi.

O'tkazilgan tahlillar reklamanning nafaqat axborot yetkazuvchi, balki jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik holatni barqarorlashtiruvchi vosita sifatida faol ishlatilayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, davlat islohotlari va strategik qarorlarini aholiga tushunarli tilda, hissiyot bilan yo'g'rilgan vizual obrazlar orqali yetkazish reklamanning asosiy vazifasiga aylangan.

Saylovoldi jarayonlarida yoki milliy dasturlar targ'ibotida reklama fuqarolarning faoliyatiga bevosita ta'sir o'tkazmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yaxshi ishlab chiqilgan siyosiy reklama fuqarolarda ishonch uyg'otib, ularni qaror qabul qilishga undaydi. Ayniqsa, muayyan obrazlar — masalan, halol rahbar, oila qadriyati, mehnatsevar yoshlar kabi personajlar orqali reklama ideologik signal uzatadi.

Reklamanning vizual jihatlari tahlil qilinganda, ranglar, musiqa va dramatik voqealar vositasida e'tibor tortilishi, emotsional ta'sirni kuchaytirishga xizmat qilayotgani aniqlandi. Bunday vositalar yordamida davlat strategiyasining murakkab jihatlari ham oddiy va tushunarli qilib talqin qilinmoqda.

O'tkazilgan kuzatuvlar reklama vositalarining auditoriya bilan hissiy aloqa o'rnatish qobiliyati yuqori ekanini ko'rsatdi. Masalan, ijobiy ruhda, vatanparvarlikka yo'naltirilgan roliklar odamlar orasida birlik, ishonch va faollikni kuchaytiradi. Ayni paytda, ogohlantiruvchi va muammoni ko'rsatuvchi reklama turlari jamiyatni muhokama va o'zgarish sari undaydi.

Shuningdek, reklamanning ijtimoiy segmentatsiya imkoniyati ham alohida ta'kidga loyiq. Har bir auditoriyaga mos uslub, vizual elementlar va til birikmalari orqali reklama individual ta'sir kuchiga ega bo'lishi mumkin. Bu esa axborot strategiyasining yuqori aniqlikda yo'naltirilishini ta'minlaydi.

Yana bir muhim natija — raqamli reklama vositalarining jadal rivojlanishi bilan birga, siyosiy kommunikatsiyaning mobil formati kengaymoqda. Endilikda davlat o'z g'oyalarini nafaqat televideniye yoki gazeta orqali, balki TikTok, Telegram, YouTube Shorts kabi platformalarda ham ommaga uzatmoqda. Bu platformalar orqali reklama ko'proq yosh auditoriyani qamrab olib, davlat bilan yoshlar orasidagi axborot aloqasini jonlantiradi.

O'zbekistonda keyingi yillarda olib borilayotgan ochiqlik siyosati doirasida axborot tarqatish siyosiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda strategik vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, "Yangi O'zbekiston" g'oyasi, "Inson qadri uchun" tamoyili kabi siyosiy yo'nalishlar ommaviy reklama vositalari, videoroliklar va bannerlar orqali keng targ'ib qilinmoqda. Ushbu reklama mahsulotlari davlatning axborot strategiyasida muhim o'rin tutmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, siyosiy reklama odatda davlatga bo'lgan ishonchni oshirish, islohotlarning mazmunini sodda va ta'sirchan uslubda tushuntirish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy reklama esa ko'proq ma'naviy qadriyatlar, sog'lom turmush tarzi, huquqiy ong va ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan.

Ammo reklama orqali yetkazilayotgan g'oyaning samarasini ta'minlashda muhim jihatlardan biri — uning auditoriya psixologiyasiga mosligi va zamonaviy kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasidir. Shu ma'noda, ba'zi reklama namunalarida formalizm, g'oyaning yetkazilmasligi yoki hissiylikning yetishmasligi ham kuzatilmoqda.

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy va siyosiy reklama zamonaviy axborot jamiyatida davlat strategiyasining asosiy tayanchi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Bu reklama turlari nafaqat informatsion kommunikatsiyani ta'minlaydi, balki fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni islohotlarga jalb etish va milliy qadriyatlar atrofida birlashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, olib borilgan ilmiy va amaliy tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Ijtimoiy va siyosiy reklama davlat axborot siyosatining tarkibiy qismi sifatida faqat informatsiya yetkazuvchi emas, balki ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi, ijtimoiy birlashuvni mustahkamlovchi vositadir.

Raqamli muhitda reklama vositalarining roli kuchayib, ular orqali davlat g'oyalari tezkor, interaktiv va vizual yo'nalishda yetkazilmoqda.

Reklama vositalarining samaradorligi ularning ijtimoiy psixologik xususiyatlarga moslashtirilganligiga bog'liq. Shuning uchun reklama strategiyalari ishlab chiqilayotganda mahalliy mentalitet, yosh toifasi va madaniy qadriyatlar chuqur inobatga olinishi zarur.

Takliflar:

➤ Davlat axborot strategiyasida ijtimoiy va siyosiy reklama alohida konseptual yo'nalish sifatida ko'rib chiqilishi zarur.

➤ Reklama kompaniyalarida zamonaviy texnologiyalar – sun'iy intellekt, Big Data, ijtimoiy media tahlil vositalaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

➤ Ijtimoiy reklamalarning ta'sirchanligini oshirish uchun mahalliy mentalitet, madaniyat va qadriyatlar inobatga olinishi lozim.

➤ Siyosiy reklama axloqiy mezonlarga qat'iy rioya qilgan holda, faqat informatsion vosita sifatida emas, balki fuqarolik ongini shakllantiruvchi vosita sifatida ham rivojlantirilishi lozim.

➤ Reklama mahsulotlarining doimiy monitoringi va ularning samaradorligini o'rganish tizimini joriy etish.

➤ Yoshlar orasida siyosiy madaniyatni shakllantirish uchun interaktiv, vizual va kinoreklama shakllarini rivojlantirish.

ADABIYOTLAR:

1. Qodirov H. *Axborot siyosati: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: "Adolat", 2021.
2. Saidov M. *Davlat va jamiyat boshqaruvida axborot vositalari roli*. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2022.
3. Yusupov N. *Ijtimoiy reklama va jamiyat: kommunikatsion yondashuv*. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2020.
4. McQuail D. *Mass Communication Theory*. – London: Sage Publications, 2020.
5. Habermas J. *The Structural Transformation of the Public Sphere*. – Cambridge: MIT Press, 2022.
6. Karimov S. *Yangi O'zbekiston: islohotlar va axborot siyosati*. – Toshkent: "Sharq", 2023.
7. Turg'unov B. "Davlat axborot siyosati va ommaviy kommunikatsiyalar: yangi yondashuvlar". *Milliy tiklanish ilmiy-amaliy jurnal*, 2022. №1, 30–36.
8. Nurmatova D. "Siyosiy reklamaning fuqarolik ongiga ta'siri: kontent-analiz yondashuvi". *Axborot jamiyati va taraqqiyot*, 2023. №3, 22–29.
9. Qudratova M. *Raqamli kommunikatsiya va ijtimoiy reklama: O'zbekistonda yangi tendensiyalar*. Toshkent: Ijtimoiy Fikr nashriyoti, 2024.

KO'RFAZ ARAB DAVLATLARINING "TOLIBON" BILAN BOG'LIQ MANFAATLARI

Bo'ronov Suhrob Muhammadi o'g'li,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi,

TDSHu xalqaro munosabatlar kafedrası mudiri,

siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

suhrobburanov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Qatar, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlarning "Tolibon" bilan bog'liq aloqalari va manfaatlarini ochib berishga bag'ishlangan. Unda Ko'rfaz arab davlatlarining "Tolibon" harakatining birinchi hokimiyati va hozirgi hukumati bilan o'rnatgan aloqalari, diplomatik sa'y-harakatlari hamda geosiyosiy manfaatları qiyosiy tahlil etilgan. Chunki Qatar, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari Afg'oniston bilan bevosita chegaradosh bo'lmasa-da, "Tolibon" orqali Afg'oniston va uning atrofıdagi mintaqalarga ta'sirini kuchaytirishga harakat qilmoqda.

Kalit so'zlar: vositachilik diplomatiyasi, Doha siyosiy idorasi, "Tolibon", "Al-Udeyd" bazasi, Turki Al-Faysal, Haqqoniy tarmog'i, Sirojiddin Haqqoniy.

ИНТЕРЕСЫ АРАБСКИХ ГОСУДАРСТВ ПЕРСИДСКОГО ПЕРСИДСКОГО ЗАЛИВА В ТАЛИБАНЕ

Аннотация. Данная статья посвящена выявлению связей и интересов таких стран, как Катар, Саудовская Аравия и Объединенные Арабские Эмираты, по отношению к Талибану. В нем представлен сравнительный анализ отношений арабских государств Персидского залива с первым и нынешним правительствами движения Талибан, их дипломатических усилий и геополитических интересов. Потому что, хотя Катар, Саудовская Аравия и Объединенные Арабские Эмираты не граничат напрямую с Афганистаном, они пытаются усилить свое влияние в Афганистане и прилегающих регионах через Талибан.

Ключевые слова: посредническая дипломатия, политический офис в Дохе, Талибан, база Аль-Удейд, Турки Аль-Фейсал, сеть Хаккани, Сираджуддин Хаккани.

GULF ARAB STATES' INTERESTS IN THE TALIBAN

Abstract. This article is dedicated to revealing the relations and interests of countries such as Qatar, Saudi Arabia and the United Arab Emirates with the Taliban. It provides a comparative analysis of the relations, diplomatic efforts and geopolitical interests of the Gulf Arab states with the first and current government of the Taliban movement. Because, although Qatar, Saudi Arabia and the United Arab Emirates do not directly border Afghanistan, they are trying to strengthen their influence in Afghanistan and the surrounding regions through the Taliban.

Keywords: mediation diplomacy, Doha political office, Taliban, Al-Udeid base, Turki Al-Faisal, Haqqani network, Sirajuddin Haqqani.

Kirish. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi fundamental o'zgarishlarga uchramoqda. AQSh rahbarligidagi xalqaro koalitsiya kuchlarining Afg'oniston hududini tark etishi va "Tolibon" harakatining hokimiyatni qayta egallashi mintaqaviy kuch markazlarining Afg'onistondagi raqobati kuchayishiga turtki berdi. Xususan, Ko'rfaz arab davlatlarining geosiyosiy manfaatları Afg'oniston va uning atrofıdagi o'z ta'sir doirasini sezilarli darajada oshirishga qaratilgan. Ushbu manfaatlar Eron bilan geosiyosiy raqobatning kuchayishi sharoitida Afg'oniston omidan unumli foydalanish hamda tashqi siyosatda o'zining diniy-mafkuraviy qarashlarini mintaq bo'ylab kengroq yoyishni nazarda tutadi. Ayniqsa, Qatar, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliği singari uchlik arab monarxiyasining Afg'onistondagi strategik yondashuvlarida "Tolibon" omili alohida o'rin egallaydi.

Tadqiqot usullari. Ushbu maqola Qatar, Saudiya Arabistoni va BAA kabi davlatlarning "Tolibon" bilan bog'liq manfaatlarini qiyosiy tahlil qilishga asoslangan. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, shuningdek, hukumat saytlari ma'lumotlari, ommaviy axborot vositalaridagi maqolalar va ilmiy tadqiqotchilarning maqolalaridan har tomonlama keng foydalanildi. Shuningdek, natijalarni tahlil qilishda tarixiylik metodi ham qo'llanildi.

Muhokama. Tahlil va kuzatishlar ko'rsatmoqdaki, Ko'rfaz arab monarxiyalari "Tolibon" bilan aloqalarini sezilarli darajada kuchaytirmoqda. Ammo, tarixiy saboqlarga murojaat qilganda Ko'rfaz arab monarxiyalari AQShning Afg'onistondagi strategiyasiga asosan o'z siyosatini amalga oshirishi sababli istiqboldagi pozitsiyalar va yondashuvlarni tahlil etish va shu yuzasidan bahs-munozaralar qilish zaruriyati bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, Ko'rfaz mintaqasining 3 ta davlati "Tolibon" omili bilan bog'liq geosiyosiy manfaatlarini doirasida bir-biri bilan raqobat qilayotgani ham ko'zga tashlanmoqda.

Natijalar. So'nggi o'n yil ichida **Qatar** davlati Afg'onistonga daxldor mintaqaviy aktorlar orasida muhim o'yinchilardan biriga aylandi. Ta'kidlash lozimki, Qatar Saudiya Arabistoni va BAA kabi arab davlatlaridan farqli ravishda Afg'onistonni 1996-2001-yillarda boshqargan "Tolibon" hukumatini rasman tan olmagan. "New York Times" nashri ma'lumotlariga ko'ra, Saudiya Arabistoni va BAA o'z vaqtida "Tolibon" harakatining siyosiy idorasini o'z hududida ochish uchun Qatar bilan raqobat qilishgan[17]. Ammo, 2013-yilda Dohada ochilgan "Tolibon" harakatining siyosiy mahkamasi qisqa vaqt ichida Qatarning afg'on inqirozini "hal etish"dagi ta'sirini belgilab berdi. Shu jihatdan, Qatarning "Tolibon" bilan bog'liq geosiyosiy manfaatlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Vositachilik diplomatiyasi. Qatarning AQSh va "Tolibon" o'rtasidagi muzokaralarda vositachilik qilishi 2011-yilda Baraka Obama ma'muriyati tashabbusi bilan boshlangan. Muzokaralar uch bosqichda olib borilgan. Ulardan birinchisiga Qatar, ikkinchi va uchinchi bosqichga Germaniya mezbonlik qilgan. Ma'lumotlarda aytilishicha, o'sha vaqtda "Tolibon" yetakchisi Mulla Umar muzokaralar uchun qulay joy sifatida Afg'onistonga qo'shin yubormagan, unga qo'shni bo'lmagan va 2001-yildan keyin "Tolibon"ga qarshi pozitsiyani egallamagan islomiy davlat sifatida Qatarni tanlagan. Chunki, 2014-yilda AQShning Guantanamo qamoqxonasidan 5 nafar yuqori martabali "Tolibon" a'zosining (Mulla Xayrulloh Xayrxva (hozirda "Tolibon 2.0" hukumatining Axborot va madaniyat vaziri), Mulla Fozil, Abdul Haq Vasiq (hozirda "Tolibon" razvedkasi rahbari), Abdul Nabi Umariy, Nurulloh Nuriy) bir nafar amerikalik askar evaziga ozod qilinishida aynan Qatar davlati vositachilik rolini qoyilmaqom tarzda bajargan edi[3]. Ammo, bizning fikrimizcha, muzokaralar uchun Qatarning tanlanishi aslida Amerikaning qarorlariga bog'liq bo'lgan.

2020-yil fevralda AQSh va "Tolibon" o'rtasidagi olamshumul bitim ham Dohada imzolandi. Bu jihatdan, Qatar nafaqat AQShning "Tolibon" masalasidagi yaqin ittifoqchisi va vositachisiga aylandi, balki Pokiston, Saudiya Arabistoni va BAA o'rtasidagi raqobatda diplomatik g'alabaga erishdi. Bizningcha, AQSh Afg'oniston hududidan chiqib ketishidan oldinroq va keyinchalik ham ushbu o'lkadagi o'zining strategik manfaatlarini ta'minlash mas'uliyatini mintaqaviy aktorlardan Pokiston yoki Saudiya Arabistoniga emas, aynan Qatar zimmasiga yuklashni rejalashtirgan. Chunonchi, Amerika 2003-yilda Saudiya Arabistonining "Shahzoda Sulton" bazasida joylashgan harbiy kuchlarining boshqaruv punktini Qatardagi "Al-Udeyd" harbiy bazasiga ko'chirdi. AQSh Qurolli kuchlari Markaziy qo'mondonligining mintaqaviy shtab-kvartirasi ham Qatarda joylashgan. Shuningdek, 2013-yil dekabrda ("Tolibon" harakatining Doha siyosiy mahkamasi ochilgan yilda) 10 yilga mo'ljallangan mudofaa sohasidagi hamkorlik bitimi, 2014-yilda esa Dohaga 11 mlrd dollarga baholangan AQSh qurollarini yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma imzolandi[22]. "Al-Udeyd" AQShning Yaqin Sharqdagi eng yirik harbiy havo bazasi hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil 15-avgustdan boshlab Afg'onistondan evakuatsiya qilinganlarning taxminan 40 foizi, ya'ni 43 mingdan ortiq odam Qatar orqali tranzit qilingan. Qatar o'sha paytda 20 mingdan ortiq evakuatsiya qilinganlarni "Al-Udeyd" bazasida saqlab qolganidan tashqari qolganlarni boshqa mamlakatlarga tashish uchun "Qatar airways" kompaniyasi 10 ta samolyotini taqdim qilgan[6]. Bundan tashqari, MRBning sa'y-harakatlari bilan Mulla Abdulg'ani Barodarning Pokiston qamoqxonasidan ozod qilinib, Doha siyosiy mahkamasiga rahbar etib tayinlanishi ham Qatarning "afg'on shaxmat taxtasida" mintaqaviy markaziy o'yinchiga aylanishiga ishora qiladi.

2021-yildan keyin G'arb davlatlarining "Tolibon 2.0" hukumatiga nisbatan qattiq yondashuvi Qatarning vositachilik diplomatiyasini yanada ortishiga turtki berdi. Ayniqsa, G'arb davlatlarining diplomatlari, Afg'oniston bo'yicha maxsus vakillarining "Tolibon" bilan olib borayotgan muzokaralarida Kobul emas, Doha asosiy o'rinni egallab kelmoqda. Ochiq ma'lumotlardagi hisoblarga ko'ra, 2021-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda AQSh "Tolibon" vakillari bilan 4 marta Dohada uchrashgan. "Tolibon 2.0" hukumatida o'rnatilgan keyingi muzokaralarni tiklash maqsadida BMT tashabbusi bilan Doha jarayoni yo'lga qo'yilgan. 2023-2024-yillarning o'zida Doha jarayoni 3 ta raundi bo'lib o'tdi. Shu jihatdan hozirgi kunda "Tolibon" va G'arb dunyosi o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yishda Doha jarayoni yagona platforma bo'lib turibdi. Boshqacha aytganda, aynan Qatar "Tolibon" va G'arb davlatlari o'rtasidagi aloqalarda o'ziga xos ko'priq vazifasini bajarmoqda.

"Tolibon"ni qo'llab-quvvatlash. 2021-yil 18-avgustda Mulla Abdulg'ani Barodarning Kobulga aynan Qatar samolyotida kelishi shunchaki tasodif emas edi. O'z navbatida, 2021-yil sentyabrda Qatar tashqi ishlar vaziri Muhammad bin Abdulrahmon ol Soniy AQSh Afg'onistondan harbiylarini olib chiqib ketgandan keyin

Kobulga tashrif buyurgan ilk yuqori martabali diplomatga aylandi[18]. “AlJazeera” manbasiga ko‘ra, 2023-yil 12-may sanasida Muhammad bin Abdulrahmon ol Soniy va “Tolibon” yetakchisi Mulla Haybatulloh Oxunzoda Qandahorda yashirin muzokaralar olib borgan[20]. Bu jihatdan ham Muhammad bin Abdulrahmon ol Soniy 2021-yildan keyin “Tolibon” yetakchisi Mulla Haybatulloh Oxunzoda bilan uchrashgan ilk (hozirgacha yagona) xorijiy rasmiy diplomat hisoblanadi. Doha va “Tolibon” o‘rtasidagi harbiy-siyosiy va iqtisodiy hamkorlik masalalari bo‘yicha uchrashuvlar yuqorida maqomda va doimiy tarzda tashkil etilishi bilan alohida ajralib turadi. Masalan, ulardan asosiylari sifatida 2022-yil iyul [11] va 2024-mart oylarida [13] Afg‘oniston Muvaqqat hukumatining Mudofaa vaziri Mulla Ya‘qub, 2024-yil may oyida [12] Bosh vazirning iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari Mulla Abdulg‘ani Barodar kabi “Tolibon” yetakchilarining shaxsan Qatar Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan bir necha marta uchrashuvlar o‘tkazganligini misol qilib keltirish mumkin. Bu singari muntazam muloqotlar o‘z-o‘zidan Qatarning Afg‘onistondagi geosiyosiy manfaatlarida “Tolibon” omilining ahamiyatini yaqqol ifoda etadi.

Xulosa qilganda, “Tolibon 1.0” hukumatining Kobul siyosiy sahnasiga chiqishida Pokiston qanchalik rol o‘ynagan bo‘lsa, “Tolibon 2.0” hukumatining o‘rnatilishida bu safar Qatar davlati shunchalik markaziy o‘rinni egalladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, “Tolibon” omili bilan bog‘liq geosiyosiy o‘yinlarda Qatar davlati muhim o‘yinchiga aylandi.

Saudiya Arabistoni. Yaqin Sharq mintaqasida Saudiya Arabistoni o‘ziga xos siyosiy-iqtisodiy mavqega ega davlatlardan biri hisoblanadi. Ar-Riyodning Afg‘onistondagi manfaatlari asosan diniy va geosiyosiy omillarga asoslanadi. Mazkur manfaatlar Saudiya Arabistonining “Tolibon” bilan bog‘liq aloqalarini aks ettiradi. Saudiya Arabistoni 2021-yil avgustda “Tolibon” harakati Kobul hokimiyatini qayta egallagandan keyin o‘z elchixonasini yopib, xodimlarini evaukatsiya qildi [19]. Bundan tashqari, Ar-Riyod “Tolibon 2.0” hukumatini tan olmasligi haqida ma‘lum qildi. Bizning fikrimizcha, bunday yo‘l tutishga quyidagi sabablar mavjud edi:

1. Saudiya Arabistoni shahzodasi Muhammad bin Salmon tomonidan yuritilayotgan tashqi siyosat avvalgi davrdan biroz farq qilib, u Ar-Riyod uchun “ochiq eshiklar siyosati”ni amalga oshirishni nazarda tutadi. Xususan, “Nigoh-2030” dasturida ko‘zda tutilgan maqsadlar iqtisodiyotni diverfikatsiya qilish va investitsiya faolligini kuchaytirish orqali neftga qaramlikni minimal darajada tushirishga yo‘naltirilgan[4]. Bu esa Saudiya Arabistonining G‘arb davlatlari bilan keng ko‘lamli hamkorlikni davom ettirishini anglatadi. Tabiiyki, Ar-Riyodning “Tolibon” bilan yaqinlashishi g‘arblilik hamkorlari bilan munosabatlariga ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi. Ayniqsa, AQSh va “Tolibon” kelishuviga ko‘ra “Tolibon” harakati “Al-Qoida” terror guruhi bilan aloqalarni uzishi lozim. Biroq, hozirgi vaqtgacha ikkala guruh aloqalarning davom etishi Saudiya Arabistoni tashqi siyosatida “Tolibon 2.0” hukumati bilan ma‘lum vaqtgacha masofa saqlab turishga sabab bo‘ldi.

2. Ar-Riyod yaqin o‘tmishdagi xato qarorlardan tegishli saboq chiqardi. Garchi Saudiya Arabistoni “Tolibon 1.0” hukumatini rasman tan olgan davlatlardan biri bo‘lsa-da, oradan hech qancha vaqt o‘tmay, ya‘ni 1998-yilda Usama bin Ladenni topshirish da‘vosi ortidan hamda 2001-yil sentyabr voqealaridan keyin “Tolibon” harakati bilan aloqalarini butunlay uzishiga to‘g‘ri keldi. Shu sababdan Saudiya Arabistoni “Tolibon 2.0” hukumatini tan olishga shoshilmadi.

3. Saudiya Arabistoni Afg‘onistondagi o‘z ta‘sirini saqlab qolish maqsadida “Tolibon” harakati bilan aloqalarni tiklashga intildi. Ammo, 2011-yilda “Tolibon” harakatining siyosiy mahkamasini Ar-Riyodda ochish taklifi qabul qilinmagach, Saudiya Arabistoni bunday xatti-harakatlar besamar ekanligini tushunib yetdi. 2017-yilda Saudiya Arabistoni boshchiligidagi bir qator arab monarxiyalari Qatar davlatini terrorizmni moliyalashtirishda ayblab, u bilan diplomatik aloqalarni uzdi. O‘sha yillarda Saudiya Arabistonining Afg‘onistondagi Muvaqqat ishlari vakili Mishari Al-Harbiy “Tolibon” harakatini terroristik tashkilot deb ta‘riflagan edi[21].

Shu singari omillar Saudiya Arabistoni rahbariyatini Afg‘onistonda yangi tuzilgan hukumatga nisbatan “kuzatish va kutish” pozitsiyasini tanlashiga, mavjud aloqalarni gumanitar dasturlar va xayriya jamg‘armali orqali, shuningdek Islom hamkorlik tashkiloti va Islom taraqqiyot banki vositasida amalga oshirishiga sabab bo‘ldi. Ammo Ar-Riyod Afg‘onistondagi vaziyatga uzoq vaqt befarq qarab tura olmas edi. Chunki, “Tolibon” nafaqat Afg‘oniston hokimiyatini egallagan real kuch o‘laroq, balki mintaqaviy aktyorlar bilan tegishli muloqotni yo‘lga qo‘ygan guruh sifatida o‘zini namoyon qila oldi. Qolaversa, Saudiya Arabistonining geosiyosiy manfaatlarini Afg‘onistonni Eronning siyosiy ta‘sir hududiga aylanishiga umuman imkon bermaslik vazifasi bilan chambarchas bog‘langan edi. Bunday holat alal-oqibat Saudiya Arabistonining islom olamidagi yetakchilik mavqeyiga jiddiy zarar keltirishini mamlakat elitasi juda yaxshi anglardi.

Saudiya Arabistoni garchi Afg‘onistonning bevosita qo‘shnisi bo‘lmasa-da, u bilan diniy yaqinlik va chuqur strategik manfaatlar maxsus ahamiyat kasb etadi. Avvallari Ar-Riyod Afg‘onistondagi manfaatlarini amalga oshirishda Islomobod bilan geosiyosiy hamkorlik qilib kelar edi. Biroq, bugungi kunga kelib,

Islomobod va “Tolibon” munosabatlarida yuzaga chiqqan keskin raqobat va ziddiyatlar Ar-Riyodning Afg‘onistonga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini cheklab qo‘ydi. Shu boisdan Saudiya Arabistoni bugungi kunda “Tolibon” bilan aloqalarni davom ettirishdan boshqa muqobil yo‘l mavjud emas, deb hisoblamogda. Natijada Saudiya Arabistonining valiahd shahzodasi Muhammad bin Salmon Afg‘onistonni juda yaxshi biladigan sobiq razvedka rahbari Turki Al-Faysalni “Tolibon” bilan aloqalarni qayta jonlantirish maqsadida Kobulga yuborgan. “Intelligence Online” nashri ma’lumotlariga ko‘ra, Turki Al-Faysal Kobulda Mulla Ya’qub va Mulla Abdulg‘ani Barodar bilan uchrashgan[1]. 2023-yil iyun oyida Afg‘oniston Muvaqqat hukumatining Mudofaa vaziri Mulla Yaqub haj ziyorati chog‘ida Saudiyaning valiahd shahzodasi Muhammad bin Salmon bilan uchrashgan bo‘lsa [2], roppa rosa bir yil o‘tib, ya’ni 2024-yil iyun oyida Ichki ishlar vaziri Sirojiddin Haqqoniy, Bosh vazirning siyosiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari Abdul Kabir Muhammad Jon, “Tolibon” razvedkasi rahbari Abdul Vasiq hamda Haj va vaqf ishlar vaziri Nur Muhammad Soqib kabi “Tolibon” yetakchilari Makkada haj ziyoratini amalga oshirdi [14]. Tabiiyki, Ar-Riyodning “Tolibon” rahbarlariga haj ziyoratini amalga oshirishi uchun ruxsat berishi avval darz ketgan aloqalarning qayta tiklanganiga ishora qiladi. Bundan tashqari, 2024-yil dekabrda kelib Saudiya Arabistoni Afg‘onistondagi elchixonasi faoliyatini ham qayta tikladi. Elchixonaning yozishicha, bu qadam Saudiya Arabistoni Podshohligi hukumatining afg‘on xalqiga barcha xizmatlarni taqdim etish istagi mahsuli hisoblanadi [8].

Umuman, Saudiya Arabistoni Yaqin Sharq mintaqasi va islom olamining yetakchilaridan biri sifatida Afg‘oniston o‘lkasida o‘z ta’sir doirasini kuchaytirishdan har tomonlama manfaatdor mintaqaviy aktyor hisoblanadi. Shu maqsadda Ar-Riyod “Tolibon 2.0” hukumati bilan aloqalarini sezilarli darajada mustahkamlashga harakat qilmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklari. Arab monarxiyalari orasida BAA ham “Tolibon 2.0” hukumati yaqin aloqalarni yo‘lga qo‘ygan mintaqaviy kuch markazlari sirasiga kiradi. Abu Dabining ham Afg‘onistondagi manfaatlari xuddi Ar-Riyod singari umumiy o‘xshashliklarga ega. Jumladan, XX asrning 90-yillari oxirida BAA Saudiya Arabistoni bilan kelishgan holda “Tolibon 1.0” hukumatini rasman tan olgan arab monarxiyalaridan biri edi. 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan keyin Abu Dabi “Tolibon” harakatiga nisbatan munosabatini o‘zgartirib, AQSh boshchiligidagi xalqaro koalitsiya kuchlari (ISAF) faoliyatini qo‘llab-quvvatladi. BAA hattoki 2003-yilda o‘zining 250 nafar askarini xalqaro koalitsiya kuchlari safiga qo‘shish uchun Afg‘onistonga yubordi. Ushbu kontingent Helmand va O‘ruzgon viloyatlaridagi amaliyotlarni bajarishda ishtirok etdi. Bundan tashqari, 2012-2014-yillarda BAA ISAF missiyasini havoda qo‘llab-quvvatlash maqsadida Qandahordagi harbiy aerodromga 6 ta F-16 harbiy samolyotini jo‘natdi [23].

Saudiya Arabistoni singari BAAning ham “Tolibon” siyosiy mahkamasini o‘z hududida ochishdan mosuvo etilishi ikki tomonlama munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 2017-yilda BAAning Afg‘onistondagi elchisiga qilingan suiqaqd ham Amirliklar va “Tolibon” o‘rtasidagi aloqalarni keskinlashtirdi. Shunga qaramay, 2021-yildan keyin BAA va “Tolibon” o‘rtasidagi hamkorlik faol ravishda rivojlanib bormoqda. Bunga quyidagi omillarni sabab sifatida ko‘rsatish mumkin:

1. BAAning Yaqin Sharq mintaqasi va islom dunyosining moliyaviy markaz sifatida yuksalishi Afg‘onistonda ham o‘z ta’sirini kuchaytirish zaruratini taqozo qiladi. Qolaversa, Abu Dabi ham mintaqadagi asosiy raqibi Eron Islom Respublikasining Afg‘onistondagi ta’sir doirasining kuchayishidan manfaatdor emas.

2. Saudiya Arabistonidan farqli ravishda Abu Dabi o‘tgan vaqtlar davomida “Tolibon” tarmoqlari bilan aloqalarini butunlay uzmagan. Qatardan farqli jihati esa BAA “Tolibon” harakatining siyosiy qanotidan ko‘ra, harbiy qanoti bilan mustahkam aloqalar ildiziga ega. Ma’lumotlarga ko‘ra, “Tolibon” harakatining “Haqqoniy tarmog‘i” (Haqqani network) uzoq yillar davomida BAAning moliyaviy ko‘magi asosida qo‘llab-quvvatlangan. Jumladan, “Haqqoniy tarmog‘i” qo‘mondonlaridan birining aytishicha, 2011-yillari atrofida o‘zi tanigan tadbirkorlardan biri Dubaydan turib uning 135 nafar jangarisiga 3,000 dollardan pul jo‘natib turgan [10]. Mutaxassislarining ma’lum qilishicha, Abu Dabi va “Haqqoniy tarmog‘i” o‘rtasidagi aloqalar qarindoshlik rishtalari bilan ham bog‘langan. Jumladan, “Haqqoniy tarmog‘i” asoschisi Jaloliddin Haqqoniy BAAning arab ayoliga uylanib, undan bitta farzand (Sirojiddin Haqqoniy) ko‘rgan [5]. Shu singari aloqalar tarixi natijasida 2021-yildan hozirgi vaqtgacha “Tolibon 2.0” hukumatining Ichki ishlar vaziri, “Haqqoniy tarmog‘i” yetakchisi Sirojiddin Haqqoniy va Razvedka xizmati rahbari Abdul Vasiq tez-tez BAAga safar qilmoqda. E’tiborlisi shundaki, ayrim holatlarda ushbu ikki “Tolibon” yetakchilarini BAA Prezidenti Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning shaxsan o‘zi qabul qilmoqda [9]. Shuningdek, “Haqqoniy tarmog‘i”dagi muhim shaxslardan biri, “Tolibon”ning sobiq ichki ishlar vaziri bo‘lgan Badriddin Haqqoniyning BAAda Afg‘oniston Muvaqqat hukumatining elchisi sifatida qabul qilinishi [16] ham bejiz emas. Shu tariqa BAA Xitoydan keyin “Tolibon 2.0” hukumatining vakilini elchi maqomida qabul qilgan ikkinchi davlatga aylandi.

3. Afg‘onistondagi ta’sirini kuchayishtirda Qatar va Turkiya kabi mintaqaviy aktorlarning faol hamkorlik qilishi BAAning manfaatlariga to‘g‘ri kelmaydi. Shu sababdan, bu masalada Abu Dabining siyosiy qarashlari Ar-Riyod bilan juda o‘xshash va yaqin. Anqara va Dohaning Afg‘onistondagi aeroportlarni nazorat

qilish borasidagi diplomatik sa'y-harakatlariga qaramay, 2022-yil sentyabrda "Tolibon 2.0" hukumati aynan BAA kompaniyasi bilan Kobul, Qandahor va Hirot aeroportlarini boshqarish bo'yicha shartnoma imzoladi [7]. Bu bilan Abu Dabi "Tolibon" va G'arb davlatlari o'rtasidagi aloqalarda asosiy vositachilik rolini o'ynashga harakat qilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, BAAning Afg'onistondagi strategik manfaatlari uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari bilan ham chambarchas bog'liq. Iordaniyalik tahlilchi Amer Al-Sabaileh ta'kidlaganidek, BAA hozirgi kunda barcha davlatlar bilan nol-ziddiyat yondashuvini (zero-conflict approach) ilgari surmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi BAAning kengroq doiradagi milliy xavfsizlik strategiyasining kalit elementi hisoblanadi. "Tolibon" bilan hamkorlik esa BAAning Markaziy Osiyodagi o'rni mustahkamlashi va turli ekstremistik guruhlar xavfini boshqarishga yordam berishi mumkin [15].

Bularning barchasi Abu Dabining "Tolibon 2.0" hukumatining harbiy qanotiga ta'sir qilish imkoni yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, mazkur ta'sir "Tolibon" yuqori martabali vakillarini Qatardan keyin davlat rahbari darajasida, "Tolibon" vakilini Xitoydan keyin elchi maqomida qabul qilgan ikkinchi davlat sifatida BAA "toliblar"ni moliyaviy, mafkuraviy va harbiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga tayyor, degan xulosani ham anglatadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilganda, Qatar, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari singari arab monarxiyalarining "Tolibon 2.0" hukumati bo'yicha hozirgi va yaqin istiqboldagi yondashuvlari ularning ittifoqchisi bo'lmish AQShning Afg'onistonga nisbatan ishlab chiqilgan strategiyasiga bog'liq bo'lib qoladi. Mazkur 3 ta arab davlatlari "Tolibon 2.0" bilan yaqinlashish orqali nafaqat Eronning Afg'onistondagi ta'sirini cheklashni, balki "Tolibon" va G'arb davlatlari o'rtasida vositachilik diplomatiyasini amalga oshirish yo'lidan bormoqda. Bu orqali uchala davlat ham "Tolibon 2.0" hukumatini xalqaro va mintaqaviy darajada yakkalanishidan muhofaza qilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. *Afghanistan, Pakistan, Saudi Arabia After fall of Kabul, Riyadh takes prudent approach to talks with Taliban* // *Intelligence Online*, 27/08/2021. <https://www.intelligenceonline.com/government-intelligence/2021/08/27/after-fall-of-kabul-riyadh-takes-prudent-approach-to-talks-with-taliban,109687293-art>
2. *Ahmad Shah Erfanyar. Maulvi Yaqub meets Saudi crown prince Mohammad bin Salman* // *Pajhwok Afghan News*, 30 Jun 2023. <https://pajhwok.com/2023/06/30/maulvi-yaqub-meets-saudi-crown-prince-mohammad-bin-salman/>
3. *Amini Shujauddin. Qatar's Dual Role: Ally to the Taliban, Masked as a Mediator* // *Hasht-e Sobh Daily*, 12 August 2024. <https://8am.media/eng/qatars-dual-role-ally-to-the-taliban-masked-as-a-mediator/>
4. *An Ambitious Vision for an Ambitious Nation. Overview* // *Vision 2030*. <https://www.vision2030.gov.sa/en/overview>
5. *Andreas Krieg. Afghanistan: How the UAE-Haqqani link trumped Qatar's Taliban relationship* // *Middle East Eye*, 22 August 2022. <https://www.middleeasteye.net/opinion/afghanistan-qatar-uae-taliban-haqqani-trumped-how>
6. *Batrawy Aya. Qatar emerges as key player in Afghanistan after US pullout* // *Associated Press*, August 30, 2021. <https://apnews.com/article/middle-east-afghanistan-qatar-6c1e9e4ef1a9f0c3d19eac20b9321339>
7. *Caffero Giorgio. The UAE's Approach to the Taliban* // *The Carnegie Endowment for International Peace* (Sada online journal of Middle East Program), January 24, 2023. <https://carnegieendowment.org/sada/2023/01/the-uaes-approach-to-the-taliban?lang=en>
8. *Embassy of Saudi Arabia in Afghanistan*. 22 December 2024. <https://x.com/KSAembassyAFG/status/1870870196577345537>
9. *Freshta Jalalzai. Why Did the Taliban's Sirajuddin Haqqani Visit the UAE?* // *The Diplomat*, June 07, 2024. <https://thediplomat.com/2024/06/why-did-the-talibans-sirajuddin-haqqani-visit-the-uae/>; *Haqqani meets UAE President to Discuss Regional Stability* // *TOLONews*, 21 January 2025. <https://tolonews.com/afghanistan-192715>
10. *Gretchen Peters. Haqqani Network Financing: The Evolution of an Industry* // *Combatting Terrorism Center at West Point* (2012). – P.34.
11. *HH The Amir Meets Defense Minister in Afghan Caretaker Government* // *Amiri Diwan State of Qatar*, 06 July, 2022. https://www.diwan.gov.qa/briefing-room/news/receiving-guests/2022/july/6/hh-the-amir-receives-defense-minister-of-the-afghan-caretaker-government?sc_lang=en

12. IEA-Deputy Prime Minister & Foreign Minister meet with the Head of political wing of HAMAS in Tehran // Ministry of Foreign Affairs of Islamic Emirate of Afghanistan, 22 May 2024. <https://mfa.gov.af/en/16943>
13. In Doha to Buy Weapons, Afghan Taliban Defence Minister Mullah Yaqoob Mujahid and Taliban Army Chief of Staff Meet with Qatari Emir, Inspect Weapons at DEMDEX Defence Exhibition // Memri TV, March 8, 2024. <https://www.memri.org/reports/doha-buy-weapons-afghan-taliban-defense-minister-mullah-yaqoob-mujahid-and-taliban-army>
14. Ludwig Jessica. We must hold a firm line with the Taliban // George W.Bush Presidential Center, June 27, 2024. <https://www.bushcenter.org/publications/we-must-hold-a-firm-line-with-the-taliban>
15. Mehmood Arshad. UAE Accepts Taliban Envoy as Global Power Dynamics Shift // Medialine, 11.22.2024. <https://themedialine.org/by-region/uae-accepts-taliban-envoy-as-global-power-dynamics-shift/>
16. MoFA receives credentials copy from foreign ambassadors appointed to the UAE // Ministry of Foreign Affairs of United Arab Emirates, 21.8.2024. <https://www.mofa.gov.ae/en/mediahub/news/2024/8/21/21-8-2024-uae-countries>
17. Persian Gulf Rivals Competed to Host Taliban, Leaked Emails Show // New York Times, July 31, 2017. <https://www.nytimes.com/2017/07/31/world/middleeast/uae-qatar-taliban-emails.html>
18. Qatar's foreign minister visits premier of Taliban-ruled Afghanistan // Reuters, September 12, 2021. <https://www.reuters.com/world/middle-east/qatari-foreign-minister-visits-kabul-al-jazeera-says-2021-09-12/>
19. Saudi Arabia evacuates embassy staff in Kabul // Arab News, August 15, 2021. <https://www.arabnews.com/node/1911581/saudi-arabia>
20. Taliban supreme leader, Qatari PM hold talks in Afghanistan // ALJAZEERA, 31 May 2023. <https://www.aljazeera.com/news/2023/5/31/taliban-supreme-leader-qatari-pm-talks-held-in-kabul>
21. Саудовская Аравия назвала «Талибан» террористической организацией // Всё об Афганистане, 08.08.2017. <https://afghanistan.ru/doc/113052.html>
22. Умаров А.А. Афганистан и региональная безопасность Центральной Азии: начало XXI века. – Т.: УМЭД, 2017. – С.152.
23. Умаров А.А. Афганистан и региональная безопасность Центральной Азии: начало XXI века. – Т.: УМЭД, 2017. – С.153.

IJTIMOIY DAVLAT: O‘ZBEKISTON VA XORIJIY TAJRIBA

Umarova Gulbahor Berdiyevna,

O‘DJTU Siyosiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi, t.f.n. (PhD)

guliumarova9795@gmail.com

Annotatsiya. Ijtimoiy davlat - bu fuqarolarga yuqori darajadagi ijtimoiy himoya ta‘minlanadigan davlat tuzumi bo‘lib, unda ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy yordam, pensiya ta‘minoti, nogironligi bor shaxslarni qo‘llab quvvatlash va xavfsiz mehnat sharoitini yaratish kabi xizmatlarga ega bo‘lish imkoniyati kafolatlanadi. Ijtimoiy davlat kontseptsiyasi XX asrda, ayniqsa Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyoning ba‘zi mintaqalarida rivojlandi. Ushbu maqolada ijtimoiy davlatning shakllanishi va faoliyat yuritishining O‘zbekiston va xorijiy tajribasi, asosiy modellar, tizimlar duch keladigan muammolar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy davlat, Konstitutsiya, konseptsiya, strategiya, model, liberal model, kontinental model, xususiy sektor, ijtimoiy institut, inson kapitali, ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta‘minot, ta‘lim tizimi, ta‘lim investitsiyasi, ijtimoiy sug‘urta, tibbiy sug‘urta, pensiya tizimi.

WELFARE STATE: UZBEKISTAN AND FOREIGN EXPERIENCE

Abstract. A welfare state is a system of government that ensures a high level of social protection for its citizens, guaranteeing access to services such as education, healthcare, social assistance, pensions, support for people with disabilities, and the creation of safe working conditions. The concept of the welfare state developed in the 20th century, particularly in Europe, North America, and certain parts of Asia. This article explores the development and functioning of the welfare state in Uzbekistan and international experience, focusing on key models and the challenges these systems face.

Keywords: Social state, Constitution, concept, strategy, model, liberal model, continental model, private sector, social institution, human capital, social protection, social security, education system, education investment, social insurance, medical insurance, pension system.

ГОСУДАРСТВО БЛАГОСОСТОЯНИЯ: УЗБЕКИСТАН И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Аннотация. Социальное государство — это государственная система, которая обеспечивает гражданам высокий уровень социальной защиты, в которой гарантируется возможность получения таких услуг, как образование, здравоохранение, социальная помощь, пенсионное обеспечение, поддержка лиц с ограниченными возможностями, создание безопасных условий труда. Концепция социального государства развивалась в XX веке, особенно в некоторых регионах Европы, Северной Америки и Азии. В данной статье рассматривается узбекский и зарубежный опыт формирования и функционирования социального государства, основные модели и проблемы, с которыми сталкиваются системы.

Ключевые слова: Социальное государство, Конституция, концепция, стратегия, модель, либеральная модель, континентальная модель, частный сектор, социальный институт, человеческий капитал, социальная защита, социальное обеспечение, система образования, образовательные инвестиции, социальное страхование, медицинское страхование, пенсионная система.

Kirish. “Ijtimoiy davlat” tushunchasi ilk bor 1850-yilda Lorens fon Shteyn tomonidan ilmiy muomalada qo‘llanilgan. U davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlikni o‘rnatish, quyi va kam ta‘minlangan tabaqalarni boylar va qudratli darajasiga ko‘tarishdan iborat, deb hisoblagan. “Ijtimoiy davlat” tushunchasi “Inson qadri” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu g‘oyaning tub negizida, avvalo, inson qadrini ulug‘lash, aholiga xizmat qilishdek oliyanob maqsad yotadi. Ijtimoiy davlatda har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratiladi. U ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo‘yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir. Globallashuv jarayoni va bozor iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda olimlar ijtimoiy davlatning o‘ziga xos belgilari mavjud ekanini ta‘kidlaydi va Lorens fon Shteyndan farqli ravishda ushbu jihatlarga quyidagilarni kiritadi:

- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash;
- korrupsiya, qashshoqlik va ishsizlikka qarshi kurash;

- yosh tadbirkorlarga yordam;
- aholi bandligi va daromadlari doimiy o‘shishini ta’minlash;
- jamiyatning barcha a’zolarini ijtimoiy sug‘urta bilan ta’minlash;
- ta’lim, sog‘liqni saqlash va ma’naviy-madaniy rivojlanishning qulayligini ta’minlash;
- ehtiyojmand shaxslarni moddiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish;
- jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali munosib turmush sharoitlarini yaratish;
- ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish.

Ijtimoiy davlatda mehnatga layoqatli har bir insonning bandligi ta’minlanadi. Uning munosib hayot kechirishi uchun yetarli miqdordagi ish haqi belgilanadi, ishchi uchun xavfsiz mehnat sharoitlari yaratiladi, ishsizlikdan himoyalani, sifatli ta’lim, malakali tibbiy xizmat olish huquqlari real amalga oshiriladi. Bolalar, ayollar, keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, migrantlar va ularning oila a’zolari har tomonlama qo‘llab-quvvatlanadi hamda hukumat ijtimoiy dasturlar va siyosatlar orqali fuqarolarning farovonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Metodologiya. O‘zbekistonda ijtimoiy davlat konsepsiyasi Konstitutsiyaning 1-moddasida “O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” [1] deb belgilangan, shuningdek, Konstitutsiyaning 42, 46, 48, 50, 76, 57 [2] -moddalarida ham mustahkamlab qo‘yilgan. Iqtisodiy taraqqiyot va fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta’minlash farovon davlat qurishning asosiy omillaridan biridir. Mamlakatimizda keyingi yillarda aholi turmush darajasini yuksaltirish, bandlikni ta’minlash, kafolatlangan sifatli ta’lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida ham ana shunday ezgu maqsad mujassam.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot sari strategiyasining “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” nomli to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishida [3] ijtimoiy davlat negizini tashkil etuvchi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoniga binoan qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” Strategiyasining 44 ta maqsadi har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratishga bag‘ishlangan [4].

Muhokama va natijalar. Ijtimoiy davlat sifatida O‘zbekiston davlat byudjetining muhim qismini ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy nafaqa va subsidiyalarga yo‘naltiradi. Bu siyosat aholining turmush darajasini oshirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

1. Ta’lim tizimi. O‘zbekistonda ta’lim ijtimoiy davlat siyosatining muhim tarkibiy qismidir. Davlat barcha fuqarolar uchun bepul umumta’lim maktablarini ta’minlaydi. So‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish maqsadida maktablarni modernizatsiya qilish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va xorijiy ta’lim standartlarini joriy qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Masalan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga [5] o‘zgartirishlar kiritildi, bu esa xususiy ta’lim muassasalarini rivojlantirishga va ta’limda innovatsiyalarni joriy qilishga yordam berdi.

2. Sog‘liqni saqlash. Sog‘liqni saqlash sohasida O‘zbekiston davlat tomonidan moliyalashtiriladigan tibbiy xizmatlarni kengaytirishga e’tibor qaratmoqda. Poliklinikalar va shifoxonalarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, tibbiy kadrlar tayyorlash va zamonaviy tibbiy uskunalar bilan ta’minlash bo‘yicha muhim qadamlar tashlandi. Shu bilan birga, “Sog‘lom avlod” dasturi orqali bolalar va yoshlar salomatligiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

3. Ijtimoiy ta’minot. O‘zbekistonda ijtimoiy ta’minot tizimi pensiyalar, nafaqalar va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. 2022-yilda “Ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi qonun [6] qabul qilinib, unda nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksa yoshdagi fuqarolar va boshqa ehtiyojmand guruhlariga ko‘mak ko‘rsatish tizimi takomillashtirildi. Alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan oilalar, ayollar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun respublika miqyosida joriy etilgan “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “mahalla etiligi” ishlash tizimi ham ijtimoiy davlatning mohiyatini va hayotiy ko‘rinishini namoyon etmoqda. yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni ish bilan ta’minlash va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish masalalariga alohida e’tibor qaratib -kelinmoqda. Yoshlar bandligini ta’minlashda ilg‘or zamonaviy usullardan foydalangan holda, yigit-qizlarimizdan 5,2 mingga “Future Skills Uzbekistan” va “Bir million dasturchi” loyihalari doirasida IT kasblariga, 6,4 mingga “Yoshlar 1+1” va “Tadbirkor ayol” loyihalari doirasida tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillar bo‘yicha o‘qitildi [7].

Yoshlar va xotin-qizlarda zamonaviy kasb, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida “Ishga marhamat”, band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi “Monomarkaz”, tuman va shahar kasb-hunarga o‘qitish markazlari, mahallalarda kasb-hunarga o‘qitish maskanlari faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston ijtimoiy davlat sifatida muhim yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, bir qator muammolar mavjud:

1. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi: Ijtimoiy xarajatlar uchun byudjet imkoniyatlari cheklanganligi tufayli ba'zi sohalarida, xususan, sog'liqni saqlash va ta'limda sifatni oshirish jarayoni sekin kechmoqda.

2. Ijtimoiy tengsizlik: Shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi turmush darajasi farqi haligacha saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarda ijtimoiy xizmatlarga erishishda muammolar mavjud.

3. Byurokratiya va korrupsiya: Ijtimoiy yordam taqsimotida shaffoflikni ta'minlash va byurokratik to'siqlarni kamaytirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy davlat qurishda O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar, xorij tajribasini o'rganishi va ularni qo'llashi muhim hisoblanadi. Bu borada ijtimoiy davlatlarning bir nechta modellari mavjud bo'lib, ular davlat aralashuvi darajasi, moliyalashtirish va ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlariga ko'ra farqlanadi. modellari Asosiy modellar quyidagilardan iborat:

Skandinaviya modeli (Sotsial-demokratik) [8]. O'ziga xos xususiyatlari:

- Yuqori soliq stavkalari va daromadlarni qayta taqsimlash.
- Barcha fuqarolarni qamrab oluvchi universal ijtimoiy himoya tizimi.
- Tenglik, bepul ta'lim va sog'liqni saqlashga e'tibor.
- Namuna davlatlar: Shvetsiya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiya.

Tavsifi: Skandinaviya davlatlarida davlat ijtimoiy dasturlarni faol moliyalashtiradi, bu esa tibbiy xizmatlar, oliy ta'lim va ishsizlik nafaqalariga bepul kirish imkonini beradi. Yuqori soliqlar fuqarolarning davlat institutlariga yuqori ishonchi bilan qoplanadi. Masalan, Shvetsiyada ijtimoiy himoya uchun davlat xarajatlari YaIMning taxminan 30% ni tashkil qiladi.

Modelning afzalliklari:

- Ijtimoiy tengsizlikning past darajasi.
- Inson kapitalining yuqori darajasi.
- Mustahkam ijtimoiy institutlar.

Kamchiliklari:

- Yuqori soliq yuki.
 - Iqtisodiy raqobatbardoshlikning pasayish xavfi.
2. Kontinental model (Konservativ-korporativ) [9]. O'ziga xos xususiyatlari:
- Ijtimoiy himoya mehnat faoliyatiga bog'langan.
 - Sug'urta fondlari va kasbiy uyushmalarning muhim roli.
 - Daromadlarni o'rtacha darajada qayta taqsimlash.
 - Namuna davlatlar: Germaniya, Fransiya, Avstriya.

Bismark modeli sifatida ham tanilgan bu model majburiy ijtimoiy sug'urtaga asoslanadi, bunda to'lovlar xodimlar va ish beruvchilarning badallariga bog'liq. Masalan, Germaniyada sog'liqni saqlash tizimi sug'urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi, davlat esa xususiy va jamoat fondlarini tartibga soladi.

Modelning afzalliklari:

- Ishlaydigan aholi uchun barqaror tizim.
- Mehnatga rag'batni saqlash.

Kamchiliklari:

- Ishlamaydigan aholini qamrab olishning cheklanganligi.
 - Boshqaruv xarajatlari yuqori.
3. Liberal model [10]. O'ziga xos xususiyatlari:
- Davlat aralashuvining minimal darajasi.
 - Ijtimoiy yordam eng muhtojlarga yo'naltirilgan.
 - Bozor mexanizmlariga e'tibor.
 - Namuna davlatlar: AQSh, Kanada, Avstraliya.

AQShda ijtimoiy himoya ko'pincha xususiy kompaniyalar orqali ta'minlanadi, masalan, tibbiy sug'urta. Medicare va Medicaid kabi davlat dasturlari keksa yoshdagilar va kam ta'minlanganlarga mo'ljallangan. Ijtimoiy ehtiyojlar uchun davlat xarajatlari Yevropa nisbatan past bo'lib, YaIMning 15-20% ni tashkil qiladi.

Modelning afzalliklari:

- Xususiy sektorda moslashuvchanlik va innovatsiyalar.
- Soliq yuki past.

Kamchiliklari:

- Ijtimoiy tengsizlikning yuqori darajasi.
- Aholining bir qismi uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi.

4. Janubiy Yevropa modeli [11]. O'ziga xos xususiyatlari:

- Oilaning ijtimoiy himoyadagi muhim roli.
- Davlat ijtimoiy dasturlarining kam rivojlanganligi.
- Ishsizlik va norasmiy bandlikning yuqori darajasi.
- Namuna davlatlar: Italiya, Ispaniya, Gretsiya.

Bu davlatlarda ijtimoiy himoya ko'pincha oilaviy yordam orqali qoplanadi, davlat dasturlari esa cheklangan moliyalashtirishga ega. Masalan, Italiyada pensiya tizimi aholi qarishi tufayli muammolarga duch kelmoqda.

Modelning afzalliklari:

- Mustahkam oilaviy aloqalar.
- Ba'zi ijtimoiy dasturlar uchun xarajatlarning pastligi.

Kamchiliklari:

- Qashshoqlikning yuqori darajasi.
- Sog'liqni saqlash va ta'limni moliyalashtirishning yetishmasligi.

Janubiy Koreya: Rivojlanish va ijtimoiy siyosat uyg'unligi

Janubiy Koreya ijtimoiy davlatning rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moslashgan modelini namoyish etadi. U iqtisodiy rivojlanishni ijtimoiy ximoya bilan muvofiqlashtirdi:

Ta'limga investitsiya: Janubiy Koreya ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratdi, bu esa yuqori malakali ishchi kuchi yaratishga xizmat qildi. Davlat va xususiy sektorning hamkorligi ta'lim sifatini oshirdi.

Ijtimoiy sug'urta: Janubiy Koreyada tibbiy sug'urta va pensiya tizimi aholining keng qatlamlarini qamrab oladi. Ushbu tizimlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi va boshqariladi.

Ish bilan ta'minlash dasturlari: Janubiy Koreyada yoshlar va kam ta'minlangan qatlamlar uchun ish bilan ta'minlash dasturlari faol amal qiladi.

Janubiy Koreya tajribasi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy ximoyani uyg'unlashtirish mumkinligini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun bu tajriba, ayniqsa, yoshlar bandligi va ta'lim tizimini rivojlantirishda muhimdir.

Ijtimoiy davlatlar muvaffaqiyatlarga qaramay, quyida keltirilgan bir qator zamonaviy muammolarga ham duch kelmoqda:

1. Demografik qarish. Yevropa va Yaponiyada keksa aholi ulushining ortishi pensiya tizimlari va sog'liqni saqlashga yuklama yaratmoqda. Masalan, Germaniyada 2035-yilga kelib har uchinchi fuqaro 65 yoshdan oshadi deb taxmin qilinmoqda.

2. Globallashtirish va iqtisodiy raqobat. Yuqori soliqlar global bozorda davlatlarning raqobatbardoshligini pasaytirishi mumkin, bu ayniqsa Skandinaviya modeli uchun dolzarbdir.

3. Texnologik o'zgarishlar. Avtomatlashtirish va raqamlashtirish ish o'rinlarining qisqarishiga olib keladi, bu ijtimoiy himoya tizimlarini qayta ko'rib chiqish va kadrlar qayta tayyorlashni talab qiladi.

4. Migratsiya. Migranlar oqimi, ayniqsa Shvetsiya kabi universal modelga ega davlatlarda ijtimoiy tizimlarga qo'shimcha yuklama yaratadi.

5. Moliyaviy barqarorlik. Gretsiya yoki Italiyada bo'lgani kabi davlat qarzlarning o'sishi ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Bulardan boshqa davlatlar muhim saboqlar olishlari mumkin. Ijtimoiy davlatning xorijiy tajribasi barcha davlatlar uchun universal model yo'qligini ko'rsatadi. Muvaffaqiyat davlat aralashuvi va bozor mexanizmlari o'rtasidagi muvozanat, shuningdek, madaniy va iqtisodiy xususiyatlarga bog'liq. Masalan:

- Skandinaviya modeli davlatga yuqori ishonch sharoitida samarali, lekin katta moliyaviy resurslarni talab qiladi.

- Liberal model xususiy sektori rivojlangan davlatlar uchun mos, lekin tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.

- Kontinental model barqarorlikni ta'minlaydi, lekin tez iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida kam moslashadi.

Ijtimoiy davlatni rivojlantirmoqchi bo'lgan davlatlar mahalliy sharoitlar, iqtisodiy rivojlanish darajasi va jamiyatning yuqori soliqlarga tayyorligini hisobga olishlari zarur. Masalan, Polsha yoki Chexiya kabi Sharqiy Yevropa davlatlari Skandinaviya va kontinental modellarning elementlarini cheklangan byudjetlar doirasida bosqichma-bosqich joriy qilmoqda.

Xulosa. O'zbekiston ijtimoiy davlat sifatida aholi farovonligini oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'lida muhim qadamlar tashladi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar ushbu maqsadlarga erishishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, mavjud muammolarni hal qilish uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish, shaffoflikni oshirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish talab etiladi.

Xorijiy davlatlarning ijtimoiy davlat tajribasi ko'p jihatli va turli xildir. Ijtimoiy davlatlarning xorijiy tajribasi fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishning turli yondashuvlarini namoyish etadi. Har bir model o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega bo'lib, ularning samaradorligi iqtisodiy, madaniy va demografik omillarga bog'liq. Aholi qarishi va globallashtirish kabi zamonaviy muammolar sharoitida ijtimoiy davlatlar ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni topib, moslashishi zarur. Xorijiy tajribani o'rganish o'z ijtimoiy tizimlarini rivojlantirmoqchi bo'lgan davlatlar uchun qimmatli manba bo'la oladi. O'zbekiston ushbu tajribalardan foydalanib, o'zining milliy xususiyatlariga mos ijtimoiy davlat modelini shakllantirishi mumkin. Bu jarayonda davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi rivojlanishi mamlakatning barqaror va farovon kelajagi uchun muhim omildir.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>
2. Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslari/ <https://mediator.uz/yangiliklar/794>
3. PF-60. 28.01.2022. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida/ <https://lex.uz/docs/5841063>
4. <http://lex.uz/docs/6600413>
5. O'RQ-637-son. 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida. <https://lex.uz/en/docs/5013007>
6. O'RQ-770-son 17.05.2022 yildagi Ijtimoiy xizmatlar to'g'risida. Lex.uz/acts/3083192. <https://www.lex.uz/acts/3083192>
7. O'zbekiston – ijtimoiy davlat. <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/?catid=0&id=6256>
8. <https://www.socialprogress.org/index/global/results/>
9. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/social-progress-index-by-country>
10. <https://solability.com/the-global-sustainable-competitiveness-index/the-index/social-capital>
11. <https://www.weforum.org/agenda/2023/01/countries-social-progress-rising-falling/>

MA'MURIY BOSHQARUVDA ZAMONAVIY TARTIB-TAOMILLARNING AMALGA OSHIRILISHI

Jumayev Yo'ldosh G'afurovich,

*Buxoro davlat universiteti tarix va yuridik fakulteti yurisprudensiya kafedrasida dotsenti,
yuridik fanlar doktori (Phd)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'muriy boshqaruv tizimida zamonaviy tartib-taomillarning joriy etilishi va ularning samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada davlat boshqaruv organlarida byurokratik yondashuvdan samarali, shaffof va natijador boshqaruv uslublari o'tish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, elektron hukumat, "bir darcha" tizimi va boshqaruvda innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishi orqali fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifati va tezkorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida xorijiy tajribalar o'rganilib, O'zbekiston sharoitida zamonaviy tartib-taomillarni joriy etishning huquqiy, tashkiliy va texnologik asoslari aniqlangan. Maqola yakunida amaliy tavsiyalar va xulosalar keltirilgan bo'lib, ular ma'muriy boshqaruv tizimining takomillashuviga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ma'muriy boshqaruv, zamonaviy tartib-taomillar, davlat xizmatlari, raqamli texnologiyalar, elektron hukumat, "bir darcha" tizimi, boshqaruv islohotlari, samaradorlik, shaffoflik, innovatsion boshqaruv.

IMPLEMENTATION OF MODERN PROCEDURAL PRACTICES IN ADMINISTRATIVE MANAGEMENT

Abstract. This article analyzes the introduction of modern procedures in the administrative management system and their impact on efficiency. The article justifies the need to transition from a bureaucratic approach to effective, transparent and efficient management methods in state administration bodies. It also considers the possibilities of improving the quality and speed of service provision to citizens through the use of digital technologies, e-government, the "single window" system and innovative approaches to management. During the research, foreign experience was studied and the legal, organizational and technological foundations of the introduction of modern procedures in the conditions of Uzbekistan were identified. At the end of the article, practical recommendations and conclusions are presented, which will serve to improve the administrative management system.

Keywords: administrative management, modern procedures, public services, digital technologies, e-government, "one-stop shop" system, management reforms, efficiency, transparency, innovative management.

ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ПРАКТИКИ В АДМИНИСТРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ

Аннотация. В данной статье анализируется внедрение современных процедур в систему административного управления и их влияние на эффективность. В статье обосновывается необходимость перехода от бюрократического подхода к эффективным, прозрачным и действенным методам управления в органах государственного управления. Также рассматриваются возможности повышения качества и скорости предоставления услуг гражданам за счет использования цифровых технологий, электронного правительства, системы «единого окна» и инновационных подходов к управлению. В ходе исследования был изучен зарубежный опыт и выявлены правовые, организационные и технологические основы внедрения современных процедур в условиях Узбекистана. В конце статьи представлены практические рекомендации и выводы, которые послужат совершенствованию системы административного управления.

Ключевые слова: административное управление, современные процедуры, государственные услуги, цифровые технологии, электронное правительство, система «единого окна», управленческие реформы, эффективность, прозрачность, инновационный менеджмент.

Kirish. XXI asrda davlat boshqaruvi sohasida yuz berayotgan jadal o'zgarishlar va globallashuv jarayonlari natijasida ma'muriy boshqaruvning an'anaviy shakllari va yondashuvlari o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy davlatlar ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, iqtisodiy

taraqqiyot va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda samarali boshqaruv tizimiga tayangan holda rivojlanmoqda. Shu jihatdan qaraganda, davlat xizmatlarini ko'rsatishda ochiqlik, hisobdorlik, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlaydigan zamonaviy tartib-taomillarni joriy etish hozirgi kunning dolzarb talabiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi sohasini tubdan isloh qilish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan "Elektron hukumat" tizimining joriy etilishi, "bir darcha" tamoyiliga asoslangan interaktiv davlat xizmatlari, davlat organlari faoliyatining raqamlashtirilishi kabi tashabbuslar zamonaviy tartib-taomillarning amaliy ifodasi sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuvlar orqali nafaqat boshqaruv samaradorligini oshirish, balki fuqarolar ehtiyojlariga moslashgan xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish imkoniyati yuzaga keldi.

Shu bilan birga, ma'muriy boshqaruvda zamonaviy tartib-taomillarning joriy etilishi bilan bog'liq bir qator muammolar – me'yoriy-huquqiy asoslarning yetarlicha mukammal emasligi, kadrlar salohiyati, texnologik infratuzilmaning cheklanganligi va fuqarolarning raqamli savodxonligi pastligi kabi omillar ham mavjud. Mazkur maqolada aynan ushbu muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llari hamda zamonaviy boshqaruv tamoyillarining amalda tatbiq etilishi ustuvor tahlil etiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi – zamonaviy tartib-taomillarni joriy etish orqali ma'muriy boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish, xorijiy tajriba asosida O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va mushohada. Zamonaviy ma'muriy boshqaruvning shakllanishi va rivojlanishi bugungi kunda nafaqat davlatning ichki samaradorligi, balki global raqobatbardoshlik darajasini ham belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli, boshqaruv tizimida yangicha yondashuvlar, ya'ni zamonaviy tartib-taomillarni joriy etish masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarning markaziy mavzusiga aylangan.

Zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari haqida nazariy qarashlar

Xalqaro adabiyotlarda zamonaviy davlat boshqaruvi bo'yicha bir necha asosiy nazariy yondashuvlar shakllangan:

New Public Management (Yangi davlat boshqaruvi) konsepsiyasi (Hood, 1991) – bu yondashuv davlat boshqaruvida xususiy sektor tamoyillarini, ya'ni natijadorlik, raqobat, mijozga yo'naltirilganlik va samarasizlikka qarshi kurashni ilgari suradi. Bu nazariya asosida davlat xizmatlari tezkor, sifatli va o'lchab bo'ladigan bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi.

Good Governance (Yaxshi boshqaruv) konsepsiyasi (World Bank, 1992) – bu yondashuv boshqaruvda oshkorlik, qonun ustuvorligi, hisobdorlik, samaradorlik va ishtirokchilik kabi tamoyillarni ilgari suradi. Ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun ushbu yondashuv tavsiya etiladi.

Digital Governance (Raqamli boshqaruv) – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, boshqaruv tizimini raqamlashtirish orqali fuqarolar bilan interaktiv va shaffof muloqotni yo'lga qo'yish, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishni kuchaytirish nazarda tutiladi.

Bu nazariyalar O'zbekiston sharoitida ham o'z ifodasini topa boshlagan. Biroq ularning joriy etilishi ijtimoiy, siyosiy, texnologik va madaniy omillarga bog'liq bo'lib, har bir mamlakat uchun yondashuvning o'ziga xos modifikatsiyasi talab qilinadi.

Xalqaro tajriba tahlili. Turli davlatlarning ma'muriy boshqaruvni zamonaviylashtirish tajribasi O'zbekiston uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin:

Estoniya – "raqamli davlat" modelini yaratgan eng ilg'or davlatlardan biri. Har bir fuqaro yagona raqamli ID orqali barcha davlat xizmatlaridan onlayn foydalanishi mumkin. "X-Road" tizimi orqali barcha vazirliklar axborot almashinuvini real vaqt rejimida amalga oshiradi.

– "Smart Nation" tashabbusi orqali davlat boshqaruvida sun'iy intellekt, "Big Data" va IoT texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Xizmatlar "myGov" platformasi orqali birlashtirilgan.

Koreya – elektron hukumat indeksida yuqori o'rinlarda. Fuqarolar davlat bilan interaktiv muloqot qilishi, real vaqt rejimida ariza topshirishi yoki javob olishi mumkin.

Bu tajribalar ko'rsatadiki, zamonaviy boshqaruvning muvaffaqiyati nafaqat texnologik infratuzilmaga, balki fuqarolarning ishtiroki, kadrlar salohiyati va huquqiy bazaning barqarorligiga ham bevosita bog'liq.

Milliy ilmiy adabiyotlar va amaliy holat tahlili

O'zbekistonlik olimlar ham bu borada muhim izlanishlar olib borganlar. Jumladan:

M. Boboxo'jayev (2020) o'z tadqiqotida davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish orqali byurokratik to'siqlarni kamaytirish va shaffoflikni oshirish masalalariga e'tibor qaratadi.

Alimova (2022) esa “bir darcha” tamoyiliga asoslangan xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyatini tahlil qilib, aholining xizmatlardan qoniqish darajasi oshgani va hujjat aylanishi soddalashtirish haqida xulosa chiqaradi.

Shu bilan birga, amaliy tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli xizmatlar joriy qilinayotgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda:

Xodimlarning axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasi past;

Qonunchilikda bo‘shliqlar mavjud;

Tizimlar o‘zaro integratsiyalashmagan;

Hududiy tengsizlik mavjud (qishloq va shaharlarda xizmat ko‘rsatish sifati farqli).[6]

Bu esa shuni anglatadiki, O‘zbekistonda ma‘muriy boshqaruvda zamonaviy tartib-taomillarni joriy etishda kompleks, bosqichma-bosqich va tizimli yondashuv zarur.

Mushohada. Mushohada tarzida aytish mumkinki, xalqaro tajriba va ilmiy yondashuvlar O‘zbekistonda ma‘muriy islohotlarni samarali olib borishda yo‘l xaritasi vazifasini o‘tashi mumkin. Jumladan, Estoniya, Singapur va Janubiy Koreya tajribasi asosida O‘zbekistonda raqamli davlat boshqaruvi tizimini kuchaytirish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, har bir tizimning milliy xususiyatlari, huquqiy asoslari va ijtimoiy tayyorlik darajasi hisobga olinishi lozim.

Shu asosda, zamonaviy tartib-taomillarni joriy etishda quyidagi omillarga alohida e‘tibor qaratish zarur:

1. Huquqiy bazani takomillashtirish – zamonaviy tartib-taomillarni qonunchilikda mustahkamlash.

2. Axborot texnologiyalarini rivojlantirish – zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash.

3. Kadrlar salohiyatini oshirish – davlat xizmatchilarini yangi yondashuvlarga tayyorlash.

4. Fuqarolarning ishtirokini kuchaytirish – davlat xizmatlarida jamoatchilik nazorati va fikrini inobatga olish. [5]

Yuqorida tahlil qilingan adabiyotlar asosida quyidagi asosiy fikrlarni ajratish mumkin:

Zamonaviy tartib-taomillarni joriy etish orqali davlat boshqaruvining fuqaroga yo‘naltirilganligi, shaffofligi va natijadorligi ortadi;

Faqat texnologiyani emas, balki uni samarali ishlatadigan institut va inson resurslarini ham rivojlantirish zarur;

Xalqaro tajribani to‘liq ko‘chirib olish emas, balki O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy sharoitlariga moslashtirilgan yondashuvlar ishlab chiqilishi muhim;

Boshqaruvda fuqarolar ishtirokini rag‘batlantirish, ochiqlikni ta‘minlash va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish zamonaviy boshqaruvning asosiy omillaridir.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy tartib-taomillarning ma‘muriy boshqaruvda joriy etilishi nafaqat davlat xizmatlari sifatini oshirish, balki boshqaruv tizimining umumiy samaradorligi, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini kuchaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Elektron boshqaruv, raqamlashtirish, “bir darcha” tizimi, ochiq ma‘lumotlar va interaktiv xizmatlar bugungi kunda davlat boshqaruvining ajralmas qismlariga aylanib bormoqda.

Shuningdek, adabiyotlar tahlili va xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, samarali boshqaruvni ta‘minlash uchun faqat texnologik vositalarni joriy etish yetarli emas — bu jarayon kompleks yondashuvni, jumladan, huquqiy, institutsional, inson resurslari va madaniy omillarni ham qamrab olishi kerak. O‘zbekistonda boshlangan islohotlar esa bu yo‘nalishda muhim bosqichlarni bosib o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Tavsiyalar:

1. Huquqiy-me‘yoriy bazani takomillashtirish – zamonaviy boshqaruv tartib-taomillarini qonunchilik darajasida mustahkamlash, mavjud qonunlarni zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish zarur.

2. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish – davlat organlarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, axborot tizimlari va platformalarni o‘zaro integratsiyalash kerak.

3. Davlat xizmatchilarining malakasini oshirish – kadrlarni zamonaviy boshqaruv, raqamli savodxonlik va innovatsion yondashuvlar bo‘yicha o‘qitish tizimini kuchaytirish.

4. Fuqarolar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish – davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini oshirish, fikr almashinuvi, ochiq eshiklar kunlari va raqamli platformalarda murojaatlarni tahlil qilish amaliyotini kengaytirish.

5. Xalqaro tajribani tizimli o‘rganish va moslashtirish – rivojlangan mamlakatlar tajribasini O‘zbekiston sharoitiga mos holda o‘rganish va amaliyotga joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tartib-taomillarni ma‘muriy boshqaruvga izchil va tizimli joriy etish orqali davlat boshqaruvining samaradorligi, shaffofligi va fuqaroga yo‘naltirilganligi yanada kuchayadi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun muhim zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Hood, C. (1991). *A Public Management for All Seasons?* *Public Administration*, Vol. 69, Issue 1, pp. 3–19.
2. OECD (2019). *Digital Government Review of Brazil: Towards the Digital Transformation of the Public Sector*. OECD Publishing, Paris.
3. Heeks, R. (2006). *Implementing and Managing eGovernment: An International Text*. SAGE Publications.
4. United Nations E-Government Survey (2022). *The Future of Digital Government*. Department of Economic and Social Affairs, UN.
5. Osmani, I. (2021). “O‘zbekiston Respublikasida raqamli davlat boshqaruv tizimining rivojlanish bosqichlari”. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali*, №5.
6. Boboxo‘jayev, M. (2020). *Davlat boshqaruvi va raqamli transformatsiya: O‘zbekiston tajribasi*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
7. Karimov, I. (2019). “Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida ochiqlik va shaffoflik prinsiplari”. *Ma’naviyat va huquq jurnali*, №3.
8. Alimova, Z. (2022). “Elektron hukumat tizimi orqali davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish”. *Axborot texnologiyalari va boshqaruv ilmiy-amaliy jurnali*, №2.
9. Estoniya Raqamli Jamiyat portalı – <https://e-estonia.com> (murojaat qilingan sana: 2025-yil 10-iyun).
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-sentabrdagi PQ–4851-sonli qarori “2020–2023-yillarda davlat boshqaruv tizimini raqamlashtirish strategiyasi to‘g‘risida”.